1. Geissbauer R., Schrauf S., Koch V. et al. (2014) Industry 4.0 – Opportunities and Challenges of the Industrial Internet assessment // PricewaterhouseCoopers. <https://www.pwc.nl/en/assets/documents/pwcindustrie-4-0.pdf>.
2. Gerbert P., Lorenz M., Rübmann M. et al. (2015) Industry 4.0: The future of productivity and growth in manufacturing industries // BCG. [https://www.bcg.com/publications/2015/engineered\\_products\\_project\\_business\\_industry\\_4\\_future\\_productivity\\_growth\\_manufacturing\\_industries.aspx](https://www.bcg.com/publications/2015/engineered_products_project_business_industry_4_future_productivity_growth_manufacturing_industries.aspx).
3. Herter J., Ovtcharova J. (2016). A Model based Visualization Framework for Cross Discipline Collaboration in Industry 4.0 Scenarios // Procedia CIRP. Vol. 57. P. 398–403.
4. Industrie 4.0: Smart manufacturing for the future (2014) // Germany Trade&Invest. [http://www.academia.edu/21125581/SMART\\_MANUFACTURING\\_FOR\\_THE\\_FUTURE\\_INDUSTRIES\\_4.0\\_Future\\_Markets](http://www.academia.edu/21125581/SMART_MANUFACTURING_FOR_THE_FUTURE_INDUSTRIES_4.0_Future_Markets).
5. Industry 4.0: How to navigate digitization of the manufacturing sector (2015) // McKinsey. <https://www.mckinsey.com/businessfunctions/operations/ourinsights/industry-four-point-o-how-to-navigate-the-digitization-of-the-manufacturing-sector>
6. Meissner H., Ilsena R., Auricha J. C. (2017). Analysis of Control Architectures in the Context of Industry 4.0 // Procedia CIRP. Vol. 62. P. 165–169.
7. Schlaepfer R. C., Koch M., Merkofer P. (2015) Challenges and solutions for the digital transformation and use of exponential technologies // Deloitte. <http://deloitte.com/content/dam/Deloitte/ch>

- /Documents/manufacturing/ch-en/manufacturingindustry-4-0-24102014.pdf.
9. The Factory of the Future. Industry 4.0 – The challenges of tomorrow (2016) //KPMG. URL: <https://assets.kpmg.com/content/dam/kpmg/es/pdf/2017/06/the-factory-of-the-future.pdf>.
  10. Большой экономической словарь. – М.: Институт новой экономики, 1998.
  11. Даль В. Толковый словарь живого великорусского языка. – М.: Терра, 1994
  12. «Индустрия 4.0»: создание цифрового предприятия (2016) // PricewaterhouseCoopers. [https://www.pwc.ru/ru/technology/assets/global\\_industry-2016\\_rus.pdf](https://www.pwc.ru/ru/technology/assets/global_industry-2016_rus.pdf).
  13. Ступаков В.С., Токаренко Г.С., Риск-менеджмент: Учеб. пособие. – М.: Финансы и статистика, 2005. – с. 10.
  14. Тарасов И.В. Технологии индустрии 4.0: влияние на повышение производительности промышленных компаний. Стратегические решения и риск-менеджмент/№2(107) 2018. С. 62-69.
  15. Четвертая промышленная революция – Популярно о главном технологическом тренде XXI века (2017) // Tadviser.URL: <http://tadviser.ru/a/371579>.
  16. <http://www.tadviser.ru/index.php>
  17. <https://mining-media.ru/ru/article/ekonomicheskoe/13423-programmy-industriya-4-0-i-tsifrovaya-ekonomika-rossijskoj-federatsii-vozmozhnosti-i-perspektivy-v-ugolnoj-promyshlennosti>
  18. <https://www.primavista.ru/blog/2016/05/25/yazyiki-interneta-infografika> // 28.02.2023
  19. <https://www.rbc.ru/trends/industry/>



## SANOAT KORXONALARI VA BIZNES FAOLIYATIDA INTEGRATSION AXBOROT TIZIMLARI

F.M.Mulaydinov

Qo'qon universiteti, Raqamli texnologiyalar va matematika kafedrasida mudiri

MAQOLA HAQIDA	АННОТАЦИЯ
<p><b>Qabul qilindi:</b> 24-dekabr 2022-yil <b>Tasdiqlandi:</b> 26-dekabr 2022-yil <b>Jurnal soni:</b> 5 <b>Maqola raqami:</b> 7 <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/ku.v5i5.208">https://doi.org/10.54613/ku.v5i5.208</a></p> <hr/> <p><b>KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ Keywords</b></p> <p>axborot tizimi, biznes sohasida axborot tizimi, B2B, Alibaba, Amazon, Google servislari, axborot tizimlari evolyusiyasi, integratsion axborot tizimi, integratsion axborot tizimi turlari, Internet tarmog'ida tadbirkorlik</p>	<p>Ushbu maqolada axborot tizimlari tushunchasi, sanoat korxonalarini va biznes sohasida axborot tizimlarini joriy etilish sabablari va bosqichlari haqida soha olimlarining fikrlari keltirib o'tilgan. Tadqiqot ishida axborot tizimlarini rivojlantirishning yettita bosqichi va har bir bosqichning o'ziga xos xususiyatlari yoritib berildi. Tadbirkorlik faoliyatini Internet tarmog'ida amalga oshirilayotgan modellari haqida ham so'ngi ma'lumotlar keltirib o'tildi. Shuningdek, integratsion axborot tizimiga ta'rif, integratsion jarayonlarning turlari, axborot tizimlarini integratsiya qilishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar va tizimlar integratsiyasi afzalliklari haqida asosli ma'lumotlar keltirib o'tildi.</p>

**Kirish.** Sanoat korxonalarini bugungi kunda rivojlangan davlatlar iqtisodiyotining asosiy qon tomiri desak adashmaymiz. Ushbu biznes shakli o'z faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish uchun bugungi kunda axborot tizimlariga har qachongidan ko'ra muhtojdir. Kundan-kunga biznes ishini yengillashtirish, samaradorligini va biznes egalari daromadlari oshirish uchun turfa xil axborot tizimlari ishlab chiqilmoqda. Bunda ushbu tizimlarni sinxron tarzda bir butun tizim – integratsion axborot tizimlariga birlashtirish muhim omil hisoblanadi. Quyidagi ushbu sohada qo'llaniladigan ayrim atamalarga ta'rif berib o'tamiz<sup>1</sup>.

Axborot tizimi bo'lsa (AT) axborotni yig'ish, qayta ishlash, saqlash va tarqatish uchun mo'ljallangan rasmiy, ijtimoiy-texnik, tashkiliy tizimdir. Ijtimoiy-texnik nuqtai nazardan axborot tizimlari to'rt komponentdan iborat: vazifa, odamlar, tuzilma (yoki rollar) va texnologiya. Axborot tizimlari ma'lumotlar bilan ta'minlash, korxonalar bilimlariga hissa qo'shish, shuningdek qaror qabul qilishni osonlashtiradigan raqamli mahsulotdir<sup>2</sup>.

Biznes sohasida axborot tizimi - bu yangi biznes strategiyalari va yangi mahsulotlarni taklif qilish uchun axborotni yaratish, o'zgartirish, saqlash, boshqarish va tarqatish uchun mo'ljallangan jarayonlar, texnik vositalar, malakali xodimlar, dasturiy ta'minot, infratuzilma va standartlar to'plami<sup>3</sup>. AT tashkilotda yaxshiroq qaror qabul qilish uchun samarali ish va muloqotni amalga oshirish imkonini beradi. Axborot tizimlari korxonalar va tashkilotlarning maqsadlarini, harakatlarini, mahsulotlarini raqobat muhitida ustunlikka erishishga yordam berish uchun xizmat qiladi.

Bunday natijalarga ega bo'lgan tizimlar hatto biznes tuzilmasini tubdan o'zgartirishi mumkin. Axborot texnologiyalari evolyusiyasi korporativ biznesning yangi strategik modellari ishlab chiqish bilan chambarchas bog'liq. Korxonalarining axborot tizimlari samaradorligini oshirishga intilishi yanada ilg'or texnik va dasturiy ta'minotning paydo bo'lishini rag'batlantiradi, bu esa o'z navbatida foydalanuvchilarni tizimlarni modernizatsiya qilish va avtomatlashtirishga undaydi. Ushbu siklik jarayon o'zgaruvchan bozor sharoitlariga ko'proq adekvat javob berish va minimal xavf bilan maksimal foyda olish uchun amalga oshiriladi. Hozirgi sharoitda sanoat korxonalarini va biznes subyektlari axborot tizimlari bilan uzviy bog'liqdir, chunki korxonalar muvaffaqiyati va uning raqobatbardoshligi ko'p jihatdan zamonaviy texnologiyalardan foydalanish xususiyatlariga bog'liq. O'tkazilgan tadqiqotda umuman axborot tizimlarining evolyusiyasi va ulardan kompaniyalar ehtiyojlari uchun foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Axborot tizimlarini rivojlantirishning yetti bosqichi aniqlanadi, bu bosqichlarning har biriga qisqacha tavsif beriladi: asosiy faoliyat turlari, axborot tizimlaridan foydalanish maqsadi bayon qilinadi; axborotdan foydalanish kontsepsiyasi tushuntiriladi va uning rivojlanishining har bir bosqichi uchun axborot tizimining turi aniqlanadi. Milliy korxonalarda avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini rivojlantirish bosqichlari ko'rib chiqiladi. Xo'jalik yurituvchi subektlarida axborot tizimlarining hozirgi holati tavsiflanadi.

Sanoat jamiyatidan axborot jamiyatiga o'tish hayotning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatlariga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. So'nggi yillarda AT texnologiyalari jamiyatda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, insoniyat taraqqiyotida katta rol o'ynaydi va iqtisodiyot va biznes sohaslarini tubdan o'zgartiradi. Tadbirkorlik faoliyati global Internet tarmog'i muhitida amalga oshiriladi va kompyuterda ishlovchi axborot tizimlarisiz oddiygina xizmat ko'rsatish bilan jarayon hal bo'lmay qoladi. Ushbu tizimlardan foydalanish korxonalarining ishlash uslubini o'zgartiradi va menejrlarga qaror qabul qilishda noaniqlikni kamaytirishga yordam beradi<sup>4</sup>.

Korxonalar va tashkilotlar o'z faoliyatini boshqarish, mijozlar va yetkazib beruvchilar bilan o'zaro aloqa qilishda axborot tizimlariga tayanadi; ular AT-dan bozorda raqobat qilish vositasi sifatida foydalanadilar. Axborot tizimlari tashkilotlararo ta'minot zanjirlarini va elektron bozorlarni boshqarish uchun ishlatiladi. Shunday qilib, AT yordamida korporatsiyalar moliyaviy hisoblarni qayta ishlaydi, inson resurslarini boshqaradi va Internetda reklama kompaniyalari orqali potensial mijozlarni jalb qiladi.

Bugungi kunda ko'pgina yirik kompaniyalar butunlay axborot tizimlari atrofida qurilgan. Bularga quyidagilar misol keltirsak bo'ladi: eBay - auksion platformasi; Amazon - elektron tijorat platformasi va bulutli hisoblash xizmatlarini ko'rsatuvchi provayderdir; Alibaba - B2B elektron bozori; Google o'z daromadining katta qismini kalit sozlarini reklama qilishdan oladigan qidiruv tizimi korporatsiyasidir.

Turli mamlakatlar hukumatlari fuqarolarga tejamkor xizmatlar ko'rsatish uchun axborot tizimlarini joriy etib, "elektron hukumat" deb ataladigan tizimni yaratmoqda. Jismoniy shaxslar shaxsiy vaqtlarining katta qismini axborot tizimlariga bag'ishlaydilar: aloqa, ta'lim, xarid qilish, bank, o'yin-kulgi va boshqalarni bunga misol sifatida keltirish mumkin.

Axborot tizimlarining mohiyati, tasnifi, turlari va rivojlanish bosqichlarini o'rganishga ko'plab milliy va xorijiy olimlarning ishlari bag'ishlangan bo'lib, ular orasida Salvatore Mart, Jerald Smit, Xevner Mart, Park Ram, I.Benbasat, R.Zmud, S.Avgeru, R.Agarval, X.Lukas, O.E

<sup>1</sup> M.Butaboev, F.Mulaydinov, G.Zaxidov, X.Sattarova. Raqamli iqtisodiyot. Darslik, 2-to'ldirilgan nashr. Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi. Toshkent, 2021. 606 bet.  
<sup>2</sup> [https://en.wikipedia.org/wiki/Information\\_system](https://en.wikipedia.org/wiki/Information_system)

<sup>3</sup> Тарасова К. И. Эволюция информационных систем в экономике. БИЗНЕСИНФОРМ № 4, 2020. 289-295 стр.

<sup>4</sup> Тарасова К. И. Эволюция информационных систем в экономике. БИЗНЕСИНФОРМ № 4, 2020. 289-295 стр.



Savi, O.Mansur, A.Gazavneh, N.Kok, P.Grey, R.Xoving, X.Klein, M.Mers, J.Roskart, A.Golitsin, I.Gutenberg, I.Ushakova, G.Fedorov, V.Qobulov, S.S.Gulyamov, K.X.Abdurahmonov, R.H.Ayupov, O.M.Abdullaev, G.R.Baltabaeva, O.Umarovlarni ishlarini alohida tadqiq qilish maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, belgilangan mavzularga bag'ishlangan ilmiy ishlar soni ortib borayotganiga qaramay, AT ning mohiyati va uning tadbirkorlik faoliyatidagi o'rni haqidagi ba'zi savollar hal etilmagan.

Axborot tizimi - bu yangi biznes strategiyalari va yangi mahsulotlarni taklif qilish uchun axborotni yaratish, o'zgartirish, saqlash, boshqarish va tarqatish uchun mo'ljallangan jarayonlar, texnik vositalar, malakali xodimlar, dasturiy ta'minot, infratuzilma va standartlar to'plami. Bu tashkilotda yaxshiroq qaror qabul qilish uchun samarali ish va samarali muloqotni ta'minlaydi.

**Adabiyotlar tahlili.** Ko'pgina olimlar birinchi avtomatlashtirilgan AT o'tgan asrning 50-yillarida paydo bo'lgan degan nuqtai nazarga amal qilishadi<sup>567</sup>. Bu davrda yangi tashkiliy tuzilmalarning yaratilishi va boshqaruv mexanizmlarining takomillashtirilishi iqtisodiyotni tartibga solishdagi kuchayib borayotgan qiyinchiliklarni va shunga mos ravishda yo'qotishlarning oshishini bartaraf etishga imkon bermagan vaziyat vujudga keldi. Ushbu vaziyatni hal qilish axborotni qayta ishlash sohasida mehnat unumdorligini tubdan oshirish tufayli mumkin bo'ldi.

V. Nijnik, D. Terexova, G. Fedorova va boshqalar<sup>8910</sup> ma'lumotlariga ko'ra, aynan shu davrda avtomatlashtirilgan axborot tizimlari ishlab chiqila boshlandi, ular schot-fakturalar, schot-fakturalar berish, ish haqi jadvalarini tuzish, hisoblash, ish haqi va boshqa buxgalteriya operatsiyalari uchun mo'ljallangan. Bu qog'oz hujjatlarni tayyorlash uchun sarf-xarajatlarni tejash va vaqtni qisqartirish imkonini berdi. Bunday ma'lumotlarni qayta ishlash uchun foydalanilgan birinchi kompyuterlardan biri 1951 yilda AQSh aholini ro'yxatga olish byurosida ma'muriy maqsadlarda foydalanish uchun o'rnatilgan UNIVAC I va 1954 yilda General Electric kompaniyasida tijorat maqsadlarida foydalanish uchun o'rnatilgan kompyuterlar edi.

O'z navbatida, biz bir oz boshqacha nuqtai nazarni qo'llab-quvvatlaymiz, bu Ferli Dikinson universitetining kompyuter fanlari va axborotni boshqarish bo'yicha taniqli professori V. Svazs tomonidan ifodalanadi. V. Svazsning ta'kidlashicha, axborot tizimlarini avtomatlashtirish elementlari ancha oldin - 15-asr o'rtalarida I. Gutenberg bosmaxonasi ixtiro qilinishi bilan paydo bo'lgan va 17-asrda B. Paskal mexanik kalkulatori ixtirosi bilan davom etgan. Ushbu ixtirolar ma'lumot va bilimlarni yozib olish, qayta ishlash, tarqatish va qo'lga kiritish borasida chuqur inqilobga olib keldi. Birinchi yirik avtomatlashtirilgan axborot tizimi 1890-yilda AQSh aholini ro'yxatga olish uchun ixtiro qilingan G. Xolleritning aholini ro'yxatga olish jadvali bo'ldi. G. Gollerit mashinasi axborot tizimlarini avtomatlashtirish jarayonidagi asosiy qadam, shuningdek, kompyuterlashtirilgan AT ni rivojlantirish uchun ilhom manbai bo'ldi<sup>11</sup>.

Shunday qilib, bizning fikrimizcha, AT avtomatlashtirish rivojlanishining birinchi davri 15-asr o'rtalaridan 20-asr o'rtalarigacha bo'lgan davr va o'tgan asrning 50-yillaridan avtomatlashtirishning ikkinchi davri boshlangan.

Axborot tizimlarining rivojlanishidagi uchinchi bosqich 1960-yillar bo'lib, bu davrda kompyuter texnologiyalari yanada rivojlandi: dasturlash tillari takomillashtirildi, operatsion tizimlar va disk texnologiyalari paydo bo'ldi. Avtomatlashtirishning rivojlanishi tufayli korxonadagi turli jarayonlar, jumladan, hujjatlarni tayyorlash jarayonlari optimallashtirildi. ATga bo'lgan munosabat tubdan o'zgarib bordi hamda axborot tizimlari yordamida olingan ma'lumotlar davriy hisobot uchun keng foydalanildi. Qaror qabul qiluvchilarga qaratilgan maxsus hisobot tizimlari ishlab chiqildi<sup>12</sup>.

Evolusiyaning uchinchi bosqichidan boshlab menejerlar va biznes rahbarlari iqtisodiy samarani olishni boshladilar, bu axborotni

qayta ishlash xarajatlarining pasayishi va ma'lumotlarni tahlil qilish imkoniyatlarining oshishida namoyon bo'ldi.

Avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini rivojlantirishning keyingi - to'rtinchi bosqichi ma'lumotlar bazalari texnologiyasi va ularni interfaol qayta ishlash vositalari rivojlanayotgan 1970 yillardir. Yangi axborot texnologiyalarining rivojlanishi qarorlarni qo'llab-quvvatlash tizimlarining paydo bo'lishi uchun sharoit yaratdi. Ko'pgina asosiy kompyuterlar tobora murakkab bo'lgan vazifalarni bajarish uchun tarmoqqa ulana boshlandi, bu esa kompyuter markazlari o'rtasidagi pochta lentalariga qaraganda kamroq mashaqqatli jarayon orqali muloqot qilish zarurligiga olib keldi. Ushbu ehtiyojga javoban AQSh Mudofaa vazirligining ilg'or tadqiqot loyihalari agentligi (DARPA) harbiy ma'lumotlar almashinuvini qo'llab-quvvatlash uchun tarmoq aloqa tizimini yaratish imkoniyatlarini o'rganishga kirishdi va L. Roberts ARPANET deb nomlangan loyihani ishlab chiqmoqda, bu esa Internetning paydo bo'lishi uchun qo'yilgan dastlabki qadam edi<sup>13</sup>.

Rivojlanishning beshinchi bosqichi 80-yillarga to'g'ri keladi. Sanoat korxonalari, biznes sub'ektlari, korxonalar va tashkilotlarning idoralari turli xil kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalana boshlagan XX asr, axborot tizimlarining ko'lamini kengaytirdi. Ular sanoat korxonalari, biznes sub'ektlari, korxonalar faoliyatini boshqaruvchi nazorat qilish, qarorlar qabul qilish jarayonini qo'llab-quvvatlash va tezlashtirish vositasi sifatida keng qo'llanila boshlandi. Bu davrni axborot texnologiyalari xo'jalik yurituvchi subektlar uchun yangi rol o'ynay boshlaganligi bilan ham tavsiflash mumkin: axborot tizimlari strategik qurol sifatida qabul qilindi. Ushbu davrdagi AT zarur ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etib, tashkilotga o'z faoliyatida muvaffaqiyatga erishishga, yangi mahsulot va xizmatlarni yaratishga, yangi bozorlarni topishga, munosib sheriklar bilan hamkorlikni ta'minlashga, mahsulotlarni arzon narxlarda chiqarishni tashkil etishga va boshqalarga yordam berdi.

Aynan shu bosqich, yuqorida G. Fedorova, O. Golitsina va N. Maksimov tomonidan tasvirlangan 90-yillarda tugamagan, ammo hozirgi kungacha davom etayotgan avtomatlashtirilgan AT rivojlanishining eng so'nggisi deb ataladi. I. Ushakova AT rivojlanishining so'nggi bosqichi 90-yillardan boshlab hozirgi kungacha davom etayotgan davr deb hisoblaydi. Bu davrda axborotni taqsimlash texnologiyasi yutuqlariga asoslangan zamonaviy avlod axborot tizimlari yaratildi.

**Tadqiqot natijalari.** Bizningcha ham, o'z navbatida, axborot texnologiyalaridagi jadal o'zgarishlar hozirgi kunga qadar AT rivojlanishining bosqichma-bosqichligini davom ettirmoqda, degan fikrdamiz. Shunday qilib, biz 1990-yillardan 2000-yillargacha bo'lgan davrni avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini rivojlantirishning oltinchi bosqichi deb hisoblaymiz: 1991 yilda Qo'shma Shtatlarda Internetdan tijorat maqsadlarida foydalanishga cheklov olib tashlandi va allaqachon 1994 yilda yangi raqamli bozorning ikkita dastlabki o'yinchilari eBay va Amazon ning veb saytlari ishga tushurildi. Internet-biznesga investitsiyalarning katta miqdordagi oqimi asr oxirida dot com bumiga olib keladi. Ushbu davrdagi axborot tizimlari kerakli ma'lumotlarni o'z vaqtida ta'minlab, korxonaga o'z faoliyatida muvaffaqiyatga erishishga, o'zini ishonchli sheriklar bilan ta'minlashga, yangi mahsulotlarni yaratishga, yangi bozorlarni topishga va boshqalarga yordam beradi. ATning maqsadi shunchaki ma'lumotlarni qayta ishlash samaradorligini oshirish va menejerga yordam berish emas; bu tizimlar korxonalariga raqobatlashish va ustunlikka erishishga yordam beradi<sup>14</sup>.

Yettinchi va oxirgi bosqich, bizning fikrimizcha, 2000-yillarning boshlariga to'g'ri keladi. va hozirgi kungacha davom etmoqda.

Axborot tizimlarining rivojlanish bosqichlarini tizimlashtirish va ularning asosiy xususiyatlari quyidagi jadvalda aks etgan.

<sup>5</sup> Грицунов О. В. Информационные системы та технології : навч. посіб. для студентів за напрямом підготовки «Транспортні технології». Харків : ХНАМГ, 2010. 222 с.

<sup>6</sup> Навчально-методичний посібник для самостійної роботи та практичних занять з навчальної дисципліни «Сучасні інформаційні системи та технології» (галузь знань 0302 «Міжнародні відносини», освітньо-кваліфікаційний рівень «Бакалавр», напрям підготовки 6.030202 «Міжнародне право») / уклад.: В. Г. Іванов, С. М. Іванов, та ін. Харків: Нац. юрид. ун-т ім. Ярослава Мудрого, 2014. 129 с

<sup>7</sup> Ушакова І. О., Плеханова Г. О. Інформаційні системи та технології на підприємстві : конспект лекцій. Харків : Вид-во ХНЕУ, 2009. 128 с.

<sup>8</sup> Осланова С. Б., Кайгородцев А. А. Проектирование систем управления. Вестник КАСХ. 2006. № 4. С. 32-38.

<sup>9</sup> Голицына О. Л., Максимов Н. В. Информационные системы. М.: ММИЭИФП, 2004. 329 с.

<sup>10</sup> Нижник В. М., Терехов Д. С. Еволюція розвитку інформаційних систем та інформаційних технологій в управлінні підприємствами. Вісник Хмельницького національного університету. 2009. № 5. С. 220-223.

<sup>11</sup> Information system. Encyclopedia Britannica. URL: <https://www.britannica.com/topic/information-system>

<sup>12</sup> Федорова Г. Н. Информационные системы: учебник для студ. учреждений сред. проф. образования. М.: Академия, 2013. 208 с.

<sup>13</sup> Introduction to information security. URL: [http://www.cengage.com/resource\\_uploads/downloads/1111138214\\_259146.pdf](http://www.cengage.com/resource_uploads/downloads/1111138214_259146.pdf)

<sup>14</sup> Information systems for business and beyond. URL: <https://resources.saylor.org/wwwresources/archived/site/textbooks/Information%20Systems%20for%20Business%20and%20Beyond.pdf>

Davr	Asosiy faoliyat turlari	Tadbirkorlar tomonidan foydalanish maqsadlari	Axborotdan foydalanish konsepsiyasi	Axborot tizimlari turlari
XX asr o'rtalari	Aloqa xatlar, paketlar, jo'nat-malarni o'tqazish orqali yetkazib berish orqali amalga oshiriladi.	Ma'lumotni to'g'ri shaklda uzatish	Boshlang'ich qo'lda hisoblash vositalari	Ma'lumotlarni uzatishning elementar axborot tizimlari
1950–1960 yy.	"Mexanik" texnologiyalar: yozuv mashinasi, qo'shish mashinasi, telegraf, telefon, ovoz yozish moslamasi, yanada rivojlangan yetkazib berish vositalari bilan jihozlangan pochta	Hujjatlarni qayta ishlash tezligini oshirish. Standart hisob tartib-qoidalarini soddalashtirish	Hisob-kitob hujjatlari-ning qog'oz aylanishi	Elektromexanik buxgalteriya mashinalarida hisob-kitob hujjatlarini qayta ishlash uchun axborot tizimlari
1960–1970 yy.	"Elektr" texnologiyalari: birinchi trubkali kompyuterlar, elektr yozuv mashinalari, teletayp-lar, nusxa ko'chirish mashinalari, por-tativ ovoz yozish moslamalari	Buxgalteriya hisobi va hisobot berish jarayonini tezlashtirish	Hisobotlarni tayyorlashda asosiy yordam	Axborotni qayta ishlash uchun boshqaruv axborot tizimlari
1970–1980 yy.	Meynfreym kompyuterlardan foydalanish. Kompyuterlar va ma'lumotlarni markazlashtirish. Asosiy e'tibor mavjud jarayon-larni avtomatlash-tirishga qaratilgan	Mahsulotlarni sotish bo'yicha boshqaruv nazorati	Eng oqilona qaror qabul qilish	Qarorlarni qo'llab-quvvatlash tizimlari
1980–1990 yy.	O'rnatilgan shaxsiy kompyuterlar va mahalliy tarmoqlar. Bo'limlar o'zlarining kompyuter tizimlarini yaratadilar.	Biznes imkoniyatlarini boshqarish	Korxonani rivojlantirish strategiyasini boshqarish	Yuqori boshqaruv tizimlari
1990–2000 yy.	Keng polosali tarmoqlari (WAN) korporativ standartlarga aylandi. Yuqori boshqaruv tizimlarni integ-ratsiyalash va ma'lumotlarni integratsiya qilish yo'llarini topildi. Avtonom tizimlar tugatildi. Asosiy e'tibor markaz-lashtirilgan nazorat va korporativ ta'limga qaratilgan	To'g'ri ma'lumot, hamkorlar, yangi bozorlar va boshqalarni topish.	Bozorda afzalliklarga ega bo'lish	Yuqori boshqaruv tizimlari
2000 – hozirgi vaqt	Internet tarmog'i, jumladan, global korxonalar va biznes hamkorlar orqali keng polosali tarmoqlari kengaydi. Yuqori rahbariyat tizimlar o'rtasida ma'lumot-larni almashish yo'llari ta'minlandi. Ishlab chiqarish va tarqatishda samarador-lik va tezlikka e'tibor qaratildi.	Korxonaning mavqeini saqlab qolish va uning raqobatdosh ustunlik-larini rivojlantirish	Axborot raqobatdosh ustunlikni ta'minlovchi strategik resurs sifatida	Strategik axborot tizimlari, avtomatlashtirilgan idoralar

MDH va G'arb mamlakatlarida boshqaruv axborot tizimlarining rivojlanishi tarixiy sharoitlar tufayli sezilarli farq mavjud bo'lib, bunga sabab esa jarayonlarni turli yo'llar bilan amalga oshirilishi hisoblanadi.

Sobiq sovet ittifoqi davlatlari rejalashtirish tizimi inson, moddiy, moliyaviy va boshqa resurslarni qat'iy tartibga solish va taqsimlashni amalga oshirdi, buning natijasida korxonalar rahbarlari moddiy va moliyaviy oqimlarni tejash va optimallashtirish uchun hech qanday rag'batlantirmadilar. Ma'lumki, kapitalistik jamiyatga mutlaqo boshqa xususiyatlar xos bo'lib, oqilona foydalanish vazifasi birinchi o'rinda turadi. Shunday qilib, G'arbda AT ning rivojlanishi aniq ratsionallik va inventarni boshqarish tizimlaridan boshlandi.

MDH da axborot tizimlarini joriy etish korxonalarining buxgalteriya hisobi va kadrlar bo'limidan boshlangan va bu jarayonning boshlanishi XX asrning 50-yillarga to'g'ri kelgan. Biroq, o'n yil o'tgach, ma'lumotlar ko'plab parametrlar bo'yicha davriy hisobot uchun foydalanila boshlandi, buning uchun kompyuter dasturlari zarur bo'ldi.

Aynan o'sha paytda mahalliy universal raqamli kompyuterlar asosida avtomatlashtirilgan AT larni yaratish bo'yicha ishlar olib borildi. Korxonalar uchun birinchi tizim 1965-1967 yillarda ishlab chiqilgan Lvov Elektron zavodida joriy etilgan Lvov avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimining avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi (ABT) edi.

Boshqa yirik AT va ABT yaratish sohasidagi ishlar O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi V.Q. Qobulov boshchiligidagi Kibernetika institutida olib borildi va optimallashtirish usullari milliy maktabining yaratilishiga olib keldi. Ularning ishi nafaqat mamlakatda, balki chet elda ham tan olingan. V.Q. Qobulov yaratgan algoritmlash va raqamli texnologiyalar sohasidagi izlanishlarning natijalari xam dunyo miqyosida ma'lumdur. Uning algoritmlash sohasidagi bunyod etgan ilmiy asarlari hozirgi kunda respublikamizning oliy va o'rta o'quv yurtlarida, umum talim maktablarida o'qitilib kelinmoqda. Ushbu olim tashabbusi bilan respublikamizning qator oliy o'quv yurtlarida raqamli texnologiya

<sup>1</sup> К. И. Тарасова жадвали

va sun'iy tafakkurga oid kafedralar, fakultetlar tashkil etilgan bo'lib hozirgi kunda faoliyat ko'rsatib kelmoqda<sup>1</sup>.

1970-1980 yillarda AT boshqaruvni boshqarish vositasi sifatida keng qo'llaniladi, korxonada kompleks avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari yaratilgan bo'lib, unda yangi mahsulotlarni avtomatlashtirilgan loyihalash, ishlab chiqarish jarayonini texnologik tayyorlash, tayyor mahsulotlarni sinovdan o'tkazishni avtomatlashtirish va tashkiliy boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish vazifalari hal etiladi.

80-yillarning oxiriga kelib, axborot tizimlaridan foydalanish konsepsiyasi asta-sekin o'zgarib bormoqda: AT barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning faoliyati va boshqaruvida, ularning profilidan qat'i nazar, ma'lumotlarning strategik manbai sifatida qo'llaniladi. Bu davrning axborot tizimlari yangi bozorlarga yordam berish, yangi tovar va xizmatlarni yaratish, kontragentlar haqida ma'lumot berish va ularning ishonchligini baholash, ishlab chiqarishni arzon narxlarda tashkil etishda yordam beradi<sup>2</sup>.

Biroq, ABT metodologiyasini katta va kichik kompyuterlardan shaxsiy kompyuterlarga o'tkazish deyarli sodir bo'lmadi. Bu xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy resurslari juda cheklangan davr 1980-1990 yillardagi iqtisodiy sharoitda katta harajatlarni talab qilardi. Shu sababli, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimining vazifalari kompleksini texnik jihatdan o'tkazish mumkin bo'lgan hollarda ham, uzoq vaqt davomida bozor tomonidan to'liq talab qilinmadi, bu esa mavjud milliy dasturiy ta'minotning ma'naviy eskirishiga olib keldi. Sovet Ittifoqi parchalanganidan keyin yanada ilg'or xorijiy texnologiyalar paydo bo'la va foydalanila boshlandi.

Mamlakatimizda AT rivojlanishining hozirgi holatini quyidagicha ta'riflash mumkin: kuchli tomonlarga inson kapitali omillari (kattalar savodxonligi va oliy ta'limning qamrovi), mobil aloqa va Internetning arzonligi kiradi, bu albatta AT rivojlanishiga hissa qo'shadi. Shu bilan birga, ichki bozor rivojlanmagan, AKT sohasini moliyalashtirish talab darajasidan ancha past, huquqiy tizim samarasiz, tadbirkorlik sub'ektlari va davlat organlari axborot texnologiyalarini joriy etishga moyil emas<sup>3</sup>.

Zamonaviy korxonalarda axborot tizimlarini rivojlantirishning eng so'nggi bosqichi moliyaviy-iqtisodiy boshqaruvning integratsiyalashgan avtomatlashtirilgan tizimini - zamonaviy texnologiyalardan foydalanilgan holda olingan ishonchli va sifatli ma'lumotlar asosida ongli qarorlar qabul qilishni ta'minlaydigan korporativ axborot tizimini (KAT) joriy etishdir. Korporativ axborot tizimlari yagona axborot maydoni asosida qurilgan va buxgalteriya hisobining barcha turlarini yuritishni ta'minlaydi va shu bilan korxonani boshqarish jarayonlarining butun majmuasini muvofiqlashtiradi<sup>4</sup>.

Korporativ axborot tizimlari korxonada boshqaruvning operatsion, funksional va strategik barcha darajalarini qamrab oladi. MDH bozordagi barcha KAT xo'jalik yurituvchi sub'ektning buxgalteriya xizmatidan rivojlanishni boshlagan. Bu sohada eng keng tarqalgan dasturiy mahsulot bu - 1C dasturlari (buxgalteriya hisobi, ish haqi, xodimlar, savdo, korxonada) dir. Rivojlanishning bu davrida boshqa ishlab chiqaruvchilarning dasturiy mahsulotlar - "BEST", "Parus" va "Galaktika" ham realizatsiya qilindi. Bugungi kunga kelib, Oracle Applications, JD Edwards, MFG-Pro, Axapta, Concorde XAL, BEST, INFIN va boshqalar kabi korxonada amalga oshirish uchun milliy boshqaruv dasturlarining katta tanlovi mavjud. Shu bilan birga, mamlakatimizda axborot tizimlari jadal rivojlanayotganiga qaramay, aksariyat milliy korxonalarda mahalliy mahsulotlar haligacha joriy etilmayapti.

Boshqa mamlakatlardan farqli o'laroq, yurtimizda AT lar evolyusiyasining so'nggi bosqichida KAT ni joriy etishda kechikishning asosiy sabablari quyidagilardir:

tanlangan AT mo'ljallangan ehtiyojlar bilan taqqoslaganda korxonada ehtiyojlariga mos kelmasligi;

xo'jalik yurituvchi sub'ektning tarmoq xususiyatlarini hisobga olmagan holda axborot tizimini tanlash;

ishlab chiqarish rivojlanishidan ko'ra axborot texnologiyalari rivojlanishidan orqada qolish.

Shunday qilib, O'zbekistonda Davlat statistika xizmati tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, 2020-yilda respublika korxonalarining atigi 57 foizi o'z faoliyatida kompyuter texnologiyalaridan foydalanilgan,

kompyuterga ega bo'lganlarning 21,1 foizi internet tarmog'idan foydalanadi<sup>5</sup>, xo'jalik yurituvchi subektlarning atigi 0,3 foizi bulutli hisoblash xizmatlaridan foydalangan, 0,1% litsenziyalangan KAT dasturlari, 0,7% ijtimoiy tarmoqlardan foydalangan.

Taqqoslash uchun, Yevropa Ittifoqining aksariyat mamlakatlarida korxonada faoliyatida kompyuterlardan foydalanish ulushi 100,0% ni tashkil etadi, ulardan 97,0% tarmoqqa kirish imkoniyatiga ega, 77,0% ijtimoiy tarmoqlardan, 26,0% KAT dasturiy ta'minotidan foydalanadi<sup>6</sup>. Milliy kompaniyalar faoliyatida AT evolyusiyasi imkoniyatlaridan foydalanishning bunday kechikishi G'arb hamkorlariga nisbatan korxonada boshqaruvining past samaradorligiga sabab bo'ladi va milliy hududlarda axborot tizimlarini rivojlantirishning yakuniy bosqichi emas, balki so'nggi bosqichi degan xulosaga olib keladi va bu biznes yuritishning milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda davom etishini anglatadi.

**Integratsion axborot tizimlari haqida tushuncha.** Axborot tizim va biznesda axborot tizimlarini hamda axborot tizimlarini shartli evolyusiyasini bilib oldik. Xo'sh integratsion axborot tizimi o'zi nima degan savolga javob berib o'tsak.

Tizim integratsiyasi muhandislikda tarkibiy qismlarning quyi tizimlarini bir tizimga birlashtirish jarayoni (tizim keng qamrovli funktsionallikni ta'minlashi uchun hamkorlik qiladigan quyi tizimlar yig'indisi) va quyi tizimlarning tizim sifatida birgalikda ishlashini ta'minlash jarayoni sifatida aniqlanadi, va axborot texnologiyalarida turli xil hisoblash tizimlari va dasturiy ta'minot ilovalarini jismoniy yoki funksional jihatdan bir-biriga bog'lash jarayoni sifatida muvofiqlashtirilgan bir butun sifatida harakat qilish tushuniladi<sup>7</sup>.

Demak, **integratsion axborot tizimi** – bu korxonada faoliyatida qo'llanilgan turli axborot tizimlarini yaxlit axborot tizimi sifatida birlashtirilgan, sinxron tarzda ishlovchi axborot tizimi hisoblanadi<sup>8</sup>.

Juda keng ma'noda tizim integratsiyasi - bu turli kichik tizimlarni (komponentlarni) bitta bo'lib ishlaydigan yagona kattaroq tizimga ulash jarayoni. Dasturiy ta'minot yechimlariga kelsak, tizim integratsiyasi odatda har xil AT tizimlari, xizmatlari va/yoki dasturiy ta'minotning barchasini birgalikda funktsional ishlashini ta'minlash uchun bir-biriga bog'lash jarayoni sifatida tushuniladi.

Tashkilotlarning tizim integratsiyasidan foydalanishining asosiy sababi - bu ularning o'z faoliyati samaradorligi va sifatini oshirish zarurati. Maqsad tashkilotlarni turli AT tizimlarini integratsiya orqali "bir-birlari bilan gaplashish" imkoniyatini taqdim etish, axborot oqimini tezlashtirish va tashkilot uchun operatsion harajatlarni kamaytirishdir. Ammo tizim integratsiyasi nafaqat tashkilotning ichki tizimlarini, balki tashkilot bilan ishlaydigan uchinchi tomonlarni ham ulash uchun ishlatiladi.

**Tizimlarni integratsiya qilish usullari.** Tizim integratsiyasining odatiy usullari quyidagi toifalarga bo'linadi:

**Nuqtadan-nuqtaga integratsiyasi.** Nuqtadan-nuqtaga integratsiya (yoki nuqtadan-nuqtaga ulanish) tizim integratsiyasi emas, deb bahslashish mumkin, chunki bu yerda faqat ikkita tizim komponenti mavjud. Biroq, u «haqiqiy» tizim integratsiyasining murakkabligidan mahrum bo'lsada, ular birgalikda ishlashi uchun tizimni boshqa tizimga bog'laydi. Odatda, bunday nuqtadan-nuqtaga integratsiya faqat bitta funktsiyani bajaradi va hech qanday murakkab biznes mantiqini o'z ichiga olmaydi. Ko'pgina bulutga asoslangan ilovalar eng keng tarqalgan AT tizimlari uchun ishlab chiqarilgan, «qutidan tashqari» integratsiya modullari sifatida ushbu turdagi nuqtadan-nuqtaga integratsiyani taklif qiladi.

**Vertikal integratsiya.** Vertikal integratsiya usulida tizim komponentlari (quyi tizimlar) asosiy pastki funktsiyadan yuqoriga qarab funktsional «bunkerlar» yaratish orqali birlashtiriladi. Bu, odatda, nisbatan sodda va oson usul bo'lib, u faqat cheklangan miqdordagi tizimlarni (ikkita ortiq) o'z ichiga oladi, ammo boshqa tomondan, bu integratsiya usuli qat'iy va uzoq muddatda boshqarish qiyinroq, chunki har qanday yangi funktsionallik o'zining funktsional «bunkerini» ni talab qiladi. Shunga qaramay, bu usuldan faqat bitta funktsiyaga murojaat qilish kerak bo'lgan oddiy integratsiyalarni yaratish uchun samarali foydalanish mumkin.

<sup>1</sup> <https://nuz.uz/uz/zhamoat/1196103-munosib-ba%D2%B3o>

<sup>2</sup> Этапы развития информационных систем // Хелликс.Орг – Интернет помощник. URL: <https://helpiks.org/5-32285.html>

<sup>3</sup> Информационные технологии в Украине: колос на глиняных ногах // Duo. URL: <https://dou.ua/lenta/articles/it-in-ukraine/>

<sup>4</sup> Беликов Ю. В. Обзор современных подходов к бизнес-процессам в организации. Молодой ученый. 2017. № 43 (177). С. 137–139. URL: <https://moluch.ru/archive/177/46087/>

<sup>5</sup> <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/raqamli-iqtisodiyot>

<sup>6</sup> Eurostat. URL: <https://ec.europa.eu/eurostat/web/main/home>

<sup>7</sup> [https://en.wikipedia.org/wiki/System\\_integration](https://en.wikipedia.org/wiki/System_integration)

<sup>8</sup> Муаллиф таърифи.



**Yulduzli integratsiya.** Yulduzli integratsiya deganda har bir kichik tizim nuqtadan-nuqtaga ulanishlar yordamida boshqa quyi tizimlar bilan bog'langan tizim tushuniladi. Bu ko'proq funktsionallikni ta'minlaydi, ammo integratsiyalashgan tizimlar soni ortib borishi bilan integratsiya soni ham sezilarli darajada oshadi va integratsiyalarni boshqarish juda talabchan bo'ladi. Misol tariqasida, ushbu usul yordamida o'nta tizimni bir-biriga ulash uchun 45 ta alohida integratsiya kerak bo'ladi va har safar bitta tizimda o'zgarishlar yuz berganda, to'qqizta ulanishni qayta bajarish kerak bo'lishi mumkin. Yulduzli integratsiya "Spagetti kodi" ga o'xshash bo'lgani uchun, ba'zan "Spagetti integratsiyasi" deb ham ataladi.

**Gorizontal integratsiya.** Gorizontal integratsiyada barcha kichik tizimlar orasidagi umumiy interfeys qatlami sifatida alohida kichik tizim ishlatiladi. Ko'pincha bu qatlam Korxonada Servislari Shinasi (Enterprise Service Bus (ESB)) deb ataladi. Ushbu usul har bir kichik tizimga umumiy interfeys qatlamiga ulangan barcha boshqa kichik tizimlar bilan aloqa qilish uchun faqat bitta interfeysga ega bo'lish imkonini beradi (ya'ni, o'nta tizim bilan faqat o'nta ulanish mavjud). Ushbu usulning afzalligi shundaki, har bir kichik tizim boshqa tizimlarning interfeyslarini qayta ishlabmasdan o'zgartirishi yoki hatto almashirishi mumkin.

**Umumiy ma'lumot formatlari integratsiyasi.** Turli AT tizimlarini bir-biriga integratsiya qilish odatda bitta tizimdan chiqadigan ma'lumotlarni qabul qiluvchi tizim tomonidan qo'llaniladigan boshqa ma'lumotlar formatiga o'zgartirishni talab qiladi. Yulduzli integratsiyada bo'lgani kabi, har bir transformatsiyani tizim bo'yicha amalga oshirish kerak bo'lsa, ma'lumotlarni o'zgartirish soni sezilarli darajada oshadi va yuqori texnik xizmatga aylanadi. Ushbu muammoni hal qilish uchun ma'lumotlar formatining umumiy yondashuvi har bir tizimga faqat bitta ma'lumotni o'zining mahalliy formatidan umumiy formatga (va aksincha) aylantirish imkonini beradi. Shunday qilib, kerakli ma'lumotlarni o'zgartirish soni quyi tizim sonidan kattaroq bo'ladi<sup>9</sup>.

**Muhokama. Integratsiya muammolari.** Tizim integratsiyasi tashkilotlar uchun qiyin bo'lishi mumkin va bu qiyinchiliklar yangi dasturiy echimlarni joriy qilgandan so'ng ularning umumiy investitsiya daromadini kamaytirishi mumkin. Ushbu qiyinchiliklardan ba'zilari ishonchning etishmasligi va boshqa kompaniyalar bilan ma'lumotlarni almashish istagi, turli operatsiyalarni uchinchi tomonga outsorsing qilishni istamaslik, aniq aloqa va mas'uliyatning yo'qligi, funktsionallik qayerda joylashishi kerakligi haqida hamkorlarning kelishmovchiligi, ma'lumotlar ombori va umumiy API standartlari, integratsiyaning yuqori narxi, yaxshi kadrlarni topishda qiyinchiliklarni o'z ichiga oladi<sup>10</sup>. Bu qiyinchiliklar "kompaniyalar ichida va o'zaro biznes tizimlari integratsiyasini joriy etishda to'sqinlik qiladi yoki sekinlashtiradigan" to'siqlarni keltirib chiqaradi<sup>11</sup>. Aniq aloqa va soddalashtirilgan axborot almashinuvi biznes talablarini qo'llab-quvvatlaydigan uzoq muddatli tizim integratsiyasini yaratishning asosiy elementlari hisoblanadi.

**Integratsiyaning afzalliklari.** Boshqa tomondan, tizim integratsiyasi loyihalari juda foydali bo'lishi mumkin. Eskirgan, eski tizimlar uchun integratsiyaning turli shakllari real vaqtda ma'lumotlarni

almashish imkonini beradi. Bu, masalan, nashriyot va obunachi ma'lumotlarini tarqatish modellarini, konsolidatsiyalangan ma'lumotlar bazalarini, voqealarga asoslangan arxitekturalarni faollashtirishi, foydalanuvchi ma'lumotlarini qo'lda kiritishni kamaytirish (bu xatolarni kamaytirishga yordam beradi), ilovaning old qismini (front-end) yangilash yoki modernizatsiya qilish, shuningdek eski qimmat operatsion tizimlarda bajarilayotgan so'rovlar va hisobotlarni yuklanishlarini yangi arzon standart tizimlarga o'tkazish imkonini beradi. Odatda, integratsiya loyihasing sa'y-harakatlariga arziydimi yoki yo'qligini aniqlashga yordam berish uchun keng ko'lamli xarajat-foйда tahlili o'tkaziladi.

**Xulosa va takliflar.** Bugungi sanoat korxonalarini kechagisidan tubdan farq qiladi. Oldingi davrda bir joyda uzoq muddat turg'un savdoni amalga oshirgan va mijozlarni keskin o'zgarishi deyarli kuzatilmagan bo'lsa, tadbirkorlik muhiti joy va makon tanlamaydi va mijozlarni turli zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) vositalari orqali jalb qilgan holda katta daromad topish imkoniyatiga ega. Faqat, bu imkoniyatlardan qanchalik samarali foydalanish biznes yurituvchilarning bilim va saviyasi, zamonaviy vositalardan qanchalik xabardorligiga qarab baholanadi.

Yurtimizda sanoat korxonalarini, umuman biznes sohasiga axborot tizimlarini kirib kelishi yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, nisbatan kech boshlandi. Mustaqilligimizning dastlabki yillarida ushbu jarayonlar joriy texnologiyalar va biznes muhitini xolatidan kelib chiqib sekinlik bilan rivojlana boshladi. Biroq, so'ngi yillarda AKT ga hukumat darajasida e'tiborni o'tirishi va turli imtiyozlar berilishi hamda biznes egalari faol targ'ibot natijasida yurtimizda AKT shiddat bilan rivojlanish pallasiga kirdi. Viloyatlar markazlarida IT-Park va tumanlarda IT-Centerlar faoliyati joriy etildi. Ushbu markaz AKT ni rovojlantirish bo'yicha ko'plab ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Jumladan, aholini kompyuter savodxonligini oshirish, hududlarda AKT sohasida faoliyat yurituvchi firmalarni rezidentlikka olish orqali soliq imtiyozlarini berish, ichki AKT xizmatlarini xorijga eksport qilishga ko'maklash va boshqa faoliyatlarni keltirib o'tish lozim.

Tadqiqotimizdan kelib chiqib, quyidagi takliflarni beriladi:

1. Sanoat korxonalarini, biznes egalari va uni boshqaruvchilarini yanada ko'proq zamonaviy AKT bo'yicha savodxonligini oshirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish, jumladan biznesda faoliyat yurayotgan uchun maxsus o'quv kurslari, treninglar tashkillash, ijtimoiy tarmoqlarda biznesga axborot tizimlarini qo'llashning samaradorligiga doir videoroliklar va taqdimot materiallarini chop etish.

2. Jahon tajribasini, ayniqsa Xitoy kichik biznes yuritish tajribasini puxta o'rgangan xolda, yurtimizga tadbiriq etish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.

3. Mahalliy axborot tizimlarini ishlab chiquvchilarini qo'llab-quvvatlash siyosatini davom ettirish va uni yanada soddalashtirish hamda imtiyoz mexanizmlari kengaytirish.

4. Biznes vakillari uchun biznesda axborot tizimlarini qo'llash bo'yicha onlayn konsultatsiya tizimini joriy etish.

#### Foydalanilgan adabiyotlar va resurslar:

1. M.Butaboev, F.Mulaydinov, G'.Zaxidov, X.Sattarova. Raqamli iqtisodiyot. Darslik, 2-to'ldirilgan nashr. Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi. Toshkent, 2021. 606 bet.
2. Тарасова К. И. Эволюция информационных систем в экономике. БІЗНЕСІНФОРМ № 4, 2020. 289-295 стр.
3. Грицунов О. В. Інформаційні системи та технології : навч. посіб. для студентів за напрямом підготовки «Транспортні технології». Харків : ХНАМГ, 2010. 222 с.
4. Навчально-методичний посібник для самостійної роботи та практичних занять з навчальної дисципліни «Сучасні інформаційні системи та технології» (галузь знань 0302 «Міжнародні відносини», освітньо-кваліфікаційний рівень «Бакалавр», напрям підготовки 6.030202 «Міжнародне

право») / уклад.: В. Г. Иванов, С. М. Иванов, та ін. Харків: Нац. юрид. ун-т ім. Ярослава Мудрого, 2014. 129 с

5. Ушакова І. О., Плеханова Г. О. Інформаційні системи та технології на підприємстві : конспект лекцій. Харків : Вид-во ХНЕУ, 2009. 128 с.
6. Оспанова С. Б., Кайгородцев А. А. Проектирование систем управления. *Вестник КАСУ*. 2006. № 4. С. 32–38.
7. Голицына О. Л., Максимов Н. В. Информационные системы. М.: ММИЭИФП, 2004. 329 с.
8. Нижник В. М., Терехов Д. С. Еволюція розвитку інформаційних систем та інформаційних технологій в управлінні підприємствами. *Вісник Хмельницького національного університету*. 2009. № 5. С. 220–223.

<sup>9</sup> Karri Lehtonen. What is system integration? Youredi, 2018.

<https://www.youredi.com/blog/what-is-system-integration>

<sup>10</sup> Gullede, Thomas (September 2002). "B2B eMarketplaces and small- and medium-sized enterprises". *Computers in Industry*. 49 (1): 47–58. doi:10.1016/s0166-3615(02)00058-1. ISSN 0166-3615

<sup>11</sup> Hvolby, Hans-Henrik; Trienekens, Jacques H. (December 2010). "Challenges in business systems integration". *Computers in Industry*. 61 (9): 808–812. doi:10.1016/j.compind.2010.07.006. ISSN 0166-3615

9. Федорова Г. Н. Информационные системы: учебник для студ. учреждений сред. проф. образования. М.: Академия, 2013. 208 с.
10. Introduction to information security. URL: [http://www.cengage.com/resource\\_uploads/downloads/1111138214\\_259146.pdf](http://www.cengage.com/resource_uploads/downloads/1111138214_259146.pdf)
11. Information systems for business and beyond. <https://resources.saylor.org/wwwresources/archived/site/textbooks/Information%20Systems%20for%20Business%20and%20Beyond.pdf>
12. Этапы развития информационных систем // Хелпикс.Орг – Интернет помощник. URL: <https://helpiks.org/5-32285.html>
13. Информационные технологии в Украине: колос на глиняных ногах // Duo. <https://dou.ua/lenta/articles/it-in-ukraine/>
14. Беликов Ю. В. Обзор современных подходов к бизнес-процессам в организации. *Молодой ученый*. 2017. № 43 (177). С. 137–139. <https://moluch.ru/archive/177/46087/>
15. Karri Lehtonen. What is system integration? Youredi, 2018. <https://www.youredi.com/blog/what-is-system-integration>
16. Gulledge, Thomas (September 2002). "B2B eMarketplaces and small- and medium-sized enterprises". *Computers in Industry*. 49 (1): 47–58. doi:10.1016/s0166-3615(02)00058-1. ISSN 0166-3615
17. Hvolby, Hans-Henrik; Trienekens, Jacques H. (December 2010). "Challenges in business systems integration". *Computers in Industry*. 61 (9): 808–812. doi:10.1016/j.compind.2010.07.006. ISSN 0166-3615
18. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/raqamli-iqtisodiyot>
19. Eurostat. <https://ec.europa.eu/eurostat/web/main/home>
20. <https://nuz.uz/uz/zhamoat/1196103-munosib-ba%D2%B3o>
21. Information system. Encyclopedia Britannica. URL: <https://www.britannica.com/topic/information-system>
22. [https://en.wikipedia.org/wiki/Information\\_system](https://en.wikipedia.org/wiki/Information_system)
23. [https://en.wikipedia.org/wiki/System\\_integration](https://en.wikipedia.org/wiki/System_integration)



## QURILISH SOHASIDA KICHIK BIZNES SUB'YEKTLARINING INNOVASION FAOLIYATI VA UNI TASHKIL ETISHNING ASOSIY TAMOYILLARI

Diyarova Mahliyo Islamovna,  
Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti tayanch doktoranti

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p><b>Qabul qilindi:</b> 24-dekabr 2022-yil <b>Tasdiqlandi:</b> 26-dekabr 2022-yil <b>Jurnal soni:</b> 5 <b>Maqola raqami:</b> 8 <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/ku.v5i5.211">https://doi.org/10.54613/ku.v5i5.211</a></p>	<p>Ushbu maqolada mamlakatimizda qurilish industriyasini xususiyashtirish natijasida shakllangan qurilish sohasidagi kichik biznes sub'yektlari faoliyatini innovasion boshqarish tizimi va rivojlantirish tamoyillarini takomillashtirish, kichik biznes sub'yektlarining samarali ishlashi uchun uning tashkiliy boshqaruv tuzilmasini ishlab chiqish bo'yicha taklif va tavsiyalar keltirilgan.</p>
<p><b>KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ Keywords</b></p>	
<p>kichik biznes sub'yektlari, innovasion boshqaruv usullari, boshqaruv tamoyillari, yagonalik, oqilonalik, monandlik, differensiallik, mavjudlilik, rejaliilik, mo'ljallilik, aloqa tizimi.</p>	

**Kirish.** Zamonaviy jamiyat taraqqiyotini ilmiy-texnikaviy rivojlanishsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Haqiqatdan, atrofimiz shu qadar tez o'zgarimoqdaki, ba'zida yaqin o'tmishga nazar tashlar ekanimiz, biz bir necha yil ichida hayotimiz qanchalik o'zgaraganligidan hayratda qolamiz. Shu boisdan inson yashash faoliyatining xavfsiz va qulay muhitini shakllantirish mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasini jadal innovasion rivojlantirishning muhim shartlaridan biri bu – iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ilmiy va texnika yutuqlarini hamda zamonaviy innovasion texnologiyalarni o'zida mujassam etgan innovasion boshqaruv usullarini keng qo'llash hisoblanadi. Ayniqsa, qurilish sohasidagi innovasion faoliyat, xususan, kichik biznes sub'yektlari tomonidan samarali innovasiyalardan jadal foydalanish, qurilish texnologiyalari sohasida ilmiy ishlanmalarni yaratish va joriy etish bo'yicha harakatlar dinamikasi bilan tavsiflanadi.

O'zbekistonda qurilish sohasi milliy iqtisodiyotning muhim ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan bo'lib, so'nggi yillarda amalga oshirilgan jadal ishlohtlar sababli ushbu sohada o'sish yuqori sur'atlarni namoyon etmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi va unga muvofiq qabul qilingan Davlat dasturlarida mamlakat iqtisodiyotini yanada jadal rivojlantirishda iqtisodiyotning lokomotivi sifatida qurilish sohasiga, xususan yangi bino va inshootlar, yangi ishlab chiqarish ob'yektlari, sanoat korxonalarini hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari, avtomobil va temir yo'llari, energiya tejamkor turar joy binolari qurilishiga alohida urg'u berilgan. Xususan, mazkur strategiyaga muvofiq qabul qilingan dasturlar doirasida so'nggi 5 yil davomida qurilish sohasini yanada takomillashtirish, qurilish korxonalarini izchil rivojlantirish mexanizmlarini shakllantirish, davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini ta'minlash va bu sohaga tezkorlik bilan raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha izchil ishlohtlar amalga oshirilishini ta'minlash muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Qurilish sohasini yanada takomillashtirish hamda sohaga ilg'or raqamli texnologiyalarni joriy etish maqsadida 2020 yil 27 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovasion rivojlantirishning 2021 – 2025 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6119-son Farmoni qabul qilindi. Mazkur strategiyada xorijiy mamlakatlar qurilish sohasidagi tarkibiy o'zgarishlarning eng yaxshi tajribalari va shaharsozlik faoliyati rivojlanishining jahon tendensiyalarini o'rganish asosida 2021-2025 yillarda qurilish tarmog'ini rivojlantirish maqsadlari va ustuvorliklari, isloh qilish yo'nalishlari belgilab berildi.

Bizning fikrimizcha, iqtisodiyotning eng yirik tarmoqlaridan biri bo'lgan qurilish sohasidagi kichik biznes sub'yektlari faoliyatini rivojlantirish zarur. Qurilish sohasidagi kichik biznes sub'yektlarini rivojlantirishning asosiy vositasi istiqbolda qurilish kompaniyalarining innovasion faoliyati sifatida jadal tus olmog'i lozim.

**Adabiyotlar tahlili.** G'arb davlatlarining tajribasi shuni ko'rsatdiki, aynan qurilish sohasida kichik biznesni rivojlantirish qurilish ishlab chiqarishini rivojlantirishning eng samarali yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, O'zbekistonda qurilish industriyasini xususiyashtirish natijasida shakllangan qurilish sohasidagi kichik biznes sub'yektlari faoliyatini innovasion boshqarish va rivojlantirish tamoyillarini takomillashtirish alohida ahamiyatga ega.

Bugungi kunda bu masala ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilmoqda. Olib borilgan tadqiqotlarimiz davomida adabiyotlar chuqur tahlil qilinib, qurilishda innovasiyalarning keng doirasi va xilmaxilligi kuzatildi. Xususan, qurilish innovasiyasi to'g'risida xorijiy olimlarning ta'riflarini tahlil qildik. "Innovasiya – bu qurilish firmasida texnologiyalardan birinchi foydalanish", Tatum (1987, 649-bet), "Innovasiya – bu qurilish loyihasida qo'shimcha foyda olish niyatida amalga oshiriladigan yangi g'oya, ammo xavf va noaniqliklar mavjud bo'lishi mumkin", Ling (2003, 635-bet), "Innovasiyani yangi g'oyalardan muvaffaqiyatli foydalanish sifatida ko'rish mumkin, bu yerda g'oyalar qabul qilish birligi uchun yangidir. Qurilishda yangi g'oyalar jarayonlar, mahsulotlar, texnologiyalar va bozorlar shaklida bo'lishi mumkin", Egbu va boshqalar. (1998 yil, 605-bet), "[...] – bu tashkilot uchun yangi bo'lgan texnologiyani qo'llash va bu dizayn hamda qurilishni sezilarli darajada yaxshilaydi, o'rnatilgan xarajatlarni kamaytiradi, o'rnatilgan ish faoliyatini oshiradi va/yoki biznes jarayonini yaxshilash orqali yashash maydoni samarali tashkil qilinadi", Toole (1998, 323-bet), "Qurilish jarayonida innovasiyalar biror narsani tezroq, arzonroq yoki turli sharoitlarda qurishga imkon beradigan yangi usullar kerak bo'lganda yuzaga keladi", Davey-Wilson (2001, 136-bet), "[bu] barqaror ishlab chiqarish uskunalarini, texnikasini va tartib-qoidalarini, mahsulotlari va mahsulotlarni yetkazib berish mexanizmlaridan foydalanish (chunki ular energiya va tabiiy resurslarni tejash, atrof-muhitga ta'sirini yoki inson faoliyatining ta'sirini kamaytirish va tabiiy muhitni himoya qilish) sifatida belgilanishi mumkin", Dewick and Miozzo (2002, 824-bet).

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan A.Abdullayev, Q.Muftaydinov, X.Ayubovlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini innovasion rivojlanishining boshqaruv tamoyillariga e'tibor qaratadilar. Ularning fikriga ko'ra, "boshqaruv tamoyillarida asosiy ustuvorlik innovasion jarayonlarga asoslangan mahsulotlar assortimenti, ishlab chiqarishni takomillashtirishning strategik imkoniyatlari va mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish rejasiga bog'liqligini" qayd etdilar[1]. Q.B.Sharipov esa o'zining ilmiy tadqiqotlarida "kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tarmoq



jihtadan ixtisoslashuv jarayonlarining samaradorligini oshirish innovasion g'oyalari va texnologiyalarni amaliyotga joriy etish imkoniyatlarini kengaytirishni talab etish lozim", degan fikrni ta'kidladil[2].

Biroq erishilgan muvaffaqiyatlarga qaramay, zamonaviy iqtisodiyot sharoitida qurilish sohasida kichik biznes sub'yektlari innovasion faoliyatini boshqarish samaradorligini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish bilan bog'liq masalalar haligacha yetarlicha o'rganilmaganligicha qolmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot jarayonida tadbirkorlik faoliyatining innovasion rivojlanish yo'nalishlarini shakllantirish mantiqiy fikrlash, ilmiy mushohada, tizimli yondashuv metodlaridan foydalanilgan holda tadqiq etilgan. Induksiya va deduksiya, statistik hamda qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanilib, tadbirkorlik faoliyatini innovasion rivojlanish shart-sharoitlari va imkoniyatlari asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalari. Jahon iqtisodiyotining globalashuvi va tashqi bozorga kirish, raqobatbardoshlikka erishish uchun kichik biznes sub'yektlari faoliyatini boshqarishda innovasion usullardan foydalanish zarur bo'ladi. Chunki bozor munosabatlari sharoitida o'z faoliyatida innovasion boshqarish usullariga e'tibor bermaslik raqobat kurashida o'z o'rnini berib qo'yishga olib keladi.


Kichik biznes sub'yektlarida doimiy ravishda yangiliklarni qo'llash imkoniyati mavjud. Kichik biznes sub'yektlari faoliyat ko'rsatishining asl mohiyati ham fan-texnika yangiliklarini tez o'zlashtirish va ularni ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish hamda boshqaruv jarayoniga tezda qo'llash bilan farqlanib turadi. Demak, kichik biznes sub'yektlarida innovasion faoliyatni boshqarish degani bu – biron bir ishni boshqarishda yangicha

usullardan foydalanish yoki yangilik joriy etgan holda xo'jalik yuritish boshqaruvi takomillashtirish va tashkil etishdir. Shu jihatdan ham mamlakat iqtisodiyotida innovasiyalarni qo'llashda asosiy ob'yekt bo'lib kichik biznes sub'yektlari hisoblanadi va ularning salmog'i yuqori bo'lmoqda.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda faoliyat yuritayotgan ishbilarmonlik sektoridagi korxonalarining 99 foizdan ortig'i kichik tadbirkorlik sub'yektlari hisoblanadi[3]. Bu iqtisodiyotda nisbatan kam mablag' sarflab, yangi ish o'rinlarini yaratish, bozor sharoitiga tez moslashish, texnik va texnologik yangiliklarni ishlab chiqish hamda joriy etish, erkin raqobat muhitini yuzaga keltirish, turli tarmoqlar o'rtasidagi o'zaro aloqani yaxshilashda qo'l kelmoqda.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularga qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning soni ham yildan-yilga oshib borishi kuzatilmoqda. Jumladan, 2021 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) respublikamiz bo'yicha 411 203 tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 76 436 taga yoki 22,8 foizga ko'paydi. 2020 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining yalpi ichki mahsulot hajmidagi ulushi 53,9 foizni tashkil etdi[4].

O'zni kelganda mamlakat iqtisodiyotining qurilish sohasidagi ko'rsatkichlariga to'xtaladigan bo'lsak, O'zbekistonda 2017–2020 yillarda islohotlarning natijasi o'laroq, qurilish sektori iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga nisbatan jadal sur'atlarda o'sayotganligini ko'rishimiz mumkin (1-rasm).



1-rasm. 2017-2020 yillarda qurilish sektori boshqa tarmoqlariga nisbatan o'sish sur'atlari  
Manba: Statistika ma'lumotlariga asoslangan holda mualliflar tomonidan ishlab chiqildi.

Shuningdek, mazkur tarmoqning milliy iqtisodiyot tarkibida ulushi ham yildan-yilga oshib bormoqda. Qurilish tarmog'ining YAIM tarkibidagi ulushi 5,7 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2020 yilda ushbu ko'rsatkich 7,0 %ga yetgan. 2021 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 41,0 mingtani tashkil etib, 2017 yilga nisbatan 1,7 barobar yoki 17,1 ming birlikka oshgan. Qurilishda band bo'lganlarning soni 2020 yilda 2017 yilga nisbatan 15,6 ming nafarga oshib, 1,3 mln. nafarni tashkil etdi. Aytish joizki, hozirgi kunda iqtisodiyotda band bo'lganlarning qariyb 10 foizi mazkur tarmoqqa to'g'ri kelmoqda[5].

2017 yilda bajarilgan qurilish ishlari hajmi 35,0 trln. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2021 yilda bu ko'rsatkich 107,4 trln. so'mga yetdi. 2020 yilga nisbatan o'sish sur'ati 6,8 foiz yoki 19,3 trln. so'm ko'proqni tashkil etdi[6].

Shuningdek, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tahlil qilinganda, bajarilgan qurilish ishlarining asosiy qismi bino va inshootlarni qurish ishlari hajmiga (jami ko'rsatkichga nisbatan ulush 74,5 %ga) to'g'ri kelmoqda. Shu o'rinda aytish joizki qurilish ishlarida so'nggi yillarda

nodavlat sektorining ulushini oshib borishi ham kuzatilmoqda. Misol uchun, 2017 yilda mazkur ko'rsatkich 95,2 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2021 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra u 95,8 %ga yetdi.


Qurilish sohasida ham bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining tutgan o'ri kundan kunga oshib bormoqda. Xususan, 2020-yilda 63 trillion 614,9 milliard so'm yoki jami bajarilgan qurilish ishlarining 72,4 foizi aynan kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan amalga oshirilgan. Bu esa ushbu ko'rsatkichni 2017 yilga nisbatan 2,4 foizga ko'p demakdir. Eng muhim o'zgarishlardan biri shundaki, joriy 2021 yilda respublikamizda 1 trillion 379,3 milliard so'mlik arzon uylar hamda 4 trillion 85,1 milliard so'mlik yangi turar-joylar kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan qurildi[7].

Fikrimizcha, kichik biznes sub'yektlarining samarali ishlashi uchun uning tashkiliy boshqaruv tuzilmasini to'g'ri tanlash muhimdir. Kompaniyaning tashkiliy tuzilmasi, birinchi navbatda, uning alohida bo'linmalari o'rtasida aniq munosabatlarni o'rnatishga, ular o'rtasida huquq va majburiyatlarni taqsimlashga qaratilgan bo'lishi kerak. U boshqaruv tizimini takomillashtirish uchun turli xil boshqaruv

tamoyillarida ifodalangan turli talablarni amalga oshiradi. Korxonani boshqarishning tashkiliy tuzilmalari juda xilma-xil bo'lib, ko'plab ob'yektiv omillar va shartlar bilan belgilanadi. Bular, xususan, kompaniyaning ishlab chiqarish faoliyati hajmini o'z ichiga olishi mumkin:

- kompaniyaning ishlab chiqarish profilini;
- mahsulotlarning tabiati va uni ishlab chiqarish texnologiyasini;
- firma doirasi (mahalliy, milliy yoki tashqi bozorlarga e'tibor qaratish)ni;
- xorijiy faoliyat ko'lami va uni amalga oshirish shakllari (chet elda sho'ba korxonalarining mavjudligi: ishlab chiqarish, marketing va boshqalar)ni;
- kompaniya (konsern, moliyaviy guruh) birlashmasining tabiatini.

Korxonani boshqarishning samarali tuzilmasini yaratish - bu yangi boshlanuvchi tadbirkor hal qilishi kerak bo'lgan eng muhim vazifalardan biridir. U o'z tashkilotida samarali ishlashi uchun qancha odam, qanday mutaxassislar, qanday malaka, qanday shaxsiy fazilatlariga ega bo'lishi kerakligini aniqlashi alohida ahamiyat kasb etadi. Korxonaning o'sishi va faoliyat doirasining kengayishi bilan oqilona tuzilmaga bo'lgan ehtiyoj yanada ortadi. Yetuklik bosqichida, hatto korxonaning gullab-yashnashi, tashkiliy tuzilmasi uning hayotiyiligi belgilovchi asosiy omilga aylanadi. Korxonaning o'zgaruvchan sharoitlarga moslasha olish qobiliyati uning raqobatbardosh bo'la olishi va o'z imkoniyatlarini saqlab turishiga bog'liq. Qurilish korxonasini boshqarishning tashkiliy tuzilmasi samaradorligini ta'minlash avvalo, umum qabul qilingan tamoyillarni amal qilish holatiga bog'liq bo'ladi (2-rasm).



2-rasm. Qurilishda kichik biznes korxonalarini samarali tashkil etish tamoyillar  
Manba: muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Ushbu tamoyillarga ko'ra, kichik qurilish korxonasining tashkiliy tuzilmasi va uni boshqarish muvofiqsiz yoki harakatsiz narsa emas, ular tashqi va ichki muhitning o'zgaruvchan sharoitlariga mos ravishda doimiy ravishda o'zgarib turadi va takomillashtiriladi. Shu bilan birga, bunday o'zgartirishning maqsadga muvofiqligi va zarurligini o'z vaqtida aniqlash muhimdir.

Kichik qurilish korxonaning tashkiliy tuzilmasi birinchi navbatda uning alohida bo'linmalari o'rtasida aniq munosabatlarni o'rnatishga, ular o'rtasida huquq va majburiyatlarni taqsimlashga qaratilgan. U boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha turli xil talablarni amalga oshiradi, ular turli xil boshqaruv tamoyillarida ifodalangani.

Xulosa. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, qurilish industriyasining iqtisodiyot tarkibida tutgan o'rni va ahamiyati mamlakatning rivojlanish bosqichlariga qarab o'zgarib turadi. Bu tarmoqning ulushi rivojlanishning dastlabki bosqichlarida (rivojlanayotgan mamlakatlar) o'sib boradi, mamlakat o'rtacha daromadli mamlakatlar (yangi sanoatlashgan mamlakatlar) darajasiga yetganida barqarorlashadi va iqtisodiy yetuklik davrida (rivojlangan mamlakatlar) pasayadi.

Innovation rivojlanish sharoitida O'zbekistonda qurilish tarmog'ida olib borilayotgan ishlar, xizmatlar milliy iqtisodiyotning

boshqa tarmoqlari qatorida nafaqat iqtisodiyotning asosiy fondlarini yaratuvchi qismi sifatida, balki mamlakat iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan innovation tarkibiy o'zgarishlar hamda turli ijtimoiy sohadagi dolzarb vazifalarni amalga oshirishda o'zining muhim hissasini qo'shib kelmoqda.

Qurilish sohasida faoliyat yuritib kelayotgan kichik korxonalarda olib borilgan ilmiy izlanishlar natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik biznes sub'yektlari yo'lida to'siq bo'layotgan muammolarni hal etish bugungi kunda dolzarb mavzulardan biri hisoblanib qolmoqda.

Biz tomonimizdan olib borilayotgan tadqiqotlarga asoslanib quyidagilarni taklif etamiz:

1. Hozirgi vaqtda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida kichik biznes sub'yektlarini rivojlantirish;
2. Qurilish sohadagi muammolarni o'z vaqtida hal etish va tegishli chora-tadbirlarini muntazam ko'rib borish va har qanday holatda ham davriy ravishda tizimli amalga oshirib borilishi kerak.
3. Qurilish sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va ularni erkin faoliyat ko'rsatishlari uchun ishbilarmonlik muhitini yanada qulaylashtirish maqsadga muvofiqdir.

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдуллаев А., Муфтайдинов Қ., Айбешов Х. Кичик бизнесни бошқариш. Дарслик. –Т.: «Молия» нашриёти, 2003 й. -192 б.
2. Шарипов Қ.Б. Кичик тадбиркорлик фаолиятида тармоқ бўйича ихтисослашув жараёнларини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. –Т.: “Академия ноширлик маркази” нашриёти, 2020 й. -61 б.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 27 ноябр ПФ-6119-сон “Ўзбекистон Республикаси қурилиш тармоғини модернизация қилиш, жадал ва инновацион ривожлантиришнинг 2021-2025 йилларга мўлжалланган стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармони.  
4. <https://www.stat.uz/>  
5. <https://yuz.uz/news/iqtisodiy-taraqkiyot-mezoni>  
6. <https://uza.uz/uz/posts/ozbekistonda-qurilish-sohasi-islohotlar-rezhalar-va-natizhalar>  
7. <https://www.gazeta.uz/uz/2022/01/26/construction-works/>
8. Tatum, C. B. (1987). ‘Process of innovation in construction firm’. *Journal of Construction Engineering and Management*, 113(4), pp. 648-663.
9. Toole, T. M. (1998). ‘Uncertainty and homebuilders’ adoption of technological innovations’, *Journal of Construction Engineering and Management*, 124(4), pp. 323–32.
10. Egbu, C. O., Henry, J., Kaye, G. R., Quintas, P., Schumacher, T. R. and Young, B. A. (1998). ‘Managing organizational innovations in construction’, In: Hughes, W (Ed.), 14th Annual ARCOM Conference. University of Reading, UK. 9-11 September 1998. Association of Researchers in Construction Management, Vol. 2, pp. 605-14.
11. Davey-Wilson, I. E. (2001). ‘Innovation in the building process—a postgraduate module’, *Engineering structures*, 23(1), 136-144.
12. Dewick, P. and Miozzo, M. (2002). ‘Sustainable technologies and the innovation– regulation paradox’, *Futures*, 34(9), 823-840.
13. Ling, F. Y. Y. (2003) ‘Managing the implementation of construction innovations’, *Construction Management and Economics*, 21(6), pp. 635-649.



## TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI

Toxirov Rustam

Qo'qon Universiteti 2 kurs doktoranti

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p><b>Qabul qilindi:</b> 24-dekabr 2022-yil  <b>Tasdiqlandi:</b> 26-dekabr 2022-yil  <b>Jurnal soni:</b> 5  <b>Maqola raqami:</b> 9  <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/ku.v5i5.213">https://doi.org/10.54613/ku.v5i5.213</a></p>	<p>Tadbirkorlik subyektlarining barqaror rivojlanishini boshqarish ularning samaradorligini baholash bo'yicha uslubiy yondashuvlarni takomillashtirishni taqozo etadi. O'ylaymizki, samaradorlikni baholashda mavjud moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan qiyosiy tahlil qilish zarur. Tadqiqotda ma'lum davlat korxonalarining operatsion samaradorligini qiyosiy baholash uchun chegaraviy stoxastik tahlil usulini taklif qilinadi. Ushbu yondashuvning mohiyati eng yuqori samaradorlik ko'rsatkichlari va samaradorlik koeffitsientlarini hisoblash bilan standart korxonaga qurishdir. Statistik gipotezalarni tekshirish natijalariga ko'ra, tasodifiy komponentning kesilgan taqsimoti bilan translog funksiyasi tekshirilgan funksional bog'liqliklarni eng yaxshi tavsiflashi aniqlandi. Modellashtirish natijalariga ko'ra har bir korxonaga va tekshirish davri uchun samaradorlik koeffitsientlari olindi va ular asosida korxonalar samaradorligi reytingi tuzildi.</p>
<p><b>KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ Keywords</b></p> <p>Samaradorlik, rentabellik, korxonaga, stoxastik tahlil, chegara tahlili</p>	

**Kirish.** Zamonaviy iqtisodiy sharoitda mahalliy korxonalar samaradorligini oshirish bo'yicha faol harakatlar alohida ahamiyatga ega. Tadbirkorlik subyektlarining barqaror rivojlanishini boshqarish ularning samaradorligini baholash bo'yicha uslubiy yondashuvlarni takomillashtirishni talab qiladi. Korxonaga faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholash muammosi, birinchi navbatda, tegishli samaradorlik mezonlari va model parametrlarini aniqlash bilan bog'liq. Daromadlilik ko'rsatkichlari orqali samaradorlikni tahlil qilishning klassik yondashuvi har doim ham ob'ektiv natijalarni keltirib chiqarmaydi va turli xil iqtisodiy va ishlab chiqarish omillarini hisobga olishni talab qiladi. Amalda tadbirkorlik subyektlarining samaradorligini ikki jihatni o'z ichiga olgan metodologiya orqali baholash muhim ahamiyatga ega. Birinchi jihat ma'lum bir korxonani tavsiflovchi ma'lum nisbiy samaradorlik ko'rsatkichlarini hisoblash imkonini beradi. Ikkinchi jihat - mavjud moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan qiyosiy tahlil o'tkazishga asoslanadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi ma'lum bir davlat korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslangan stoxastik chegara tahlil vositalaridan foydalangan holda xo'jalik yurituvchi subyektlarning samaradorligini baholashdir. Tadqiqotda quyidagi usullar qo'llanildi: mantiqiy umumlashtirish - xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni tekshirishda, chegaraviy stoxastik tahlil - eng yuqori samaradorlik ko'rsatkichlariga ega standart korxonani yaratishda va samaradorlik koeffitsientlarini hisoblashda ishlatiladigan reyting usuli. Korxonalariga ularning faoliyati samaradorligi darajasiga ko'ra darajalar berish orqali tekshirish natijalarini sifatli talqin qilish, qiyosiy tahlil - korxonalar samaradorligi va rentabellik darajasining hisoblangan ko'rsatkichlarini chegaraviy stoxastik tahlil vositalaridan foydalangan holda taqqoslash amalga oshirish.

Tadqiqotning axborot bazasini Malayziyaning 40 ta korxonasi (iqtisodiy faoliyatning 4 turidagi 10 ta korxonaga - mashinasozlik, engil sanoat, oziq-ovqat sanoati va qurilish materiallari sanoati) tashkil etadi. Iqtisodiy-matematik modellashtirish korxonalarini tarmoqlararo o'rganishga asoslangan bo'lib, bu modelning samaradorlik koeffitsientlarini hisoblashning adekvatligini kamaytirishi mumkin, chunki iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xarajatlar tarkibining xususiyatlari hisobga olinmaydi.

**Adabiyotlar tahlili.** Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash muammolari mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqot ob'ekti hisoblanadi. Bu masalani o'rganishga Malayziyaning etakchi olimlari katta hissa qo'shdilar. Grechko va Grechuxin (2016) ta'kidlashicha, samaradorlikni baholash korxonaga faoliyatini axborot va tahliliy ta'minlash uchun samarali vositadir. Baholash natijalari boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asos hisoblanadi. Korxonaga faoliyatini baholash turli ko'rsatkichlardan foydalanishni o'z ichiga oladi, ular kompaniyaning moliyaviy natijalari asosida hisoblanadi: foyda; sotish

rentabelligi; aktivlarning rentabelligi; o'z va qarz kapitalining rentabelligi; kapitalning rentabelligi.

Cherep & Sinyekayeva (2014) korxonalar faoliyatini yaxshilashning asosiy omili innovatsiyalarni joriy etish, deb hisoblaydi. Shunday qilib, korxonalarda innovatsiyalar natijalarini baholash usuli quyidagi ko'rsatkichlar guruhi yordamida amalga oshirilishi mumkin: ishlab chiqarish samaradorligi ko'rsatkichlari, moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichlari va investitsiya samaradorligi ko'rsatkichlari.

Qolaversa, ob'ektlarni tavsiflashda bir qator o'zgaruvchilar o'rniga bitta agregat ko'rsatkichdan foydalanadigan sintetik o'lchovlarni qo'llash bizga iqtisodiy operatsiyalarning ko'p o'lchovli xususiyatini miqdoriy jihatdan aniqlash va ularni chiziqli tizimlashtirish imkonini beradi. Baholash uchun ko'rsatkichlar tizimini yaratishda korxonaning mulki va hajmini ham hisobga olish kerak. Jenkins (1984) davlat korxonasi ko'plab vazifalarni bajarishi kutilayotganligini aniqladi: moliyaviy profitsit yaratish; ishsizlikni kamaytirishga yordam berish; ko'nikmalarni rivojlantirish; va o'sishga, texnik taraqqiyotga va mintaqaviy nomutanosibliklarni tuzatishga hissa qo'shadi. Davlat korxonasi faoliyatini baholash uning oldiga qo'yilgan maqsadlarning ko'pligini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. Kotane & KuzminaMerlino (2012) kichik kompaniyalar faoliyatini baholashga e'tibor qaratdilar va kichik kompaniyalar faoliyatini baholashda kichik korxonalarining moliyaviy resurslari cheklanganligini va ularni olishda qiyinchiliklar mavjudligini hisobga olish kerakligini aniqladilar.

Nickell, Nicolitsas, & Dryden (1997) korxonaga samaradorligini aniqlashda muhim rol kompaniyalarda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda uchta tashqi omilga ega, deb hisoblaydilar: mahsulot bozoridagi raqobat, moliyaviy bozor bosimi va aktsiyadorlar nazorati. Sun (2011) korxonalarini baholash ekonometrik nazariya va korxonani boshqarish jarayonini chuqur tahlil qilish uchun zamonaviy tahlil usullaridan foydalangan holda amalga oshirilishi kerakligini aniqladi. U biznes holatini baholashni umumlashtiradi va korxonalarining kelajakdagi rivojlanishini kutadi. Shu bilan birga, ushbu muammoga bag'ishlangan ko'plab nashrlar va ushbu yo'nalishda olib borilgan chuqur tadqiqotlarga qaramay, tadbirkorlik subyektlari faoliyati samaradorligini baholash metodologiyasi masalasi zamonaviy matematik apparatlardan foydalangan holda yanada rivojlantirishni talab qilishini ta'kidlash kerak.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Bugungi kunda korxonalarining muvaffaqiyatli rivojlanishi tadbirkorlik subyektlari faoliyati samaradorligini ishonchli baholash va uning samaradorligini oshirish vazifalarini hal qilish bilan belgilanadi. Bizning fikrimizcha, korxonalar nafaqat o'zlarining ko'rsatkichlarini tahlil qilishlari, balki uni tegishli tarmoq korxonalar yoki asosiy raqobatchilarning o'xshash ko'rsatkichlari bilan taqqoslashlari maqsadga muvofiqdir. Bu bizga baholash natijalarining ishonchlilik darajasini oshirish imkonini beradi. Bunday yondashuv tadbirkorlik subyektlariga o'z faoliyati ko'rsatkichlarini yaxshilash uchun boshqa kompaniyalarning samarali faoliyatining mavjud misollarini aniqlash va

moslashtirish imkonini beradi. Malayziya korxonalarining operatsion samaradorligini qiyosiy baholash uchun biz chegara stoxastik tahlil usulidan foydalanamiz. Ushbu yondashuvning mohiyati eng yuqori samaradorlik ko'rsatkichlari va samaradorlik koeffitsientlarini hisoblash bilan standart korxonaga qurishdir 35. Ushbu koeffitsientlarni quyidagi tarzda hisoblaymiz: o'rganilayotgan korxonalarining foyda funksiyasi qiymatlarining standart korxonaning tegishli ko'rsatkichiga nisbati (parametrlarning potentsial mumkin bo'lgan maksimal qiymati). Shuni ta'kidlash kerakki, standart korxonani shakllantirish va samaradorlikning potentsial darajasi eng yaxshi ko'rsatkichlarni tanlash orqali tekshirilayotgan korxonalar bo'yicha empirik ma'lumotlarga asoslanadi. Boshqacha qilib aytganda, dezinfektsiyalash omillari (korxonaga xarajatlari) uchun bunday daraja minimal qiymat maqsadli funksiyaning maksimal qiymatiga to'g'ri kelganda aniqlanadi. Faktor-stimulyatorlar (daromadlar) uchun - biz, aksincha, maksimal foydani ta'minlaydigan maksimal qiymatlarni tanlaymiz.

Korxonaning samaradorligini stoxastik tahlil qilish usulini amalga oshirish bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi, xususan:

1. Modelni rasmiylashtirish, maqsadli funktsiya va deterministik ta'sir etuvchi omillarni aniqlash;

$$\ln Y_{it} = \beta \ln X_{it} + (V_{it} - U_{it}), \quad i = 1, \dots, N, t = 1, \dots, T,$$

Bu yerda,  $Y_{it}$  - modelning chiqish parametri,  $i$  korxonaning  $t$  davridagi operatsion faoliyatining moliyaviy natijasi;  $\beta$  - noma'lum parametrlar vektor;  $X_{it}$  -  $t$  davridagi  $i$  korxonaga uchun deterministik o'zgaruvchilar modeli vektori;  $V_{it}$  - statistik xatolik;  $U_{it}$  - yashirin tabiatdagi boshqariladigan o'zgaruvchilar vektorining ta'sirini aks ettiruvchi samaradorlikning tarkibiy qismi.

Deterministik o'zgaruvchilar modelining vektorlari to'plamiga qarab, stoxastik foyda funksiyasining ikkita variantidan foydalanish mumkin - standart va muqobil. Standart foyda funksiyasi uchun bozorlar mukammal raqobatbardosh va narxlar qat'iy belgilangan deb taxmin qilinadi. Shuning uchun deterministik ta'sir omillari vektori resurslarning narxlarini (modelning kirish parametrlari) bilan shakllanadi, korxonalar ishlab chiqarish parametri - operatsion foyda hajmiga faqat resurslardan foydalanish hajmi va hajmining o'zgarishi orqali ta'sir qiladi. ishlab chiqarish. Muqobil foyda funksiyasi ishlab chiqarish parametrlari (sotish hajmi) va kirish parametrlarining narxi (resurslar narxi) ko'rsatilganligini nazarda tutadi. Foydani maksimalashtirish chiqish parametrlari narxining va kirish parametrlari sonining o'zgarishi bilan bog'liq 36.

Malayziya korxonalarini samaradorligini stoxastik tahlil qilish uchun deterministik model parametrlarining kirish vektorining ikkita varianti shakllantirildi. Modelni qurishning birinchi varianti resurslardan foydalanishning miqdoriy ko'rsatkichlari asosida tahlil qilishni o'z ichiga oladi, ikkinchi variant esa resurslar narxiga asoslanadi. Shunday qilib, birinchi model uchun vektor kiritish parametrlarining tarkibiy tarkibi korxonada turli xil resurslardan foydalanish hajmlari ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi:

$C_1$  - joriy aktivlar hajmi, ming \$;

$C_2$  - aylanma aktivlar hajmi, ming \$;

$C_3$  - korxonadagi xodimlar soni, kishilar.

Muqobil model uchun vektor kiritish parametrlarining tarkibiy tarkibi ishlab chiqarish jarayonida ishlatiladigan resurslarning xarajatlar ifodasini o'z ichiga oladi:

$C_1^*$  - moddiy xarajatlar, ming \$;

2. Malayziya korxonalarining kirish ma'lumotlarini shakllantirish va ularni normalashtirish;

3. Maksimal asoslilikning statistik mezonidan foydalangan holda modelning funksional shakli va tasodifiy komponentlar taqsimoti turini tanlash orqali model spetsifikatsiyasi;

4. Ma'lum dasturiy ta'minotidan foydalanish asosida model parametrlari va samaradorlik omillarini hisoblash;

5. Korxonalar faoliyati samaradorligini stoxastik tahlil natijalarini sifatli talqin qilish

Stoxastik samaradorlik tahlilini o'tkazish uchun ikkita asosiy yondashuvdan foydalanish mumkin: ishlab chiqarish funksiyasini baholash yoki foyda funksiyasi asosida samaradorlik tahlili. Ushbu tadqiqotda biz ikkinchi yondashuvdan foydalandik va modelning maqsadli funksiyasi sifatida kompaniyaning operatsion foydasini tanladik. Bu bizga investitsiya va moliyaviy faoliyatning ta'sirini hisobga olmagan holda korxonaga tomonidan qilingan xarajatlar hajmi va mahsulot ishlab chiqarish va sotishdan olingan moliyaviy natija o'rtasidagi bog'liqlikni to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatishga imkon berdi.

Korxonaga foydasining stoxastik funksiyasini quyidagicha ifodalash mumkin:

$C_2^*$  - amortizatsiya, ming \$;

$C_3^*$  - ish haqi fondi va ijtimoiy to'lovlar, ming \$;

Ikkala funktsiya uchun biz  $OP_{it}$  operatsion faoliyatining moliyaviy natijasini chiqish parametri (maqsadli funktsiya) sifatida tanladik. Sof moliyaviy natijadan farqli o'laroq, bu ko'rsatkich moliyaviy va investitsiya daromadlari va xarajatlarning tarkibiy qismlarini hisobga olmagan holda korxonaning asosiy faoliyatining muvaffaqiyati va samaradorligini tavsiflaydi.

Tadqiqotning axborot bazasini Malayziyaning 40 ta korxonasi (iqtisodiy faoliyatning 4 turidagi 10 ta korxonaga - mashinasozlik, yengil sanoat, oziq-ovqat sanoati va qurilish materiallari sanoati) tashkil etdi (Malayziya fond bozori infratuzilmasini rivojlantirish agentligi (SMIDA, 2017). Tekshirilayotgan korxonalarda 5 yil davomidagi moliyaviy hisobotlar stoxastik samaradorlikni tahlil qilishning iqtisodiy-matematik modelining ikkala varianti uchun kirish ma'lumotlari majmuasi shakllantirildi va ularni me'yorlashtirish amalga oshirildi. Amaliy chegaraviy stoxastik tahlil metodologiyasi modelning kirish va chiqish parametrlarining natural logarifmlaridan foydalanish. Kirish ma'lumotlarini normalashtirish tegishli parametrlar barcha qiymatlarini teng oshirish hisobiga manfiy ko'rsatkichlar qiymatlaridan xalos bo'lishdir. Keyingi bosqichda modelni spetsifikatsiyasi uning parametrlarini tanlash orqali amalga oshiriladi. funksional shakllar va maksimal ehtimollik bahosidan foydalangan holda tasodifiy komponentning taqsimot turi aton. Har bir model doirasida uning funksional shaklini tasvirlashning ikkita varianti ko'rib chiqildi - translogarifmik funktsiya va Kobb-Duglas funktsiyasi. Shuningdek, tasodifiy komponentni taqsimlashning 2 varianti - kesilgan normal va yarim normal taqsimotlar yaratildi. Statistik gipotezalarni sinovdan o'tkazish natijalariga ko'ra, tasodifiy komponentning kesilgan taqsimoti bilan translog funktsiyasi tekshirilgan funksional bog'liqliklarni eng yaxshi tavsiflashi aniqlandi. Ushbu xulosa foyda funksiyasining ikkala varianti uchun ham amal qiladi. Maksimal ehtimollik mezonini qo'llash uzoq va qisqa gipotezalarning funktsiyalari qiymatlarining tabiiy logarifmlarini hisoblashni o'z ichiga oladi:

$$LR = 2(l_L + l_S) = 2 \ln \frac{L_L}{L_S}$$

Bu yerda:  $l_L, l_S$  - mos ravishda uzun va qisqa modellar ehtimolining logarifmik funktsiyasining qiymati. Maksimal ehtimollik mezonining

bajarilishini tekshirish uchun o'rganilayotgan modellardagi gipotezalarni statistik tekshirish natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

<sup>35</sup> References Battese, G., & Coelli, T. (1995). Model for technical inefficiency effects in a stochastic frontier production function for panel data. *Empirical Economics*, 20, 325-332.

<sup>36</sup> Cherep, A. V., & Sinyekayeva, O. D. (2014). Methodical principles of an estimation of efficiency of the enterprises of mechanical engineering. *Business Inform*, 4, 124-129.



1-jadval. Maksimal ehtimollik mezoni asosida gipotezalarni statistik tekshirish natijalari

	Nolinchi gipoteza (N0)	Muqobil gipoteza (N1)
Funksional shakl	LLF (loglikelihood funksiyasi) 1-model uchun	
Tarqatish turi	Koba-Douglas funksiya	Translog funksiya
Yarim normal taqsimot	-0.28247588E+03	-0.16613732E+03
Qisqartirilgan normal taqsimot	-0.27862147E+03	0.34484866E+02
Funksional shakl	LLF (loglikelihood funksiyasi) 1-model uchun	
Tarqatish turi	Koba-Douglas funksiya	Translog funksiya
Yarim normal taqsimot	-0.28331820E+03	-0.17420852E+03
Qisqartirilgan normal taqsimot	-0.27970636E+03	-0.15335599E+00

Translog funksiyasi o'zgaruvchilar orasidagi korrelyatsiyani rasmiylashtirishga yanada moslashuvchan yondashuvni ta'minlaydi. Bundan tashqari, uning ishlatilishi o'zgaruvchilar o'rtasida faqat birinchi tartibli ta'sirlar bilan ifodalanishi mumkin bo'lmagan yanada murakkab korrelyatsiya mavjudligidan dalolat beradi. Shunday qilib, tuzilgan

modeldagi foyda funksiyasining rasmiylashtirilgan shakli quyidagi shaklga ega:

Qayerda,  $V_{it}$  - statistik xatolik;  $U_{it}$  - boshqariladigan yashirin o'zgaruvchilarning vektor ta'sirini aks ettiruvchi samarasizlik komponenti.

$$\ln(OP_{it}) = \beta_0 + \beta_1(\ln C_{1it}) + \beta_2 \ln(C_{2it}) + \beta_3 \ln(C_{3it}) + \beta_4 \ln(C_{1it}) + \beta_5 \ln(C_{2it}) + \beta_6 \ln(C_{3it}) + \beta_7 \ln C_{1it} \ln C_{2it} + \beta_8 \ln C_{1it} \ln C_{3it} + \beta_9 \ln C_{2it} \ln C_{3it} + (V_{it} - U_{it})$$

**Tadqiqot natijalari.** Korxonalar samaradorligini stoxastik tahlil qilish usulini joriy etishning keyingi bosqichida model parametrlari va samaradorlik koeffitsientlarini hisoblash amalga oshiriladi. Hisob-kitoblarni avtomatlashtirish uchun tegishli dasturiy ta'minot tanlangan.(Stata). Simulyatsiya natijalariga ko'ra har bir korxonaga va tadqiqot davri uchun samaradorlik koeffitsientlari olinadi. Koeffitsientlar har bir tadqiqot davri uchun korxonaga samaradorligini baholash uchun asos bo'lib xizmat qiladi (reytingdagi birinchi o'rin eng yuqori samaradorlik koeffitsientiga ega bo'lgan kompaniyaga beriladi va hokazo). 2-jadvalda

o'rganilayotgan korxonalar ikkita qurilgan model bo'yicha samaradorlik darajasi bo'yicha reytingi natijalari, shuningdek, so'nggi tekshirish yili uchun tegishli rentabellik ko'rsatkichlari keltirilgan. "Enzim kompaniyasi" XAJ (xususiy aktsiyadorlik jamiyati) ikkala reytingda ham samaradorlik darajasi bo'yicha, shuningdek, so'nggi yilda mahsulot rentabelligi (35.4%) bo'yicha etakchi hisoblanadi. Bu yil har ikkala reytingda ham oxirgi o'rinni operatsion yo'qotishlarning eng ko'p miqdorini olgan "ROZA" trikotaj fabrikasi" OAJ egalladi.

2-jadval. Oxirgi tadqiqot yili uchun kompaniyalarning reytinglari va foydalanish ko'rsatmalari.

No	Kompaniya	Ishlash darajasi bo'yicha reyting, 1-model	Ishlash darajasi bo'yicha reyting, 2-model	Mahsulot rentabelligi, %	Sof foyda / sof daromad, %
	"Roshen qandolat fabrikasi" OAJ	18	23	3.7	4.4
	"Svitoch qandolat fabrikasi" OAJ	22	34	22.1	11.7
	"Enzim kompaniyasi" OAJ	5	22	35.4	16.1
	"Pridniprovskiy kombinat" OAJ	17	33	4.2	2.1
	"Kombinat" OAJ	21	24	12.1	5.8
	"Kremenchukm'yaso" OAJ	32	27	3.1	-3.0
	OAJ "Mineral suv zavodi" "OSCAR"	6	25	16.1	11.5
	"Oziq-ovqat konsentratlari zavodi" OAJ	11	19	16.9	11.7
	"Poltavakonditer" OAJ	26	31	9.5	7.9
	"KONTI" ishlab chiqarish birlashmasi OAJ	34	26	10.0	4.3
	"Irash" OAJ	12	14	8.8	X
	"Ipak integratsiyalashgan zavodi" OAJ	13	18	15.8	11.0
	"ROZA" trikotaj fabrikasi" OAJ	2	5	-5.9	-0.6
	"Sofiya" OAJ	25	10	2.0	2.3

Shuni ham ta'kidlash joizki, "Irash" OAJ korxonasi o'tgan tekshirish yilida ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirmagan. Uning sof daromadi, tannarxi va operatsion xarajatlarning boshqa tarkibiy qismlari 0 ga teng bo'lgan. Biroq joriy ma'lumotlarga ko'ra, reytingda kompaniya 1-va 2-modellar bo'yicha 12-va 14-o'rinlarni egallaydi. 1-modeldagi (o'rta reyting) nisbatan yuqori o'rin kompaniya balansida mavjud aylanma mablag'larning mavjudligi bilan bog'liq. Ushbu davrda iqtisodiy faoliyatning yo'qligi foyda olishni ta'minlamadi, ammo tekshirilayotgan boshqa korxonalar nisbatan sezilarli yo'qotishlar kuzatilmadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib shuni aytish mumkin, 5 yil davomida Malayziya korxonalarida samaradorlikning o'tkazilgan stoxastik chegara tahlili natijalarini umumlashirib, quyidagi xulosalar chiqarishimiz mumkin:


a. Modellashtirish jarayonida foydalaniladigan deterministik parametrlarning vektor tarkibini aniqlashning ikkita varianti

tekshirilayotgan korxonalar samaradorligini baholashning turli natijalarini ko'rsatdi. Bu bizga korxonaga samaradorligini tahlil qilishning uni baholashning tanlangan parametrlariga, muhim va ahamiyatsiz ta'sir parametrlariga bog'liqligi to'g'risida xulosa chiqarish imkonini beradi;


b. Ta'sir etuvchi omillar korxonaga xarajatlari (moddiy xarajatlari, amortizatsiya, ish haqi fondi) bo'lgan ikkinchi modelda korxonaga samaradorligi reytingining uning tarmoqqa mansubligiga bog'liqligi kuzatiladi. Bu korxonaga xarajatlari tarkibidagi, shuningdek, turli tarmoqlardagi ishlab chiqarishning mehnat va moddiy iste'mol darajasidagi farqlar korxonalar faoliyati samaradorligini baholashning muhim omillari ekanligining tasdig'idir;

c. Samaradorlik ko'rsatkichlarining stoxastik tahlili natijalari bilan aniqlangan korxonalar rentabelligi ko'rsatkichlari o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli bog'liqlik yo'q.





1-model. bo'yicha korxonalar reytingi - mahsulotning rentabelligi<sup>37</sup>



2-model bo'yicha korxonalar reytingi - mahsulot rentabelligi<sup>38</sup>

Binobarin, rentabellik ko'rsatkichlaridan korxonalar faoliyati samaradorligining yagona yoki asosiy mezon sifatida foydalanish mumkin emas, garchi ular korxonaning moliyaviy holatini baholashning muhim ko'rsatkichlari hisoblansada.

#### Foydalangan adabiyotlar:

1. Battese, G., & Coelli, T. (1995). Model for technical inefficiency effects in a stochastic frontier production function for panel data. *Empirical Economics*, 20, 325-332.
2. Cherep, A. V., & Sinyekayeva, O. D. (2014). Methodical principles of an estimation of efficiency of the enterprises of mechanical engineering. *Business Inform*, 4, 124-129.
3. Coelli, T. (1996). A guide to frontier version 4.1: A computer program for stochastic frontier production and cost function estimation. *CEPA Working Papers*, 7, 33. SMIDA (2017).
4. Fic, M., & Malinowski, M. (2016). Communication infrastructure and enterprise effectiveness. Retrieved March 3, 2017 from Springer International Publishing Switzerland: [link.springer.com/chapter/10.1007/978-3-319-21139-8\\_4](http://link.springer.com/chapter/10.1007/978-3-319-21139-8_4)
5. Matyux, S. A. (2014). Research of modern methods of assessing the effectiveness of organizations. *Economic analysis*, 3, 79-85 .
6. Nickell, S., Nicolitsas, D., & Dryden, N. (1997). What makes firms perform well. *European Economic Review*, 1, 783-796.
7. Sun, W. (2011). Study on performance evaluation of enterprise. *Key Engineering Materials*, 467-469, 1122-1125. Retrieved March 3, 2017 from <http://subject.org.cn/>

<sup>37</sup> Muallif ishlanmasi.

<sup>38</sup> Muallif ishlanmasi



## MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY AHAMIYATI

**Mohichexra Boltayeva**

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali,  
Talabalarning kredit ta'lim tizimini boshqarish bosh mutaxassisi,  
[bmoxichexra@bk.ru](mailto:bmoxichexra@bk.ru)

**Abbos Suyunov**

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali,  
Iqtisodiyot yo'nalishi 3-bosqich talabasi,  
[abbosuyunov02@gmail.com](mailto:abbosuyunov02@gmail.com)

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p><b>Qabul qilindi:</b> 24-dekabr 2022-yil <b>Tasdiqlandi:</b> 26-dekabr 2022-yil <b>Jurnal soni:</b> 5 <b>Maqola raqami:</b> 10 <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/ku.v5i5.214">https://doi.org/10.54613/ku.v5i5.214</a></p>	<p>Turizm sohasi mamlakatlar va mintaqalar iqtisodiyotini rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etishini va u XXI asr jahon xo'jaligining ustuvor tarmoqlaridan biri ekanligini alohida ta'kidlash lozim. O'zbekiston zamonaviy turizm industriyasini rivojlantirish uchun barcha zarur manbalarga ega. Yurtimizda soha rivoji uchun zaruriy tashkiliy-huquqiy mexanizmlar vujudga keltirilib, hukumat tomonidan tegishli me'yoriy hujjatlar qabul qilinmoqda. Ushbu maqolada turizm industriyasini rivojlantirishning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi ahamiyati, sohani modernizatsiyalashtirishda olib borilayotgan chora-tadbirlar tahlil qilinib, muallif tomonidan xulosa va takliflar berib o'tilgan.</p>
<p><b>KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ Keywords</b></p> <p>Turizm, iqtisodiy holat, infratuzilma, gid, ekskursiya, sayohat, tarixiy obidalar, investitsiya, mehmonxona, valyuta, UNWTO, turistik xizmatlar.</p>	

**Kirish.** Bugungi kunda turizm sohasi dunyo mamlakatlarida milliy iqtisodiyotning salmoqli daromad keltiruvchi sohasidan biriga aylanib ulgurani ko'pchiligimizga ma'lum. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasining sayyohlik salohiyati jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. O'zbekiston Yevroosiyo mintaqasidagi geopolitik joylashuvi, xalqaro va mahalliy turizmni rivojlantirish imkoniyatlari bilan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Boy tabiiy xom-ashyo potentsiali, bo'sh mehnat resurslarining mavjudligi, siyosiy barqarorlik hamda xalqaro avialiniyalar va aloqalari tarmog'i mavjudligi turizmning barcha ko'rinishlarini rivojlantirishga imkon yaratadi. Turizmni, avvalambor xususiy sektorda takomillashtirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ko'rsatilayotgan xizmatlarning raqobatbardoshligini va sifatini oshirish, milliy turizm mahsulotini jahon bozorida faol va kompleks ravishda targ'ib qilish, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisiga 2018-yil 28-dekabrda qilgan Murojaatnomasida bildirilgan takliflarni amalda tatbiq etish maqsadida hamda 2017-2021 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarga muvofiq turizm tarmog'i uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, turizm infratuzilmasini rivojlantirish hamda maqbul va qulay turizm muhitini yaratish, transport logistikasini rivojlantirish, ichki va tashqi yo'nalishlarni kengaytirish, transport xizmatlari sifatini oshirish rejaga kiritildi<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2016-yil 2-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi qabul qilgan farmonida "...turizm tarmog'i uchun, ayniqsa menejment va marketing sohasida malakali kadrlarni sifatli tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, gidlar (ekskursiya yetakchilari) tayyorlash, turizm faoliyati subyektlari xodimlarini muntazam ravishda qayta tayyorlash va malakasini oshirish" masalasi o'rtta muddatli istiqbolda turizm sohasidagi davlat siyosatining maqsadli vazifalari va ustuvor yo'nalishlari etib belgilandi<sup>2</sup>.

Turizm industriyasi jahon xo'jaligining yetakchi tarmoqlaridan biri bo'lib, milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli soha hisoblanadi. Turizm boshqa sohalarga nisbatan tez taraqqiy etayotgan manbadir. Chunki bu sohada unchalik katta investitsiyani jalb qilmasdan ham daromad olish mumkin bo'ladi. Boshqa sohalarda, jumladan havo, temiryo'l, avtomobil transporti, ovqatlanish va savdo

shahobchalari, mehmonxonalar rivoj topsa, o'sha joyda turistik ob'ektlar mavjud bo'lsa, o'sha yerda bemaol turizmni rivojlantirish mumkin bo'ladi. Turizm dunyo yalpi ichki mahsulotining taxminan 5%ini tashkil etadi, rivojlangan mamlakatlarda deyarli 10% aholi turizm sohasida band. COVID-19 pandemiyasi oqibatida turizm sohasi eng katta talafot ko'rgan tarmoqlardan hisoblanadi. Jahon turizm tashkiloti (UNWTO)ning ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda xalqaro turizm 72%ga yoki turizm xizmatlaridan tushumlar 1,1 trillion dollarga kamayib, 1990-yildagi ko'rsatkichga tushib qoldi. Natijada 935 mlrd. dollar miqdorida eksport daromadlari yo'qotildi<sup>3</sup>.

**Adabiyotlar tahlili.** Bugungi kunda mamlakat milliy iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan turizmni rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda, bu esa mazkur sohaning tez rivojlanishi, yangi ish o'rinlarini yaratish, sohadan kelayotgan daromadlarni oshirish, aholi turmush darajasi va yashash sifatini yaxshilash, shuningdek, investitsion jozibadorlikni yanada oshirishga qaratilgan.

Yu.V. Bogdanovning fikricha, 30 ta turist bevosita bitta yoki bilvosita ikkita yangi ish o'rnini yaratadi. Tadqiqotchi Z.M. Muxammedovanning ta'kidlashicha, O'zbekistonda turizmdan keladigan daromadlarni yalpi ichki mahsulotdagi ulushi loqaal 5 foizga yetkazilsa, bu tarmoqda band bo'lgan aholi soni 2433 kishini tashkil etadi. Aholi jon boshiga YalM hajmi esa 392,1 ming so'mga oshadi.

Turizm sohasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri bo'yicha ko'plab olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Masalan, A.M.Gudratli turizmning mamlakat iqtisodiyotiga ta'sirini ijobiy baholab, turizm sohasi milliy daromadni ko'paytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, turistik xizmatlarni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan barcha tarmoqlarni rivojlantirish, turistik markazlarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish, xalq hunarmandchiligi va madaniyat markazlari faoliyatini faollashtirish, aholi turmush darajasi oshishini ta'minlash, valyuta tushumlarini ko'paytirishga yordam berishini ta'kidlaydi. A.V.Strelnikov esa, ushbu tarmoqda bitta yangi ish o'rnini yaratish sanoat tarmog'iga nisbatan 20 barobar arzonroqqa tushishini aniqlagan.

P. Vukadinovich turizmning nafaqat ijobiy, balki salbiy ijtimoiy-iqtisodiy samaralari ham borligini ta'kidlab, turizmning quyidagi salbiy ta'sirlarini ajratib ko'rsatadi: turizmga iqtisodiy bog'liqlik; mahalliy aholi uchun kundalik tovar va xizmatlarning qimmatlashishi; turizm bozorida

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. 2018-yil 28-dekabr.

<sup>2</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 02.12.2016 yildagi PF-4861-son.

<sup>3</sup>Erkayeva Barno Abdurahimovna. O'zbekistonda tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirishning ijtimoiy - iqtisodiy jihatlari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. Ne 6, noyabr-dekabr, 2021 yil.

transmilliy kompaniyalarning ustunligi; ishga oid sikllarning sezuvchanligi va ishga oid munosabatlarining o'zgarishi; milliy an'analar va qadriyatlarga putur yetishi va boshqalar. Bugungi juda tezlik bilan taraqqiy etib borayotgan dunyoda insonlar fikri, ularning harakatlari, hayotdan zavq olish yo'llari o'zgarib boryapti. Insonlar bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazib, dam olishga, sog'ligini tiklashga, dunyoni, xalqlarning urf - odatlari, qadriyatlarini bilishga intilmoqdalar. Bunday xizmatlarni turizm sohasi ko'rsatadi. Insoniyat har doim o'zining harakat doirasini o'zgartirib, yangi yerlarni kashf qilishga intilgan. So'nggi asrga kelib bunday intilishlar kuchaydi va turizmning rivojlanishiga turtki bo'ldi. Ayrim mamlakatlarda turizm sohasi juda ham barqaror rivojlanib bormoqda va ularning har yillik o'sish sur'ati 8%-10% gacha boradi. Bu esa mamlakat turizm sohasining yoki milliy turizmning qanchalik darajada mamlakatlar iqtisodiyoti tizimida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Shunisi qiziqki, milliy turizm rivojlanishi natijasida transport, bozor infratuzilmasi, savdo-sotiq, oziq-ovqat tarmoqlari, qurilish, hunarmandchilik va boshqa xizmat ko'rsatish tarmoqlari ham rivojlanib boradi.

Ushbu tadqiqotda turizm sohasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri miqdoriy asoslash maqsadida Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) hamda Butunjahon sayohat va turizm kengashi (WTTC) tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari va Jahon banki hamda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) statistik hisobotlari ma'lumotlaridan foydalanildi. O'zbekiston va MDHning boshqa mamlakatlari bozor iqtisodiyotiga o'tayotganda rejalashtirish yarim unutilgan holda qolib ketdi. Ko'pincha tadbirkorlar, ayniqsa, boshlovchi tadbirkorlar rejalashtirishning roliga yetarlicha baho bera olmadilar. Bunda ular o'z intuitsiyasi va tajribasiga, ishbilarmon doiralardagi norasmiy aloqalariga, qulay bo'lib tuyulgan bozor istiqbollarga va boshqa holatlarga umid qildilar.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Turizmning yuqori daromad keltiruvchi soha bo'lganligi tufayli ko'plab davlatlar va tadbirkorlar uning rivojlanishi uchun katta e'tibor beradilar. Ular yangi-yangi mehmonxonalar qurmoqda, eskilarini rekonstruksiya qilib ta'mirlamoqda, ular ham jahon standartlariga moslashtirmoqda. Bunga birgina Samarqand shahrida o'nlab shaxsiy mehmonxonalar misol keltirish mumkin. Ular hech kimning ta'ziqi yoki ko'rsatmasiz o'z tashabbuslari bilan belgilangan ob'ektivdir. Maqsadi shu sohani rivojlantirib katta foyda olish. Bu esa o'z foyda, turizmni rivojlantirish uchun eng muhim jabhalardan biridir. Turizm yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha ham dunyo iqtisodiyotining muhim lokomotivi bo'lib turibdi. Dunyo bo'yicha oxirgi besh yilda yaratilgan yangi ish o'rinlarining to'rtidan bir qismi ham aynan turizm sohasiga tegishli. Bu yangi texnologiyalarning jalb qilinishi bilan personalning qisqarishiga olib kelmaydigan iqtisodiyotning kam sonli tarmoqlaridan biridir. Bizning fikrimizcha, turizm sohasi COVID-19dan keyingi davrda ham yangi ish o'rinlarini yaratish orqali hamda tashrif buyuruvchilarning turistlik manzillarga qaytishi hisobiga jahon iqtisodiyotini tiklashda hal qiluvchi soha bo'lib maydonga chiqadi.

Turistlarni qabul qilishda turistik region yoki markazda ishchi o'rinlari tez tashkil etiladi, mahalliy turistik resurslardan foydalanish hisobiga regionda iqtisodiyot rivojlanadi. Ichki va xorijiy turistlarni qabul qilish balansini tarkib topadi.

- ekologik – turistlar piyoda paxod uyushtirishadi yoki mahalliy turistlarning kuzatuvda sayohatga chiqishadi. Mahalliy o'simliklar dunyosi, hayvonot olami, ekologiya bilan tanishishadi. Turizmning bu turi so'nggi yillarda tobora ko'proq e'tiborni jalb qilmoqda;
- qishloq yoki fermer turizmi – turistlar fermerlarning oilalarida yashashadi va qishloq xo'jaligi faoliyati bilan tanishishadi yoki baliqchilarning oilalarida joylashishadi va baliq oviga chiqishadi;
- qishloq turizmi – turistlarning kichik guruhlari an'anaviy, ko'pincha uzoq qishloqlarga yoki ularga yaqin joylarga joylashishadi (ular mahalliy hayot ukلامي va muhit bilan tanisha boradilar);
- piyoda va velosipeddagi turlar – yo'l bo'yidagi mehmonxonalar, yotoqxonalar, xususiy uylar, pansionatlarda to'xtab, mahalliy aholi va uning madaniyati, atrof-muhit va diqqatga sazovor joylar bilan tanishgan holda piyoda yoki velosipedda sayohat qilishadi.

Turizm turistlarga xizmat ko'rsatishda aloqador bo'lgan tarmoqlar majlisini qamrab oluvchi o'ziga xos dam olish sanoati hisoblanadi. Turizm sohasidagi hamkorlik xo'jalik jamoat ishlab chiqarishga aholining band bo'lmagan yoki qisman band bo'lgan qatlamlarini jalb qilib, mehnat resurslaridan to'liq va oqilona foydalanish muammosini hal qilishga yordam beradi. Bu ayniqsa sanoati yaxshi rivojlanmagan mintaqalar uchun muhimdir. Turizm sohasidagi

hamkorlik iqtisodiy imkoniyatlari nisbatan yuqori emasligi bilan farqlanuvchi ayrim mintaqalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Turizm, bu mintaqalarda ishga oid faollikka yordam beradi, jamoat ishlab chiqarishida band bo'lmagan mehnatga layoqatli aholini jalb qiladi, mehnatni tatbiq qilish sohasini kengaytiradi. Turizm sohasida hamkorlik qilish iqtisodiyotning rivojlanishini faollashtiradi, mintaqaviy resurslardan samarali foydalanishga hamda xizmat ko'rsatish sohasi xodimlarining malakasini oshirishga yordam beradi.

**Tadqiqot natijalari.** O'zbekistonda turizm infratuzilmasining rivojlanishi haqida gapirar ekanmiz, mamlakatning asosiy turizm rayonlariga bo'linishi xususida to'xtalib o'tish muhim ahamiyatga egadir. Bugungi kunda Respublikada to'rtta asosiy turistik mintaq mavjud bo'lib, ular Farg'ona, Samarqand-Buxoro, Toshkent va Xorazm turizm mintaqalaridir. Farg'ona turizm mintaqasi Farg'ona vodiysini o'z ichiga hamrab oladi. Uning turistik resurslari arxeologik qazilmalar va me'morchilik obidalari, qulay tabiiy sharoitlar, an'anaviy xalq hunarmandchiligi va san'ati mahsulotlari, sanoat va agrar komplekslardan iborat. Bu yerda avtomobil va temir yo'llarning keng tarmog'ini mavjudligi ham Farg'ona mintaqasidan turizm maqsadlarida foydalanishga, uning butun hududida turizm bazalari va dam olish maskanlarini joylashtirishga imkoniyat yaratadi. O'tgan yili mamlakatimizga 2,5 million sayyoh keldi, turizm xizmatlari eksporti 1 milliard 557 million dollarni tashkil etdi, — dedi Aziz Abdurahimov. — Turoperatorlik xizmatlarini ko'rsatuvchi 128 ta tadbirkorlik subyekti tashkil etilib, bugungi kunda ularning soni 561 taga yetdi. Buxoro va Samarqand shaharlarida «Qadimiy Buxoro» va «Samarqand siti» turizm zonalarini tashkil qilish, umumiy hisobda 450 ga yaqin loyihani amalga oshirish, jumladan, 50 ta madaniy meros obyektlari restavratsiya va konservatsiya qilish, 50 dan ortiq mehmonxona qurish va qayta tiklash, 100 ga yaqin umumiy ovqatlanish ob'ektini barpo etish ishlari olib borilmoqda. Xorijiy sayyohlar uchun viza va ro'yxatga olish taomili soddalashtirildi. Yakka tartibdagi xorijiy sayyohlar uchun 30 kun muddatga beriladigan yagona kirish turizm vizalari joriy qilindi va vizalarni rasmiylashtirish narxi 60 dollardan 40 dollarga tushirildi. Turizmni rivojlantirish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev parlamentga Murojaatida barcha sohalar qatorida turizm sanoati borasida quyidagi fikrlarni bildirdi: «Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri – bu turizmdir. O'zbekiston turizm sohasida dunyo bo'yicha ulkan salohiyatga ega bo'lgan davlat hisoblanadi. Yurtimizda 7300 dan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud va ularning qariyb 200 tasi YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan. Shu bilan birga, mamlakatimizning betakror tabiati, go'zal dam olish maskanlari imkoniyatlaridan foydalanib, yangi turistik yo'nalishlar ochish mumkin. Bu sohaga jahon brendlarini faol jalb etgan holda, biz ziyorat turizmi, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik turizm va bu sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishimiz zarur.

Mamlakat xalqaro turizm bozori jarayonlarida ishtiroki orqali valyuta kirib kelishini ta'minlaydi hamda to'lov balansini holatining yaxshilanishiga olib keladi. Daromadlarning xalqaro turizm tomonidan generatsiyasi iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga kiritiladigan investitsiyalarga ham ta'sir ko'rsatadi. Bu esa, multiplikativ samara orqali iqtisodiy o'sish va rivojlanishga olib keladi. Shunday qilib, ishlab chiqarishni rivojlantirishdan tashqari, mamlakat infratuzilmasi va transport, aloqa liniyalari, savdo aloqalari va boshqalarni takomillashtiradi, bu esa oxir-oqibat iqtisodiy tizimni qayta tuzilishiga olib keladi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, turizm malakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini yanada oshirish maqsadida turizm salohiyatidan foydalanishning kompleks, o'zaro bog'langan mexanizmlarini shakllantirish talab etiladi. O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini Xalqaro talablarga mos ravishda rivojlantirishda xususiy turistik korxonalarining faoliyat doirasini yanada kengaytirish va ularning samaradorligini oshirish borasida talaygina siljishlarga erishilmoqda. Har bir mintaq o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra turistlarni jalb qila oladi. Davlatimizda turistik yarmarkalarni bo'lib o'tishi ham shundan dalolat beradi. Ayniqsa Toshkent, Samarqand, Xiva, Buxoro, Farg'ona vodiysi va boshqa regionlar o'z turistik mahsuloti bilan ajralib turadi va bu regionlarning katta potentsialga ega. Yurtimiz jahon sayyohlik bozorida o'z o'rniga ega bo'lishi uchun, turistlarga qulay sharoit yaratish, servis xizmatini yaxshilash, sayyohlik obidalarining jozibadorligini oshirish va reklamani kuchaytirish kabi bir qanch chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq. Umuman olganda, milliy turizm kelajakda

mamlakatimizning eng yuqori daromadli tarmoqlaridan biriga aylanadi. Buning uchun mamlakatimizda barcha imkoniyatlar, siyosiy tinchlik va

eng asosiysi, xalqimizning insonparvarligi va mehmondo'stligi nihoyatda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018-yil 28-dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 02.12.2016 yildagi PF-4861-son. <https://lex.uz/docs/-3077025>
3. Erkayeva Barno Abdurahimovna. O'zbekistonda tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirishning ijtimoiy - iqtisodiy jihatlari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2021 yil.
4. Muxammedova Z.M. Turizmni innovatsion rivojlantirishda investitsion resurslar iqtisodiy samaradorligini oshirish. PhD ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyasi. Samarqand 2020. – 13 b.
5. Алиева, Г. И. Turizmning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni / Г. И. Алиева. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2017. — № 24.1 (158.1). — С. 3-5. — URL: <https://moluch.ru/archive/158/44595/> (дата обращения: 09.01.2023).
6. Boltayeva M., Suyunov A. Mustaqillik yillarida aholiga ijtimoiy-iqtisodiy xizmat korsatish strukturasi takomillashtirish //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 538-541.
7. Lutfulla S., Abbas S., A'zimjon S. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKDA MEHNAT MUNOSABATLARINING RIVOJLANISH TENDANSIYALARI //O'quv fanlaridagi Akademik tadqiqotlar va tendensiyalar jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 12. – S. 378-383.
8. Lutfulla S., Abbas S., A'zimjon S. RAQAMLI IQTISODIYO'T TUSHUNCHASI, MOHIYATI VA ILMIY TRENDLARI TAHLILI //O'quv fanlaridagi Akademik tadqiqotlar va tendensiyalar jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 12. – S. 384-388.
9. Ilyos o'g'li S. A. et al. RAQAMLI IQTISODIYOT: VUJUDGA KELISHI, SAMARADORLIGI, IJOBIY VA SALBIY JIHLARI //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 75-79.
10. <https://cyberleninka.ru/article/n/turizmning-mamlakat-iitimoiv-iqtisodiv-rivoilanishidagi-ahamiyati>
11. <https://cyberleninka.ru/article/n/turizmning-o-zbekistonda-tutgan-o-rni>
12. [https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/49\\_Erk\\_aveva.pdf](https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/49_Erk_aveva.pdf)



## O'ZBEKISTONDA ISLOMIY MOLIIYA TIZIMINI QO'LLASH ISTIQBOLLARI

Oybek Ahmadjonov

Qo'qon Universiteti 2 kurs doktoranti

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p><b>Qabul qilindi:</b> 24-dekabr 2022-yil <b>Tasdiqlandi:</b> 26-dekabr 2022-yil <b>Jurnal soni:</b> 5 <b>Maqola raqami:</b> 11 <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/ku.v5i5.215">https://doi.org/10.54613/ku.v5i5.215</a></p>	<p>Ushbu maqola ishi Islomiy kreditlardan foydalanishning jahon tajribalarini o'rganib, ularning amaliyotida qo'llanilayotgan kredit turlarini aniqlash va yoritishdan iborat. Hozirgi zamonda bank tizimini takomillashtirishda "qarz beruvchi-qarzdor" munosabatlariga emas, balki "sotuvchi-xaridor" yoki "Hamkorlik" munosabatlariga asoslangan islom bank tizimining kredit mahsulotlaridan namuna olish dunyo iqtisodiyoti oldida turgan muammolarni yechishda yordam berishi mumkin.</p>
<p><b>KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ Keywords</b></p>	<p>Bunda islom banklari tomonidan taqdim etilayotgan kredit turlarini nazariy va amaliy jihatlarini yoritib berish, shuningdek uning jahon amaliyotida sinovdan o'tgan kredit turlarini o'rganish hamda ularni mamalakatimiz tijorat banklarida joriy qilish va shakllantirish yuzasidan ilmiy takliflar ishlab chiqish maqsad qilingan.</p>

**Kirish.** Islomiy moliya tarmog'i bugungi kunda jahonda jadal rivojlanib borayotgan va innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarini o'zida jamlagan sohalardan biri hisoblanadi. Mutaxassislar fikriga ko'ra, islomiy moliya muassasalari yalpi aktivlari miqdori 3 trillion AQSh dollarini tashkil etadi va yiliga 15–20% ga o'sib bormoqda. Aholisining asosiy qismi musulmonlardan iborat bo'lgan davlatlar xususan O'zbekiston Respublikasi uchun ushbu tarmoqni rivojlantirish, ayniqsa, dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev IHT TIV kengashi 43-sessiyasi ochilish marosimida so'zlagan nutqida «Islom olami ulkan iqtisodiy, investitsion salohiyat, energetika resurslariga ega. Ulardan to'g'ri foydalanish, Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlarning xalqaro savdo iqtisodiy, moliyaviy, investitsion hamkorligini kengaytirish, mamlakatlarimizni birlashtiradigan transport yo'llarini tashkil etish yuksak iqtisodiy taraqqiyot ko'rsatkichlariga erishish imkonini beradi va bu pirovard natijada boshqa barcha sohalarning rivojlanishida asos bo'lib xizmat qiladi», – deya ta'kidlab o'tgan edi<sup>2</sup>. Shunday ekan, musulmon davlatlaridagi faoliyati islomiy moliyalashtirishga asoslangan mavjud banklar, investitsiya fondlari va kompaniyalar mablag'larini O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va xususiy sektorni qo'llab quvvatlash maqsadida jalb etish ayni muddaodir. Buning uchun albatta milliy bank tizimiga yangicha yondashuv bilan nazar solmoq lozim, ya'ni an'anaviy moliyalashtirish mexanizmlari bilan bir qatorda sherikchilikka asoslangan moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish masalasi tadqiq etilishi muhim va dolzarb hisoblanadi. Islomiy moliya muassasalarining an'anaviy moliya muassasalaridan asosiy farqi shundan iboratki, islomiy moliya foyda va zararni bo'lishish hamda real aktivlarga asoslangan moliyalashtirishni o'zida namoyon qiladi. Boshqacha aytganda, islomiy moliyalashtirish sherikchilikka asoslanadi. Bunday muassasalar mijoz talabi bo'yicha ob'ektni qurib berishi, asbob-uskunalar, tovar, xomashyolar sotib olib berishi yoki ularni ijaraga berishi mumkin. Moliyalashtirish asosida savdo amaliyotlari yotadi. An'anaviy bank tizimida esa banklarning savdo amaliyotlarini amalga oshirishi qonunchilik nuqtai nazaridan mushkul hisoblanadi va bunga soliqqa tortish hamda bank faoliyatiga taalluqli me'yoriy-huquqiy hujjatlar to'sqinlik qiladi.

Mazkur vazifalarning samarali ijrosi respublikamiz Islom moliyasi tarmog'ini rivojlanish tendentsiyasini chuqur tahlil qilish, uning barqaror rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni miqdoriy tadqiq etish va shular asosida ilmiy taklif hamda amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishni talab etadi.

Tadqiqot maqsadi tijorat banklarida islomiy bank xizmatlarini tashkil qilish va uni rivojlantirish orqali moliya-kredit tizimining

samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Xalqimizning moliyaviy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 20 apreldagi "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida" O'RB-765-son<sup>3</sup> qonunining qabul qilinishi va bu qonunga asosan islom moliya xizmatlarining nobank moliya muassasalarida joriy etilishi bu boradagi amalga oshirilayotgan islohotlardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, islom banklarining kredit mahsulotlarini nazariy va amaliy jihatlarini yoritib berish, shuningdek uning jahon amaliyotida sinovdan o'tganlarini o'rganish hamda ularni O'zbekistondagi tijorat banklarida joriy qilish va shakllantirish yuzasidan ilmiy takliflar ishlab chiqish hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- tijorat banklarida islomiy bank xizmatlarining zarurligi va nazariy asoslarini o'rganish hamda iqtisodiy o'sishdagi ahamiyatini yoritish;
- islomiy bank xizmatlarining asosiy tamoyillari hamda yo'nalishlarini tadqiq etish;
- an'anaviy va islomiy bank xizmatlari o'rtasidagi farqlar hamda ularning o'zaro aloqadorligi shuningdek, islomiy bank xizmatlarini o'ziga xos afzalliklarini o'rganish;
- tijorat banklarida islomiy bank xizmatlarini ko'rsatishning amaldagi holatini o'rganish;
- rivojlangan davlatlar va Markaziy Osiyo davlatlarida islomiy bank xizmatlarining joriy etilishi va amaldagi holatini o'rganish;
- O'zbekistondagi tijorat banklari tomonidan islomiy bank xizmatlarini taqdim etishni amalga oshirish;
- O'zbekistonda islomiy bank xizmatlarini taklif etishda vujudga keladigan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar berish;
- O'zbekistonda islomiy bank xizmatlari faoliyatini tashkil etish yo'nalishlari bo'yicha taklif va tavsiyalarni berishdan iborat.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda statistik jadval va grafiklar, mantiqiy va taqqoslama tahlil, guruhlash usullari hamda mavzuga oid xorijiy, mahalliy olimlarning tadqiqot ishlari va rasmiy statistik internet saytlaridan keng foydalanilgan.

Tadqiqotda ilmiy ishni amalga oshirishda tijorat banklari, lizing kompaniyalari xamda kredit tashkilotlarida islom bank darchalarini tashkil etishda olimlar va soha vakillari bilan suhbat, ularning yozma va og'zaki fikr mulohazalarini tahlil qilish, ekspert baholash, jarayonlarni kuzatish, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv, tajribalar bilan qiyosiy tahlil o'tkazish orqali tegishli yo'nalishlarda xulosa, taklif va

<sup>2</sup> Байдаулет, Е.А. Исламий молия асослари/ Е.А. Байдаулет. – Тошкент: «O'zbekiston» НМИУ, 2019. – 432 б.


<sup>2</sup> <https://m.kun.uz/uz/news/2016/10/18/shavkat-mirziyoyevning-it-tivk-43-sessiasining-ochilish-marosimidagi-nutqi>

<sup>3</sup> <https://lex.uz/uz/docs/-5972411>

tavsiyalar berilishi, ilmiy bilishning dialektik yondashuv, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksionalash, tahlil va sintez, kompleks yondashuv, qiyosiy tahlil usullar qo'llaniladi.


**Tadqiqot natijalari.** Jahon islomiy moliya bozorlarining aktivlari umumiy qiymati qariyb 3 trillion AQSH dollarini tashkil qildi. Jahon islom moliya bozorlari uchun 2024 yilga borib 3,69 trillion AQSH dollarini tashkil etishi prognoz qilinmoqda (2022 yil). Islom moliya sektori 15 foizdan 25 foizgacha yiliga o'sayapti.

2022-yil yakunlariga ko'ra, global jihatdan islom banklarining aktivlari 2 349 milliard AQSH dollariga, Sukuk 631 milliard AQSH dollariga, islom fondlarining aktivlari 178 milliard AQSH dollariga, boshqa islomiy moliya institutlarining aktivlari 154 milliard AQSH dollariga, Takaful aktivlari esa milliard AQSH dollarini tashkil etgan. (4-rasm)



1-rasm. Islomiy moliya institutlarining aktivlari miqdori (Milliard AQSH dollarida)

Agar, 2022-yil yakunlariga ko'ra, islomiy moliya institutlari aktivlarini foizlarda ko'radigan bo'lsak, islom banklari 70%, Sukuk 19%, islom fondlari 5%, boshqa islomiy moliya institutlari 4% va Takaful 2% ni tashkil etgan. (5-rasm)



2-rasm. Umumiy islomiy moliya aktivlarida islomiy moliya institutlarining ulushlari miqdori


Yuqoridagi grafikdan ko'rinib turibdiki, islomiy moliya instrumentlarining eng yuqori potensialga ega bo'lgan instituti – bu islom banklaridir.

Islom banklari Xalqaro bank bozorining 6 foizdan ortiqrog'ini tashkil etmoqda (2022). Hozirgi kunda 80 dan ziyod mamlakatlarda islomiy moliya ishlab turibdi va ularda mazkur soha uchun

me'yoriy-huquqiy asoslar yaratilgan. Biroq islom dunyosining 10ta mamlakatlari islom moliyasining deyarli 95 foiziga egalik qiladi. Birinchilardan Eron 29% bilan, Saudiya Arabistoni (25%), Malaziya (11%), BAA (8%), Quvayt (6%), Qatar (6%), Turkiya (2.6%), Bangladesh (2.1%), Indoneziya (2%) va Baxrain (1.8%). (3-rasm) <sup>1</sup>

<sup>1</sup>O Akhmadjonov, A Abdullaev, (2021). ISLOM MOLIIYASINING XUSUSIYATLARI. Scientific progress 2 (8), 634-638.





3-rasm. 2022-yil 5-noyabr holati bo'yicha global islomiy moliyada katta ulushga ega mamlakatlar

Islomiy va an'anaviy moliyalashtirish o'rtasidagi farq. Iqtisodiyotning ijtimoiy yo'naltirilganligi bu xo'jalik faoliyati natijalarini adolatli taqsimlashdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun iqtisodiyotning real sektori rivojlangan va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishilgan bo'lishi kerak. Yuqorida ta'kidlanganidek, islom moliyasi bozor iqtisodiyotini rad etmaydi va xususiy mulkchilikni tan oladi va rag'batlantiradi. Shunday ekan ikki xil: islomiy va kapitalistik iqtisodiyotlarni farqlashimiz mumkin.

Biznes va jismoniy shaxslar uchun eng asosiy muammo an'anaviy kreditlarning islom dini talablariga mos emasligi bo'lgan. Xususan, biznes vakillarining 38%, hamda jismoniy shaxslarning 55% diniy qarashlari sababli an'anaviy kreditlardan foydalanmasliklarini aytishgan. Kreditlardan foydalanmaslikning boshqa sabablari sifatida foiz darajasining yuqoriligi, murakkab talablarning mavjudligi, hamda kreditlardan foydalanish zarurati yo'qligi ko'rsatilgan.

Jismoniy shaxslarga ham, tadbirkorlarga ham bank kreditlari olish murakkabligi, hamda foiz darajasi yuzasidan haqida savol berildi. Bu savolga 45% jismoniy shaxs kredit olish unchalik murakkab emasligini aytishgan bo'lsa, 44 foizi kreditlar bo'yicha foiz darajasining yuqoriligi ta'kidlashgan. Biznes vakillarining 42 foizi banklardan kredit olish unchalik murakkab emas deyishgan bo'lsa, 36 foiz tadbirkorlar foiz darajasining yuqoriligi qayd etishgan. Shuningdek, 44% biznes vakillari banklardan kredit olish o'ta darajada qiyin emas deb javob berishgan, 24 foizi kredit olish shartlari murakkab deyishgan va buni garov va bitimlarning murakkabligi bilan izohlashgan.

Banklar o'rtasidagi raqobat darajasini 15 foiz banklar juda yuqori deb, 70,37 foizi esa yuqori deb baholashgan. Banklarning boshqa moliya muassasalari bilan raqobat darajasi yuqori emas deb 85,19 foiz banklar (23ta bank) aytishgan bo'lsa, 7,41 foizi (2ta bank) yuqori deb aytishgan. Shuningdek banklardan ular lizing amaliyoti bilan shug'ullanishlari haqida so'ralganda, 2017-2018 yillarda 80 foiz bank lizing bilan shug'ullanishlari, 2019 yilga kelib esa bu ko'rsatkich 76 foizga tushganligi, 24% bank (6 ta bank) esa umuman lizing xizmatlari ko'rsatishmagan ma'lum bo'ldi.<sup>1</sup>

2023 yil 1 yanvar holatiga O'zbekiston Respublikasining doimiy aholi soni 36 mln<sup>2</sup> kishidan oshdi. Shundan 95%<sup>3</sup> dan ortiq aholi islom diniga e'tiqod qiladi. Mazkur ma'lumotning o'zi O'zbekistonda Islomiy moliya tizimi orqali Islom banklarining rivojlanishiga, ularning an'anaviy banklar bilan be'malol raqobatlasha olishiga isbot sifatida qarash yetarli deb hisoblayman.

O'zbekistondagi tijorat banklarida islom moliyasining joriy qilinishida quyidagi to'siqlar va muammolar yuzaga kelishi mumkin:

- islom moliyasi va xizmatlarini tartibga soluvchi qonunlarning yo'qligi va mavjud bo'lgan bank faoliyati va soliq bo'yicha

qonunchilik islom huquqi tamoyillari asosida ishlaydigan banklar uchun mos emasligi;

- mavjud soliq va bank qonunchiligining islom moliya amaliyoti xususiyatlari bilan nomuvofiqligi va banklardagi mavjud dasturiy ta'minot tizimlari islom moliya bitimlari bo'yicha amaliyot o'tkazishga moslashmaganligi;
- hozirgi kunda islom moliyasi va bankchiligi bo'yicha mutaxassislar oliy ta'lim tizimida yetishtirilmasligi va ushbu sohada faoliyat olib boruvchi kadrlarning sezilarli darajada kamligi;
- aholining islom moliyasi haqidagi bilim va tushunchalari deyarli mavjud emasligi.
- Tadqiqotning asosiy ilmiy-amaliy yangiliklari quyidagilardan iborat:
- Tijorat banklarida islomiy bank xizmatlarini yo'lga qo'yish orqali aholi va biznes vakillari ixtiyorida bo'lgan bo'sh turgan pul mablag'larini depozitga jalb qilish va undan foydalanish banklarning daromadini oshiradi va iqtisodiyotni rivojlantiradi;
- Tijorat banklari islomiy moliyalashtirishni joriy etish orqali tadbirkorlik faoliyatidagi riskni bo'lishish yordamida biznes sub'ektlarini qo'llab quvvatlash bilan ko'proq mijozlar jalb qilish mumkin. Islom banklarining kredit turlari sezilarli darajada mijozlarni jalb qiladi;
- Islomiy bank xizmatlarini tashkil qilish moliya bozorida diversifikatsiya darajasini oshirishi va raqobatni kuchaytirishga xizmat qiladi;
- Aholining bank xizmatlarini tanlashga imkoniyat yaratib beradi.

**Xulosa.** O'zbekistonda islomiy moliya tizimini keng joriy etish, aholi va yuridik shaxslarni islom moliya xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirilishida quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiq bo'ladi va tavsiya etiladi.

I. Islom bankchiligi to'g'risidagi qonun qabul qilish va tegishli qonunchilik va me'yoriy hujjatlarga, shu jumladan Fuqarolik kodeksiga, Soliq kodeksiga va Banklar to'g'risidagi qonunga tegishli o'zgartirishlar kiritish kerak. Bularni amalga oshirish uchun hukumat xalqaro tajribaga ega bo'lgan tajribali huquqshunoslardan, bank-moliya sohasi mutaxassislaridan, Islom taraqqiyot banki (IsDB) va Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) kabi xalqaro tashkilotlarning maxalliy va xalqaro ekspertlaridan iborat ishchi guruhi tuzish;

II. Islom banklari faoliyati to'g'risidagi tegishli qonun va me'yoriy hujjatlar qabul qilinmaguncha, Ijara, Musharakah, Mudaraba va Murabaha kabi islom moliyasi mahsulotlaridan investitsiya va lizing kompaniyalari foydalanishlari mumkin. Ammo buning uchun ham ba'zi

<sup>1</sup> O Akhmadjonov, A Abdullaev. (2022). ISLOM MOLIYASI. Scientific progress 3 (2), 45-47. <https://kun.uz/ru/news/2022/12/09/naseleniye-uzbekistana-prevysilo-36-mln>

<sup>2</sup> <https://ru.wikipedia.org/wiki/>

qonunlar va me'yoriy xujjatlariga muayyan o'zgartirishlar kiritish talab etilishi mumkin (albatta huquqshunoslar buni tahlil qilib

chiqishlari kerak bo'ladi). Ushbu moliya muassasalari aholining bo'sh mablag'larini jalb qilish huquqiga ega bo'lishlari kerak. Albatta bu jarayon moliyaviy piramidalarning paydo bo'lishini oldini olish maqsadida tegishli davlat tashkilotlari tomonidan nazoratga olinishi maqsadga muvofiq. Buning uchun investitsiya va lizing kompaniyalari faoliyatini tartibga soluvchi tashkilot tuzilishi yoki bu vazifa birorta mavjud tashkilot zimmasiga yuklatilishi kerak bo'ladi.

III. O'zbekistonda islom bank ishi va moliya tizimini rivojlantirish maqsadida Islom moliya kengashi tashkil etilishi, va Kengash tarkibiga O'zbekiston Banklar Assotsiatsiyasi, tijorat banklari, Musulmonlar idorasi, xalqaro moliya muassasalari ekspertlari (shu jumladan Islom taraqqiyot banki, Jahon banki / Xalqaro moliya korporatsiyasi va boshqalar), Kapital bozorini rivojlantirish agentligi, hamda biznes vakillari kiritilishi maqsadga muvofiq.

IV. Kengashning ishchi organi sifatida quyidagi asosiy vazifalar bilan shug'ullanuvchi Islom bank-moliya tizimini rivojlantirish fondi tashkil etish:

- O'zbekistonda islom bank-moliya infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirish istiqbollari o'rganish va shu masala yuzasidan Kengashga takliflar taqdim etish va kerakli tashkiliy ishlarni amalga oshirish;
- islom moliya tizimini shakllantirish va rivojlantirish uchun turli manbalardan (jumladan xususiy tarmoqdan) moliyaviy mablag'lar jalb qilish (bunda moliya mablag'larini faqat shaffoflik siyosati talablariga javob beradigan manbalardangina jalb qilish asosiy mezon bo'lishi kerak);
- kelajakda O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat yuritadigan barcha turdagi islom moliya muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish (O'zR Markaziy banki yoki boshqa davlat idora va tashkilotlarining vakolat va vazifalarini takrorlamagan holda);
- islom bank-moliya tizimi buyicha tijorat banklari xodimlari uchun xorijdan sohaning yuqori malakali mutaxassislarini jalb qilgan holda maxsus o'quv kurslari tashkil etish;
- islom bank-moliya tizimi yaxshi rivojlangan chet davlatlarida trening va seminarlar tashkil qilish;
- yetakchi islom banklari, lizing va investitsion kompaniyalarida O'zbekiston tijorat banklari, lizing va investitsiya kompaniyalari xodimlari uchun amaliyotlar (internship) tashkil qilish;
- xalqaro nufuzga ega olim va mutaxassislarining kitoblarini o'zbek va rus tillariga o'g'irish, ular asosida islom bank-moliya tizimi bo'yicha qo'llanmalar tayyorlash va chop etish;
- bu sohadagi imkoniyatlarni oshirish uchun ta'lim muassasalari, shu jumladan islom moliyasi yo'nalishida ta'lim beruvchi institutlar va biznes maktablar bilan hamkorlikni kuchaytirish;
- aholining moliyaviy savodxonligini, shu jumladan islom moliya tizimi sohasidagi tushuncha va bilimlarini shakllantirish va oshirish borasida amaliy ishlar olib borish, jumladan ilmiyommabop maqola va kitoblar tayyorlash va chop etish, radio, televidenie va internetda shu mavzuda maxsus eshittirish va ko'rsatuvlar tashkil qilish va h.k.z.

V. Omonatlarni jalb qilish va yaxshi samara beradigan loyihalarni moliyalashtirishda kapital bozorlarining ahamiyati katta bo'lishi mumkin. Islom moliya mahsulotlari (masalan, Sukuk) dan foydalanish kapital bozorida mablag' jalb qilishga yordam beradi.

VI. O'zbekistonda islom moliyasini rivojlantirish bo'yicha, quyidagilarni o'z ichiga olgan maxsus reja ishlab chiqish va qabul qilish:

- huquqiy-me'yoriy, nazorat, likvidlikni boshqarish, soliq tartibi, hisob-kitob va hisobot uchun zarur bo'lgan muhit yaratish;
- islom moliyasi bo'yicha qonunlar, mahsulot va xizmatlarini standartlashtirish va uyg'unlashtirish maqsadida Shar'iy boshqaruv va muvofiqlashtirish boshqaruvini yo'lga qo'yish.
- Bundan tashqari, islom moliya muassasalari va mijozlar o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni to'g'ri hal etish mexanizmini yaratish juda muhimdir. Shu maqsadda, davlat sud tizimida islom moliyasi bo'yicha qonunlarni inobatga oluvchi shart-sharoitlar yaratish quidagi bosqichlarda amalga oshadi:
- Islom banklari faoliyati va islom bank xizmatlari bo'yicha mavjud xorijiy davlatlarning tajribalaridan foydalanilgan holda zudlik bilan milliy qonunchilik va me'yoriy hujjatlardan qabul qilish;
- Ushbu sohada istiqbolli kadrlarni oliy ta'lim tizimida alohida yo'nalishlar ochgan holda tayyorlash;
- Ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlaridan keng foydalanilgan holda aholining savodxonligini oshirish;
- Yangi davr banki sifatida ochilayotgan istiqbolli raqamli (Anor bank, TBS bank, Apelsin bank) banklar singari alohida milliy islom banklarini ochish;

Xulosa qilib aytganda, har bir inson o'zining e'tiqodidan kelib chiqqan holda moliya xizmatlaridan foydalanishga haqli va hozirgi kunda dunyo bo'ylab an'anaviy moliya xizmatlariga alternativ yechimlar yaratilgan zamonda yashayapmiz. Ya'ni, islom moliyasi xizmatlari shariat qoidalariga asoslangan va ularga ribo aralashmaydi. Shuningdek, o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida islom moliyasi aktivlari yildan-yilga ko'payib borayotganini ko'rishimiz mumkin.

Umuman olganda, islomiy moliya xizmatlaridan foydalanish bir tomondan foydalanuvchi e'tiqodini hurmat qilish bo'lsa, ikkinchi tomondan jamiyatda axloqiy me'zonlarni ushlab turishdir, uchinchi tomondan esa katta moliyaviy mablag'lar jalb qilishning bir usulidir.

Islom banklari ijtimoiy mas'uliyatda muhim rol o'ynaydi. Qolaversa, islom iqtisodining asosi va ko'rsatmalari o'z-o'zidan adolat va tenglikka erishadi, bunga misol bo'lsa, islom banklari tomonidan yillik zakot to'lovi Qur'oni Karimda ta'kidlanganidek muhtojlarga va zakot kanallariga o'tkaziladi. qashshoqlikni yumshatishda. Zakot - bu bank sof daromadidan ushlab qolinadigan va har yili to'lanadigan diniy yig'im. Bundan tashqari, mikromoliya mahsulotlari cheklangan daromad toifasini moliyalash orqali jamiyatda ma'lum bir muvozanatga erishishga hissa qo'shadi.

Islom banklarining ijtimoiy mas'uliyati diniy, iqtisodiy va axloqiy majburiyatlarni bajarish bo'yicha amalga oshiradigan barcha faoliyatni anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, islomiy banklar jamiyat oldida to'liq shariatga muvofiq bank va xizmatlarni amalga oshirish, barcha muomala va biznesda Islom qoidalariga rioya qilish uchun mas'ul va majburiydir, bu diniy mas'uliyat bilan bog'liq. Iqtisodiy mas'uliyat nuqtai nazaridan islom banklari daromadli va moliyaviy jihatdan foydali biznes yuritishi, aksiyadorlar va omonatchilarning pul mablag'larini zaxiralashi va rivojlantirishi kerak. Axloqiy javobgarlik islom banklarining qonunlarda belgilanmagan diniy va urf-odatlarni jamiyatga hurmat va qadrlash majburiyatini anglatadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Байдаулет, Е.А. Исламий молия асослари/ Е.А. Байдаулет. – Тошкент: «O'zbekiston» НМИУ, 2019. – 432 б.
2. Ahmadjonov, A Abdullayev, M Mamayusupov, O Umarjonov. (2021). Raqamli iqtisodiyotda boshqaruv muammolari. Science and Education, 2(10), 636-642.
3. Akhmadjonov, A Abdullayev, A Abdupattayev, M Sultonov. (2021). ISLAMIC BANKING MANAGEMENT, ASSETS AND LIABILITIES. Scientific progress, 2 (6), 1525-1532.
4. O Akhmadjonov, A Abdullaev, B Umarjonov, M Shamsiddinov. (2021). ISLON MOLIYASINING XUSUSIYATLARI. Scientific progress 2 (8), 634-638.
5. O Akhmadjonov, A Abdullaev, S Yusupov, J Anvarov. (2021). ISLON BANKCHILIGIDAGI XAVF. Scientific progress 2 (8), 639-642.
6. O Akhmadjonov, A Abdullaev, S Karimova, F Solijonova. (2022). Jahon savdo tashkiloti boshqaruv tizimi. Scientific progress 3 (2), 343-347.
7. O Akhmadjonov, A Abdullaev, J Anvarov, S Ismoilov. (2022). ISLON MOLIYASI. Scientific progress 3 (2), 45-47.
8. O Akhmadjonov, A Abdullaev, M Shamsiddinov, B Umarjonov. (2022). ISLAMIC FINANCE. Scientific progress 3 (2), 48-50.

9. A Akhrorjon, A Oybek. (2022). Danger in Islamic Banking. International scientific conference "Topical issues of the economy in modern ...
10. A Akhrorjon, A Oybek. (2022). Characteristics of Islamic Finance. International scientific conference "Topical issues of the economy in modern ...
11. O Akhmadjonov, A Abdullaev, A Ubaydullayev, I Omonov, ...(2022). ISLOM BANKI VA AN'ANAVIY BANKLAR O 'RTASIDAGI FARQLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2 ...
12. <https://kun.uz/ru/news/2022/12/09/naseleniye-uzbekistana-prevysilo-36-mln>
13. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>
14. <https://lex.uz/uz/docs/-5972411>



## BIZNESNI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI HAMDA UNI BAXOLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI

M.M. Tojiyeva

Qo'qon Universiteti o'qituvchisi, muhabbatxontojiyeva11@gmail.com

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p><b>Qabul qilindi:</b> 24-dekabr 2022-yil  <b>Tasdiqlandi:</b> 26-dekabr 2022-yil  <b>Jurnal soni:</b> 5  <b>Maqola raqami:</b> 12  <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/ku.v5i5.216">https://doi.org/10.54613/ku.v5i5.216</a></p>	<p>Ushbu maqolada kichik biznesni rivojlantirish samaradorligi, hududlarda kichik biznesni rivojlantirish masalalari, kichik biznes samaradorligini baholash masalalariga turli olimlarning yondashuvlari ko'rib chiqilgan. Hozirda O'zbekistonda kichik biznesning xolati, 2012-2022 yillarda mamlakatimizda kichik biznesning rivojlanish darajalari statistikasi keltirilgan, shuningdek, kichik biznesni rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillar keltirilgan. Viloyat iqtisodiyotida kichik biznes samaradorligini baholash tamoyillari berilgan. Kichik biznesni rivojlanish samaradorligini baholashga turli olimlarning yondashuvlari ko'rib, tahlil qilib chiqilgan va muallif tomonidan shaxsiy xulosalar berilgan.</p>
<p><b>KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ Keywords</b>  samaradorlik, ijtimoiy biznes, kichik biznes, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, metodologiya, ko'rsatkichlar, tamoyil.</p>	

**Kirish.** Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida kichik biznes iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan boshqaruvning eng muhim omillaridan biri bo'lib qolmoqda. Kichik biznesning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi darajasini aniqlash iqtisodiyotning ushbu sohasini izchil rivojlantirish omillari va shart-sharoitlar birligida ko'rib chiqilishi hamda kichik biznesning aholi hayot sifatini o'zgartirishga ta'sir darajasini tavsiflashi kerak.

Hozirgi kunlarda mamlakatimiz iqtisodiyotida ijtimoiy biznes tushunchasi faol shakllana boshladi. Xorijiy mamlakatlari tajribasidan kelib chiqib, tadbirkorlik tuzilmalari va ijtimoiy soha o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ijtimoiy biznes deb atalib kelinmoqda.

Ijtimoiy biznesni rivojlantirishning muhim sharti axborot bilan ta'minlashdir. Ijtimoiy biznes haqida kam odam biladi, uning

muvaffaqiyatli rivojlanishi davlat organlari tomonidan axborot yordamini yaxshilashni talab qiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Kichik biznes samaradorligi bo'yicha ilmiy adabiyotlarni ko'rib chiqish uni baholashda mavjud uslubiy yondashuvlarning keng turini taqdim etadi. Biroq, bu vazifani osonlashtirmaydi. Asosiy muammo - ko'plab turli tadbirkorlik sub'ektlarini o'z ichiga olgan hududning ijtimoiy-iqtisodiy quyi tizimi sifatida kichik biznesni kompleks o'rganishni qo'rib chiqish zarur. Kichik biznesning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini aniqlashning asosiy maqsadi kichik biznesning hayotiyligini baholash, ularning aholi hayot sifatiga ta'siri darajasini tavsiflash va iqtisodiyotning o'rganilayotgan sohasining rivojlanish darajasini aniqlashdir. Kichik biznesning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini baholash vositalaridan foydalanishning asosiy bosqichlarini ajratib ko'rsatish zarur shu asnoda ularni 1-jadvalda keltirib o'tamiz.

1-jadval

Kichik biznesning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini baholash

Bosqich nomi	Bosqich tarkibi	
1. Tayyorgarlik	1.1	Baholash maqsadini aniqlash
	1.2	Tadqiqot ustuvorliklarini belgilash
	1.3	Kichik biznes faoliyati samaradorligini baholash bosqichlarini ishlab chiqish
	1.4	Kichik biznesning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini baholash mezonlarini aniqlash.
	1.5	Baholash usullari va usullarini tanlash
	1.6	Baholash uchun ma'lumotlarni yig'ish va dastlabki tahlil qilish hamda qayta ishlash
2. Asosiy	2.1	Kichik biznes rivojlanishiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni baholash va tahlil qilish
	2.2	Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash infratuzilmasini baholash
	2.3	Kichik biznes holatini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlarni o'rganish
	2.4	Kichik biznesning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlarini hisoblash va tahlil qilish
	2.5	Kichik biznes samaradorligining integral ko'rsatkichini hisoblash va kichik biznesning rivojlanish darajasini baholash.
3. Nihoya	3.1	Kichik biznesning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini baholash natijalarini umumlashtirish.
	3.2	Kichik biznesni tashqi sharoitlarga moslashtirish uchun mavjud kamchiliklarni bartaraf etish va mavjud sharoitlardan foydalanish mexanizmini ishlab chiqish.

Biznes tuzilmalari samaradorligini baholashning uslubiy asoslari iqtisodiy tahlil nazariyasida belgilab berilgan va ular G.V. Savitskaya, A.D. Sheremet, I.T. Abdulkarimov kabi mashhur olimlarning ishlarida ko'rib

chiqilgan. Mahalliy adabiyotlarda ko'plab mualliflar 1-rasmda sxematik tarzda keltirilgan iqtisodiy samaradorlikni baholash tamoyillari va usullarining turli xil variantlaridan foydalanishgan.



1-rasm.

Viloyat iqtisodiyotida kichik biznes samaradorligini baholash tamoyillari<sup>49</sup>

Tizimlilik tamoyili tahlil qilinayotgan barcha jarayonlar va hodisalar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, o'rganilayotgan yagona tizimni ifodalaydi.

Murakkablik tamoyili o'zaro bog'liq ob'ektlarni har tomonlama o'rganishni belgilaydi.

Ishonchlilik tamoyili o'rganilayotgan jarayonlar va hodisalar to'g'risida asoslangan va tasdiqlangan ma'lumotlarning mavjudligini nazarda tutadi.

Adolat tamoyili o'rganilayotgan jarayon va hodisalarning ob'ektiv ko'rsatkichlari va ular asosida tuzilgan xulosalar mavjudligini nazarda tutadi.

Mezonlilik tamoyili ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni baholashning ilmiy yondashuvlari va usullarini ishlab chiqishdir.

O'rganilayotgan iqtisodiy jarayon va hodisalar bo'yicha dolzarb ma'lumotlarni taqdim etishning dolzarbligi tamoyili.

Ko'rinish prinsipi o'rganilayotgan jarayon va hodisalarning barcha tomonlarini har tomonlama qamrab olishni nazarda tutadi.

Tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini baholashda ushbu tamoyillarni qo'llash bir qator uslubiy yondashuvlarda o'z ifodasini topgan.

I.T. Abdulkarimov va N.V. Ten<sup>50</sup> tomonidan ishlab chiqilgan moliyaviy faoliyat samaradorligini baholash metodikasi uning mezoni eng kam investitsiyalar bilan eng yaxshi moliyaviy natijalarga erishish ekanligini ko'rsatadi. Bunga esa mablag'larni ishlab chiqarishga qo'yilgan, qo'llaniladigan kapitalning samaradorligini oshirish orqali erishish mumkin (2-3-jadvallar).

Ushbu metodologiyada xo'jalik yurituvchi subektlar faoliyati samaradorligini baholashning umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlarigagina emas, balki ishlab chiqarishning asosiy omillariga, jumladan, asosiy fondlar, aylanma mablag'lar, mehnat resurslari va investitsiya faoliyatiga ham tegishli e'tibor berilgan. Shunday qilib, tahlil qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarga ega bo'lgan kichik biznesning samaradorligini har tomonlama baholash amalga oshiriladi.

2-jadval.

Kichik biznes samaradorligi ko'rsatkichlarini hisoblash

Ko'rsatkichlar	Iqtisodiy xususiyatlari	Hisoblash formulalari
Mezon - "iqtisodga qo'yilgan mablag'lar(kapital) va ishlab chiqarish xarajatlari bo'yicha eng katta moliyaviy natijalarga erishish"		
1. Kapitalning samaradorligi (ROA)	Investitsiya qilingan va foydalanilgan iqtisodiy aktivlarning 1 so'miga to'g'ri keladigan foyda	$C_{kap} = \frac{F \times 100}{KAP_{aktiv}}$
2. O'z kapitalining samaradorligi (ROE)	Investitsiya qilingan o'z mablag'larining 1 so'miga to'g'ri keladigan sof foyda	$C_{o'z.kap} = \frac{SF \times 100}{O'z.Kap}$
3. Sotishning samaradorligi	Oddiy faoliyatdan olingan foydaning ulushi sotilgan mahsulotning 1 so'miga to'g'ri keladi	$C_{sot} = \frac{F_{od.fao} \times 100}{\sum Sotish}$
4. Xarajatning samaradorligi	Ishlab chiqarish xarajatlarning 1 so'miga to'g'ri keladigan sof foyda	$C_{xar} = \frac{SF \times 100}{\sum Xar}$

<sup>49</sup> G.V. Savitskaya, A.D. Sheremet, I.T. Abdulkarimov larning nazariyalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

<sup>50</sup> I.T. Abdulkarimov va N.V. Ten Эффективность и финансовые результаты хозяйственной деятельности предприятия: критерии и показатели, их характеризующие, методика оценки и анализа // Социально-экономические явления и процессы. 2011. №5-6. С. 11-21.



## Kichik biznesning samaradorligini baholashning xususiy ko'rsatkichlari (asosiy vositalardan foydalanish samaradorligi)

Ko'rsatkichlar	Iqtisodiy xususiyatlar	Hisoblash formulalari
<b>Mezon - "asosiy vositalarga qo'yilgan mablag'larni qaytarish"</b>		
1. Kapital unumdorligi	Investitsiya qilingan asosiy vositalarning 1 so'miga ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotlar	$KU_{as.vos} = \frac{Sotuv}{Asosiy_{vos}}$
2. Asosiy vositalar samaradorligi	Investitsiya qilingan asosiy vositalarning 1 so'miga tegishli sof foyda	$C_{as.vos} = \frac{SF \times 100}{Asosiy_{vos}}$
3. Asosiy vositalarning qaytarilishi	Asosiy vositalarga qo'yilgan mablag'lar qaytariladigan yillar soni	$Qay_{as.vos} = \frac{Asosiy_{vos}}{SF}$

Mavjud baholash vositalari orasida G.V. Savitskaya<sup>51</sup> tomonidan taklif qilingan biznes tuzilmalari samaradorligini tahlil qilish metodologiyasiga e'tibor qaratish lozim(4-5-6-jadvallar).

## Kichik biznesning samaradorligini baholashning xususiy ko'rsatkichlari (aylanma mablag'larning samaradorligi)

Ko'rsatkichlar	Iqtisodiy xususiyatlari	Hisoblash formulalari
<b>Mezon - "aylanma mablag'larning aylanmasini tezlashtirish, aylanma mablag'lar hajmini saqlab qolgan holda eng katta ishlab chiqarish va moliyaviy natijalarga erishish"</b>		
1. Aylanma mablag'larning aylanmasi, kunlarda	Aylanma mablag'larning kunlarda bir aylanmasi	$Ay.M_{ay} = \frac{Ay.mab \times 365}{Sotuv}$
2. Aylanma mablag'larning aylanish nisbati	Yiliga aylanma mablag'larning miqdori	$Miq_{ay} = \frac{Sotuv}{Ay.mab}$
3. Aylanma mablag'larning samaradorligi	Investitsiya qilingan aylanma mablag'larning 1 so'mi uchun sof foyda miqdori	$C_{ay.m} = \frac{SF \times 100}{Ay.mab}$

## Kichik biznesning samaradorligini baholashning alohida ko'rsatkichlari (mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi)

Ko'rsatkichlar	Iqtisodiy xususiyatlari	Hisoblash formulalari
<b>Mezon - "ish haqi fondini tejagan holda ishlab chiqarish hajmini vaqt birligiga bitta xodimga oshirish"</b>		
1. Mehnat unumdorligi	Vaqt birligi uchun bitta ishchi tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot	$M_{un} = \frac{M_{ish.ch}}{Ishchi}$
2. Ish haqi fondining samaradorligi	Ish haqi fondining 1 so'miga to'g'ri keladigan foyda ulushi	$C_{i.h.f} = \frac{SF \times 100}{IHF}$
3. Ish haqiga sarflangan xarajatlar darajasi	Sotilgan mahsulotning 1 so'miga mehnat xarajatlari	$D_{i.h.f} = \frac{IHF \times 100}{Sotuv}$
4. Mehnat unumdorligining o'sishi va o'rta ish haqi koeffitsienti	Mehnat unumdorligining o'sish sur'atlarining ishchilarning o'rtacha ish haqiga nisbati	$K_{m.u/i.h} = \frac{\Delta M.U_n}{\overline{IH}}$

<sup>51</sup> Савицкая Г.В. Анализ эффективности деятельности предприятия: Методологические аспекты. М.: ООО «Новое знание», 2003. 159 с.

## Kichik biznes faoliyati samaradorligini baholashning qisman ko'rsatkichlari (investitsiya faoliyati samaradorligi)

Ko'rsatkichlar	Iqtisodiy xususiyatlari	Hisoblash formulalari
<b>Mezon - "investitsiyalar rentabelligi darajasini oshirish"</b>		
1. Sotib olingan aksiyalar bo'yicha daromadlik koeffitsienti	Sotib olingan aksiyalarning daromadlilik darajasi, ya'ni sotib olingan aksiyalarning 1 so'miga tegishli daromad	$K_{dar/aks} = \frac{D_{to1}}{Aks_{teg.dar}}$
2. Berilgan kreditlar va zayomlarning rentabellik koeffitsienti	Berilgan kreditlar va zayomlarning 1 so'miga tegishli daromadi	$K_{dar.z.aks} = \frac{\sum F_{to1}}{\sum Z.Aks_{ber}}$
3. Investitsiyalarning daromadlilik koeffitsienti	O'tkazilgan investitsiyalarning 1 so'miga tegishli bo'lgan daromad, investitsiyalarning daromadlilik darajasi	$K_{dar/inv} = \frac{\sum Ol_{inv}}{\sum Inv.}$

G.V. Savitskaya kichik biznesning iqtisodiy ko'rsatkichlari samaradorligini nisbiy jihatdan tahlil qilishning uslubiy yondashuvini taklif qiladi. An'anaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda (kapital unumdorligi, kapital zichligi, mablag'larning rentabelligi) quyidagilar ham hisoblab chiqiladi:

- 1) ishlab chiqarish o'sishining bir so'miga aniq kapital qo'yilmalar;
- 2) asosiy vositalarning nisbatan tejalishi

$$(AB_0 - AB_1) \times J_{MC}$$

bu yerda  $AB_0$ ,  $AB_1$  - mos ravishda, asosiy va hisobot yillaridagi asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati, ming so'm;

$J_{MC}$  - mahsulot sotish hajmi indeksi.

Kichik biznesning iqtisodiy samaradorligini aks ettiruvchi manbalarni moliyaviy ko'rsatkichlar asosida tahlil qilib, xorijiy olimlar tomonidan bu mavzu yetarli darajada yoritilgan degan xulosaga keldik. Shu bilan birga, biz hal etilmagan muammolarni qayd etamiz. Bular: 1 - kichik biznes sub'ektlari faoliyatining ijtimoiy natijalarini hisobga olish uslubiyatining yo'qligi; 2 - ularning tashqi muhitdagi o'zgarishlarga ta'sir qilish darajasi.

Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni baholashning Ye.I. Yuvenen tomonidan taklif etilgan metodologiyasi ko'proq universal bo'lib, ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlikning integral ko'rsatkichini o'z ichiga oladi. Bu yerda ko'rsatkichlar vazn koeffitsientlari yordamida, ular orasidagi kovariatsiyaga bog'liqlikni hisobga olgan holda hisoblanadi. Tadqiqotda qo'llaniladigan kompleks yondashuv iqtisodiy tizimlarning turli tomonlardan va sohalaridagi faoliyatini hisobga olish imkonini beradi, bu esa mintaqaning kichik biznes kabi turli xil, ko'p funktsiyali quyi tizimlarini baholash va tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shuningdek, uning metodologiyasi ichki turizm sohasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlarini o'z ichiga olgan bo'lib, hududning turizm kompleksining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini aks ettiradi. Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari ichki turizm sohasidagi korxonalarining o'z resurslari: tabiiy, moddiy-texnika, kadrlar, moliyaviy, shuningdek, mintaqaning iqtisodiy ko'rsatkichlariga qo'shgan hissasini qo'llash orqali faoliyatning natijasini aks ettiradi.

**Metodologiya.** Ijtimoiy samaradorlik ko'rsatkichlari ichki turizmning mintaqaholisining bandlik darajasiga, aholining rekreatsion ehtiyojlarini qondirishga va shunga mos ravishda ularning hayot sifatini yaxshilashga, hududning ijtimoiy-madaniy rivojlanishiga ta'sir darajasini aks ettiradi.

Metodologiya quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- statistik ma'lumotlardan foydalangan holda hisoblash imkoniyati, xolislik tamoyillariga mos keladigan ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini ishlab chiqish;
- ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini guruhlash;
- statistik ma'lumotlarni yig'ish va birlamchi qayta ishlash;

- integral ko'rsatkichning ishlash ko'rsatkichlarini hisoblash;
- ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikning integral ko'rsatkichining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini qiyosiy baholash. Iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikning integral ko'rsatkichlari quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$y_t = \sum_{i=1}^n a_i k_{ti}$$

bu yerda  $t=1$  yoki  $t=2$ ,  $y_1$  iqtisodiy samaradorlikning integral ko'rsatkichi,

$y_2$  - ijtimoiy samaradorlikning integral ko'rsatkichi,

$k_{ti}$  - t qismdan i - normalashtirilgan ko'rsatkichi,

$a_i$  - t qismdan i - indikator integral indikatorga kiritilgan vazn,

n - t- qismning ko'rsatkichlari soni.

Ko'rsatkichlar orasidagi  $a_i$  og'irlik koeffitsientlarini aniqlash uchun juft korrelyatsiya usuli qo'llaniladi. Agar  $r_{ij}$  i- va j- ko'rsatkichlar orasidagi juft korrelyatsiya koeffitsienti bo'lsa, u holda og'irliklar quyidagi formula bilan aniqlanadi:


$$a_i = \frac{\sum_{j=1}^n r_{ij}}{\sum_{j=1}^n \sum_{i=1}^n r_{ij}}$$

Ushbu metodologiyani qo'llash tadbirkorlik tuzilmalarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini mintaqalararo baholash imkonini beradi, ammo bu holda ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik mezonlarini aniq belgilash talab etiladi. Ko'rsatkichlarni tanlashdagi xatolar integral ko'rsatkichning boshqa qiymatiga olib kelishi mumkin va uning asosida hech qanday xulosalar chiqarishga imkon bermaydi.

Natijada, ushbu metodning quyidagi kamchiliklari ham mavjud:

- samaradorlik ko'rsatkichlari ularni olish uchun ajratilgan xarajatlar va resurslarni hisobga olmaydi;
- integral ko'rsatkich ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni baholashning aniq mezon chegaralariga ega emas;
- korrelyatsion tahlildan foydalanish ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarning reaksiya tezligidagi farqlarni hisobga olmaydi hamda ko'rsatkichlar o'rtasida aniq deterministik munosabatlarning yo'qligini talab qiladi.


**Tahlil va natijalar.** Yaqin kelajakda ijtimoiy biznesning o'sishi tendentsiyasi mavjud, chunki u rivojlangan mamlakatlarning strategik rivojlanishining ustuvor yo'nalishi bo'lib, iqtisodiyotni qayta qurish va jamiyatning ijtimoiy muammolarini hal qilishga yordam beradi. Hududlarda ijtimoiy biznes aholi o'rtasida tadbirkorning ijobiy imidjini shakllantirish, bunyodkorlik faolligini va fuqarolik jamiyatining faol pozitsiyasini rag'batlantirish imkonini beradi.



2-rasm. Faoliyatning ustuvor turlarini (lokomotivlarini) aniqlash modeli

Shu munosabat bilan kichik biznesning faoliyat yuritish modeli taklif etilmoqda, uning ajralib turadigan xususiyati kichik biznesning hududning quyi tizimi sifatida uning tarkibiy va dinamik funksiyasi bo'lib, uning ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini ishga tushiradi (2-rasm).

Ushbu modelni qo'llash hududlar rahbariyatiga hududning ijtimoiy-iqtisodiy tizimida kichik biznesning tarkibiy va dinamik funksiyasini hisobga olish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish shu bilan bir qatorda uni ham qisqa, ham uzoq muddatda rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishga oqilona yondashish imkonini beradi.



3-rasm.

2012-2022 yillarda faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik (biznes) sub'yektlari soni (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz, 1-yanvar holatiga ko'ra birlikda<sup>53</sup>)

O'zbekiston hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarida kichik biznesning rivojlanish tendensiyalari va mamlakat iqtisodiyotining tendensiyalari zamonaviy hudud tuzilishining ko'plab xususiyatlari bilan uzviy bog'liqdir. Uning fizik-geografik omillari, ko'p asrlik tarixiy merosi,


Yevrosiyodagi hududi va periferik mavqei, iqlim sharoiti, aksariyat hududlarda aholi zichligi pastligi, tabiiy resurslarning nomutanosib tarqalishi, aholi va ishlab chiqarish. Bularning barchasi mamlakatning

<sup>53</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarida kichik biznesni rivojlantirish uchun sharoit yaratadi.

O'zbekiston Respublikasida 2022-yil 1-aprel holatiga kichik biznes (tadbirkorlik) sub'yektlarining soni har 1000 aholiga 13,4 birlikni tashkil qildi. Kichik biznes (tadbirkorlik) sub'yektlarining soni har 1000 aholiga hududlar kesimida eng ko'p Toshkent shahrida – 33,6 birlikni,


Navoiy viloyatida – 20,3 birlikni va Sirdaryo viloyatida – 16,0 birlikni tashkil qildi<sup>54</sup>. Rasmiy statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2012-yildan 2022-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasida va hududlarida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik (biznes) sub'yektlari sonining o'zgarishi kuzatildi (3,4-rasm).



4-rasm.

2022 yillarda hududlarda faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik (biznes) sub'yektlari (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz, 1- yanvar holatiga ko'ra, foizda)

Kichik biznes (tadbirkorlik)ni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida o'sib borayotgan kichik korxonalarini qo'llab-quvvatlash va keng jalb qilish hisobiga iqtisodiy o'sishning kata zaxiralari mavjud.



5-rasm.

Iqtisodiyot tarmoqlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik (biznes) sub'yektlari soni (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz, 2022- yil 1-yanvar holatiga ko'ra, foiz birlikda)

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, kichik biznes sub'yektlari orasida ulgurji va chakana savdo ustunlik qiladi (5-rasm). O'rta biznes savdo bilan bir qatorda sanoat (ishlab chiqarish)da ham keng namoyon bo'lishi mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Moliyaviy resurslarning yetishmasligi sharoitida quyidagi asosiy muammolar paydo bo'ladi:

- sotish hajmining qisqarishi (ayniqsa, qurilish sohasida, qurilish materiallari ishlab chiqarish, yuk tashish, nooziq-ovqat tovarlari savdosi) tufayli kapitalning aylanma mablag' larni qisqarishi;

<sup>54</sup> <https://www.stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiiliklar/22768-kichik-tadbirkorlik-biznes-sub'yektlarining-soni>

- muddati o'tgan kreditorlik qarzlarning ko'payishi;
- to'lovsiz to'lovlar hajmining oshishi;
- kichik biznes mahsulotlariga talabning kamayishi;
- bank resurslaridan foydalanishning qisqarishi (bank talablarining qattiqlashishi tufayli) va boshqalar.

Hozirgi sanksiyalar va cheklovlar sharoitida yangi moliyaviy resurslar va investitsiya imkoniyatlariga kirish sezilarli darajada qisqartirildi.

Bizning fikrimizcha mamlakatimizda kichik biznesni rivojlantirishning asosiy muammolari:

- kichik tadbirkorlik(biznes) sub'yektlarini elektr tarmoqlariga ulashni ta'minlovchi tashkilotlar xizmatlari uchun tariflarning asossiz yuqoriligi;
- ma'muriy hududlarda rivojlanish strategiyasining yo'qligidan iborat bo'lgan ma'muriy to'siqlar yirik chakana sotuvchilarni bozorda mahalliy ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish shartlarini belgilashga undaydi;
- aholining xarid qobiliyatining pastligi, bu ko'pincha hududda sanoatning yo'qligi va malakali kadrlarning yirik shaharlarga chiqib ketishining natijasidir.

Kichik biznesni rivojlantirish muammolariga ishbilarmonlik aloqalarini o'rnatish muammolari, kichik biznes subyektlarining asosiy vazifalarni birgalikda hal qilishni istamasligi; axborot resurslariga kirishda ularni muvofiqlashtirish muhimligini noto'g'ri tushinish; kichik korxonalar rahbariyati va xodimlarining bozor iqtisodiyoti hamda boshqaruvi masalalari bo'yicha kasbiy mahoratining yetarli darajada emasligi.

Shunday qilib, biznes tuzilmalarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini baholashning uslubiy yondashuvlarini ko'rib chiqish quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

- usullarda samaradorlik ko'rsatkichlarini kompleks baholashdan foydalaniladi;
- tadbirkorlik tuzilmalarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlarining yagona tizimi mavjud emas;
- ko'rsatkichlarni hududlar bo'yicha statistik ma'lumotlarga moslashtirish va hududlararo tahlillarni o'tkazish muammosi mavjud.

Integral ko'rsatkichlarni hisoblash usullari bir nechta hududlarda rivojlanish dinamikasi haqida to'liq va aniq tasavvur beradi. Biroq, ularni qo'llash samaradorlikni baholashning to'liq va aniq mezonlarini joriy qilishni talab qiladi.

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari. <https://www.stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo`mita-yangiliklar/22768-kichik-tadbirkorlik-biznes-subyektlarining-soni>
2. Абдукаримов И.Т., Тен Н.В. Эффективность и финансовые результаты хозяйственной деятельности предприятия: критерии и показатели, их характеризующие, методика оценки и анализа // Социально-экономические явления и процессы. 2011. №5-6. С. 11-21.
3. Савицкая Г.В. Анализ эффективности деятельности предприятия: Методологические аспекты. М.:ООО«Новое знание», 2003. 159 с.
4. Юванен Е.И. Оценка социально-экономической эффективности внутреннего туризма в регионе // Вестник ТГЭУ. 2006. № 3. С. 26-33.
5. Tojiyeva, M. M. Q., & Abdullayev, A. A. U. (2021). The use of modern technologies in statistical data collection. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(12), 250-254.
6. Nusratovich, S. K. (2022). Analysis of Dynamics of Development of Services in Uzbekistan. *Eurasian Scientific Herald*, 6, 6-12.
7. Nusratovich, S. K., & Muhammadyusuf, R. (2022). THE ROLE OF SMALL BUSINESS IN REDUCING POVERTY. *Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences*, 2(2), 269-273.
8. Tajiyeva M.M. (2022) SOCIO-ECONOMIC SYSTEM OF SMALL BUSINESS THEORETICAL VIEWS OF SCIENTISTS IN DEVELOPMENT. *A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 55-59.
9. Tojiyeva M.M. (2022) Худудий иқтисодийни ривожлантиришда кичик бизнеснинг аҳамияти, 3rd German Conference-2022, A CONFERENCE FOR THE FUTURE GRADUATES AND EDUCATORS. Berlin, Germany July 30th
10. Кичик бизнесни ривожлантириш самарадорлигини баҳолашнинг ўзига хос хусусиятлари, International Conference on Developments in Education Hosted from Bursa, Turkey. July 15th 2022.





## REFLECTION AS A QUALITY FOR EFFECTIVE PROFESSIONAL ACTIVITIES AND SELF-DEVELOPMENT

K.O. Kaziyev

Head of the Department of Psychology and Pedagogy  
Atyrau University named after Kh. Dosmukhamedov Atyrau, Kazakhstan

Sh.N.Bisenova

Senior Lecturer Master of the Department of Psychology and Pedagogy  
Atyrau University named after Kh. Dosmukhamedov Atyrau, Kazakhstan

F. SH. Khamidullayev

Teacher of Education Department of Kokand University, Uzbekistan

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATION
<p><b>Qabul qilindi:</b> 24-dekabr 2022-yil  <b>Tasdiqlandi:</b> 26-dekabr 2022-yil  <b>Jurnal soni:</b> 5  <b>Maqola raqami:</b> 13  <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/ku.v5i5.217">https://doi.org/10.54613/ku.v5i5.217</a></p>	<p>Modern innovative learning technologies are guided by the reflexive processes of the subject. In the process of professional training, a person is formed as a professional, which becomes possible only taking into account personal factors that subsequently determine the development of professional reflection. Reflection is defined as a necessary component of the cognitive procedure and an important characteristic of the individual. The development of reflection in future psychologists is one of the urgent problems in the modern educational process.</p>
<p><b>KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ Keywords</b>                      reflection, professional, pedagogical, reflective activity, self-development, self-knowledge, reflective skills, reflective approach to learning.</p>	<p>This article presents an analysis of the results of a stating experiment on the development of reflection in future psychologists to identify their abilities for analysis and introspection, professional and personal self-development. In order to achieve the goals of the desired problem, we have identified applicable methods that allow us to determine the levels of development of reflection in future psychologists by components. The methods presented in the article allow us to further develop an educational and methodological complex for the development of reflection in future psychologists.</p>

**Introduction.** Reflection is understood as a complex mental ability to constantly analyze and evaluate each step of professional activity.

The studies of many scientists have proved the importance of reflection, the study of its internal nature, structure and the possibility of its development. The main emphasis is on the fact that reflection is decisive in the professional activities of future psychologists.

The purpose of our study is the need to develop reflection in future psychologists in order to form their ability to analyze and introspection, the ability to go beyond their "I"; foundation for professional and personal development.

The objective of the study is to develop a methodology that could be used in the training of future psychologists by considering the issues of the formation of professional reflection during the period of professional training.

Reflection as a phenomenon of an interdisciplinary nature (philosophy, psychology, pedagogy) has attracted the attention of thinkers since ancient times.

From the point of view of scientific philosophers (Socrates, Plato, Aristotle, J. Locke, I. Kant, G. W. F. Hegel, etc.), the essence of reflection is reduced to three components of the content of reflection itself: the process of turning back (turning to perfect actions); the process of self-knowledge by the subject of internal mental acts, states, qualities; comprehension by an individual of social realities in the process of socialization on the basis of life experience [1,2,3,4,5,6].

In psychology (in the works of B.G. Ananiev, L.S. Vygotsky, S.L. Rubinshtein, etc.), reflection is interpreted as: awareness of the grounds and means of activity; access to the external position of one subject of activity in relation to the activity of another subject; the act of establishing a relationship between activities or their structural formations - actions, means, goals, etc. [7,8,9].

In the field of pedagogical knowledge (in the works of B.Z. Vulfov, V.A. Metaeva, A.A. Karpov, V.A. Slastenin, etc.), reflection is considered as the ability to analyze pedagogical activity [10,11,12,13].

Based on this, reflection is understood as one of the mechanisms that provide the basic functions of consciousness - a thought process aimed at comprehending and understanding actions, behavior, speech,

experience, feelings, states, abilities, character, relationships with others and to others, their tasks, appointments, etc. The study of the works of thinkers and modern scientific literature has shown that reflection is considered in two directions: a reflexive analysis of consciousness, leading to an explanation of the meanings of objects, and their construction; reflection as understanding the meaning of interpersonal communication. Therefore, reflection can be viewed as a process, as a state of the individual and as personal qualities.

In the context of our study, reflection is considered as a process of professional activity of a future psychologist, where the emphasis is on professional reflection.

The concept of professional reflection was introduced by B.Z. Vulfov, who believed that the content of professional and pedagogical reflection is determined by the need for constant self-development. He understood pedagogical reflection as the teacher's awareness of the real level of development of his professional and personal qualities, his understanding of his "value experiences", as the ability to analyze the difficulties that arise in work [14].

A.A. Bizyaeva considers pedagogical reflection as a complex psychological phenomenon, which manifests itself in the teacher's ability to take an analytical position in relation to his activity [15].

Thus, the professional reflection of the future psychologist should be associated with the peculiarities of his own experience, the revision of its foundations, and the redesign of the methods of psychological actions.

After analyzing the above, we came to the conclusion that reflection is a form of theoretical action necessarily taken by a socially developed person, a process aimed at realizing the personality of one's own actions and self-knowledge, which reveals the very essence of the spiritual world.

**Research methodology.** The purpose of this study was to diagnose the development of reflection in future psychologists. In the course of the study, in order to determine the applicable methodology, the scientific works of scientists on the problem under study were studied. The methodology shown in the table below is formed to diagnose the level of development of reflection of future psychologists.

Table 1. Methodology for studying the level of development of reflection of future psychologists.

No	Components	Applied methods
1	Motivational	1. Questionnaire for the development of students' reflection (author's). 2. Methodology "Motivation for learning at a university" (T.I. Ilyina).
2	Cognitive	3. Methodology "The level of severity and direction of reflection" (M. Grant). 4. Methodology "Questionnaire of self-attitude" (V.V. Stolin, S.R. Pantileev).
3	Activity	5. Methodology for determining the level of reflexivity (A.V. Karpov, V.V. Ponomareva). 6. Diagnostic map "Determining the level of formation of pedagogical reflection" (O.V. Kalashnikov).

**Research results.** The developed components and indicators of the level of development of professional reflection of future psychologists in the educational process of the university are taken as the basis of an experimental study, which was carried out in three stages (stating, forming and controlling).

The ascertaining experiment in the control and experimental groups is aimed at diagnosing the level of development of professional reflection of future psychologists.

The purpose of the ascertaining experiment is also to determine the components (motivational, cognitive, activity) and levels (high, medium, low) of the development of reflection of future psychologists.

**80 students majoring in psychology took part in the ascertaining experiment of our study.**

We used the data in the table of diagnostic methods, which allowed us to study each component separately in the ascertaining experiment.

The methodology of T.I. Ilyina "Motivation of learning at a university" was chosen by us to study the motivational component in the structure of professional reflection of future psychologists [16].

In the course of the study, the analysis of the results using this method showed that 45% of the students of the experimental group expressed interest in their future professional activities, which refers to the "Profession Mastery" scale, and 43% of the control group; 40% of the experimental group showed a desire to acquire knowledge, that curiosity is associated with the disciplines that are studied at the university - on the scale "Acquisition of knowledge", and the control group showed 39%; 15% of the students of the experimental group are only interested in obtaining a diploma, and not in professional activities as future psychologists - the "Getting a Diploma" scale, in the control group, according to this scale, 18% (Figure 1).



Figure 1. The results of the ascertaining study in the control and experimental groups according to the method of T.I. Ilyina "Motivation for learning at the university." Note: EG - experimental group, CG - control group.

To determine the cognitive component in the structure of professional reflection of future psychologists, we used the method of V.V. Stolin and S.R. Pantileev "Questionnaire of self-attitude" [17].

This technique is a questionnaire that allows you to identify three levels of self-relationship, which differ in the degree of generalization: global self-relationship; self-attitude, differentiated by self-esteem,

autism, self-interest and self-relationship expectations; the level of specific actions (readiness for them) in relation to one's "I".

The results of the ascertaining study in the control and experimental groups according to this method are shown in Figure 2




Figure 2. The results of the ascertaining study in the control and experimental groups according to the method of V.V. Stolin and S.R. Pantileev "Questionnaire of self-attitude".

In order to study the activity component of the development of reflection of future psychologists, the method for determining the level of reflexivity by A.V. Karpov and V.V. Ponomareva was used (consists of statements that must be answered according to the instructions) [18].

To analyze the test result using this method, we relied on the following features during the study: indicators equal to or more than seven walls indicate high reflexivity (a student with such an indicator

tends to turn to the analysis of his own activities and the actions of other people, to find out the causes and consequences of his actions as past, present and future) within four to seven walls - are indicators of the average level of reflexivity; results of less than four walls indicate a low level of development of reflexivity (it is difficult for a student to put himself in the place of another and regulate his own behavior). The results are presented in Figure 3.




Figure 3. The results of the ascertaining study in the control and experimental groups according to the method for determining the level of reflexivity by A.V. Karpov and V.V. Ponomareva. Note: CG - control group, EG - experimental group.

The results of the ascertaining experiment using the selected methods made it possible to determine the levels of development of students' reflection (Table 2).

Table 2. Levels of development of students' reflection on the ascertaining experiment (%)

Components	Control group (CG)			Experimental group (EG)		
	Levels					
	High	Medium	Low	High	Medium	Low
Motivational	25%	49%	26%	26%	46%	28%
Cognitive	25%	47%	28%	26%	50%	24%
Activity	25%	45%	30%	26%	48%	26%

Thus, based on the indicators of three levels of development of reflection, future psychologists revealed an average percentage: in the control group 25% - high, 47% - average, 28% - low, and in the experimental group 26% - high, 48% - average, 26% - low (Table 3).

Table 3. The average indicator of the levels of development of reflection of students according to the ascertaining experiment (%)

Levels	Control group (CG)	Experimental group (EG)
High	25%	26%
Medium	47%	48%
Low	28%	26%

Figure 4 gives a chart from which you can see that the difference in the performance of the experimental and control groups is insignificant (Figure 4).




Figure 4. Indicators of the ascertaining experiment.

**Conclusion.** An analysis of the scientific literature of philosophers, psychologists and teachers on the problem of reflection allowed us to consider reflection as a quality of a future psychologist, necessary for his effective professional activity and self-development.

The results of our ascertaining experiment show that future psychologists experience certain difficulties in the development of professional reflection in the process of studying at a university.

Therefore, we can conclude that it is necessary to implement the pedagogical support of students' professional reflection in the educational process of the university through the development of a methodology for the development of future psychologists' reflection.

#### References:

1. Socrat // Dzhurinskiy A.N. Pedagogika: istoriya pedagogicheskikh mysley [Pedagogy: the history of pedagogical thoughts] (Moscow, 2000).
2. Platon. Sochineniya: v 4-kh tomakh.: per. s dr. – grech./ Obshchaya redaktsiya A.F.Lomova. [The Works: in 4 volumes] (Moscow, 1994).
3. Aristotel'. Sochineniya: v 4-kh tomakh [The Works: in 4 volumes] (Mysl', Moscow, 1976).
4. Kant I. Kritika chistogo razuma [The Critique of Pure Reason] (Mysl', Moscow, 1994)
5. Gegel' G. Nauka logiki: v 3-kh tomakh [Science of logic: in 3 volumes] (Mysl', Moscow, 1970).
6. Lokk D. Opyt o chelovecheskom razumenii. Sochineniya: v 4-kh tomakh [An Essay Concerning Human Understanding: in 4 books] (Moscow, 1985).
7. Anan'yev B.G. O problemakh sovremennogo chelovekoznaniiya [About the problems of modern human science] (Nauka, Moscow, 1977).
8. Vygotskiy L.S. Myshleniye i rech' [Thinking and Speech] (Labirint, Moscow, 1999).
9. Rubinshteyn S.L. Osnovy obshchey psikhologii. 2-ye izdaniye [Fundamentals of General Psychology. 2nd edition] (Piter, St. Petersburg, 2012).
10. Vul'fov B.Z. Refleksiya: učit', upravlyaya [Reflection: learning by managing] Mir obrazovaniya [World of education], 1, 63-65 (1997).
11. Metayeva V.A. Razvitiye professional'noy refleksii v poslediplomnom obrazovanii: metodologiya, teoriya, praktika: dis. ... dok. ped. nauk [The development of professional reflection in postgraduate education: methodology, theory, practice: doc. ped sciences thesis]. Ekaterinburg, 2006, 357 p.

12. Karpov A.V. Refleksivnost' kak psikhicheskoye svoystvo i metodika yeye diagnostiki [Reflexivity as a mental property and methodology for its diagnosis] *Psikhologicheskiiy zhurnal* [Psychological Journal], 5, 45-57 (2003).
13. Slastenin V.A., Kashirin V.P. *Psikhologiya i pedagogika: uchebnoye posobiye* [Psychology and pedagogy: a training manual] (Akademiya, Moscow, 2001).
14. Reprintsev A.V. Nauchno-pedagogicheskaya shkola Borisa Zinov'yevicha Vul'fova [Scientific and pedagogical school of Boris Zinovievich Vulfov] *Psikhologo-pedagogicheskiiy poisk* [Psychological and pedagogical search], 3, 26-45 (2011).
15. Bizyayeva A.A. *Psikhologiya dumayushchego uchitelya: pedagogicheskaya refleksiya* [The psychology of a thinking teacher: pedagogical reflection] (Pskov, 2004).
16. Il'in Ye.P. *Motivatsiya i motivy* [Motivation and motives] (Piter, St. Petersburg, 2002).
17. Glukhanyuk N.S. *Praktikum po psikhodiagnostike: uchebnoye posobiye. – 2-ye izdaniye* [Workshop on psychodiagnostics: a training manual. - 2nd edition] (Publishing House of the Moscow Psychological and Social Institute, Moscow, 2005).
18. Orlova I.V. *Trening professional'nogo samopoznaniya: teoriya, diagnostika i praktika pedagogicheskoy refleksii* [Training of professional self-knowledge: theory, diagnosis and practice of pedagogical reflection] (Rech', St. Petersburg, 2006).





## IQTISODIYOTIMIZNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYALARNING TUTGAN O‘RNI VA ROLI

Umirova Gulmira Shodiboy qizi

Jizzax politexnika instituti Iqtisodiyot va menejment kafedrasasi assistenti,

[umirovagulmira2@gmail.com](mailto:umirovagulmira2@gmail.com)

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p><b>Qabul qilindi:</b> 24-dekabr 2022-yil  <b>Tasdiqlandi:</b> 26-dekabr 2022-yil  <b>Jurnal soni:</b> 5  <b>Maqola raqami:</b> 14  <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/ku.v5i5.218">https://doi.org/10.54613/ku.v5i5.218</a></p>	<p>Ushbu maqolada innovatsiyalar iqtisodiyotimizni rivojlantirishning eng dolzarb masalalaridan biriga aylanib borayotganligi va bozor rivojlanishini tezlashtiruvchi omil sifatida tahlil qilingan. Shu bilan birgalikda, zamonaviy dunyoda innovatsiyalardan kengroq foydalanish orqali-tadbirkorlikni jadal sur'atlarda rivojlantirishga erishish haqida muhim taklif va tavsiyalar berilgan.</p>
KALIT SO‘ZLAR/ Ключевые слова/ Keywords	
<p>Innovatsiya, innovatsion tadbirkorlik, kapital, ishlab chiqarish omillari, innovatsion strategiya, innovatsion jarayon.</p>	

**Kirish.** Hozirgi vaqtda innovatsiyalar iqtisodiyotni rivojlantirishning eng dolzarb masalalaridan biriga aylanib bormoqda. Yaqingacha bu nom tushunarsiz va hattoki unchalik aniq bo‘lmagan tushunchani eslatardi, hozirgi kunga kelib, innovatsiyaning o‘zi ham, uning tushunchalari ham birdek dunyoni tezda zabt etmoqda. Innovatsion jarayonda jiddiy rol o‘ynaydigan va innovatsiyalarni korxonalar uchun strategik resursga aylantiradigan xalqaro kapital bozori kengayib bormoqda, bu borada unga yangi moliyaviy tuzilmalar unga yordam bermoqda.


Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shundan dalolat beradiki, innovatsiyalarga doim insonlarning bevosita salbiy munosabati va pozitsiyasi to‘sqinlik qiladi. Lekin, O‘zbekistonda paradoksal vaziyat rivojlanmoqda, ya‘ni butun jamiyat innovatsion jarayonlarga ijobiy munosabat va qo‘llab-quvvatlashni bildirib kelmoqda.

Shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan ko‘plab normativ-huquqiy hujjatlar ba‘ijitmoiy tarmoqlarda keng muhokamaga qo‘yilgan qonun loyihalarida o‘z aksini topgan. Innovatsion faoliyat to‘g‘risida 2020-yil 27-iyuldagi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-yanvardagi “2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalari va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat Dasturi to‘g‘risida”gi prezident farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2020-yil 26-martdagi PF-5975son Farmoni, «O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida» 2020-yil 26 martdagi PQ-4653-son kabi me‘yoriy hujjatlar shular jumlasidandir. Ushbu hujjatlarni qabul qilishdan maqsad tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, yangi tadbirkorlarni vujudga keltirish va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, innovatsion tizimning salohiyati va samaradorligini oshirishga ko‘maklashish, innovatsiyalar uchun qulay bo‘lgan normativ huquqiy, moliyaviy va axborot muhitini yaratishdan iboratdir. Shuningdek, sanoatda raqobatbardoshlik va mahsuldorlikni oshirish, yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushini oshirishni rag‘batlantirish, ishlab chiqarishni ko‘paytirish va ishlab chiqarish va eksport tarkibida ulushni oshirish, innovatsion texnologiyalar va ilg‘or boshqaruvni qo‘llashni kengaytirishdan iborat.

Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish, yangi tadbirkorlarni vujudga keltirish orqali tizimning salohiyati va samaradorligini oshirishga ko‘maklashish tadqiqot ishining oliy maqsadi hisoblanadi. Tadqiqotning vazifalari esa sanoatda raqobatbardoshlik va mahsuldorlikni oshirish bosqichlarini aniqlash va uning o‘ziga xos xususiyatlarini belgilash; yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushini oshirishni rag‘batlantirish, ishlab chiqarishni ko‘paytirish va ishlab chiqarish va eksport tarkibida ulushni oshirish, innovatsion texnologiyalar va ilg‘or boshqaruvni qo‘llashni kengaytirishga ta‘sir qiluvchi omillarni aniqlashdan iboratdir.

**Adabiyotlar tahlili.** Innovatsiya kabi hodisani o‘rganish jarayonida juda ko‘p olimlarning izlanishlariga duch kelamiz, shu jumladan, N.Kondratiev va avstriyalik J.A.Shumpetering nomlarini tilga olish joiz. Shumpeter o‘zining “Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi” tadqiqotida innovatsiya tushunchasiga birinchi bo‘lib ta‘rif bergan<sup>1</sup>.

U innovatsiyani tijorat muammolarini hal qilishga qaratilgan mavjud ishlab chiqarish omillarining ilmiy va tashkiliy birkamasi sifatida talqin qildi. Shumpeter bevosita innovatsiyalarda iqtisodiy tizimlarning rivojlanish manbasini payqadi. Chunki o‘ziga xos kontent innovatsiyasi-bu o‘zgarishlar, ular beshta tipik o‘zgarishlarga e‘tibor berib, ta‘kidlagan:




Bundan tashqari, u innovatsiya tushunchasidan foydalanib, uni o‘zgarishlar sifatida izohladi, uning maqsadi iste‘mol tovarlarining yangi turlarini, yangi ishlab chiqarishni va yangi ishlab chiqarishni tashkil etish shaklidagi transport vositalarini joriy etish va ulardan foydalanishdir.

Innovatsiyalarni tavsiflashda Shumpeter bu jarayonda tadbirkorning rolini doimo ta‘kidlab kelgan, chunki aynan tadbirkor

<sup>1</sup>Гужин А.А., Гужина Г.Н. Материальные интересы в системе экономического роста// Московское научное обозрение. 2012. № 12-1. С. 6

harakatlantiruvchi kuch bo'lib, yangi ixtirolarni amaliyotga tatbiq etuvchi va mukofot sifatida foydani oluvchi bo'lib xizmat qiladi.

Hamma ixtirolar ham innovatsiyaga aylanamaydi. Innovatsiyalar foyda keltiradigan va bozor talabini qondiradigan ixtirolardir. Boshqacha qilib aytganda, ilm-fan tufayli amalga oshadigan g'oya paydo bo'ladi va keyingi qadam bu g'oyani tijoratlashtirish bo'lib, ixtironi innovatsiyaga aylantiradi hamda daromad keltiradi. Unda shunday deyilgan: agar ilm-fan pulni bilimga aylantiradigan jarayon bo'lsa, innovatsiya bu bilimlarni qo'shilgan qiymat bilan pulga o'zgartiradigan jarayondir. Kondratyev iqtisodiy sikllarning (to'lqinlarning) turli uzunliklarga ega ekanligi haqidagi fikrni asoslab berdi:



Uning eng muhim hissasi uzun to'lqinlarni o'rganish bilan bog'liq. O'z nazariyasini asoslash uchun u eng rivojlangan to'rtta davlatni - Buyuk Britaniya, Frantsiya, Germaniya va AQShni qamrab olgan juda ko'p faktik materiallarni tahlil qildi. O'tkazilgan tadqiqotlar narxlar dinamikasi, foiz stavkalari, ish haqi, tashqi savdo hajmi va asosiy sanoat tovarlari dinamikasi bilan bog'liq edi.

Kondratyev uzun to'lqinlar bilan bog'liq empirik naqshlarni kashf etdi. To'lqin rivojlanishidan oldin va uning boshlanishida jamiyatning iqtisodiy hayotida texnologiyadagi muhim o'zgarishlar bilan bog'liq chuqur o'zgarishlar ro'y beradi. U ilmiy-texnikaviy yangiliklarni asosiy omil deb qaraladi. Innovatsiyalar iqtisodiy muhitni o'z tendentsiyasidan yuqori tendentsiyaga o'zgartirib, hayajonni keltirib chiqaradi. Kondratyev, shuningdek, innovatsiyalar vaqt bo'yicha notekis bo'linishini ko'rsatdi. Ular guruhlarda yoki zamonaviy til bilan aytganda, klasterlarda paydo bo'ladi. Shuning uchun Kondratyevning tadqiqotida biz klaster yondashuvidan foydalanishning birinchi misollaridan birini topishimiz mumkin. Hozirgi vaqtda Kondratyevning tavsiyalaridan innovatsion strategiyalarni ishlab chiqishda ham keng foydalanish mumkin<sup>2</sup>.

Shumpeter J.A. o'zining "Biznes sikllari" asarida (1939) N.Kondratyevning uzun to'lqin nazariyasini o'zining yangilik nazariyasi bilan birlashtirib, natijada rivojlanishning dastlabki siklik nazariyasini ishlab chiqdi. Uning fikricha, iqtisodiyotning siklik rivojlanishi asosan tizimning ichki mexanizmi bilan bog'liq va bu innovatsion jarayon hisoblanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan. Ushbu tadqiqot ma'lumotlari rasmiy manbalardan olinib, taniqli iqtisodchi olimlarning iqtisodiyotimizni rivojlantirishda innovatsiyalarning tutgan o'rni bo'yicha ilmiy-nazariy qarashlarini qiyosiy tahlil qilish, xorij tajribalarini umumlashtirish va mamlakatimizda erishilayotgan yutuqlar bo'yicha olingan natijalarga tayangan holda innovatsion tadbirkorlikni o'rganishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalari.** Mamlakatimizdagi innovatsion jarayonlar bilan rivojlangan mamlakatlardagi holatni taqqoslasak, hozirgi vaqtda dunyoning rivojlangan mamlakatlari 15 yildan ortiq vaqt mobaynida innovatsion iqtisodiyot va beshinchi texnologik sikl (uzoq to'lqin) ta'siri ostida bo'lib kelmoqda. Shunchaki beshinchi to'lqinga kirish imkoniyatiga ega bo'lgan davlatlar, hatto undan keyin ham nima qilishlari kerak?

Ular birinchi navbatda yangi yuqori texnologiyali yo'nalishlarda ilmiy izlanishlarini boshlab, bu mamlakatlarga yetib olishadimi? Ko'rinib turibdiki, bu juda muammoli vaziyat. Lekin, bu ushbu mamlakatlarning, xususan yurtimizda boshqa davlatlar tomonidan yaratilgan

texnologiyalardan foydalanishiga va ulardan o'z iqtisodiyotlarini rivojlantirishda foydalanishga, chet el investitsiyalariga mamlakatga kirib kelishi uchun imkon qadar ko'proq shart-sharoit yaratish rivojlangan mamlakatlardan o'zib ketishga harakat qilishga to'sqinlik qila olmaydi. Bir qancha vaqt oldin bu tajriba Yaponiya, Janubiy Koreya va boshqa mamlakatlarda amalga oshirilgan bo'lib. Shu jumladan, innovatsiyalar tomonidan taqdim etilgan imkoniyatlar va globallashuvning ijobiy tomonlari, birinchi navbatda, Janubiy Koreya, Tayvan, Gonkong, Singapur kabi Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari tomonidan qo'lga kiritildi, shuningdek, Keltlar "yo'lbars"i - innovatsiyalar sohasida yetakchilardan biri bo'lgan Irlandiya hisoblanadi. Bu davlatlar O'zbekiston uchun paradigma bo'lib xizmat qilishi mumkin, chunki bizning mamlakatimiz o'zining kichik bozori, kambag'al an'anaviy resurslari bilan o'zining raqobatbardosh noyob noan'anaviy manbalardan foydalangan holda innovatsion yo'lni tanlab olsagina muvaffaqiyatli darajada rivojlana oladi<sup>3</sup>.

Mamlakatning raqobatbardoshligi alohida korxonalarining raqobatbardoshligi asosida rivojlanib boradi. Har bir korxonalar raqobatbardoshlik bilan ta'minlangan afzalliklarga erishish uchun o'z strategiyasini qo'llaydi. Lekin, muvaffaqiyatli kompaniyalarning evolyutsiyasi va rivojlanishi tabiati o'xshash bo'ladi, chunki kompaniyalar innovatsiyalarga asoslangan raqobatbardosh ustunliklarni yaratadilar. Mamlakatimiz korxonalaridagi innovatsion jarayonlarning kuchsizligini asosiy sababi quyidagi omillardir:

- sanoat sohasida ishlaydigan olimlar sonining kamligi, shuningdek, ishchi kuchida olimlar va tadqiqotchilar ulushining pastligi;
- yuqori texnologiyalarni patentlash sohasiga kirmaslik;
- ishlab chiqarish sektori va universitetlar o'rtasidagi zaif hamkorlik;
- innovatsiyalarni rag'batlantirishning nisbatan muvaffaqiyatsizligi va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari faoliyati;
- biznesni boshlash uchun murakkab protseduralar; texnologik ta'lim sifatining yetarli emasligi.
- mahsulotlari importini kamaytirmoqda.

Bu esa, energetik mustaqilligimizni mustahkamlashga salmoqli hissa qo'shilayotganidan dalolat beradi. Nafaqat O'zbekiston, balki MDH mamlakatlari ichida eng yirik investitsiya loyihalaridan biri hisoblanadigan mazkur UzGTL majmuasi ham innovatsion ishlab chiqarish namunasidir. Shuningdek, MDH hududidagi eng zamonaviy va innovatsiyalardan biri bu - korxonaning markaziy boshqaruv puliti va zavod markaziy laboratoriyasidir. Yangi korxonalar GTL, ya'ni "gazni - suyuqlikka" texnologiyasi asosida yiliga 3,6 milliard metr kub tabiiy gazni qayta ishlab, 1,5 million tonna tayyor mahsulotlar - aviakerosin, dizel yoqilg'isi, nafta, suyultirilgan gaz ishlab chiqarish quvvatiga egadir. Bunday zavod shu paytgacha jahonda faqat 4 ta davlatda - Qatar, Nigeriya, JAR va Malayziyada barpo etilgan. Bu yerda yiliga umumiy qiymati 1 milliard AQSH dollari yoki 12,8 trillion so'mdan ortiq import o'rnini bosuvchi neft mahsulotlari va uglevodorod xom ashyolari ishlab chiqariladi. GTL texnologiyasi asosida tabiiy gazdan qo'shilgan qiymatli mahsulotlar olish uchun bosqichda amalga oshiriladi. Ushbu texnologiya asosida tayyorlangan zamonaviy yonilg'i turlari ekologik jihatdan sifatli va toza. Bu esa, o'z navbatida, bugungi kunda dolzarb masalaga aylangan tabiatga zarar yetkazmaslik tamoyiliga ham mos keladi. Masalan, GTL dizel yonilg'isini o'z ichiga olgan, yuqori texnik tavsifga ega va tarkibida oltingugurt miqdori deyarli bo'lmagan GTL dizelidan atmosferaga aytarli chiqit chiqmaydi. Xuddi shuningdek, GTL kerosinini aviakompaniyalarga atmosferaga chiqariladigan zararlarni kamaytirishning xavfsiz va daromadli usulini taklif etadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, UzGTL zavodi O'zbekistonda uglevodorod xomashyosini chuqur qayta ishlash sohasida amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlarning namunasi va mamlakatimiz neft-kimyosanoatining rivojlanish sur'atlarining bir ko'rsatkichi hisoblanadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, innovatsion tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan va ishlab chiqarish jarayoniga xorij tajribasini qo'llab, yangiliklar joriy etilgan zamonaviy korxonalarda, an'anaviy korxonalar nisbatan ish haqi 2-3 barobar, ish unumdorligi 2 barobar oshganligi, ayniqsa ishchi xizmatchilar turmush darajasining ilgari nisbatan sifati va farovonligi ta'minlanayotganligi bugungi innovatsion iqtisodiy

<sup>2</sup>Гужина Г.Н. Социально-экономическая сущность и принципы формирования системы стратегического управления//Вестник Российского государственного аграрного зооучного университета. 2009. № 6 (11). С. 141.

<sup>3</sup>Abdullaev, A., Abdullaeva, G., & Umirova, G. (2022). СОДЕРЖАНИЕ СТРЕСС-ТЕСТИРОВАНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ. InterConf.

islohotlarining ijobiy tomonlarini ko'rsatmoqda. Lekin erishilayotgan yutuqlar bilan bir qatorda hal etilishi lozim muammolar ham mavjud.

**Masalan:**

- tadbirkorlarimiz biznesni boshqarishda yetarlicha malakaga ega emasligi;
- ishchi xodimlarning yangiliklarni tez o'zlashtira olmasligi;
- ular ichki va tashqi risklarni, innovatsiyalarga bo'lgan ehtiyojni va jahon bozoridagi o'z holatini yetarlicha baholay olmaydilar;

- korxonalarini rivojlantirish, raqobatbardoshlikni oshirishga yetarlicha e'tibor qaratilmagan;
- ishbilarmonlik muhitini tashkil etish va innovatsiyalarni rag'batlantirish tuzilmasini ishlab chiqishda ham ko'plab muammolar mavjud.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Shavkat Mirziyoyevning "2020–2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" gi farmoni. 2020-yil 12-may
2. PF – 5296 — O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. 09.01.2018
3. Гужин А.А., Гужина Г.Н. Материальные интересы в системе экономического роста// Московское научное обозрение. 2012. № 12-1. С. 6
4. Гужина Г.Н. Социально-экономическая сущность и принципы формирования системы стратегического управления//Вестник Российского государственного аграрного заочного университета. 2009. № 6 (11). С. 141.
5. Abdullaev, A., Abdullaeva, G., & Umirova, G. (2022). СОДЕРЖАНИЕ СТРЕСС-ТЕСТИРОВАНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ. InterConf.
6. Depozit.uz — O'zbekistondagi raqamli banklar va ularning istiqbollari 26-iyul 2021-yil.
7. www.stat.uz



## AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA O'QITUVCHILARNING KASBIY MAHORATINI RIVOJLANTIRISH

Berdibekova Feruza Abdumannob qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p><b>Qabul qilindi:</b> 24-dekabr 2022-yil  <b>Tasdiqlandi:</b> 26-dekabr 2022-yil  <b>Jurnal soni:</b> 5  <b>Maqola raqami:</b> 15  <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/ku.v5i5.220">https://doi.org/10.54613/ku.v5i5.220</a></p>	<p>Ushbu maqolada shaxsning kasb-hunarni egallashda yuksak cho'qqiga erishishi bilan bog'liq masalalarni o'rganish, akmeologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish va muammolarni hal qilishga tayyorlashning pedagogik tizimi asoslab berilgan.</p>
<p><b>KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ Keywords</b></p> <p>Akmeologiya, akmeologik yondashuv, kasbiy mahorat, akmeologik tadqiqot, pedagogik tizim (PT), ta'lim akmeologiyasi, yuksalish, yetuklik.</p>	

**Kirish.** Bugungi kunga kelib, talabalarga yo'natilgan fenomenining aniq ta'rifi va uning tuzilishi va mazmunining mohiyatini tushunish mavjud emas, akmeologiya mavzusini tor professionaldan uning umumiy hayotini kengaytirishgacha noaniq talqin qilish shaxs diqqatining asosiy konsepsiyasining murakkabligi bilan bog'liq.

Pedagog va psixolog tadqiqotchilar talabalarni yo'naltirishni aniqlash nuqtai nazardan turlicha yondashuvlar uning ayrim jihatlari e'tibor qaratib, ushbu hodisaning mohiyatini boshqacha tushunishga olib keldi.

Zamonaviy ilm-fanda insoniy yuksakliklarning «akme» kategoriyasi bilan bog'liq bir necha talqinlari mavjud. Jumladan, birinchi, «akme» — bu qisqagina hayot kesimini qamrab olsada, ko'p qirrali holat bo'lib, insonning har doim jamiyatda qanchalik o'z o'rniga ega ekanligi, uning biror-bir soha mutaxassisi sifatida olib borayotgan salmoqli faoliyati, shaxs sifatida esa uni o'rab turganlar bilan olib borgan ijtimoiy aloqasida qanchalik boy yoki qashshoqligi, turmush o'rtoq va ota-ona sifatida tayyorlik darajasi bilan bir qatorda yaxshi tomonga o'zgarish olish darajasi va eng yashirin ezgu qobiliyatlarini ham ko'rsata olish darajasiga ham bog'liqdir.

Yunonlar, insonning nimagaki qodir bo'lsa, qobiliyati va imkoniyati qirralarini ko'rsatishga xizmat qiladigan barcha yetuklik belgilari namoyon bo'lgan umrining shu qismini «akme» deb o'ylaganlar. Akme — yunoncha («yuksalish», «cho'qqi») kamolot, yuksalish, yetuklik ma'nolarini anglatadi. Akmeolog mutaxassislar shaxsning yuksak professionalizmi va ijodiy mahorati muammolarini oqilona yechishni muhim inson resurslaridan foydalanishda deb bilmog'dalar.

Shuni ta'kidlash kerakki, akmeologiya Akmeologiya (yun. akme-yetuklik, cho'qqi, kamolot, yuksalish, (logos-ta'limot) shaxsning kasb-hunarni egallashda yuksak cho'qqiga erishishi bilan bog'liq masalalarni o'rganuvchi «Akmeologiya» fani haqidagi dastlabki qarashlar XX asrning 20-yillarida vujudga kelgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu fanning zamonaviy ishlab chiquvchilari va uning konseptual apparati Kuzmina, Bodalev, Derkach, Sitnikov, Tarasova, Tixomirov, Fokina va boshqalar xisoblanadilar. Ular orasida akmeologiyaning boshqa insoniy fanlar orasidagi o'ziga xos nuqtai nazarini ta'riflash uchun qancha muhim nuqtai nazarlar mavjud. Masalan, Bodalev akmeologiyani ikki jihatdan izohlaydi: inson taraqqiyoti psixologiyasining eng muhim bosqichi (kamoloti) sifatida va o'ziga xos fan sifatida, uning predmeti kasbiy faoliyat ko'nikmalarini oshirish omillari, uni shakllantirishning turli shartlari va bosqichlari hisoblanadi.

Kuzmina va Tixomirov akmeologiyani ilmiy bilimlar sohasi, ilmiy fanlar majmuasi sifatida belgilaydi, uning o'rganish ob'ekti insonning o'zini o'zi rivojlantirish dinamikasi, o'zini o'zi boshqarishning akmeologiyaning axborot bazasi ularning "texnologik qismida" fanning barcha sohalarini - ya'ni ma'lum bir fan yoki mutaxassislik muammolarini muvaffaqiyatli hal qilish uchun qanday harakat qilish kerakligi haqidagi

savolga bevosita javob beradigan bilimlar tizimidir.

Kuzmina va Derkach akmeologiyani mustaqil tadqiqot sohasiga ega bo'lgan fan sifatida himoya qilib, akmeologiyani psixologiya fanlari tizimiga kiritib bo'lmayligining bir qancha sabablarini keltiradi va asoslaydi. Psixologiya fanlari o'zining o'ziga xosligi bo'yicha analitikdir, akmeologiya bilan ob'ektlarning oldindan ko'ra olish natijasi yaxlitligini o'rganadi.

Sitnikovning so'zlariga ko'ra, akmeologiyaning boshqa fanlardan eng muhim farqi bu uning tadqiqot predmeti sifatida kasbiy mahorat va unga ta'sir qiluvchi omillarni maqsadli tanlash va shu asosda kasbiy mahoratni oshirish tizimlarini takomillashtirishdir.

**Adabiyotlar tahlili.** Boshqacha qilib aytganda, akmeologiya "kasbiy faoliyatni uning mahsuldorligi nuqtai nazaridan o'rganadi, kasbiy mukammallik cho'qqilarini takomillashtirish va erishish uchun qonuniyatlar va omillarni ochib beradi. Shu sababli, o'z tadqiqotining ma'lum bir sohasini tavsiflovchi akmeologiyaning markaziy toifasi - bu akmeologiya fanining konseptual apparatini tashkil etuvchi mahsuldorlik, faoliyat samaradorligi yoki mahorat tushunchalari orqali ochiladigan o'ziga xos jarayon professionalligi toifasi sifatida tushuniladi.

Tarasovanning fikriga ko'ra, «akmeologiya - bu murakkab faoliyat ko'rsatadigan ob'ektlarning sifatli o'zgarishi haqidagi fan va «akme» atamasi o'z-o'zini rivojlantirish predmetiga aylangan ob'ektning intensiv rivojlanishi davrida sifatning eng yuqori namoyon bo'lishini anglatadi.

Akmeologiyaning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi muammosida biz Tarasovanning nuqtai nazarini baham ko'ramiz, ya'ni muayyan fanlar, pedagogika, psixologiya, fiziologiya, sotsiologiya va boshqalarga nisbatan. Akmeologiya metodologiya va faoliyat ko'rsatuvchi ob'ektlarning sifat o'zgarishlari haqidagi eng umumiy nazariya vazifasini bajaradi.

Hozirgi vaqtda akmeologiya fanining bir qancha tarmoqlari mavjud. Ushbu dissertatsiya tadqiqotida biz kasbiy ta'lim akmeologiyasining nazariy asoslariga tayanamiz Kuzmina, Bodalev, Sitnikov va boshqalar.

Ta'lim akmeologiyasini o'rganish ob'ektlari quyidagilardir: samarali ta'lim tashkilotlari samarali ta'lim tizimlari, o'quv jarayonining samarali turlari strategiyalari va sifatli natijaga erishish texnologiyalari, shaxsning ijodiy salohiyatini rivojlantirish omillari va faoliyat samaradorligi bilan solishtirganda. kichik yoki samarasiz. Ta'lim akmeologiyasining o'rganish ob'ektlari: kasbiy mahorat va uning pedagogik faoliyatdagi namoyon bo'lishi. yosh o'qituvchi va uni rivojlantirish va shakllantirish yo'llari kasbiy tayyorgarlik jarayonida shaxsning rivojlangan ijodiy salohiyati va pedagogik faoliyat samaradorligi omillari va boshqalar.

Akmeologiya ob'ektlarning yaxlitligini o'rganishini hisobga olib, ularni mahsuldor tizim sifatida ko'rib, "tizim", "tuzilma", "akmeologik yondashuv", "akmeologik tadqiqot" tushunchalarining mohiyatiga



murojaat qildik.

Averyanov "tizim - bu o'zaro ta'sir qiluvchi elementlarning cheklangan to'plami" deb hisoblaydi.

Pedagogik va psixologik tadqiqotlarda tizimli yondashuv uzoq vaqtdan beri birinchi o'rinlardan birini egallagan. Psixologik tadqiqotlarda shu tarzda amalga oshiriladigan izchillik prinsipi - bu tegishli hodisa uning elementlari yig'indisiga kamaymaydigan tizim sifatida qaralganda, psixik hodisalarni tahlil qilishning uslubiy yondashuvidir. U tuzilishga ega bo'lib, elementning xossalari uning strukturadagi o'rnini bilan belgilanadi.

Korolev, Kuzmina, Slavyonin, Kuxarev, Ilna, Novina va boshqalarning tadqiqotlari ta'lim jarayonini o'zaro bog'liq tarkibiy qismlardan tashkil topgan samarali pedagogik tizim sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi.

Xuddi shu fikrni Kuxarev ham qo'llab-quvvatlaydi va u yozadi: "Tizim - o'zaro bog'langan va o'zaro ta'sir qiluvchi elementlarning barqaror tartibi uning ichki tuzilishini tashkil etadigan yaxlit ob'ektidir. Tizim - bu faoliyat ko'rsatadigan tuzilma bo'lib, uning faoliyati ma'lum maqsadlarga bo'ysunadi.

**Tadqiqot natijalari.** Yuqorida aytilganlarga asoslanib, tizim - bu munosabatlar bilan tartibga solingan, aniq belgilangan xususiyatlarga ega bo'lgan, faoliyati ma'lum maqsadlarga bo'ysunadigan (ob'ektning yaxlitligi ta'minlangan) ob'ektning o'zaro bog'langan tarkibiy qismlari to'plami; bu to'plam ushbu to'plamning integral xossalari va funksiyalarida ifodalangan birlik bilan tavsiflanadi.

Pedagogik tizim (PT) yosh avlod va kattalarni tarbiyalash, o'qitish va o'qitish maqsadlariga bo'ysunadigan o'zaro bog'liq bo'lgan tarkibiy va funksional komponentlar majmuidir. PT ning tarkibiy qismlari pedagogik tizimning asosiy xususiyatlari sifatida, ularning umumiyliги ularning mavjudligi faktini tashkil qiladi va ularni boshqa barcha (pedagogik bo'lmagan) tizimlardan ajratib turadi.

Tarasova nuqtai nazarini baham ko'ramiz, biz "akmeologik yondashuv" "tizimli" va "shaxsiy-faoliyat" yondashuvlarining birligini nazarda tutadi"- deb hisoblaydi.

Akmeologik yondashuv ob'ektlarni tizim sifatida o'rganishga asoslangan yondashuvdir; u tadqiqotchini shaxsiy shart-sharoitni

hisobga olgan holda ob'ektning yaxlitligini va uni ta'minlovchi mexanizmlarni ochishga, faoliyatdagi murakkab ob'ektning turli xil bog'lanish turlarini aniqlashga va ularni yagona nazariy rasmga qisqartirishga yo'naltiradi.

Zazikin akmeologik yondashuvning umumiy konsepsiyasini beradi: "Akmeologik yondashuv - bu akmeologik muammolarni hal qilishga imkon beruvchi texnika va usullarning tamoyillari to'plami sifatida ishlaydigan asosiy umumlashtiruvchi tushunchadir.

Pedagogik ta'limda akmeologik yondashuvni amalga oshirishning o'ziga xos pedagogik shartlariga axborotning shaxsiy va texnologik sharoitlari kiradi.

Aniqlangan psixologik-pedagogik shartlarning mazmuni kasbiy pedagogik ta'limda akmeologik yondashuvni amalga oshirish jarayonida shaxsning akmeologik yo'nalishini shakllantirishning quyidagi ketma-ketligini belgilaydi:

-talabalarni akmeologik yondashuvni amalga oshirish bo'yicha tashkiliy faoliyatga tayyorlash bilan bog'liqligi;

-asosiy kasbiy ta'limda akmeologik yondashuvni amalga oshirish va o'quvchilar shaxsining akmeologik yo'nalishini shakllantirishga qaratilishi;

-diagnostikani amalga oshirish, shaxsning akmeologik yo'nalishini shakllantirish darajasini baholash va tahlil qilish va shu asosda o'quv jarayoniga tuzatishlar kiritishni o'z ichiga olgan diagnostika va tuzatish.

Talabalarning akmeologik yondashuv asosidagi kasbiy tayyorgarligi modelini ishlab chiqish - zamonaviy oliy ta'limning vazifasi bo'lajak boshlag'ich sinf o'qituvchilarining ma'naviy va ijtimoiy-psixologik qobiliyatlarini mustahkamlash orqali uning axloqiy o'zini o'zi anglashini rivojlantirish bilan bog'liq. Salomatlik, hayotga ijobiy munosabat, odamlarga va jamiyatga ishonch va buning natijasida talabalar akmeologik madaniyatining qadriyat tarkibiy qismi sifatida ma'naviyatni rivojlantirishga imkon tug'iladi.

Ko'rinib turibdiki, turli guruhlariga kiritilgan shartlarning aksariyati bir-birini takrorlaydi yoki aniqlaydi, biz ularni tizimlashtiramiz va akmeologik yondashuvni amalga oshirishning o'ziga xos pedagogik shartlariga muvofiq tasvirlaymiz (1-jadval)

1-jadval.

Guruh shartlari	Guruh shartlari tarkibi
<p><b>Shaxsiy sharoitlar faoliyatining xulq-atvoriga qo'yiladigan talablar va ta'lim sub'ektlarining o'zaro munosabatlarining aks etishi.</b></p>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Talabalarning tegishli pedagogik vazifalarga akmeologik yondashuvni amalga oshirish zarurligini anglashi; ta'lim va tarbiyaning tegishli vositalari va usullarini tanlash</li> <li>2. Professor-o'qituvchi tomonidan talabalar shaxsining akmeologik rivojlanishini belgilovchi omillarni tushunish, ularni o'quv jarayonida o'zlashtirish va rivojlantirish, xususan: individual ehtiyojlar, motivlar, qadriyatlar, maqsadlar, ijobiy "men-konsepsiya" ning refleksiv va oldindan ko'rish qobiliyati. mustaqillikning hayotiy tajribasi va ijodiy tasavvur faoliyati</li> <li>3. professor-o'qituvchining talabalarga ta'lim jarayonining to'liq huquqli sub'ektlari sifatida munosabati, ularning individualligini hurmat qilish.</li> <li>4. professor-o'qituvchining demokratik muloqot uslubidan ustun foydalanishi, hamkorlikning psixologik muhitini yaratish va muvaffaqiyat holatlarining hissiy ijobiyligini birgalikda yaratish; pedagogik ta'sirlarni amalga oshirishda hissiylik va ishonch, o'quvchilarni mustaqil fikrlash maqsadini belgilashga undaydigan kasbiy pedagogik qadriyatlarining ahamiyatini taqdim etish va asoslash.</li> <li>5. Talabalarga quyidagilar bo'yicha to'liq ma'lumot berish: <ul style="list-style-type: none"> <li>- pedagogik faoliyatning mohiyati, unga samarali tayyorlash vositalari va usullari</li> <li>- o'quvchilarning bilim, ko'nikma, ko'nikma, shaxsiy fazilatlarini darajasi va mazmuniga kasb va jamiyatning talablari</li> <li>- maqsadlarni samarali belgilash strategiyalari va muvaffaqiyatga yo'naltirilgan mutaxassislar faoliyatining kasbiy qadriyatlarining mazmuni, axborotni o'zlashtirish va qabul qilishni tushunishda, uni xatti-harakatlarda va faoliyatda amalga oshirishda talabalar faoliyatini axborot-pedagogik qo'llab-quvvatlashning ahamiyatini asoslash.</li> </ul> </li> <li>6. Maqsadlarni belgilash, maqsadlar, qadriyatlar, motivlar, faoliyat usullari va mazmunini aks ettirish, o'z-o'zini o'zi rivojlantirish bo'yicha individual strategiyalarni ishlab chiqish bilan bog'liq talabalar faoliyatini tashkil etish va pedagogik qo'llab-quvvatlash.</li> <li>7. Talabalarga qo'yiladigan ta'lim talabalarini izchil oshirish, ularni amalga oshirishni pedagogik qo'llab-quvvatlash.</li> </ol>
<p><b>Texnologik sharoitlar o'quv jarayonini tashkil etishning vositalari, shakllari va usullarini tanlashga qo'yiladigan talablar</b></p>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ta'limga individual tabaqalashtirilgan yondashuvlarni ishlab chiqishda faol shaxsiga yo'naltirilganlik qoidalariga yo'naltirish.</li> <li>2. OTM professor-o'qituvchilarining akmeologik yo'naltirilgan ta'lim faoliyatini tashkil etishga integratsiyalashgan yondashuv.</li> <li>3. Innovatsionlik muammoli o'zgaruvchanlik elektivlik dialogik kontekstuallik ta'limning amaliyotga yo'naltirilganligi.</li> <li>4. Talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil etish.</li> <li>5. Vitagenik ta'lim texnikasi va usullari.</li> <li>6. Raqobatbardoshlik holatlarining muammoli ta'lim va tarbiyaviy vaziyatlarning muvaffaqiyati holatlarini yaratish.</li> <li>7. Maqsad qo'yish erishish motivatsiyasi treninglar refleksiv trening.</li> <li>8. O'qitishning o'yin usullari biznes va rolli o'yinlar muhokamar professional janglar loyihalar usuli.</li> </ol>

Aniqlangan psixologik-pedagogik shartlarning mazmuni universitet talabalariga kasbiy faoliyatni tashkil etish uchun yangi mazmunli xulq-

atvor uslubiy va texnologik o'quvchilarni tushunish, ta'limning ta'lim



komponentining ahamiyatini tushunish va qabul qilish yo'nalishida o'zlarining kasbiy pozitsiyalarini qayta ko'rib chiqish kasbiy ta'lim qadriyatlarini va ularni pedagogik jarayonga tatbiq etish zarurligini belgilaydi.

Akademik guruhlarining tyutorlari faoliyati ham yangi mazmun bilan to'ldirilishi kerak: aynan ular, birinchi navbatda, o'z talabalarining shaxsiy xindividual xususiyatlarini o'rganishlari kerak; talabalarining ijobiy tarbiyaviy ta'siri natijalarini umumlashtirish, to'plash; o'quvchilar shaxsida axloqiy kognitiv va boshqa neoplazmalarni mustahkamlash; ma'ruza va seminarlarda har doim ham joy va vaqt topa olmaydigan maxsus treninglar tashkil etish va o'tkazish. Ushbu maqsadlarga erishishda akmeologik yondashuvni amalga oshirish uning mazmuni kasbiy ta'limda akmeologik yondashuvni amalga oshirishning tashkiliy shartlari uchun oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarini maqsadli profilaktik jarayonga tayyorlashni tashkil etish lozim.

Bizning fikrimizcha, sanab o'tilgan tashkiliy shartlarni amalga oshirishning eng samarali yo'li oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari uchun malaka oshirish markazlari qoshida maxsus kurs tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun nafaqat mazmunan, balki tegishli o'quv dasturlarini ishlab chiqish zarur, shuningdek, o'qituvchilar bilan maxsus amaliy mashg'ulotlar va treninglarni o'z ichiga oladi.

Pedagogikaning nazariy va amaliy qoidalariga muvofiq, ta'lim tizimi faoliyatining samaradorligi ta'lim faoliyati sub'ektlari tomonidan belgilangan maqsad va vazifalarga erishish sifatida belgilanadi, bu aniq ijobiy natijalarda, xususan, Adekvat pedagogik va psixologik diagnostika usullaridan foydalangan holda ma'lum shaxsiy sifatning aniqlangan mezonlari va darajalari asosida aniqlanadigan o'quvchilar shaxsining akmeologik yo'nalishini shakllantirishga zamin yaratadi.

2-jadval.

Guruh shartlari	Shartlarning mavzuga yo'naltirilganligi
<b>Akmeologik yondashuvni yaxlit o'quv jarayoniga tatbiq etish uchun oliy ta'lim professor-o'qituvchilarining nazariy va uslubiy tayyorgarligi</b>	Tegishli bilimlar tizimini yangilash: oliy ta'lim tizimiga akmeologik yondashuvning mohiyati, uni boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash kontekstida aniqlashtirish, talabalar akmeologik yo'nalishining mohiyati va mazmuni bilan uni shakllantirish vositalari va usullari va ushbu jarayonni boshqarish; Oliy ta'lim professor-o'qituvchilarining talabalarining akmeologik yo'nalishini shakllantirishning o'ziga xos psixologik-pedagogik usullarini, xususan, mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish usullarini, maqsad qo'yish, maqsad qo'yish, yutuqlarga motivatsiya, fikrlash, diagnostika usullarini egallashini ta'minlash. va shaxsning shakllangan akmeologik yo'nalishi darajasini baholash; Professor-o'qituvchilar tomonidan o'quv fanlari mazmunini ularning qimmatli kasbiy yo'naltirilgan mazmunini qayta ko'rib chiqishni tashkil etish, o'quv materialini taqdim etish tartibini mumkin bo'lgan qayta tashkil etish.
<b>O'quv faoliyatida akmeologik yondashuvni amalga oshirish uchun tyutorlarning nazariy va uslubiy tayyorgarligi</b>	Tyutorlarning individual ehtiyojlari, motivlari, qadriyatlarini, maqsadlari, hayotiy tajribasi, talabalar konsepsiyasi mazmunini diagnostika qilish va tahlil qilish usullarini o'zlashtirishlarini mustaqillikning kasbiy yo'nalishi va ijodiy tasavvur faolligining refleksi oldindan ko'rish qobiliyatining rivojlanish darajasini ta'minlash. Maqsadlarni belgilash va muvaffaqiyatga erishish uchun motivatsiya bo'yicha reflektiv treninglarni o'tkazish usullarini o'zlashtirgan kuratorlarni tashkil etish. Tashkil etish: kuratorlar tomonidan o'quv faoliyati mazmunini talabalar shaxsining akmeologik rivojlanishiga yo'naltirish yo'nalishi bo'yicha qayta ko'rib chiqish; adekvat ta'lim maqsadlarini belgilash va faoliyatni rejalashtirish.

Tashkiliy bosqichning oliy ta'limda akmeologik yondashuvni amalga oshirish shartlari

Talabalarining akmeologik yo'nalishining shakllangan tarkibiy qismlarining mazmuni va ko'rsatkichlari baholash mezonlarini aniqlash va ushbu sifatning rivojlanish darajalarini tavsiflash imkonini beradi, chunki akmeologik yo'nalish integrativ shaxsiy ta'limdir, keyin uning shakllanishi belgilanadi. Barcha tarkibiy qismlarning uyg'un rivojlanishi, alohida tarkibiy qismlarning o'zaro bog'liqligi va o'zaro bog'liqligi, o'z navbatida, o'ziga xos diagnostika va baholash uchun integratsiya usullaridan foydalanish imkoniyatini belgilaydi.

Tadqiqotga akmeologik yondashuvni qo'llash aniq usullarni tanlashni talab qiladi: juft taqqoslash usuli, tarkibni tahlil qilish, masshtablash, modellashtirish, dizayn va boshqalar. Akmeologik tadqiqotning muhim gnoseologik xususiyati shundaki, sintez vazifasi birinchi o'ringa qo'yiladi, ammo bu tahlilni tugatmaydi, ammo tadqiqotning dastlabki prinsipi bo'lib xizmat qiladi.

**Xulosa.** Talabalarni qadriyatga yo'naltirish o'zaro shaxs munosabatlari bilan bog'liq turg'un motivlar yig'indisi sifatida tushunish mumkin. Zamonaviy mualliflar talabalarni yo'naltirish deganda talaba shaxsning alohida xususiyati ya'ni uning integral xususiyati sifatida

ko'radilar. Boritko shaxs hodisasini o'rganuvchi olimlarning fikriga tayangan holda talabalarni akmeologik yo'naltirish quyidagi asosiy xususiyatlardan iborat:

- talabalarni akmeologik yo'naltirish asosiy ijtimoiy rollariga va ijtimoiy mohiyatiga munosabatini belgilaydigan va ko'rsatadigan tipologik xarakteristikasi.
- talabalarni akmeologik yo'naltirish xususiyati sifatida o'ziga xosligini belgilab, uning ierarxiya tuzilishini yaratadi;
- talabalarni akmeologik yo'naltirish - bu shaxsning jamiyat maqsadlarini belgilashni ham, hayotiy faoliyatning o'z maqsadlarini rivojlantirishni ham ta'minlaydigan ya'ni shaxsning shakllantiruvchi tuzilishi sifati hisoblanadi;
- talabalarni akmeologik yo'naltirish - bu barcha tashqi ta'sirlarning sinishiga vositachi bo'lgan ichki sharoitlar tizimi, buning natijasida ijtimoiy tajribaning interverlashuvi sodir bo'ladi va shaxsning nisbiy barqarorligi saqlanadi;
- talabalarni akmeologik yo'naltirish boshqalarga va o'ziga nisbatan faolligini, shaxs faoliyati va muloqotining xulq-atvor tendensiyalarini belgilaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Р.Сафарова. Масъул муҳаррир Педагогика энциклопедия. И жилд. "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти. Тошкент-2015. 45-46 бетлар.
2. Бодалев А.А. Акмеология как научная дисциплина. - М.: РАО, 1993. - 20с.
3. Деркач А.А., Кузьмина Н.В. Акмеология: пути достижения вершин профессионализма. - М.: РАО, 1993. 32-с.
4. Ситников А.П. Акмеологический тренинг. Теория, методика, психотехнологии. М.: «Технологическая школа бизнеса», 1996. 16-17 с.
5. Ситников А.П. Акмеологический тренинг. Теория, методика, психотехнологии. М.: «Технологическая школа бизнеса», 1996. 16-17-с.
6. Тарасова В.Н. Методологические основы акмеологического подхода к повышению качества образовательного процесса // Акмеология 97, научная сессия. - Под ред. Н. В. Кузьминой, А.М.Зимичева. - СПб.: Санкт-Петербургская Акмеологическая Академия, 1997. - 318с.
7. Краткий философский словарь. - М.: Проспект, 1998,- 400с.
8. Реан А.А., Коломинский Я.Л. Социальная педагогическая психология. - СПб: Питер, 1999. - 416 с.
9. Кухарев Н.В. На пути к профессиональному совершенству: Кн. для учителя. - М.: Просвещение, 1990. - 159с.
10. Тарасова В.Н. Акмеологические задачи в образовательном процессе // Акмеология 99, научная сессия / сост. и ред. Кузьмина Н.В., Зимичев А.М. - СПб.: Санкт-Петербургская

- Акмеологическая Академия, 1999. - С.170-179 с.
11. Зазыкин ВТ. Акмеологический подход в акмеологических исследованиях И Акмеология: методология, методы и технологии. - М.: Междун. академия акмеологических наук, 1998. - С.70-75 с.
  12. Бодалев А.А. Акмеология как научная дисциплина. - М.: РАО, 1993. - 20с.
  13. Деркач А.А., Кузьмина Н.В. Акмеология: пути достижения вершин профессионализма. - М.: РАО, 1993.
  14. Мерлин В.С. Психология индивидуальности: избр. психол. тр. / В.С. Мерлин; под ред. Е.А. Климова. - М.: Изд-во Моск, психол.-соц. ин-та, 2005.
  15. Резниченко, М.Г. Введение в педагогическую деятельность: учеб, пособие / М.Г. Резниченко. - Самара: Изд-во СГПУ, 2003.
  16. Борытко, Н.М. В пространстве воспитательной деятельности: монография / Н.М. Борытко; науч. ред. Н.К. Сергеев. - Волгоград: Перемена, 2001.
  17. Савина Ю.Г. Формирование ценностных ориентаций учащейся молодежи средствами декоративно-прикладного искусства: дис. ... канд. пед. наук / Ю.Г. Савина. - М., 2006.
  18. Борытко, Н.М. В пространстве воспитательной деятельности: монография / Н.М. Борытко; науч. ред. Н.К. Сергеев. - Волгоград: Перемена, 2001. - 181с.



## BO'LAJAK PEDAGOGLARNI KASBIY TAYYORLASH JARAYONIDA KREATIV FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH

Salayeva Muborak Saburovna

psixologiya f.n., Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsenti,

Email: muborakxon71@mail.ru

Djumabaeva Manzura Bagibekovna

Toshkent amaliy fanlar universiteti katta o'qituvchisi,

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p><b>Qabul qilindi:</b> 24-dekabr 2022-yil <b>Tasdiqlandi:</b> 26-dekabr 2022-yil <b>Jurnal soni:</b> 5 <b>Maqola raqami:</b> 16 <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/ku.v5i5.221">https://doi.org/10.54613/ku.v5i5.221</a></p>	<p>Maqolada kasbiy-pedagogik faoliyatning ijodiy parametrlari va zamonaviy oliy pedagogik ta'lim oldida turgan muammolar haqida so'z yuritiladi.</p>
KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS	
<p>oliy ta'lim, bo'lajak pedagog, kasbiy tayyorlash, kasbiy-ijodiy faoliyat, pedagogik vazifalar, motiv, ehtiyoj, harakat, intilish, ijodiy faollik, mustaqillik, kreativ tafakkur, pedagogik kreativlik.</p>	

**Kirish.** Jamiyatning barcha sohalaridagi izchil ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish deyarli har bir shaxsning intellektual va kreativ salohiyatini ijtimoiy muomalaga faol kiritishni taqozo etadi. Ushbu parametr, ayniqsa, ta'lim uchun dolzarb bo'lib, uning eng muhim vazifasi har bir kishiga o'z moyilligini to'liq ochib berish va kreativ qobiliyatni rivojlantirish imkoniyatini berishdir.

Ta'limni modernizatsiyalashning hozirgi bosqichida pedagogik vaziyatlarni kompleks baholay oladigan va murakkab qarorlar qabul qila oladigan, ijodiy faol, ta'lim-tarbiya jarayonida an'anaviy va innovatsion yondashuvlarni qo'llay oladigan, yuqori kasbiy mahoratga ega pedagog kadrlarni tayyorlash asosiy vazifa hisoblanadi<sup>58</sup>.

Hozirgi ta'lim tizimini modernizatsiyalashga bo'lgan ehtiyoj an'anaviy ta'limning yagona dastur, o'quv reja va pedagogik jarayonni tashkil etishning shakl va usullaridan o'zgaruvchan va mualliflik usullariga tezkorlik bilan o'tishni taqozo qilmoqda. Shu munosabatdan bugungi kunda o'quv faoliyatini tashkil etish uchun yangi, muqobil texnologiyalar, usul va sharoitlar faol yaratilmoqda. Biroq bunday kashfiyot va yangiliklar oqimida o'qituvchi ko'rsatma va tavsiyalarining ko'r-korona ijrochisi bo'lib qola olmaydi. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayoniga qo'yiladigan talablarning ortib borayotganligini anglatadi. Shu sababli zamonaviy pedagogikaning asosiy yo'nalishlaridan biri ijodiylik va kreativlikdir.

Pedagog kasbiy faoliyatining ijodiy parametrlari muayyan talabga ega bo'lib, bu o'z navbatida o'z-o'zini anglash uchun shart-sharoitlarni yaratishni, kasbiy tayyorgarlik jarayonida bo'lajak pedagogning ijodiy individualligini rivojlantirishni nazarda tutadi. Bu esa, o'z navbatida, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagoglar bilan ishlashni tashkil etishning o'rnatilgan amaliyotini qayta ko'rib chiqishni taqozo qiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlashda ijodkorlikni rivojlantirishning ahamiyati haqidagi turli uslubiy tushuncha va g'oyalalar bugungi kunda o'rganilayotgan masala amaliyotda qanday hal etilayotganligini tahlil qilish zarurati tug'dirdi.

Ma'lumki, zamonaviy pedagogika nazariyasida ijodiy salohiyatni oshirish, kasbiy tayyorgarlik jarayonida bo'lajak pedagogning shaxsiy va kasbiy rivojlantirishning mazmuni, usul va metodlarini belgilashda jiddiy o'zgarishlar bo'lishi lozim. Chunki bu kasbiy tayyorgarlik jarayonida talabalarni ijodiy faoliyatga safarbar etib, ularning raqobatbardoshligini

ta'minlaydi. Ijodkor o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning ustuvor yo'nalishlaridan biridir<sup>59</sup>.

Zamonaviy pedagogika fanida esa ijodkorlik shaxsni rivojlantirish mexanizmi sifatida V.I.Andreev, D.B.Bogoyavlenskaya, I.I.Kaloshina, V.I.Korotyayev, G.V.Kudryavtsev, N.Kulyutkinlar tomonidan tadqiq qilingan. Shuningdek, bilish jarayonining ijodiy qirralarini V.S.Bibler, N.A.Berdyayev, A.V.Brushlinskiy, V.V.Davidov va L.S.Zankovalar asarlarida ochib berishgan; pedagogik ijodning mohiyatini V.V.Zagvyazinskiy, V.I.Ilyin, V.A.Kan-Kalik, N.D.Nikandrov, M.M.Potashnik, I.B.Bicheva, S.V.Desyatova, I.A.Sareva, V.D.Lobashev, A.A.Talix va F.N.Zimenkovalar o'z asarlari orqali belgilab berishgan<sup>60</sup>.

Shuni ta'kidlash kerakki, ijodiy pedagogik amaliyotning mustahkam poydevori sifatida taniqli rus psixologlari - L.S.Vygotskiy, Yu.N.Kulyutkin, A.N.Leontiev, Ya.A.Ponomarev, S.L.Rubinshteyn va P.M.Teplovlar va chet el psixologlari - G.Ayzenk, M.Vertxaymer, D.Gilford, O.Selts, A.Koestler, L.S.Kyubi, G.Linds, E.Torens va Henry Agard Wallacelar tomonidan tadqiq qilingan.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarda pedagogik ijod odatda ikkita jihatdan ko'rib chiqiladi: jarayonli va shaxsiga oid. Shu tariqa o'qituvchi faoliyatining individual ijodiy uslubi muammosi paydo bo'ladi. Bunda ko'pgina mualliflar - V.I.Andreev, V.I.Zagvyazinskiy, Z.S.Levchuk, A.K.Markova, va N.Yu.Postayuklar faoliyat uslubi mavjudligiga ishora qiladilar. Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muammosi ham (V.I.Andreev, N.M.Anisimov, A.I.Eremkin, I.A.Karpacheva, V.P.Kuzovlev, A.V.Muzalkov, N.Yu.Postalyuk) dolzarb muammolardan bo'lib, bu ko'pincha ijodkorlik tushunchasi bilan belgilanadi.

Ijod - bu dunyoni moddiy va ma'naviy o'rganish jarayonida insonning o'zini-o'zi rivojlanishining ijtimoiy-tarixiy hodisasidir. Kreativ faoliyat jamiyat hayotining turli sohalarida amalga oshiriladi, shuning uchun ham uning turli xil turlari, shu jumladan pedagogik ijod ham mavjud.

Rus psixolog-pedagoglari - S.L.Rubinshteyn, L.S.Vigotskiy, Ya.A.Ponomarev, T.I.Smirnova, A.M.Matyushkin, N.Y.Postayuk, I.B.Bicheva, S.V.Desyatova, I.A.Sareva, V.D.Lobashev, A.A.Talix, F.N.Zimenkovalar tomonidan ijodning mohiyati, uning rivojlanish mexanizmi va shartlarini ko'rib chiqishning fundamental asoslari ishlab chiqildi<sup>61</sup>.

<sup>58</sup> Салаева М.С. Ўзбекистонда oliy ta'lim mazmunini modernizatsiyalash strategiyasi / «Zamonaviy oliy ta'lim yurti modeli – muammo va vazifalar». Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. TTESI. 2006. - B. 37-41.

<sup>59</sup> Бичева И.Б., Десатова С.В., Царева И.А. Развитие педагогического творчества будущего педагога // Профессиональное образование в России и за рубежом, № 1(25), 2017. - С.72-77

<sup>60</sup> O'zbekiston Respublikasining 23.09.2020 yildagi O'RG-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5013007>

<sup>61</sup> Лобашев В.Д., Талых А.А., Зименкова Ф.Н. Элементы творческой деятельности в технологическом образовании студентов // Педагогика и психология образования, - М: МПГУ, №4, 2016. - С.59-65.

Rus pedagog olimlar - F.Barron, V.A.Kan-Kalik, A.S.Kosogova, A.N.Luk, N.D.Nikandrov, A.Z.Rahimov va V.S.Shubinskiylar ijodkor shaxs sifatlarini o'rgandilar.

Shuningdek, rus tadqiqotchilari - M.Vertxaymer, D.Gilford, E.P.Torrance, G.Lindsy, R.Tompson va K.Xallar esa ijodiy jarayonning tashkil etilishi, tuzilishi, samaradorligini oshiruvchi omillar va ijodiy faoliyatga xalajiq beradigan to'siqlarni o'rgandilar.

Yu.K.Babanskiy, L.Yu. Gordin, V.S.Ilyin, N.K.Sergeev, V.V.Serikov va V.V.Kraevskiylar ijodiy kasbiy faoliyatga tayyorlangan shaxsning rivojlanishi ta'lim jarayonining yaxlitlik darajasiga bog'liqligini aniqladilar.

T.N.Balabanova, E.U.Gutsalo, N.M.Borisenko, M.G.Yaroshevskiy, V.R.Petrulis va G.A.Medyaniklar ijodkorlikning kontseptual asoslarini ko'rib chiqishda ijodiy faoliyat mexanizmlari sifatida bo'lajak pedagogning ijodiy laboratoriyasini yaratish va bu jarayonning samaradorligini ta'minlovchi shart-sharoitlarni tadqiq qilishgan.

V.I.Zagvyazinskiyning "O'qituvchining pedagogik ijodkorligi" kitobida ijodiy faoliyatga "yangi pedagogika tizimini yaratish, noma'lum qonuniyatlarni ochish, yangi g'oyalari, usul, vositalar; yangilik yaratish, insonning ichki mohiyati asosidagi kuchlarini uyg'otish orqali ijod qilish" ta'riflaydi. U pedagog ijodiyotining quyidagi farqli jihatlari ajratib ko'rsatiladi:

1. Vaqt jihatidan qat'iy belgilangan va chegaralangan. Agar darsda kutilmagan holat ro'y bersa, o'qituvchi qisqa muddat ichida yangi qaror qabul qilishi shart.

2. Pedagogik ijodiyot o'quv-tarbiyaviy jarayon bilan yaxlit tutash bo'lganligi sababli u har doim ijobiy natijalarga olib kelishi lozim. Salbiylari esa faqat xayoliy sinov va taxminlardagina bo'lishi mumkin.

3. Pedagogik ijodkorlik doimo hamkorlikdagi ijodiy ishdur.

4. Ijodiyotning sezilarli qismi odamlar oldida ommaviy tarzda (o'zining ruhiy holatini boshqara olish ko'nikmasi) amalga oshiriladi.

Ilmiy adabiyotlarda "ijodkorlik" tushunchasining juda ko'p talqinlari mavjud. Masalan, A.Z.Rahimov ijodkorlikni "muayyan muammoning yechimini mutlaqo yangi yoki modernizatsiya qilish kabi yangilikni takror ishlab chiqarishga qaratilgan inson faoliyati shaklidir", deb hisoblaydi.

A.Matejkoning fikricha, "ijodkorlik axborotni baholashni uning manbasining vakolati bilan bog'lamaidan turib, mustaqil fikrlashga xosdir"<sup>62</sup>.

V.D.Lobasheva, A.A.Talix, F.N.Zimenkovalarning fikrlariga ko'ra, "ijodkorlikni bevosita o'rgatish mumkin emas, u asosan ilm olish usuli bilan belgilanadi: bilim esa ijodiy qayta yaratilgan, ya'ni insonning o'zi tomonidan qayta kashf etilgan ilm bo'lib, bunda rasmiy yoki begona, notanish tushuncha bo'lmaydi".

O'rganilgan ilmiy-nazariy manbalar tahlili va pedagogika-psixologiya sohalarida amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari bo'lajak pedagoglarini kasbiy tayyorlash mazmunini o'rganishda bir qancha yo'nalishlar mavjudligini ko'rsatdiki. Jumladan:

Birinci yo'nalish nazariy bilimlar mazmuni va tizimini belgilovchi malaka tavsiflarining ishlab chiqilganligi bilan belgilanib, rus pedagoglari - I.P.Ivanov, R.I.Mitelman va A.J.Ovchinnikovlarning fikriga ko'ra, bu tizimda pedagogik mahorat va kompetentsiyalarni egallash uchun zarur bo'lgan fanlar ro'yxati keltiriladi.

Shu o'rinda bo'lajak pedagoglarning kelajfdagi pedagogik faoliyatidagi vazifalari hamda kasbiy tayyorgarligi uchun "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi" katta ahamiyatga egadir.

Ikkinchi yo'nalish kasbiy tayyorgarlik jarayonida mutaxassisni shakllantirish muammosini o'rganish bilan tavsiflanadi. Bular N.M.Anisimova, E.P.Belozertseva, Z.V.Vidyakova, E.N.Gerasimova, L.N.Golubeva, F.N.Gonobolina, O.V.Dolzhenko, K.M.Duray-Novakova, A.I.Eremkina, V.N.Kartashova, V.F.Krivosheeva, B.P.Kuzovleva, N.V.Kuzmina, V.E.Medvedev, Yu.N.Merenkova, A.V.Muzalkova, S.A.Nikolaenko, A.J.Ovchinnikova, I.F.Pleteneva, N.G.Podaeva va V.A.Slasteninlarning tadqiqotlarida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlashning butun tizimi ijodkorning va asosan pedagogik faoliyatni amalga oshiruvchining pozitsiyasini juda kam hisobga olinishi e'tirof etilib, natijada motivatsiya pasayib, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlanmasligi qayd etiladi.

Shu munosabat kasbiy tayyorlash jarayonida, bo'lajak pedagog shaxsining kreativligiga qo'yiladigan yuqori kasbiy talablar bilan ta'limda kreativ faoliyat uchun tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarning etarli darajada rivojlanmaganligi o'rtasida qarama-qarshiliklar yuzaga keladi.

Demak bundan ko'rinadiki, kasbiy tayyorgarlik jarayonida kreativ faoliyatni tashkil etish shart-sharoitlari; o'quv va auditoriyadan tashqari jarayonda talabalarni mustaqil kreativ faoliyatini tashkil etish mazmuni va tuzilishi; kreativ ilmiy-amaliy faoliyat texnologiyalari, usul va metodlari kabi masalalar juda kam o'rganilganligicha qolmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tarixiy, retrospektiv va nazariy-uslubiy manbalarni tahlil qilish, olingan ma'lumotlarni umumlashirish va sharhlash, kuzatish, suhbat, anketa, kontent tahlil, kvalimetriya va ekspert baholash.

**Muhokama.** Shaxsning ijodkorligini rivojlantirish muammosi zamonaviy pedagogika fanida eng dolzarb masalalardan biridir. Ayni paytda ta'limni pedagogik ijod bilan uyg'unlashtirishga mutaxassislar tayyorlashning yuqori sifatini ta'minlaydi.

Biroq o'qituvchilar har doim ham talabalarning kreativ individualligini rivojlantirishga intilmaydilar. Bo'lajak mutaxassisning kreativ tafakkuri, tasavvuri, kreativ faolligi va mustaqilligi, kreativ qobiliyatlarining rivojlanish darajasi uning kasbiy tayyorgarligining umumiy darajasini belgilaydi. Shaxsning o'zini, o'ziga xos individualligi, ma'naviyati, kreativligini aniqlashga bo'lgan ehtiyojini hisobga oladigan ta'lim jarayonini bunday tashkil etish zarurati yetib keldi.

Vaziyat tahlili shuni ko'rsatdiki, oliy ta'lim muassasalarida ko'pincha ma'ruza, seminar, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar shaklida o'qitishning og'zaki tushuntirish va illyustrativ usullari ustunlik qiladi. Natijada o'qituvchilarning o'z ijodkorligi, talabalarning faolligi va mustaqilligi o'quv dasturining qat'iy asoslari bilan tartibga solinadi.

Shu sababli bugungi kunda oliy ta'lim muassasasining asosiy vazifasi bo'lajak mutaxassisning o'ziga xos shaxsini shakllantirish, uning kreativ individualligini rivojlantirishdan iborat bo'lishi lozim.

Pedagogik kreativlik o'qituvchining kasbiy muhim xususiyati bo'lib, u o'zgarishlarga bo'lgan ehtiyojni, uning motivlari tarkibida shaxsning etukligini, kelajak rivojlanish istiqboliga yo'naltirilganligini aks ettiradi.

Pedagogik ijodning o'ziga xosligi shundaki, ijodiy tabiat nafaqat pedagogik muammoni hal qilish jarayoniga, balki kreativ harakat sifatida individual tipologik xususiyatlarga asoslanadigan ushbu echimni amalga oshirish jarayoniga ham xosdir.

Ijodiy fikrlash kreativ faoliyatga yo'naltiruvchi bosh mezondur. Barcha talabalarda ijodiy jarayonning ortishi, stereotiplarning erkinligi, muhokamalarning noqulay bo'lmasligi, tashabbusi va mustaqilligi, kasbiy-kreativ faoliyatga qiziqish va tayyorgarligi" qulay psixologik muhit bilan ta'minlanadi. Albatta, bu jihatlariga e'tibor qarotishda talabalaridagi yaqqol ko'zga tashlanadigan xususiyatlarga asoslanish, individual imkoniyatlarini ko'zda tutish va rag'batlantirish zarur.

Bizningcha, jamoaviy ijodiy faoliyatni tashkil etishga tayyorlashda talabalar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini yaratish, musobaqalashish, kuch sinashish imkoniyatini berish ularda ijodiy g'oyalarni qo'llab-quvvatlashga motivatsiya uyg'otadi.

Kreativlik insonning qobiliyatlari, motivlari, bilimlari, ko'nikmalariga ega ekanligini anglatadi, buning natijasida yangilik, o'ziga xoslik va o'ziga xoslik bilan ajralib turadigan mahsulot yaratiladi.

Biz uchun eng maqbul F.Barronning fikri bo'lib, u ijodkorlikni "yangi bo'lish tarziga bo'lgan ehtiyojga moslashish qobiliyati" deb talqin qiladi.

Bizning fikrimizcha, kreativlik kasbiy-pedagogik faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan asosiy qobiliyatdir.

Pedagogik faoliyat jarayonida o'qituvchi o'z o'quvchilarning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi ko'plab omillarga (baxsh qilish qiyin, ba'zan esa butunlay kutilmagan vaziyatlarga) duch keladi. Bunga sabab o'quvchining yashash sharoiti, yoki irsiyat, yoki oilaviy urf-odat va an'analar, yoki jamiyat ta'siri bo'lishi mumkin. O'qituvchining ijodkorligi qanchalik rivojlangan bo'lsa, unga o'quvchilar bilan shaxsiy munosabatlarining to'g'ri usul va yo'llarini tanlash osonroq bo'ladi. Yana shuni ta'kidlash kerakki, ijodkor shaxs muloqot jarayonida odamlarni o'ziga tortadi va shaxsning bu sifati o'qituvchilik kasbi uchun muhim ahamiyatga ega.

Bo'lajak pedagogning kasbiy faoliyati har kuni juda ko'p, xususan: o'quv jarayonini teng bo'lmagan, doimiy o'zgaruvchan, ijtimoiy-madaniy sharoitlarda tashkil etish;

- ta'lim jarayonini loyihalash, amalga oshirish va tartibga solish;
- o'quv hujjatlarini yaratish (individual dasturlar, mualliflik kurslari, eksperimental darsliklar, mualliflik eksperimental o'quv-uslubiy majmualari va boshqalar),

<sup>62</sup> Салаева М.С. Инновацион педагогика: педагогический аспект // "Образование и наука в XXI веке"

- ta'lim mazmunini to'ldirish maqsadida undan foydalanish kabi ijodiy vazifalarni hal qilish zarurligini nazarda tutadi. Shu munosabat bilan, bizning fikrimizcha, oliy pedagogik ta'limning eng muhim vazifalari quyidagilar:
  - talabalarning kasbiy va pedagogik faoliyatga qiziqishini rag'batlantirish;
  - kasbiy kompetensiyani shakllantirish;
  - talabalarda tanqidiy, ijodiy, izlanish tafakkurini rivojlantirish;
  - bo'lajak pedagogni o'quvchilarning bilim faoliyatiga rahbarlik qilishga, ularning ijodiy fikrlashi, ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga tayyorlashdan iborat.
- Kasbiy-kreativ fikrlashni shakllantirish jarayoni bo'lajak pedagoglarni ijodiy faoliyatni amalga oshirishga tayyorlash uchun asosdir. Shu maqsadda bo'lajak pedagoglarning kreativ faoliyatini rivojlantirish uchun o'quv jarayonida:
  - pedagogik jarayondagi ziddiyatlarni o'rganishda dalillarni aniqlashtirish;
  - talabalarning konstruktiv-ijodiy, kommunikativ, prognostik va tashkiliy faoliyati;
  - talabalarning o'z faoliyatini tahlil qilishi va baholashi;
  - innovatsion pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishdagi refleksiv faoliyatida yuzaga keladigan turli xil muammoli vaziyatlarni tahlil qilishdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunday holda quyidagilar:
    - izlanuvchanlik karakterining shakl va usullari. Masalan, shaxslararo muloqot paytida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ba'zi muammoli vaziyatlarni yaratish va hal qilish, ya'ni bu holda talabalar o'zlarining xatti-harakatlar modelini ishlab chiqishlari lozim;
    - shaxslararo o'zaro munosabatlardagi to'siqlarni engib o'tish, xatti-harakatlar strategiyasini ishlab chiqishga yordam beradigan simulyatsiya-rol shakllari va usullari;
    - muammolarni hal qilish yo'llarini mustaqil izlashda ishtirokchilarning shaxsiy, hissiy va xulq-atvor darajalari orqali o'z imkoniyatlarini ochishi va o'zini o'zi anglashi uchun sharoit yaratish vositasida kognitiv ta'sir ko'rsatadigan ijodiy shaxsni shakllantirishning turli usullarini har tomonlama amalga oshirishga imkon beradigan mashg'ulotlar shakllarining eng samarali usullari hisoblanadi.
- Shu bilan birga, kreativ fikrlash uslubi pedagogik voqelikning ma'lum bir qarashiga yo'naltirilganligida motivatsiya funktsiyasini bajaradi. Shuning uchun uning faoliyatini bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayoniga qisqartirish mumkin emas. Bu esa, o'z navbatida,

pedagogik faoliyatga tegishli kreativ faol qadriyat munosabatlarini tarbiyalashni talab qiladi.

**Natijalar.** Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlash jarayoni talabalar kreativ faoliyatini rivojlantirish va o'z-o'zini tartibga solishni rag'batlantiradigan muhim bosqich bo'lib, keyingi barcha kasbiy faoliyat o'zining pedagogik kreativ salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatidir.

Kreativlik natijasi faqat qandaydir mahsulotni yaratishda emas, balki ijodkor sub'ekting o'zini rivojlantirishida, ya'ni insoniyat faoliyati shakllarida amalga oshiriladigan taraqqiyotida namoyon bo'ladi.

Shaxsning kreativ rivojlanishi ikkita jihatni qamrab oladi:

- reproduktiv;
- ijodiy.

Ijodiy harakat muammoning yuzaga kelishini hal qilishga tayyorgarlik g'oyaning paydo bo'lishi va uni mujassamlashtirish bosqichlariga bo'linadi.

Bizning nazaramizda, o'qituvchi kreativligining asosi bo'lib kasbiga nisbatan qiziqishi, manfaatdorligini ifodalovchi ichki motivatsiyasi, iroda sohasining rivojlanganligi va tubdan o'zgargan faoliyatga intilishi hisoblanadi<sup>63</sup>.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlash sharoitida ijodkorlik o'quv, ilmiy-tadqiqot va ixtirochilik karakteridagi muammolarni hal qilishning yangi o'ziga xos yondashuvlari, yo'llari va vositalarini yuqori darajada amalga oshirishga erishishda namoyon bo'ladi<sup>64</sup>. Bunda o'quv jarayonida ham an'anaviy, ham innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda ta'lim faoliyatiga kreativ yondashuv elementlarini singdirish orqali erishish mumkin<sup>65</sup>.

**Xulosa.** Oliy ta'lim mazmunini modernizatsiyalashning yangi istiqbollari bo'lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlash jarayonining zamonaviy texnologiyalarini ishlab chiqishni nazarda tutadi. Bu esa ular kreativligini rivojlantirish va kasbda o'zini o'zi ijodiy amalga oshirish imkonini berishi bilan birga zamonaviy oliy pedagogik ta'lim oldida turgan muammolarni hal qilishga asoslanadi.

Xulosa o'rinda shuni alohida ta'kidlash joizki, bo'lajak pedagoglarning kreativ faoliyatini rivojlantirish albatta tashkiliy-pedagogik sharoit bilan bog'liq bo'lib, bu jarayon ularda shaxsiy-kasbiy fazilatlarini hamda kreativ qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beradi.

Shunday ekan, bo'lajak pedagoglarning jamoaviy kreativ faoliyatini rivojlantirishga e'tibor qaratish, qiziqishlari yo'lidagi xatti-harakatlarini qo'llab-quvvatlash, bu borada talabalar oldiga aniq maqsad va vazifalarni qo'yish hamda kreativ faoliyatga faol jalb etish maqsadga muvofiqdir.

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5013007>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019 yildagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>
3. Бичева И.Б., Десятова С.В., Царева И.А. Развитие педагогического творчества будущего педагога // Профессиональное образование в России и за рубежом, № 1(25), 2017.- С.72-77
4. Лобашев В.Д., Талых А.А., Зименкова Ф.Н. Элементы творческой деятельности в технологическом образовании студентов // Педагогика и психология образования, - М: МПГУ, №4, 2016.- С.59-65.
5. Салаева М.С. Ўзбекистонда олий таълим мазмунини модернизациялаш стратегияси / «Замонавий олий ўқув юрти модели – муаммо ва вазибалар». Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. ТТЭСИ. 2006. - Б. 37-41.
6. Салаева М.С. Ўзбекистонда олий таълим мазмунини янгилашнинг ижтимоий-маданий омиллари // Maktab va hayot. № 1. 2011. – Б. 24-26.
7. Салаева М.С. Инновацион таълим шариоитида педагогнинг шахсий-касбий ривожланишининг психологик омиллари // "Образование и наука в XXI веке" международный научно-образовательный электронный журнал. ISSN: 2658-7998. Электронный журнал. Выпуск № 12 (том 3) (март, 2021). - С.567-570.
8. Салаева М.С. Педагогнинг самарали инновацион фаолиятини таъминлашда шахсий-касбий ривожланишининг психологик қўллаб-қувватлаш / Инновацион таълим: халқаро тажриба, муаммо ва ечимлар" мавзусидаги Халқаро илмий-амалий анжуман. Тошкент шахридаги ЁДЖУ техника университети. Электрон тўплам. 3-қисм. 2021 йил 21 апрель. - Б.405-407.
9. Салаева М.С. Педагог профессионализмнинг шаклланиши интегратив психологик ҳодиса сифатида / Материалы международной научной конференции "Педагогические и психологические особенности развития, формирования и становления личности врача". – Самарканд. Самаркандский государственный медицинский институт. (СамГМИ) 5 мая 2021 года. Электронный сборник. – С.178-180.
10. Салаева М.С., Джумабаева М. Таълимни модернизациялаш шариоитида педагог шахсининг ижтимоийлашуви ва профессионаллашуви // UzACADEMIA Ilmiy-uslubiy jurnali ISSN (IJEAIS). ISSN: 2643-640X. With Impact Factor: 3.2. Vol.5 Issue 3, March - 2021.- P.231-233. <http://ijeais.org/wp-content/uploads/2021/3/IJEAIS210342.pdf>

<sup>63</sup> Sалаева М.С. Professional darajaga erishish maqsadida pedagogning virtual mobilini rivojlantirish // "Xorijiy tillarni o'qitishning dolzarb masalalari: muammolar va yechimlar xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjuman materiallari. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti. Elektron to'plam. 2021-yil 5-may. - B.230-234.

<sup>64</sup> Sалаева М.С. Psychological conditions for personal and professional development of future teachers. // Washington DC, USA International Journal of Engineering and Information Systems

(IJEAIS). ISSN: 2643-640X. With Impact Factor: 3.2. Vol.5 Issue 3, March - 2021.- P.231-233. <http://ijeais.org/wp-content/uploads/2021/3/IJEAIS210342.pdf>

<sup>65</sup> Sалаева М.С. Personal and professional self-development of a teacher to achieve a professional level. // Washington DC, USA International Journal of Engineering and Information Systems (IJEAIS) ISSN: 2643-640X. With Impact Factor: 3.2. Vol.5 Issue 3, March - 2021. - P.234-237. <http://ijeais.org/wp-content/uploads/2021/3/IJEAIS210343.pdf>



- (E) – 2181 - 1334 Barcha sohalar bo'yicha electron jurnal. VOL 2, ISSUE 9 (19), July 2021 Part - 1. - C.54-60. www.academscience.uz
11. Салаева М.С., Абдурасулова Ш.К. Педагог профессионализмнинг шаклланиши касбий кадрият сифатида намоён бўлиши // EURASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE Innovative Academy Research Support Center. www.in-academy.uz. ISSN 2181-2888. With Impact Factor: 8.2. Volume 2 Issue 02, February 2022 Pages 183 -188. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6242575>
  12. Salaeva M.S. Professional darajaga erishish maqsadida pedagogning virtual mobilligini rivojlantirish / "Xorijiy tillarni o'qitishning dolzarb masalalari: muammolar va yechimlar xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjuman materiallari. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti. Elektron to'plam. 2021-yil 5-may. - B.230-234.
  13. Salaeva M.S., G'ulamova S.R. Ta'limni axborotlashtirish sharoitida bo'lajak pedagoglarning virtual akademik mobilligini shakllantirish / "Xorijiy tillarni o'qitishda yangicha yondashuvlar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti – T.: "Firdavs-Shoh" nashriyoti, 2022 – B. 209-213.
  14. Salaeva M.S. Psychological conditions for personal and professional development of future teachers. // Washington DC, USA International Journal of Engineering and Information Systems (IJEAIS). ISSN: 2643-640X. With Impact Factor: 3.2. Vol.5 Issue 3, March - 2021.- P.231-233. <http://ijeais.org/wp-content/uploads/2021/3/IJEAIS210342.pdf>
  15. Salaeva M.S. Personal and professional self-development of a teacher to achieve a professional level. // Washington DC, USA International Journal of Engineering and Information Systems (IJEAIS) ISSN: 2643-640X. With Impact Factor: 3.2. Vol.5 Issue 3, March - 2021. - P.234-237. <http://ijeais.org/wp-content/uploads/2021/3/IJEAIS210343.pdf>
  16. Salaeva M.S. Formation of teacher professionalism as an integration psychological event in the context of globalization of education // Hindiston. International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD) eISSN: 2456-6470 Impakt faktor: 6.005. Special Issue – IDMR2021. April 2021. - P.109-111. Available Online @ <https://www.ijtsrd.com> <https://www.slideshare.net/yogeshijtsrd/formation-of-teacher-professionalism-as-an-integration-psychological-event-in-the-context-of-globalization-of-education>
  17. Salaeva M.S., Djumabayeva M. Formation of virtual academic mobility of future teachers in the context of education information // International Multidisciplinary Scientific Journal (IMSJ) ISSN: 2091-573X. With Impact Factor: 3.2. Volume 1. Issue 1, June 2021.- P. 36-37. Google scholarship <https://www.sciencepublish.org/>
  18. Salaeva M.S., Koshnazarova M.A., Abdukodirov G., Radjabova D.A. Professionalism of the Teacher as a Pedagogical Credo in the Age of Innovation // SPECIALUSIS UGDYMAS / SPECIAL EDUCATION 2022 1(43). Pp. 10571 – 10576. <https://www.sumc.lt/index.php/se/article/view/1637>



## KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK TARBIVACHILARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH TEKNOLOGIYASI PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Ergasheva Barno Ziyavitdin qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika univertseti o'qituvchisi,  
barnoergasheva90@gmail.com

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<b>Qabul qilindi:</b> 24-dekabr 2022-yil <b>Tasdiqlandi:</b> 26-dekabr 2022-yil <b>Jurnal soni:</b> 5 <b>Maqola raqami:</b> 17 <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/ku.v5i5.222">https://doi.org/10.54613/ku.v5i5.222</a>	Mazkur maqolada Pedagogika Universteti talabalarining rivojlanish sharoitida qanday kompetensiyaga ega bo'lishlari va amaliyotda qanday o'qitish metodlarini tanlashi hususida so'z boradi. Bo'lajak pedagoglar uchun egallanishi lozim bo'lgan pedagogik sifat va tayyorgarlik mazmuni yoritilgan.
<b>KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ Keywords</b>	
Kasbiy tayyorgarlik, professional, mutaxassis, kompetensiya, tayyorgarlik, strategik, ta'lim, pedagog, metodlar	

**Kirish.** Zamonaviy jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy sohalarida ro'y berayotgan o'zgarishlar pedagogga yangi talablarni qo'yadi. Bu keng ko'lamli umumiy madaniy, professional va maxsus vakolatlariga ega, yangi kasbiy talablar va mehnat sharoitlariga munosib javob bera oladigan mutaxassis bo'lishi kerak. Shiddat bilan o'zgarib borayotgan jamiyatda yashash va ishlashga tayyor bo'lgan professional o'qituvchini tayyorlash - bu kasbiy pedagogik ta'lim tizimi oldida turgan strategik vazifadir. Shuning uchun bugungi kunda ta'limning kompetensiya paradigmasiga o'tish dolzarblashmoqda.

Respublikasining Prezidentining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot O'zbekiston Strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni [1], O'zbekiston Respublikasi Oliy Ta'lim Tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi [2] tadqiqot ishimizga dasturil amal bo'lib xizmat qiladi. Mamlakatimizda kasb-hunar ta'limini tashkil etish va rivojlantirish borasida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada oliy ta'lim muassasalarining eng muhim vazifalaridan biri - bu bo'lajak mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligini shakllantirishdir. Kasbiy tayyorgarlik - zaruriy kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish asosida yuzaga keluvchi shaxs ijtimoiy kompetentligining o'ziga xos ko'rinishi sifatida izohlanadi. Kasbiy tayyorgarlik o'z-o'zidan yuzaga kelmay balki aniq maqsadlar asosida rejalashtirilgan muayyan bosqichlarni qamrab oladi.

O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi. Hozirgi kunda Prezidentimizning tashabbuslari bilan mamlakatimizda yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash, yosh avlodning har jihatdan yetuk, jismonan sog'lom, intellektual salohiyatli, ma'nan barkamol ulg'ayishi uchun, shuningdek yoshlarni qilgan mehnati, erishgan yutuqlariga yarasha rag'batlantirishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu muammoli vaziyatdan chiqishning yagona yo'li - oliy ta'limda yangicha, ya'ni kompetent yondashuvni joriy etishdir. Kompetent yondashuv talabadan bilim va ko'nikmalarni alohida-alohida emas, balki yaxlitlikda egallashni talab etadi. Mazkur talab bilan bog'liqlikda, o'z navbatida, o'qitish metodlarini tanlash tizimi ham o'zgarishga uchraydi. O'qitish metodlarini tanlash va amaliyotda qo'llash ta'lim jarayonida qo'yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiya va funksiyalarni takomillashtirishni talab etadi. Ushbu muammoli vaziyatdan chiqishning yagona yo'li - oliy ta'limda yangicha, ya'ni kompetent yondashuvni joriy etishdir. Kompetent yondashuv tinglovchidan bilim va ko'nikmalarni alohida-alohida emas, balki yaxlitlikda egallashni talab etadi. Mazkur talab bilan bog'liqlikda, o'z navbatida, o'qitish metodlarini tanlash tizimi ham o'zgarishga uchraydi. O'qitish metodlarini tanlash va amaliyotda qo'llash ta'lim jarayonida qo'yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiya va funksiyalarni takomillashtirishni talab etadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Xalqaro tajribaga asoslangan, mahalliy pedagogika va psixologiya yutuqlarini e'tiborsiz qoldirib, kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirish o'zini oqlamaydi. Shuni ham yodda tutish kerakki, ta'limning integral konstruksiyalarini ilmiy asoslashda chet el olimlari P.Ya.Galperin, A.N.Leontyev, S.L.Rubinshteyn ishlariga tayanganlar. Professionallik va kompetentlik bir-biriga o'hashash bo'lsada, har xil ma'noga ega bo'lgan atamalaridir. Professionallik deganda nafaqat ma'lum bilimlar, balki mehnatga bo'lgan munosabat, ishning o'ziga xos xususiyatlari tushuniladi. Rivojlangan kompetensiyalar darhol seziladi, chunki professional pedagog o'z ko'nikmalarini rivojlantirishga harakat qiladi, muayyan maqsad va natijalarga erishishga intiladi, ishchan qadriyatlar ishlab chiqaradi va bular odatda ish jarayonining standartiga mos keladi. Kompetentlik esa biroz murakkab mazmunga ega, sababi, nafaqat bilimlarning mavjudligini, balki shu bilan birga ularni qo'llash qobiliyatini ham taqozo etadi. Kompetentlik faqat keng qamrovli baholash va kuzatish paytida aniqlanishi mumkin. O'qituvchining kompetentligini shakllantirish uchun asosiy narsa bu maxsus kasbiy ta'limdir.

Talabalarning kompetentligini oshirishning o'quv-metodik ta'minoti sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar, amaliy mashg'ulotlarning virtual shakllarini joriy etish, kasbga yo'naltirilgan fanlarni o'qitishdagi kompetensiyaviy yondashuvlar, fanlararo bog'liqlikni aks ettiruvchi amaliy mashg'ulotlar asosida o'qitish ta'limning sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. O'zbek olimlaridan Abdullayeva B.S., Sarimova D.S. Pedagoglarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha kompetensiyalarni rivojlantirish, Ganiyeva S.A. Bo'lajak o'qituvchilarni ekologik kompetentligini rivojlantirish, Xasanov A.A. Muloqot kompetensiyasining tuzilmasi, Nurillayev B.N., Qurbonazarov I.T. Eksperimental masalalar orqali o'quvchilarda ijodiy va amaliy kompetensiyalarni shakllantirish, O.K Musayev- Kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogik qobiliyatlar kompleksini takomillashtirish (oliy ta'lim muassasasi o'qituvchilari misolida) ish olib borganlar.

Bu esa ushbu fanlar misolida o'qitish metodikasini takomillashtirishga yo'naltirilgan ta'lim mazmuni va o'quvchilarning kompetentligini rivojlantirishdagi zaruriy tayanch va fanga oid kompetensiyalar tarkibini aniqlashtirish, tayanch va fanlarga oid umumiy kompetensiyaviy yondashuvlar asosida o'quvchilarning kompetentligini rivojlantirish modeli va metodlarini takomillashtirish zaruratini asoslaydi. Dotsent S.B.Qorayev, N.I Tirkashev o'zlarining tadqiqot ishlarida „Kompetensiyaviy yondashuvlarga asoslangan ta'limning bir qator jihatlarini ko'rib o'tganlar, va kasbiy, amaliy kompetentlik turlari va ularning rivojlanish bosqichlari haqida fikr yuritilganlar. Ular o'z tadqiqot ishlarida Zamonaviy yondashuvlar o'qitish jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalarini o'zaro

integratsiyalash orqali o'quvchilarda tayanch va fanga oid xususiy kompetensiyalarni shakllantirishni nazarda tutadilar. Dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida kompetensiyaviy yondashuvni kasbiy ta'lim, umumta'lim fanlari standartlari mazmuniga kiritish tamoyillari, ularning pedagogik tizim bo'lganlaridagi o'zgarishlarga ta'siri, psixologik va metodologik asoslari va xususiyatlari, mustaqil ravishda ta'lim natijalariga erishish konsepsiyasi, kompetensiyaviy yondashuv talqini, shaxsni rivojlantirishga yo'naltirilgan, ijtimoiy va ma'lum bir sohadagi faoliyatga doir kompetensiyalarga oid ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. O'qituvchilarning kompetentligini oshirishning o'quv-metodik ta'minoti sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar, amaliy mashg'ulotlarning virtual shakllarini joriy etish, kasbga yo'naltirilgan fanlarni o'qitishdagi kompetensiyaviy yondashuvlar, fanlararo bog'liqlikni aks ettiruvchi amaliy mashg'ulotlar asosida o'qitish ta'limning sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilishlarini bildirib o'tganlar [3].

Pedagogika fanlari nomzodi Kuliyeva Sh. X va fan o'qituvchisi Sharopova M.R. o'z tadqiqot ishlarida Bo'lajak kasbiy ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda Kompetensiyaviy yondashuv asosida o'z tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar. Ular tadqiqot ishi davomida Ta'lim jarayonida o'quvchilarda shakllantirilishi lozim bo'lgan tayanch kompetensiyalar har bir fan doirasida predmetga oid kompetensiyalarni shakllantirish bilan parallel ravishda olib borilishi maqsadga muvofiq degan fikrlarni ilgari surmoqdalar. Kuliyeva Sh. X va fan o'qituvchisi Sharopova M.R. larning ilmiy ishlarida bo'lajak kasbiy ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyatli jihatlari keltirilgan. Kompetensiya tushunchasiga tavsif berilgan. Bo'lajak o'qituvchi kompetensiyasini rivojlantirishda e'tibor qaratishi lozim bo'lgan jihatlar asoslangan [4].

V. I. Baidenko I. A. Zimney metodologik tahlil darajalariga mos kelishi asosida kompetensiyaga asoslangan yondashuvning mohiyatini ochib beradi, uning boshqa yondashuvlar bilan aloqasini asoslaydi. Oliy

ta'limga kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish muammolarini yanada rivojlantirish uchun ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi xulosalar chiqaradi:

- kompetensiyaga asoslangan yondashuv – metodologik uchinchi (konkret-ilmiy) darajadagi yagona, o'ziga xos yondashuv.
- kompetensiyaga asoslangan yondashuvni izohlash mumkin
- tizimli yondashuv sifatida;
- ta'limda ko'p yondoshuv zamonaviy ta'limning eng muhim xususiyati hisoblanadi.

**Tadqiqot natijalari.** Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash texnologiyasi omillarida quyidagilar muhim o'rin tutadi:

Psixologik tayyorlash asoslari. Bu asoslarda quyidagilar negiz hisoblanadi:

- bola psixologiyasi bo'yicha bilim berish;
- bola psixologiyasini rivojlantirish bo'yicha metod bilan qurollantirish;
- bola bilan psixologik ishlashga tayyorlash.


Bunday yondashuv kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda psixologik omillarga tayanish imkonini beradi.

Pedagogik tayyorlash asoslari. Mazkur asoslarning eng muhim tayanchlarini quyidagilar tashkil etadi:

- bolani aqliy rivojlantirish asoslari bilan tanishtirish;
- bolani ijtimoiylashtirish asoslari bilan qurollantirish;
- bolani maktabga tayyorlash asoslari bilan tayyorlash.

Mazkur pedagogik asoslar kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik tayanchlarini beradi.

Shunday qilib kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning psixologik-pedagogik omillari o'ziga xos xususiyatlari bilan muhim ahamiyatga ega.



1- rasm. Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash texnologiyasining nazariy modeli.

**Muhokama.** Tadqiqot tahlillari asosida shuni ta'kidlashimiz mumkinki, o'qituvchining professional kompetentligi uning kasbiy (ta'limiy, texnologik, metodologik) tayyorgarlik darajasi hamda

o'quvchilarning bilim olishga motivatsiyasining kuchligi bilan baholanadi. O'quvchilarda funksional savodxonlikni shakllantirishda o'qituvchining kasbiy kompetentligini o'rganishni quyidagi uch

yo'nalishda amalga oshirishni talab etadi: - tarkibiy tuzilishiga ko'ra (funksional savodxonlik, o'qituvchi, kasbiy kompetentlik tushunchalarining o'zaro bog'liqligi); - funksionalligiga ko'ra (amaldagi tadqiqot); - genetik (faoliyatni o'tmish, bugun va kelajakda o'rganish asosida o'qituvchining kabi kompetentligini rivojlantirish [5].

Ta'lim jarayonining asosiy tarkibiy qismlariga (maqsad, mazmun, usullar, shakl va vositalar, o'quv natijalari) muvofiq belgilangan yondashuvlar birgalikda mavjud bo'lib, bir-birini to'ldiradi. Tadqiqotchilar kompetensiyaga asoslangan yondashuv ulardan biri bo'lib, amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim jarayoniga hissa qo'shishini ta'kidlaydi, "...o'z mazmunini o'ziga xos shaxsiy komponentlar bilan sezilarli darajada kengaytiradi, bu esa uni insonparvarlikka yo'naltiradi".

**Xulosa.** Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, bugungi ta'limni modernizatsiyalash sharoitida oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining kompetensiyasini rivojlantirish va bu jarayonda quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- pedagog kadrlarda kasbiy faoliyat va sohaga tegishli yangi kompetensiyalar va ko'nikmalarni faol o'zlashtirish motivatsiyasini rivojlantirish;

- ta'lim jarayonida sifatga urg'u berish orqali pedagogik jarayonga ijodiy yondashuv va novatorlikni rivojlantirish;
- hamkorlikdagi ta'lim, loyihaviy va muammoli ta'lim elementlarini o'z ichiga olgan «tadqiqotlar orqali ta'lim» kontsepsiyasini amaliyotga keng joriy etish;
- ijodiy seminarlar, kastinglar, master klasslar tashkillashtirish orqali pedagoglar va talabalarni hamkorlikdagi tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish va pedagoglarda tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish va boshqarish sohasidagi zaruriy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish;
- pedagoglarning innovatsion g'oyalarni ishlab chiqish va tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi maxsus kurslarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim yo'nalishlardan sanaladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Respublikasining Prezidentining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistning Taraqqiyot O'zbekiston Strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son asosida O'zbekiston Respublikasi Oliy Ta'lim Tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi
3. Barakayevich, Q. S., & Baxtiyrovna, A. S. (2021). Xalqaro dastur talabalari asosida innovatsion ta'lim muhitini yaratish. Integration of science, education and practice. scientific-methodical journal, 1(02), 132-137
4. Татур Ю. Г. Компетентностный подход в описании результатов и проектировании стандартов высшего профессионального образования. М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004
5. Lebedev O.E. Upravleniye obrazovatelnyimi sistemami. Uchebno - metodicheskoye posobiye dlya vuzov. - M.: Literaturnoye agentstvo «Universitetskaya kniga», 2004. - 136 s.



## MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI TARBİYALANUVCHILARDA BILISHGA QIZIQISHNI RIVOJLANTIRISH TEKNOLOGIYASI

**Ilmiy rahbar: Hamdamova Maxsuna Tursunovna**

**Baqoyeva Maftuna Sulton qizi**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

(Maktabgacha ta'lim yo'nalishi) 2-bosqich magistranti

e-mail baqoyevamaftuna35@gmail.com

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p><b>Qabul qilindi:</b> 24-dekabr 2022-yil</p> <p><b>Tasdiqlandi:</b> 26-dekabr 2022-yil</p> <p><b>Jurnal soni:</b> 5</p> <p><b>Maqola raqami:</b> 18</p> <p><b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/ku.v5i5.223">https://doi.org/10.54613/ku.v5i5.223</a></p>	<p>Mazkur maqolada, maktabgacha va katta yoshdagi tarbiyalanuvchilarda bilishga bo'lgan qiziqishni rivojlantirish texnologiyasi haqida so'z boradi hamda bilishga bo'lgan qiziqishning mohiyati yoritiladi.</p>
KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ Keywords	
<p>bilish, qiziqish, bilim, ko'nikma, malaka, faoliyat, texnologiya, o'yin, kognitiv qiziqish</p>	

**Kirish.** Atrofdagi dunyo haqidagi ma'lumotlarni o'zlashtirish insonning bilish qiziqishlarining qay darajada rivojlanganligiga bog'liqdir. O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Maktabgacha ta'lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi. Me'yoriy-huquqiy hujjatlarda maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturi bolani to'laqonli har tomonlama kamol toptirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya jarayoni tashkil etilishini ta'minlash kabi muhim masalalar belgilangan. Bu esa o'z navbatida, mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimining rivojlanishiga, bolalar va ularning ta'lim-tarbiyasi masalasi davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri ekanligidan dalolat beradi.

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarni tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qarori "Nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3276-sonli qarori "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli qarori, "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3305-sonli qarori, "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvi tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5198-sonli Farmoni qabul qilindi.<sup>1</sup>

«Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari» va «Ilk qadam» o'quv dasturining ishlab chiqilishi uzluksiz ta'lim tizimida maktabgacha ta'limni samarali amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Albatta maktabgacha ta'limni ham shaklan, ham mazmunan yangilashga qaratilgan bu kabi innovatsiyalar ota-onalardan tortib barcha pedagoglar bola tarbiyasi,

uning ta'lim olishga tayyorgarligiga zamon talablaridan kelib chiqqan holda yondashuvini talab etadi. Bugungi kunda yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish va jahondagi o'z tengdoshlari bilan raqobatlasha oladigan kuchli bilimlar egasi etib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalasiga aylanganidir. Yaratilayotgan ulkan imkoniyatlar yosh avlodni ta'lim-tarbiya olishida o'zining munosib hissasini qo'shmoqda. O'sib kelayotgan yosh avlodga har qaysi ta'lim yoshida o'ziga xos e'tibor qaratilishi yoshlar tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilganidan darak beradi. Millatimizga xos bo'lgan ilm olishga qiziqish, intilish, jo'shqinlik, qat'iyatlilik, shijoatkorlik, yuksak salohiyat avlodlar davomiyligini ta'minlovchi sifatlar hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi Farmonining Ijtimoiy sohani rivojlantirish deb nomlangan to'rtinchi yo'nalishida ko'rsatib berilgan bo'lib, unda Maktabgacha ta'lim muassasalarining qulayligini ta'minlash, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish<sup>2</sup> zarurligi takidlangan. Maktabgacha ta'lim muassasalari, birinchidan, maktab yoshiga qadar bo'lgan bolalarning umumiy savodini chiqarish, bolalarda Vatanni sevish, u bilan g'ururlanish hissini uyg'otish, Konstitutsiyani o'rgatish, dunyoqarashini kengaytirish imkonini berayotgan bo'lsa, ikkinchidan, yosh bolali onalarning mehnat qilishga oid konstitutsiyaviy huquqini ro'yobga chiqarishga ham xizmat qiladi. 2019-yil 8-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi» tasdiqlandi.

Konsepsiyada: «Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratish, ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, bolalarning rivojlanganligi darajasini va ularning boshlang'ich ta'limga tayyorligini, shuningdek, ularning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida amalga oshirilishi lozim»<sup>3</sup> ligi alohida takidlangan. Ayniqsa, ta'lim tizimining yetakchi bo'g'inlaridan biri hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimida o'qitilishining sifati va samaradorligiga katta ahamiyat berish davr talabiga aylandi.

<sup>1</sup> 2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qarori 29.12.2016 y., "Nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3276-sonli qarori 5.09.2017y., "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli qarori 09.09.2017 y., "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3305-sonli qarori 30.09.2017 y., "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvi tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5198-sonli Farmoni 30.09.2017 y..

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining – o'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha xarakatlar strategiyasi to'g'risidagi farmoni. Xalq so'zi gazetasi 2017 yil. , №-soni

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi .O'zbekiston Respublikasi Prezidentining –O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi 2019-yil 8 -maydagi PQ-4312-son Qaroriga 1-ilova.



Maktabgachcha yoshdagi bolalarning bilishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, qiziqishlarini shakllantirish tarbiyachilarning eng asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilishga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish juda ko'plab omillarga bog'liqdir. Asosiy omillardan biri bu tarbiyachining mashg'ulotlarni bolalar uchun qiziqarli qilib tashkil eta olishi, o'yin faoliyati orqali aniq yetkazib bera olishidir.

**Adabiyotlar tahlili.** Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarda bilishga qiziqishni shakllantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Tarbiyachilar maktabgacha yoshdagi bolalarda bilishga qiziqishni shakllanishiga yordam beruvchi turli xil faoliyatlarni tashkil etishning innovatsion yondashuvlari va texnologiyalardan foydalanishga intiladilar.

Xorijda maktabgacha bilishga qiziqishni rivojlantirish mavzusida ish olib borib uslubiy tavsiyalar ishlab chiqqan olimlar: B.G. Ananeva, Ye.A. Bogoslovskiy, L.I. Bojovich, V.B. Bondarevskogo, P.YA. Galperina, V.V. Davidova, N.S. Denisinkovoy, A.K. Duseskova, Ye.L. Ilina, A.G. Kovaleva, A.I. Kondratyuka, S.I. Kudinova, Yu.N. Kulyutkina, A.N. Leonteva, A.K. Markovoy, M.Y. Matyuxinoy, M.F. Morozova, V.N. Myasisheva, Y.A. Obuxovoy, A.B. Orlova, L.B. Proskuryakovoy, S.L. Rubinshiteyna, I.A. Sividirovo.

Respublikamiz olimlaridan maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim tarbiyasi va bilishga qiziqishlari shakllantirishda N. Begamatova, U. Bo'tayeva, F. Vahabova, B. Djurayeva, K. Mamedov, S. Mirjalilova, L. Mirjalolova, L. Mo'minova, F. Nazarova, G. Nazirova, N. Nurmuhammedova, R. Rahimova, N. Rejаметova, O'Ro'zibayeva, A. Sulaymonov, H. Tajibayeva, M. Fayzullayeva, D. Sharipova, D. Shodiyeva, Sh. Shodmonova, P. Yusupova, F.R. Qodirova, Sh. Q. Toshpo'latova, N.M. Qayumova, M.A'zamova, Sh. Sodikova, D. Babayeva, N. Jamilova, O. Hasanbayeva, O. Maxmudova, S. Maxmudovalar ish olib borishgan;

Bilishga bo'lgan qiziqishlarni rivojlantirish masalasining fiziologik asoslari (I.M. Sechenov, I.P. Pavlov, S.L. Rubinshteyn, Yu.A. Samarinar); Psixologik asoslari; (A.S. Vigotskiy, S.L. Rubinshteyn, A.N. Leontev, P.YA. Galperin, D.B. Elkoninlar); pedagogik jarayonda shaxsni ko'zda tutishga asoslangan pedagogik texnologiya (Sh.A. Amonashvili texnologiyasi); o'quv materialini sxemalar va modellar ishorasi asosida o'qitishni jadallashirish texnologiyasi (V.F. Shatalov texnologiyasi); o'quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil etish asosiga qurilgan texnologiya (S.N. Lisenkova texnologiyasi, N.P. Guzikning o'qitish tizimini rejalashtirish texnologiyasi); o'qitishni dasturlash texnologiyasi (B.P. Bepalko)lar tomonidan ilmiy asoslab berilgan. Bu tadqiqotlarning barchasi bolalarning bilish faoliyatlarini takomillashtirish maqsadini ko'zlagandir. Yuqoridagi tadqiqotlarning barchasi turli davrlar ehtiyoji va talablari nuqtai nazaridan o'rganilgan bo'lib, o'ziga xos ahamiyatga ega. Biroq, aynan maktabgacha yoshdagi bolalarining bilishga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish masalasi bugungi davr talablari asosida qayta o'rganib chiqishni taqozo etamokda.

**Tadqiqot natijalari.** Shaxsning rivojlanishida, uning intellektual salohiyatini oshirishda bilishga qiziqish faoliyatlari muhim ahamiyatga egadir. Bilishga qiziqishni rivojlantirish zamonaviy ta'lim jarayonining asosiy muammolaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bilimlarni o'zlashtirishda ilg'or davr sifatida maktabgacha yoshning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda bolalarning bilim olish qiziqishlarini rivojlantirish uchun psixologik-pedagogik shart-sharoitlar yaratish zarur, bu esa keyingi o'qishga tayyorlash uchun muhim hisoblanadi.

Ta'lim va tarbiya shaxsning shakllanishiga hissa qo'shishi uchun bolaning bilim faoliyatining manbai bo'lgan va insonning bilim qiziqishini rivojlanishiga asos bo'lgan bilishga ehtiyojni "uyg'otish" kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalar atrofidagi dunyoni faol o'rganadilar, shuning uchun bu yosh ayniqsa bilishga qiziqish faoliyatni shakllantirish uchun qulaydir. Olimlar, tadqiqotchilar bu yoshda bolalarning bilim olishga, muayyan ko'nikma va malakalarni yegallashga bo'lgan kuchli qiziqish borligini isbotladilar. Atrofdan sodir bo'layotgan narsalarni bilish uning tasavvurini, xotirasini ayrim hodisalarga baho berish, ta'sir ko'rsatish qobiliyatini rivojlantiradi.

Bilish - borliq va uning ob'ektiv qonuniyatlarini o'rganish, anglash, o'zlashtirish, egallash. "Bilish-olaning inson ongidagi in'ikos

etish jarayoni. Inson o'zini qamrab olgan atrof-muxit to'g'risida bilish va tasavvurga ega bo'lmay turib, faoliyatning biron bir turi bilan shug'ullana olmaydi. Bilishning maxsuli natijasi bilim bo'lib, har qanday kasbni egallash faqat bilim orqali ro'y beradi" deya izoxlangan.<sup>4</sup>

Shu bilan bilishning kundalik, badiiy, ilmiy darajalari ham mavjud. Ilmiy bilish, o'z navbatida ikkiga, ya'ni tabiat va jamiyatni bilishga ajraladi va ularning o'ziga xos yo'nalishlari hamda maqsad va vazifalari bor.

Bilish-inson tomonidan voqelikni aks ettirish protsessi. Agar bilish shaxsning o'ziga qaratilgan bo'lsa, u o'z-o'zini belgilash deb ataladi.

Bilish-psixik aks ettirish jarayoni, bilimlarni egallash va uni o'zgartirishni ta'minlaydi.

Qiziqish- bilish, o'rganish va shu kabilarga intilish, havas mayli; shaxsning o'zi uchun qimmatli va yoqimli bo'lgan muayyan narsa va hodisaga munosabati.

Qiziqish-shaxsning muayyan narsa yoki hodisaga ega bo'lishga, bilishga faol va barqaror yo'nalishidan iborat individual xislati yoki faoliyat motivi bo'lib, u har qanday faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Qiziqishlar shaxsni o'zida bilim olish va anglab etish borasida hosil bo'lgan ishtiyoqni qondirish yo'llarini va usullarini izlashga majbur etadi, ya'ni qiziqishlar bilishning doimiy qo'zg'atuvchi mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun darslarda bolalarga bilim berish usullarining qiziqarli bo'lishini ta'minlash zarur. Bu bolalardagi mavjud qiziqishlarga asoslangan holda amalga oshiriladi.

Bolalarda bilishga bo'lgan qiziqishni hosil qilishda ulami faol ijodiy faoliyatga undovchi pedagogik texnologiya katta ahamiyatga ega. Bunga bolalarga o'quv materiallaridan ularning kuchi yetadigan, qiziqarli topshiriqlarni berib bajartirish yo'li bilan erishish mumkin.

Qiziqish-bu faoliyatning maxsus tusini, shaxsiyat holatini (o'quv jarayonidan quvonch, qiziqish mavzusini bilishga, bilish faoliyatiga kirishish, muvaffaqiyatsizliklarni bartaraf etish va ularni yengish uchun kuchli irodali intilishlarni) shakllantiradigan faoliyat. Qiziqish-bu inson tomonidan olib boriladigan faoliyatning doimiy kuchli motivlaridan biridir.

Psixologlarning ta'kidlashicha, qiziqish manbalari ijtimoiy hayotda bo'lib, qiziqish bola qiziqishlarining o'ziga xos mazmuni shakllanadigan faoliyatda rivojlanadi va boyiydi, ya'ni bilishga qiziqishning manbai bola hayoti, atrof-muhitidir. Olimlar har bir maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim manbalariga bo'lgan qiziqishning o'zgarishini va muayyan manbani o'rganish uchun bilish harakatlarining o'zgarishini qayd etadilar. Bu bolaning tafakkurining rivojlanish darajasiga bog'liq, chunki ob'ektlarni o'rganish intellektual, izlanish xususiyatiga ega. Bilishga qiziqishning rivojlanishi doimiy ravishda savollar, vazifalar bilan rag'batlantiriladi, javoblarning faol bo'lishi mavzuning mazmuniga kirib boradi. So'z insonni zarur harakatlarni amalga oshirishga, uning qiziqishi bilan bog'liq holda maqsadga muvofiq xatti-harakat qilishga undaydi, uni bilish jarayoniga kirib borishini ta'minlaydi. Bilishga qiziqish-shaxsning samarali faoliyatga irodali intilishi bilan bog'liq.

Maktabgacha ta'lim muassasasi bitiruvchisi uchun jamiyatning zamonaviy ijtimoiy buyurtmasi, birinchi navbatda, aniq bilimlarga qo'yiladigan talablarga emas, balki yangi universal qobiliyatlarga, shakllangan doimiy kognitiv motivlarga taalluqlidir, ularning asosiy kognitiv qiziqishdir. Qiziqish holati natijasida odam (bola, kattalar) har doim ozmi-ko'pmi faol, muvaffaqiyatli bo'ladi. Kognitiv qiziqish, uning namoyon bo'lishi faoliyatning maxsus shakllarining ustunligi va tashqi taassurotlarga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqadigan ijobiy affektiv holat, tashqi dunyo bilan o'zaro munosabat va unga tanlangan e'tibor bilan bog'liq. Maktabgacha yoshdagi psixologik xususiyatlar (hissiyotlilik, kuzatish, taqild qilish, o'z taassurotlarini o'yin va samarali faoliyatda ifoda etish istagi) tufayli, kattalar faoliyati mahsuli va uning insoniy tafakkurining yaratilishi sifatida ob'ektiv dunyo haqidagi tarixiy ma'lumotlar alohida e'tiborga loyiqdir. Maktabgacha yoshdagi bolaning yuqori hissiyligi shaxsni yanada rivojlantirish uchun olingan ma'lumotlarning ahamiyatini belgilaydi. Maktabgacha bolalik davrida kognitiv qiziqish rivojlantirish natijasida bilim chegaralari kengayadi, dunyoning rivojlanishi, harakati, o'zgarishi haqidagi birinchi g'oyalarni shakllanadi, har bir predmetning o'tmishi, buguni va kelajagi borligini

<sup>4</sup> A. Madaliyev taxriri ostida "O'zbek tilining izohli lug'ati" Birinchi jild "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent 2020

anglash (atrofdagi ob'ektlarni dialektik ko'rib chiqish va tahlil qilishning dastlabki shakllari, uslubiy bilimlar deb ataladi). Shuni takidlash kerakki, zamonaviy ta'lim amaliyoti bolaning mustaqil kognitiv faoliyatining ahamiyatini past baholaydi, kognitiv qiziqishning rivojlanishi nafaqat ob'ektning sifat xususiyatlariga, balki bolaning o'z ijodiy izlanishlariga qanchalik jalb qilinishiga ham bog'liq.

**Muhokama.** Katta maktab yoshi- bu bolalar ijodkorligi, fantaziyasi, o'yinlarning eng ahamiyatli davridir. Bu yoshda bola atrof-muhitni yorqin, jonli, kishini o'ziga tortadigan darajada qiziqarli holda qabul qiladi. Bolaning bilishga doir rivojlanishida uning tasavvurlarining yanada umumlashishi, nafaqat konkret, balki ayrim abstrakt tushunchalarni ham qo'llashga qobiliyat tomonga qarab siljish ro'y beradi. Bu yosh davri oxiriga kelib o'z shaxsiy xulq-atvori va emotsional holatining ancha ongli ravishdagi tartibga solinishiga o'tish amalga oshiriladi, psixik jarayonlarni boshqarishdagi ixtiyoriylik paydo bo'la boshlaydi.

Maqsadga muvofiq o'qish faoliyati kichik maktab yoshidagi bolalarning aql idroki, sezgirligi, kuzatuvchanligi, o'quvilligi, esda olib qolishi, esga tushirish imkoniyatlarini rivojlantirish uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi, bolalarda o'qish, yozish, hisolash malakalarini shakllantiradi. Bundan tashqari, mazkur ta'lim jarayonida ularning bilimlari ko'lamini kengaytadi, bilishga qiziqishlari ortadi, ijodiy izlanish qobiliyati rivojlanadi, ularni tafakkurning faolligi, mustaqilligi, mahsuldorligi ortadi, aqliy imkoniyatni ishga solish vujudga keladi, o'quv fanlariga ijobiy munosabat, qat'iy shug'ullanish niyati, jamoatchilik oldida mas'uliyatli his qilish, bilim olishning ijtimoiy ahamiyatini anglash tuyg'ulari tarkib topadi.

Bolalarda bilishga bo'lgan qiziqishni hosil qilishda ularni faol ijodiy faoliyatga undovchi pedagogik texnologiya katta ahamiyatga ega. Bunga bolalarga o'quv materiallaridan ularning kuchi etadigan, qiziqarli topshiriqlarni berib bajartirish yo'li bilan erishish mumkin.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalar (5-7 yosh) o'z idroklarning aniqligi, ravonligi, sofligi, o'zgaruvchanligi bilan boshqa yosh davrlaridagi insonlardan keskin farqlanadi. Ular har bir narsaga berilib, o'z ta'sirchanligi bilan qarashlari sababli idrokning muhim xususiyatlarini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Buning sababini ularning oliy nerv faoliyatiga birinchi signal tizimi uzunligi bilan izohlash mumkin. Ular, sehri, jilolanishi, jozibasi o'ziga tortadi. Lekin ta'limning dastlabki bosqichida idrokning ayrim zaif tomonlari ko'zga tashlanadi.

Bu yoshga kelib, bola aniq fikrga va tanlash qobiliyatiga yega bo'la boshlaydi. Bu davr aqliy rivojlanish uchun juda muhimdir, chunki bilishga qiziqish faoliyati yetakchi rol o'ynaydi. Bu shaxs ruhiyati sohasidagi muhim o'zgarishlarning kuchga kirishiga imkon beradi. Astasekin tafakkur jarayoni dastlab bilish jarayonlari bilan bog'liq ravishda shakllanadi.

Bolaning rivojlanishida bilimning mazmuni o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- bolalarning qiziqishlari, qiziquvchanligi va bilim motivatsiyasini rivojlantirish;
- bilishga bo'lgan harakatlarini shakllantirish, ongni shakllantirish;
- tasavvur va ijodiy faoliyatni rivojlantirish;
- atrofdagi odamlar va narsalar haqida birlamchi g'oyalarni shakllantirish;
- atrof-muhitdagi ob'ektlarning xususiyatlariga munosabatlari (shakli, rangi, o'lchami, materiali, ovozi, harakati) haqidagi g'oyalarni shakllantirish;
- Vatan va Vatan haqidagi, xalqimizning ijtimoiy-madaniy qadriyatlarini, an'ana va bayramlar haqidagi g'oyalarni shakllantirish;
- yer sayyorasi haqida, tabiatining o'ziga xos xususiyatlarini, dunyo mamlakatlari va xalqlarining xilma-xilligi haqidagi g'oyalarni shakllantirishdir.

Maktabgacha ta'lim sohasidagi izlanishlar shuni ko'rsatdiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilishga bo'lgan qiziqishni shakllantirish zamonaviy ta'lim texnologiyalari orqali amalga oshirish mumkin. Kognitiv qiziqishning murakkab shaxsiy ta'lim sifatida rivojlanishi asta-sekin bolaga muammoli vaziyatga kirishga imkon beradigan amaliy yo'nalishga ega bo'lgan faoliyatda sodir bo'ladi. Mavzu bo'yicha ma'lumotlarni olish, sintez qilish, birlashtirish, faol foydalanish imkoniyatini ta'minlaydigan bunday faoliyat loyiha faoliyati hisoblanadi. Uzoq vaqt davomida pedagogika fanida maktabgacha

yoshdagi bolalarning bilim qiziqishlarini rivojlantirishga alohida e'tibor berilmagan. Birinchilardan biri kognitiv qiziqish B.G. Ananyeva, L.N. Bojovich, L.S. Vygotskiy, L.A. Venger, A.G. Zaporozhets kabi olimlar bolalarni bilim olishga, o'rganishga undaydigan yetakchi motivlardan biri sifatida ko'rib chiqila boshlandi. Ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, kognitiv qiziqish faol kognitiv faoliyat bilan yanada muvaffaqiyatli shakllanadi. Bolaning kognitiv qiziqishi yangi narsalarni o'rganish, ob'ektlarning fazilatlarini, xususiyatlarini, voqelik hodisalari haqida tushunarsiz narsalarni aniqlash, ularning mohiyatini tushunish, ular orasidagi mavjud munosabatlar va aloqalarni topish istigida namoyon bo'ladi.

Hozirgi vaqtda kognitiv qiziqish tushunchasini aniqlashda turli xil yondashuvlar shakllandi. U quyidagicha ko'rib chiqiladi:

- insonning tanlangan yo'nalishi (N.F. Dobrinin, T. Ribot);
- aqliy va hissiy faoliyatning namoyon bo'lishi (S.L. Rushinshteyn);
- turli xil his-tuyg'ularning faollashtiruvchisi (D. Freyer);
- shaxsning hayotiy ahamiyati va hissiy jozibadorligi ongidan kelib chiqqan ob'ektga o'ziga xos munosabati (A.K. Kovalev);
- insonning dunyoga faol kognitiv munosabati (V.N. Myasishchev);
- shaxsning atrofdagi dunyo ob'ektlari va hodisalariga tanlangan yo'nalishi (T. A. Kulikova, N. G. Morozova, G. I. Shukina).

Zamonaviy tadqiqotlar kognitiv qiziqishni shakllantirish muammosining turli jihatlarini taqdim etadi. G.I. Shchukina kognitiv qiziqishning tarkibiy qismlarini ko'rib chiqadi: intellektual, hissiy, tartibga soluvchi va ijodiy jarayonlar. A. Vallon kognitiv qiziqishni bilish predmetiga hissiy munosabat prizmasi orqali tahlil qiladi. Uning fikriga ko'ra, kichkina bolani bilishning birinchi ob'ektlaridan biri bu ob'ektiv dunyo bo'lib, ob'ektiv dunyoga kognitiv munosabatni shakllantirish uning bola tomonidan rivojlanishining muvaffaqiyatini belgilaydi va ko'p jihatdan uning sotsializatsiya jarayonini belgilaydi. Loyiha usuli ob'ektiv dunyo tarixiga kognitiv qiziqishni rivojlantirish vositasi sifatida yaxlit xususiyatga ega. Bir qator mualliflar loyiha faoliyatini maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitishning integratsiyalashgan usulining variantini, o'qituvchi va o'quvchining o'zaro ta'siriga asoslangan pedagogik jarayonni tashkil etish usuli, maqsadga erishish uchun bosqichma-bosqich amaliy faoliyat (L.S. Kiseleva, T.A. Danilina, M.B. Zuykova). Boshqalar loyiha faoliyatining mohiyatini, uning muammoli xususiyatini, o'quv jarayonidagi o'zgarishlarni tahlil qiladilar. (T.A. Danilina, B.V. Ignatiev, U. Kilpatrik, M.V. Krupenina, N.G. Cherniglov). Shu bilan birga, ko'pgina tadqiqotlar loyiha faoliyatining barcha potensial imkoniyatlarini, uning ob'ektiv dunyo tarixiga kognitiv qiziqishni rivojlantirishdagi rolini yetarlicha o'rganmagan.

**Xulosa.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tadqiqot faoliyatining maqsadi maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning asosiy kompetensiyalarini fikrlash turini tadqiq qilish qobiliyatini shakllantirishdan iborat. Ushbu texnologiya o'z ichiga quyidagilarni oladi: O'yin vositasidagi bilim nafaqat bolalar, balki kattalar faoliyatining ham muhim unsuri hisoblanadi. O'yin jarayonida shaxs qizg'in bilish faoliyatini amalga oshiradi, bilimlarning katta hajmini o'zlashtiradi, kasb-hunarga doir o'yinlar, sport o'yinlari, aktyorlarning o'yinlari va shu kabilarini qon-qoniga singdiradi. O'yin bolalarning qiziquvchanligini qondirish, ularning ma'naviy dunyosi va ma'lum bilimlari, o'zaro til topish ko'nikmalari va shu kabilarini shakllantirishda muhim ijtimoiy rol o'ynaydi.

O'yin bola uchun muammoli vaziyat- bu nazariy yoki amaliy vaziyat bo'lib, unda o'yin sharoitiga mos tayyor qoida yo'q. Muammoni hal qilish uchun muammoli vaziyat bilan bog'liq hamma narsani bajarishga qaratilgan harakatlar talab qilinadi. Masalan, muammoli-o'yin vaziyatlari: "Archa xonaga kiradimi?", "Qurilish materiallarini tashiydiz" kabi. Ushbu ta'lim texnologiyalaridan foydalanish nafaqat bolalarning bilishga qiziqishlarini shakllantirish, fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirish, ijodiy tamoyillarini ishlab chiqish, bir-birining muvaffaqiyatidan quvonish, birgalikda yangi g'oyalarni amalga oshirish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilim va nutq rivojlanishining eng samarali vositalaridan biri o'yindir. O'yin orqali bolaning bilish faoliyati shakllanadi. Atrofdagi muhit bilan, tabiat hodisalari, manzaralari, buyumlar, qush va hayvonlar, o'simliklar dunyosi bilan tanishadi. Inson faoliyati, mehnati, turmushidan xabardor bo'ladi. O'yin jarayonida bola faqat tashqi muhit hodisalari bilan tanishib, uni his etib qolmasdan balki bu voqea

hodisalarga nisbatan o'z munosabatini bildiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlari kognitiv, hissiy, xulq-atvor sohalari qamrab oladi va barqaror bilimga qiziqishini rivojlantirish imkonini beradi. Biroq, hamma narsa bolaga qiziqish uyg'otmaydi, buning uchun kognitiv qiziqishni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish muhimdir. Shart-sharoitlardan biri eng samarali o'qitish usullarini qo'llashdir, bu mening fikrimcha, loyiha faoliyati usulini o'z ichiga oladi. O'quv

jarayonida loyiha usulidan foydalanish jamoada ishlashni o'rganishga, bolalarni bilishga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirishga yordam beradi, maqsadga erishish uchun o'z harakatlari algoritmini ishlab chiqarishga o'rgatadi. Tarbiyachi, bolalarning bilim va ko'nikmalarni mustaqil o'zlashtirish bo'yicha yordamchisi, maslahatchisidir, shunga ko'ra, hamma narsani sinab ko'rish emas bitta loyihada hamma narsani to'liq ochib berishga erishish kerak.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qarori 29.12.2016 y, "Nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3276-sonli qarori 5.09.2017y, "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli qarori 09.09.2017 y., "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3305-sonli qarori 30.09.2017 y., "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5198-sonli Farmoni 30.09.2017 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining – O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha xarakteristik strategiyasi to'g'risidagi farmoni. Xalq so'zi gazetasi 2017 yil, №-soni
3. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi .O'zbekiston Respublikasi Prezidentining –O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi 2019-yil 8 -maydagi PQ-4312-son Qaroriga 1-ilova.
4. Венгер Л. А. Развитие способности к наглядно-пространственному моделированию // Дошкольное воспитание. — 1982.- № 3 С. 17–19
5. Кузина А. Ю. Развитие у старших дошкольников познавательного интереса к истории предметного мира в проектной деятельности: диссертация... кандидата педагогических наук: 13.00.07 / Кузина Анна Юрьевна; [Место защиты: ГОУВПО «Российский государственный педагогический университет»]. — Санкт-Петербург, 2009. — 200 с.
6. Выготский Л. С. Педагогическая психология. — М. АСТ, 2009. — 672 с.
7. Годовикова Д. Б. Форма общения с взрослым и познавательная активность дошкольника // Проблемы возрастной психологии: Тезисы докладов к VII съезду Общества психологов. М. 1989, 143 с.
8. Денисенкова Н. С. Формирование познавательной направленности у детей шестилетнего возраста на занятиях в детском саду. — М, ИМПЕКС, 1992, 122с.
9. Запорожец А. В. Избранные психологические труды. Т. 1. — М., Просвещение, 1986. — 176 с.
10. Веракса Н.Е, Веракса А. Н. Проектная деятельность дошкольников. Пособие для педагогов дошкольных учреждений. М.Мозаика — Синтез, 2010.
11. Куликова Т. О воспитании у детей познавательных интересов // Дошкольное воспитание, 1996 г. № 9 С. 23–25.
12. M.V.Xalimova,O.D J.Qodirova,R.N. Nuriddinov "Psixologik atamalar izohli lug'ati" Andijon 2017. O'quv-uslubiy qo'llanma.
13. F.Qodirova,Sh.Toshpo'latova,N.Qayumova, M. A'zamova "Maktabgacha pedagogika" Darslik. Toshkent 2018.
14. E.A.Baranova«Diagnostika poznavatel'nogo interesa u mladshix shkolnikov i doskolnikov» Sankt-Peterburg 2005.
15. A.Madaliyev taxriri ostida "O'zbek tilining izohli lug'ati" Birinchi jild"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi "Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent 2020



## QAYYUMIY" ASARIDAGI №3-16-FIQRALARNING TAZKIRA QO'LYOZMA VA NASHRI O'RTASIDAGI MATNIY-QIYOSIY TADQIQI

Lochinbek Axmadaliyev Maxamadyusuf o'g'li,  
O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi  
Davlat adabiyot muzeyi tayanch-doktoranti. nihcol95@gmail.com

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<b>Qabul qilindi:</b> 24-dekabr 2022-yil <b>Tasdiqlandi:</b> 26-dekabr 2022-yil <b>Jurnal soni:</b> 5 <b>Maqola raqami:</b> 19 <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/ku.v5i5.224">https://doi.org/10.54613/ku.v5i5.224</a>	Mazkur maqola Po'latjon Qayyumiyning "Tazkirai Qayyumiy" asaridagi o'rin olgan №3-16-fiqralarning tazkira qo'lyozma va nashri o'rtasidagi matniy-qiyosiy tadqiqiga bag'ishlangan. Qiyoslash tazkiraning qo'lyozma va nashr variantlari o'rtasida amalga oshirildi. Tabdil va nashrdagi imloviy o'zgarishlar, uslubiy g'alizliklar, xato berilgan ma'lumotlar, tabdilda tushirib qoldirilgan o'rinlar, akademik Aziz Qayumov tomonidan qo'shib ketilgan ma'lumotlar aniqlandi.
<b>KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ Keywords</b>	
Tazkira, fiqra, matniy-qiyosiy tadqiq, qo'lyozma, nashr, tabdil, xattot, litografiya, adabiyotshunoslik, avtograf, muzey, maqola, arxiv.	

**Kirish.** Tazkiranavislik o'zbek adabiyoti tarixining muhim bir qismini tashkil etadi. Ayni paytda Sharq adabiyotida tazkiranavislik uzoq an'anaga ega bo'lib, turli davrlar silsilasida tadrijiy takomil hosil qilgan. Tazkiranavislar ushbu janrni asrlar osha yashab kelishiga xizmat qilganlar. Mana shunday ulug' zotlardan biri Po'latjon Qayyumiy mazkur an'anani XX asrning II yarmigacha yetib kelishida hissa qo'shgan olimlardan biridir. "Tazkirayi Qayyumiy" mumtoz adabiyotimizning XI–XII asrlaridan yashab faoliyat yuritgan shoir-u adiblarimizdan tortib to tazkira yozib tugallanayotgan vaqt (1960-yil aprel) da barhayot bo'lgan, muallifga zamondosh ijodkorlargacha, jami 324 nafar qalam ahllari hamda ularning samarali va mazmundor ijodlari to'g'risida ma'lumot beradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tazkiradan o'rin olgan Sayfi Saroyi, Yusuf Amiriy, Nosiruddin Rabg'uziy, Xorazmiy, Yunaqiy (Ahmad Yugnakiy), Ahmad Yassaviy, Mahmud Koshg'ariy, Durbek, Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy, Majlisiy, Qutbiy Xorazmiy, Shayboniy kabi mumtoz adabiyotimizning zabardast vakillariga bag'ishlangan fiqralarning tazkira qo'lyozma va nashri o'rtasidagi differensial tomonlarini kontekstual, qiyosiy tipologik, system-struktural metodlar asosida yoritishga harakat qilindi.

**Tadqiqot natijalari.** Olingan natijalar quyidagi besh guruhga klassifikatsiya qilindi:

1. Tabdilda tushirib qoldirilgan ma'lumotlar.
2. Tazkirada xato berilgan ma'lumotlar.
3. Akademik Azizxon Qayumov qo'shib ketgan ma'lumot.
4. Qo'lyozma va nashrdagi uslubiy g'alizliklar.
5. Tabdil va nashrdagi imloviy farqlar.

**Muhokama.** Tabdilda tushirib qoldirilgan ma'lumotlar

1. "Muhabbatnoma"dagi bayt: "Unutding bu Muhammadxo'jani, oh, Bizing elilarga ata, yamon yo'q, ey jon" (Q – №5, 14. N – №5, 22).

2. "Muhabbatnoma"dan: "Ikkinchi nomasidan:" (Q – №5, 14. N – №5, 22).

3. "Shayboniyoma" 1904 nchi yilda Peterburg', hozirgi Leningrod shaharida I.Baraganskiyning tifugrofiyasida bosdirilmishdur" ma'lumotini berishda "1904 nchi yilda Peterburg'" jumlasini nashrdan tushib qolgan (Q – №17, 37. N – №17, 48).

**Tazkirada xato berilgan ma'lumotlar.**

1. Mahmud Koshg'ariy haqida ma'lumot berishda: "Turk tilida 2 nchi kitob yozmish olim bo'lib, adabiyot torixida oldingi o'rinda turodur", -deya qayd etadi (№9, 19. №9, 28). Mahmud Koshg'ariyning "Devon-u lug'ota-t-turk" asari arab tilida yozilgan va Nishopurda nihoyalangan. Uning boshqa bir, "Jahoviru-n-nahv fi-l-lug'ota-t-turk" asari hanzu topilganicha yo'q, lekin u ham arab tilida yozilgan olimlar tomonidan aytilgan. Po'latjon Qayyumiy faqatgina "Devon-u lug'ota-t-

turk" haqida to'xtalanganini hisobga olsak, bu yerda aynan shu asar xususida so'z bormoqda. Asar turkiy xalqlar tili, adabiyoti, etnografiyasi haqida qimmatli ma'lumotlar bersa-da, biroq Qayyumiy domla aytganidek, u turkiy tilda emas, balki arab tilida yozilgan.

2. Durbek faoliyati borasida: "I nchi martaba "Yusuf va Zulayho" dostonining o'zbek tiliga nazm etmishdur", -deydi (№10, 21. №10, 30). Olim bu yerda turkiy tilni nazarda tutmoqda. "Yusuf va Zulayho" dostoni ilk marotaba turkiy tilda Qul Ali Ohariy tomonidan yozilgan.

3. "Yusuf va Zulayho" dostoni borasida: "Nozim bu kitobining kirish so'zida bu "Yusuf va Zulayho" nomli mashhur sharq dostoni ko'p musulmon mamlakatlarida tarannum qilingan bo'lsa ham bu ajoyib ertakni bizim turkiy qavmi yaxshi bilmaydur", -deya keltiradi(№10, 21. №10, 30). Dastavval, shuni aytishimiz kerakki, "Yusuf va Zulayho" ertak emas, uning kelib chiqishi – qissa. Qur'oni Karimda nozil qilingan payg'ambarlar to'g'risidagi 25 ta qissa ichida "eng go'zal qissa". Shuningdek, Qul Ali Ohariy, Nosiruddin Rabg'uziy kabi ijodkorlar mehnati sharofati bilan ushbu qissa turkiy xalqlarda keng tarqalgan. Qolaversa, arabiy va forsiy manbalar, ageografik asarlar orqali (masalan, "Najhu-l-farodis"), eng avvalo, Qur'oni Karim va Hadisi Shariflar vositasida juda ham yaxshi tanish bo'lishgan.

4. "Yusuf va Zulayho" dostonida Zulayhoga nasihat maqsadida kelgan Misr amaldorlarining xotinlari haqida to'xtalinar ekan shunday deydi: "Bular ham Yusufni bir ko'rushdanoq hushdan ketib, sabzi to'g'rash o'rnida panjalarini kesib yuborganlari" (№10, 21. №10, 30). "Yusuf va Zulayho"ning ishqiy mojarosiga bag'ishlangan dostonlarda, inchunon, Durbek qalamiga mansub shu nomdagi asarda ham Zulayho so'z yuritilayotgan mazkur ayollarning qo'llariga go'sht berib, ularni to'g'rashga amr etadi. Shu payt Yusufga ichkariga kirishni buyuradi. Ular Yusufni ko'rgach, uning chiroyiga mahliyo bo'lishib, aql-hushlari boshidan uchib, go'sht o'rniga o'z qo'llarini kesganliklarini sezmay qolganlari aytiladi.

5. Lutfiy fiqrasida: "Boshda temuriylardan Shohruh Mirzoning saroyida (1409-1446) xizmatda bo'ldi" (№11, 23.), -deyilgan ma'lumotdagi yillar 1404-1446-yillar etib o'zgartirilgan (№11, 32.). Aslida, Po'latjon Qayyumiy bergan ma'lumot to'g'ri.

6. Lutfiy vafotini quyidagicha keltiradi: "So'ngra hayotining darveshona o'tkazib, Hirot shahariga yaqin bir qasabada 1548 nchi yilda 81 yoshida vafot etdi" (№11, 23). Ushbu ma'lumot A.Qayumov tomonidan quyidagi holatga keltirilgan: "So'ngra hayotining darveshona o'tkazib, Hirot shahariga yaqin bir qasabada vafot etdi". Lutfiy 1465-yilda 99 yoshida Hirot yaqinidagi o'z ona qishlog'i, Dehikanorda vafot etgan.

7. Lutfiy yashagan umr haqida yana quyidagi ma'lumotni beradi: "Hijriy ila 83 to'g'ri keladi. Tug'ish tarixida xatolik bo'lsa kerakdur" (№11, 23).

8. Shayboniyxonga bag'ishlangan №11-fiqra, qo'lyozmaning 33-sahifasi, nashrning 45-betida O'zbekxonning vafotini 1340-yil deb bergan. O'zbekxon 1342-yilda olamdan o'tgani barcha tarixiy manbalarda tasdig'ini topgan.

9. Shayboniyxonning dunyoga kelishi haqida shunday yozadi: "XV asr milodiy mashhur kishi bo'lgan bu kishi 1454 nchi yilda Turkistonda tug'uldi" (№16, 34. №16, 45). O'zbekiston tarixi bilan shug'ullangan barcha olimlar, xususan, mazkur davr bilimdoni, Qamariddin Usmonov ma'lumotlarida ham Shayboniyxonning 1451-yilda bobosi asos O'zbek ulusi davlatining poytaxti – Sig'noqda tug'ilganligi aytiladi.

10. Shayboniyxon haqida: "1490 nchi yilda(n) boshlab, temuriylar bilan davlat tolasib, Muhammad Zahiriddin Boburning qo'lidin Samarqandning oladur",-deb yozadi (№16, 34. №16, 45). Shayboniyxon Samarqand taxtini ilk bora 1500-yilda Sulton Ali Mirzodan, uning onasi Zuhrobegini aldash orqali bosib oladi. Shu yilning o'zida Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining oz sonli askarlari bilan qo'qqisdan hujum qilish orqali Samarqandni tortib oladi. Ikki o'rtada 1501-yil 21-aprelda Saripul mavzeyida bo'lib o'tgan jangda Muhammad Shayboniyxon g'alaba qozonadi. Uzoq davom etgan qamaldan so'ng, Bobur Mirzo sulh vositasida Samarqandni tashlab chiqib ketadi. Xulosa qilish mumkinki, Shayboniyxon Samarqandni Mirzo Boburdan 1501-yilda tortib olgan.

11. Shayboniyxonning Samarqandni egallagani haqidagi ma'lumotdan so'ng: "Buxoro, Toshkand, Farg'ona birin-ketin temuriylardan Shaybon o'zbeklari qo'liga o'todur",-deb yozadi (№16, 34. №16, 45). Buxoro muzofotini Shayboniyxon Samarqanddan oldin, 1499-yilda to'rt yuz nafar otliq yordamida egallagan.

12. Shayboniyxon to'g'risida fikrlarini davom ettirar ekan: "Xurosonni Husayn Boyqoro bobolarining qo'lidin hijriy ila 913 nchi yilda Hirot shaharini oladur",-deya qayd etadi (№16, 34. №16, 45). Shayboniyxon 1507-yilda Hirotni istilo qiladi. 1506-yilda Husayn Boyqoro 68 yoshida olamdan o'tib, Xurosonda qo'shhokimiyatchilik hukmron edi. Hirotida ham Badiuzzamon Mirzo, ham Muzaffar Mirzolar podshoh edi. Bir so'z bilan aytganda, Shayboniyxon Hirotni Husayn Boyqoroning o'g'illaridan tortib olgan.

13. Shayboniyxon vafoti xususida quyidagi ma'lumotni beradi: "Nihoyat, Xuroson idorasida, Eron shohi Ismoil Safaviy bilan bo'lgan jangda 1505 nchi milodiyda 61 yoshida o'ldirildi (hijriy 916)" (№16, 34). A.Qayumov ushbu voqea yuz bergan vaqtni 1511-yilga o'zgartirgan (№16, 45). Shayboniyxon 1510-yil 12-dekabrda Marv shahri yaqinidagi qishloqlarning birida Ismoil Safaviy hiylasiga aldanib 59 yoshida

o'ldirilgani, uning jasadiga qilingan hurmatsizliklar tarixchilar tomonidan o'z tasdig'ini topgan.

14. Shayboniy ijodi haqida uning quyidagi asarlari mavjud ekanini aytadi: "She'rdi taxallusi "Shayboniy" bo'lub, turkiy va hatto, forsiy ash'orlari ham bor emish. "Mehmonnoma Buxoro" nomli va "Muzakkiru-l-ahbob" nomli asarida bor ekan xabar etiladur. "Muzakkiru-l-ahbob" shoir Nisoriyniki edi. Magar Shayboniyning shul ismda asari bo'lmishdur" (№16, 35. №16, 46). Shayboniyning she'rilaridan namunalar Fazlulloh ibn Ro'zbehxon Isfahoniyning "Mehmonnoma Buxoro" asarida hamda Hasanxo'ja Nisoriyning "Muzakkiru-l-ahbob" tazkirasida keltirilgani borasida shubha yo'q. Biroq, Shayboniyning o'z qalamiga mansub bo'lgan, aynan shu nomdagi asarlari mavjud emas.

15. Shayboniyxonning she'rilaridan namunalar berishda quyidagilarni uchratamiz: "Sug'd Samarqand viloyatining eraning l asrlaridagi qadimli yoshovchilariga berilgan ism bo'lub, tojik xalqining qadimiy bobolaridur. Viloyatga qo'llaniladur. Bu tuyug' ular uchundur.

*Sug'd ichinda o'tururlar yobular,  
Yobularning mingan oti – yobular,  
Yobularning ilgidin el tinmadi,  
Yo bular bo'lsin bu yerda, yo bular".*

Mazkur tuyug' uzoq vaqt davomida Shayboniyxon qalamiga mansub deb kelingan. Biroq, adabiyotshunoslar tomonidan chuqur tadqiq etilishlar natijasida uning muallifi Shayboniy emas, balki uning jiyni, Buxoro xonligining asoschisi, Qul Ubaydiy taxallusi bilan arab, fors-tojik va turkiy tillarda birdek qalam tebratgan Ubaydullaxon ijodiga taalluqli ekanligi aniqlangan. Qolaversa, ushbu tuyuqda, asosiy e'tibor Sug'd xalqiga emas, otlarga qaratilgan.

#### **Akademik Azizxon Qayumov qo'shib ketgan ma'lumot.**

1. Qo'lyozmada: "Sayfi Saroyi 793 nchi hijriyda fors shoiri shayx Sa'diyning mashhur asari bo'lmish "Guliston"ning o'zbek tiliga tarjima etmishdur" , -deyilgan. Nashrda uning milodiy hisobi chiqarilib, havola etib ketilgan: 1390-91 mil. (Q – №3, 10. N – №3, 19).

2. "Muhabbatnoma" ikkinchi nomasida: "Salomimkim, ko'ngil jonona aytasa" baytidagi "aytsa" so'zi uslubiy g'aliz bo'lib, nashrda "yetsa"ga o'zgartirilgan (Q – №5, 14. N – №5, 22).

3. "Muhabbatnoma"da: "Og'ir uyquchi baxtim necha yotqay?" baytidagi "uyquchi" so'zi uslubiy g'aliz bo'lib, nashrda "uyquga" so'ziga o'zgartirilgan (Q – №5, 15. N – №5, 24).

4. "Hirot shahri hijriy ila 913 nchi yilda o'zbeklar tomonidan olindi" ma'lumotidagi hijriy yilning milodiy hisobi qo'shib ketilgan: 1507-1508-milodiy (Q – №16, 35. N – №16, 46).

#### **Qo'lyozma va nashrdagi uslubiy g'alizliklar.**

T/r.	Qo'lyozmadagi variant	Nashrdagi variant	Q/sahifasi	N/sahifasi
1.	"Ey, ko'rklilar xayoli ila muftalo ko'ngil".	"Ey ko'rklilar hayli ila muftalo ko'ngil".	№3, 10.	№3, 19.
2.	Rabg'uziy bu asari bilan tonilmishdur.	Rabg'uziy o'z asari bilan tanilmishdur.	№5, 11.	№5, 20.
3.	"Sening dardingga darmon hech yo'q, ey on".	"Sening dardingga hech darmon yo'q, ey on".	№5, 14.	№5, 22.
4.	"Tahayyurda o'zumdin qurtulayin"	"Tahayyurda uzumdin qurtulayin".	№5, 15.	№5, 24.
5.	bu kishi bu kishi Dashti qipchoqli bo'lub, o'g'uz turklaridandur.	Dashti qipchoqli bo'lub O'g'uz turklaridandur.	№8, 17.	№8, 26.
6.	"Yer ostiga qochib kirdim nodonlardin, Ilgim ochib, duo qiloy mardonlardin, G'arib jonim ming tasadduq donolardin, Dono topmay yer ostiga kirdim mano".	"Yer ostiga qochib kirdim nodonlardin, Dono topmay yer ostiga kirdim mano, G'arib jonim ming tasadduq donolardin, Dono topmay yer ostiga kirdim mano".	№8, 18.	№8, 27.
7.	"Avval, oxir xo'blar ketdi qoldim qoldim yalg'uz".	"Avval, oxir xo'blar ketdi qoldim yalg'uz".	№8, 18.	№8, 27.
8.	Ular havoda, xuddi suv yuzasidagi qayiqalar singari suzishadi.	Ular havoda, xuddi suv yuzasidagi qayiqalar singari suzishadi.	№9, 19.	№9, 28.
9.	"Oy quyup oqlanub".	"Oy ko'rub oqlanub".	№9, 20.	№9, 29.
10.	"Quydi bulut yog'murni, Karib tutor oq to'rin".	"Kuydi bulut yomg'iri, Ko'rib tutor oq to'rin".	№9, 20.	№9, 29.
11.	5 bobidan namuna.	5 nchi bobidan namunasi.	№9, 20.	№9, 29.
12.	"Ko'zim yoshin yamladi".	"Ko'zim yoshin namladi".	№9, 20.	№9, 29.
13.	Shu bilan ko'z yoshlarimga davo qildi.	Shu bilan ko'z yoshlariga davo qildi.	№9, 20.	№9, 30.
14.	Zulayhoning Yusufga oshiqi beqaror bo'lgani hammaga ayon bo'lub ketganidan Misr shaharining amaldor beklari-ning xotunlari Zulayhoga nasi-hat etib, bu ishdan qaytarish maqsada saroyga kelganlari.	Zulayhoning Yusufga oshiqi beqaror bo'lgani hamaga ayon bo'lub ketganidan Misr shaha-rining amaldor beklarining xotunlari Zulayhoga nasihat etib, bu ishdan qaytarish maqsadida saroyga kelganlari.	№10, 21.	№10, 30.
15.	"Seni qilib ayb, bu xalqi jahon".	"Seni qilib ayb, bu xalqi jahon".	№10, 22.	№10, 31.
16.	"Barcha o'shal bo'lub g'arq xun".	"Barcha o'shal lahza bo'lub g'arqi xun".	№10, 22.	№10, 31.
17.	"Tuzdi Zulayho yana ohan-la so'z".	"Tuzdi Zulayho yana ohang'i so'z".	№10, 22.	№10, 32.



18.	“Qolmish “ayn”, “mim”, “ro” larni yozsak, “Umar” bo’la-durki, Lutfiyning nomi Umar bo’lub chiqodur”.	“Qolmish (harf) larni yozsak, “Umar” bo’ladurki, Lutfiyning nomi Umar bo’lub chiqodur”.	№11, 23.	№11, 32.
19.	Temuriylardan Mirzo Ulug’-bek saroyi turgani, unga yoqin bo’lgani, unga bog’ishlab yozgan qasidalaridan ma’lum bo’ladur.	Temuriylardan Mirzo Ulug’bek saroyida turgani, unga yaqin bo’lgani, unga bag’ishlab yozgan qasidalaridan ma’lum bo’ladur.	№13, 27.	№13, 37.
20.	“Hech davo yo’q dardkim, jonimda bor oni ko’rub”.	“Hech davo yo’qdurmikim, jonimda bor oni ko’rub”.	№13, 27.	№13, 38.
21.	“Bori ul qottig’ ko’ngilliq chinmu yolg’on yig’ladi”.	“Bori ul qottig’ ko’ngillik chin bu yolg’on yig’ladi”.	№13, 28.	№13, 38.
22.	“Xos-u, omu, shahar-u dayr, dono-yu nodon yig’ladi”	“Xos-u, omu, shayxro dayr, dono-yu nodon yig’ladi”	№13, 28.	№13, 38.
23.	Majlisiy – bu kishi XVI asr milodiyda nozimlardan bo’-lub, Buxoro atrof o’zbeklari-dandur.	Majlisiy – bu kishi XVI asr milodiydagi nozimlardan bo’-lub, Buxoro atrof o’zbeklardan-dur.	№14, 28.	№14, 38.
24.	“Yana jannatni huridan ketursang”.	“Yana jannatni xuridni ketursang”.	№14, 29.	№14, 39.
25.	“Seni ishqing o’rtadur jo’sh”.	“Seni ishqing o’tida may o’rar jo’sh”.	№14, 29.	№14, 40.
26.	“Bilib holimni qonun ko’ksin yirtor”.	“Bilib holimni qonun ko’ks yirtor”.	№14, 30.	№14, 41.
27.	XIV asr milodiyda Xorazm Oltun O’rdaga tobe bo’lub, shoir Xorazmda tug’ulsa ham, Saroy shaharida na’sh-u namo etmishdur.	XIV asri milodiyda Xorazmda Oltun O’rdaga tobe bo’lub, shoir Xorazmda tug’ulsa ham, Saroy shaharida na’sh-u namo etmishdur.	№15, 31.	№15, 42.
28.	“Burun so’rdi: ne yerlikan, teyusan”.	“Burun so’rdi sen erlikan, teyusen”.	№15, 32.	№15, 44.
29.	“Ayitti: anda ne san’at qilurlar? Ayitti: jon sotib qoyg’u olurlar”.	“Ayitti: anda ne san’at qilursen? Ayitti: jon sotib qoyg’u olurmen”.	№15, 32.	№15, 44.
30.	“Ayitti: roziman gar ko’zga ilsa”.	“Ayitti: rohati man gar ko’zga olsa”.	№15, 33.	№15, 44.
31.	XV asr milodiy mashhur kishisi bo’lgan bu kishi 1454 nchi yilda Turkistonda tug’uldi.	XV milodiy mashhur kishisi bo’lgan bu kishi 1454 nchi yilda Turkistonda tug’ildi.	№16, 33.	№16, 45.
32.	Bu vaqtda Buxoro temuriylar-dan Sulton Ahmadga tobe’ bo’lub, bunda uning qo’yg’an hokimi – Abu Ali Torxon turor edi.	Bu vaqtda Buxoroda temuriy-lardan Sulton Ahmadga tobe’ bo’lub, bunda uning qo’yg’an hokimi Abu Ali tarxon turar edi.	№16, 33.	№16, 45.
33.	Turkistonda biror yil turub, biror bojorolmoy, yana Buxoroga qoytishga majbur bo’ldi.	Turkistonda biror yil turub biror ish bajaraolmay, yana Buxoroga qaytishga majbur bo’ldi.	№16, 34.	№16, 45.
34.	1490 nchi yilda boshlab, temuriylar bilan davlat tola-shib, Muhammad Zahiriddin Boburning qo’lidan Samar-qandning oladur.	1490 nchi yildan boshlab, temuriylar bilan davlat tola-shib, Muhammad Zahiriddin Boburning qo’lidan Samar-qandni oladur.	№16, 34.	№16, 45.
35.	“Aybi may-u, ma’ni nay, so’fiy, sanga odatdur, May ichgil-u inson bo’l, qo’y so’fiy bu odatni”.	“Aybu mayu ma’ni na so’fiy sanga odatdur May ichgalu inson bo’l, qo’y so’fiy bu odatni”.	№16, 35.	№16, 46.
36.	“Tut jomi mayi sofiy, qo’yg’il bu alomatni”.	“Tut domi mayi sofiy, qo’yg’il bu alomatni”.	№16, 35.	№16, 46.
37.	“Ey mardumon shahar Hiro, barchangiz kerak”.	“Ey mardumoni shahri Hirot barchangiz kerak”.	№16, 36.	№16, 47.
38.	Afg’on qoroshli Amuning chap sohilida yoshovchi hazora nomli bir qavmga g’azab ila bu tuyug’ning demishdur.	Afg’onga qarashli Amuning chap sohilida yashovchi hazora nomli bir qavmga g’azab ila bu tuyug’ning demishdur.	№16, 36.	№16, 47.

#### Tabdil va nashrdagi imloviy farqlar

T/r.	Qo’lyozmadagi variant	Nashrdagi variant	Qo’l.fiqراسi va sahifasi	Nashr fiqراسi va sahifasi
1.	o’rtor	o’rtar	№3, 10.	№3, 19.
2.	durorni	durarni	№3, 10.	№3, 19.
3.	ta’rif	ta’rif-u	№3, 10.	№3, 19.
4.	osh’orin	ash’orin	№3, 10.	№3, 19.
5.	Oltun o’rdali	Oltun O’rdali	№3, 10.	№3, 19.
6.	bulbuldur	bulbuldur-u	№3, 10.	№3, 19.
7.	choynor	chaynar	№3, 10.	№3, 19.
8.	tuzotur	tuzatur	№3, 10.	№3, 19.
9.	kuzotur	kuzatur	№3, 10.	№3, 19.
10.	oriflarining	oriflarinng	№3, 10.	№3, 19.
11.	xokpoyi	hokpoyi	№3, 10.	№3, 19.
12.	keturgon	keturgan	№3, 10.	№3, 19.
13.	ko’zing	ko’zung	№3, 10.	№3, 19.
14.	ustina	ustino	№3, 10.	№3, 19.
15.	olinda	olnda	№3, 11.	№3, 20.
16.	ko’rsotodur	ko’rsatadur	№4, 11.	№4, 20.
17.	orosinda	orasinda	№4, 11.	№4, 20.
18.	o’todur	o’tadur	№4, 11.	№4, 20.
19.	ko’rsotmogon	ko’rsatmagan	№4, 11.	№4, 20.
20.	bo’lub	bo’lib	№5, 11.	№5, 20.
21.	Rabg’uziydur	Rabg’tsuziydur	№5, 11.	№5, 20.
22.	yetmomishdur	yetmamishdur	№5, 11.	№5, 20.
23.	yozodur	yozadur	№5, 11.	№5, 20.
24.	tasvirlanodur	tasvirlnadur	№5, 12.	№5, 21.
25.	to’p	to’r	№5, 12.	№5, 21.
26.	bo’ston	bo’ston-u	№5, 12.	№5, 21.

27.	sekrashur	sekratur	№5, 12.	№5, 21.
28.	tutor	tutur	№5, 13.	№5, 21.
29.	yashnag'oy	yashnagay	№5, 13.	№5, 21.
30.	uchmog'	uchmoq	№5, 13.	№5, 21.
31.	Oltun (O'rda)	Oltin (O'rta)	№6, 13.	№6, 22.
32.	yetti	yeti	№6, 14.	№6, 22.
33.	jonimdin	jonimdan	№6, 14.	№6, 22.
34.	Haq	haq	№6, 14.	№6, 22.
35.	ayt	ayit	№6, 14.	№6, 23.
36.	sansiz	sensiz	№6, 15.	№6, 24.
37.	yug'rildi	yo'g'rildi	№6, 15.	№6, 24.
38.	talabkor	talabgor	№6, 15.	№6, 24.
39.	yotg'oy	yotqay	№6, 15.	№6, 24.
40.	otg'oy	otqay	№6, 15.	№6, 24.
41.	mashriqidin	mashriqidn	№6, 15.	№6, 24.
42.	Yunaqiy	Yunakiy	№7, 16.	№7, 25.
43.	"Hibbatu-l-haqoyiq"	"Aybatu-l-haqoyiq"	№7, 16.	№7, 25.
44.	axloqqa	ahloqqa	№7, 16.	№7, 25.
45.	"Qudotqu bilik"	"Qutadg'u bilik"	№7, 16.	№7, 25.
46.	kitobi	kitobiga	№7, 16.	№7, 25.
47.	foidalangani	foydalangani	№7, 16.	№7, 25.
48.	tolifi	ta'rifi	№7, 16.	№7, 25.
49.	qalikli	qaliyni	№7, 16.	№7, 25.
50.	qolsu	qilsu	№7, 16.	№7, 25.
51.	dudi	davri	№7, 16.	№7, 25.
52.	ochun	ojun	№7, 16.	№7, 25.
53.	bazadim	bozadim	№7, 16.	№7, 25.
54.	muva'az	muazzaz	№7, 16.	№7, 25.
55.	bu kishi	–	№8, 17.	№8, 26.
56.	o'g'uz	O'g'uz	№8, 17.	№8, 26.
57.	shayxliq	shayxlik	№8, 17.	№8, 26.
58.	savdo-sanoat	savdo sinoat	№8, 17.	№8, 26.
59.	Rivojlanib	Rlvojlanib	№8, 17.	№8, 26.
60.	–	kabi	№8, 17.	№8, 26.
61.	qolmamish	holmamish	№8, 17.	№8, 26.
62.	Qazon	Qozon	№8, 17.	№8, 26.
63.	tifogrofiyada	tipografiyada	№8, 17.	№8, 26.
64.	bo'lmish	o'lmish	№8, 17.	№8, 26.
65.	Xoja	Hoja	№8, 17.	№8, 26.
66.	Amir Temur	Amir Temir	№8, 18.	№8, 27.
67.	Iroqqa	Iroqa	№8, 18.	№8, 27.
68.	"Mus'hafi Usmoniy"	"Musxofi Usmoniy"	№8, 18.	№8, 27.
69.	nor-u saqar	nori sahar	№8, 18.	№8, 27.
70.	do'zax	do'zah	№8, 18.	№8, 27.
71.	ko'rmoy	ko'rmay	№8, 18.	№8, 27.
72.	haqqi	huqqa	№8, 18.	№8, 27.
73.	qah-qah	qahqah	№8, 18.	№8, 27.
74.	qo'rqub	qo'rqib	№8, 18.	№8, 27.
75.	sanga	senga	№8, 18.	№8, 27.
76.	solmos	solmas	№8, 18.	№8, 27.
77.	Haqqa	haqqa	№8, 18.	№8, 27.
78.	koshg'arlidur	Qoshg'arlidur	№9, 19.	№9, 28.
79.	torixida	trixida	№9, 19.	№9, 28.
80.	turodur	turadur	№9, 19.	№9, 28.
81.	asarining	asarning	№9, 19.	№9, 28.
82.	asr	asri	№9, 19.	№9, 28.
83.	o'shal	o'gshal	№9, 19.	№9, 28.
84.	tillarininggina	tillarinigina	№9, 19.	№9, 28.
85.	"O'zbek foeziyasining antalo'giyasi"	"O'zbek poeziyasining antalogiyasi"	№9, 19.	№9, 28.
86.	qisqortib	qisqartib	№9, 19.	№9, 28.
87.	qamug'	qomug'	№9, 19.	№9, 28.
88.	qayg'uq	kayg'uq	№9, 19.	№9, 28.
89.	o'krashur	o'krashdi	№9, 19.	№9, 28.
90.	o'ynoy	o'ynay	№9, 19.	№9, 28.
91.	tanglashu	tinglashu	№9, 19.	№9, 29.
92.	ko'kror	ko'krar	№9, 19.	№9, 29.
93.	mangrashu	mungrashu	№9, 19.	№9, 29.
94.	sholdirob	shildirab	№9, 19.	№9, 29.
95.	shovqin	shavqin	№9, 20.	№9, 29.
96.	oqlanub	oklanub	№9, 20.	№9, 29.

97.	o'kdanub	o'qdanub	№9, 20.	№9, 29.
98.	angrashur	ingrashur	№9, 20.	№9, 29.
99.	ma'nisi	ma'nosi	№9, 20.	№9, 29.
100.	oqorib	oqarib	№9, 20.	№9, 29.
101.	boshlaydi	boshladi	№9, 20.	№9, 29.
103.	oppoq	opoq	№9, 20.	№9, 29.
104.	qoro	qora	№9, 20.	№9, 29.
105.	keladi	kkeladi	№9, 20.	№9, 29.
106.	manga	mnga	№9, 20.	№9, 29.
107.	ko'zim	ko'zum	№9, 20.	№9, 29.
108.	bilmaydilar	bilmaydur	№10, 21.	№10, 30.
109.	turkiy (o'zbek)	turkiy-o'zbek	№10, 21.	№10, 30.
110.	ishqiy-ro'montik	ishqiy-romantik	№10, 21.	№10, 30.
111.	ko'rsatilodur	ko'rsatiladi	№10, 21.	№10, 30.
112.	qo'yulmishdur	qo'yulmushdur	№10, 21.	№10, 30.
113.	hammaga	hamaga	№10, 21.	№10, 30.
114.	oluftasen	olufta sen	№10, 22.	№10, 31.
115.	nosih-u	nosiho'	№10, 22.	№10, 31.
116.	xosi	xos	№10, 22.	№10, 31.
117.	dardso'z	dardu so'z	№10, 22.	№10, 31.
118.	fichoq	pichoq	№10, 22.	№10, 31.
119.	sarv	sarvi	№10, 22.	№10, 31.
120.	bo'yun	buyun	№10, 22.	№10, 31.
121.	nargis	nargiz	№10, 22.	№10, 31.
122.	Yusuf Siddiqi	Yusufi Siddiq	№10, 22.	№10, 31.
123.	alarga	aldarga	№10, 22.	№10, 31.
124.	barchaki	barcha ki	№10, 22.	№10, 31.
125.	kuymoy	kuymay	№10, 22.	№10, 32.
126.	subh shom	subh-u shom	№10, 22.	№10, 32.
127.	xonimon	xonumon	№10, 22.	№10, 32.
128.	tug'ulmish	tug'ilmish	№11, 23.	№11, 32.
129.	Mirzoning	mirzaning	№11, 23.	№11, 32.
130.	qoytib	qaytib	№11, 23.	№11, 32.
131.	o'tkazib	o'tkarib	№11, 23.	№11, 32.
132.	qasabada	kasabada	№11, 23.	№11, 32.
133.	podshosi	podshohi	№11, 23.	№11, 32.
134.	qutqor	qutqar	№11, 24.	№11, 33.
135.	yolbardim	yalbardim	№11, 24.	№11, 33.
136.	yorotdi	yorotdi	№11, 24.	№11, 33.
137.	Xudo	xudo	№11, 24.	№11, 33.
138.	sani	seni	№11, 24.	№11, 33.
139.	ondin	andin	№11, 24.	№11, 33.
140.	vasl	vasli	№11, 24.	№11, 33.
141.	xoksorim	hoksorim	№11, 24.	№11, 33.
142.	ahd	ahdi	№11, 24.	№11, 34.
143.	tug'ulish	tug'ilish	№12, 25.	№12, 34.
144.	bo'lub	bo'lib	№12, 25.	№12, 34.
145.	kishidir	kishidur	№12, 25.	№12, 34.
146.	tubondagi	tubandagi	№12, 25.	№12, 34.
147.	aysh	ayshi	№12, 25.	№12, 35.
148.	jo'o'r	jo'r	№12, 25.	№12, 35.
149.	shevachi	shevacha	№12, 26.	№12, 35.
150.	kulgu	kulku	№12, 26.	№12, 35.
151.	Xaybar	xaybar	№12, 26.	№12, 36.
152.	yoqut	yoquti	№12, 26.	№12, 36.
153.	siyb	siybi	№12, 26.	№12, 36.
154.	xoqon	xoqon-u	№12, 26.	№12, 36.
155.	dohiy	dohi	№12, 26.	№12, 36.
156.	yongi	yangi	№12, 26.	№12, 36.
157.	Akbar	aqbar	№12, 26.	№12, 36.
158.	doi'y-u	doiyi	№12, 26.	№12, 36.
159.	guluzorisan	gul uzori san	№12, 26.	№12, 36.
160.	edi	erdi	№13, 27.	№13, 36.
161.	istihoralar	istioralar	№13, 27.	№13, 37.
162.	uchroydirki	uchraydurki	№13, 27.	№13, 37.
163.	ko'zlarni	ko'zlrni	№13, 27.	№13, 37.
164.	sen	san	№13, 27.	№13, 37.
165.	ko'rub	ko'rib	№13, 27.	№13, 38.
166.	ong'ib	ang'ib	№13, 28.	№13, 38.
167.	kechdi	kechti	№13, 28.	№13, 38.

168.	ko'ngilliq	ko'ngillik	№13, 28.	№13, 38.
169.	Sakkoiy	Sakkoiy	№13, 28.	№13, 38.
170.	so'rmoyin	so'rmayin	№13, 28.	№13, 38.
171.	yo'qdur	yo'qtur	№13, 28.	№13, 38.
172.	tug'ulib	tug'ilib	№14, 28.	№14, 38.
173.	taxallusli	taxallusi	№14, 28.	№14, 38.
174.	soqlanib	saqlanib	№14, 28.	№14, 38.
175.	ko'b	ko'p	№14, 28.	№14, 39.
176.	ko'rush	ko'rushi	№14, 28.	№14, 39.
177.	ishq	ish	№14, 28.	№14, 39.
178.	ko'rsotish	ko'rsatish	№14, 28.	№14, 39.
179.	base	basi	№14, 29.	№14, 39.
180.	dilafgor	dilafkor	№14, 29.	№14, 39.
181.	tutoshib	tutashib	№14, 29.	№14, 39.
182.	yuvub	yub	№14, 29.	№14, 39.
183.	topormen	toparmen	№14, 29.	№14, 40.
184.	Eram	Erom	№14, 29.	№14, 40.
185.	arz	arzi	№14, 29.	№14, 40.
186.	hol	holi	№14, 29.	№14, 40.
187.	mushfiqimdur	mushfikimdur	№14, 29.	№14, 40.
188.	mani	meni	№14, 30.	№14, 40.
189.	uzotib	uzatib	№14, 30.	№14, 40.
190.	musiqor	musihor	№14, 30.	№14, 41.
191.	borcha	barcha	№14, 30.	№14, 41.
192.	aqiqi	aqiqa	№14, 30.	№14, 41.
193.	kerakkim	kerakim	№14, 30.	№14, 41.
194.	dunyoyi	dunyo	№14, 30.	№14, 41.
195.	kiro	kira	№14, 30.	№14, 41.
196.	o'g'ullari	o'g'illari	№15, 31.	№15, 42.
197.	dostonning	dostonining	№15, 31.	№15, 42.
198.	qimmatli	qiyvatli	№15, 31.	№15, 42.
199.	adabiyotidin	dabiyotidan	№15, 31.	№15, 42.
200.	muhimdur	muhimdir	№15, 31.	№15, 42.
201.	ko'ngilda	ko'ngulda	№15, 31.	№15, 43.
202.	andisha	andija	№15, 31.	№15, 43.
203.	halvo	xalvo	№15, 32.	№15, 43.
204.	bu	bo'	№15, 32.	№15, 43.
205.	ko'ldin	qo'ldin	№15, 32.	№15, 43.
206.	oyur	ayur	№15, 32.	№15, 43.
207.	tirik	tirish	№15, 32.	№15, 43.
208.	baladim	boddim	№15, 32.	№15, 43.
209.	dialo'gning	dialogning	№15, 32.	№15, 43.
210.	shahridanman	shahridin men	№15, 32.	№15, 44.
211.	ko'rursan	ko'rursen	№15, 32.	№15, 44.
212.	sig'mos	sig'mas	№15, 32.	№15, 44.
213.	bale	bali	№15, 33.	№15, 44.
214.	Xisrav	Xusrav	№15, 33.	№15, 44.
215.	kanididat	kandidan	№15, 33.	№15, 44.
216.	Homiduf H.	Homidov H.	№15, 33.	№15, 44.
217.	foidalandim	foydalandim	№15, 33.	№15, 44.
218.	otoqli	atoqli	№16, 33.	№16, 44.
219.	temuriylardan	Temuriylardan	№16, 33.	№16, 45.
220.	torixiy	tarixiy	№16, 33.	№16, 45.
221.	sarkarda, shoirdur	Sarkarda va shoirdur	№16, 33.	№16, 45.
222.	tug'uldi	tug'ildi	№16, 33.	№16, 45.
223.	Shohbudog'	shoh Budog'	№16, 33.	№16, 45.
224.	Abu Ali Torxon	Abu Ali tarxan	№16, 33.	№16, 45.
225.	turor	turar	№16, 33.	№16, 45.
226.	ilm	ili	№16, 34.	№16, 45.
227.	Dashti Qipchoqga	Dashti Qipchoqqa	№16, 34.	№16, 45.
228.	bojorolmoy	bajaraolmay	№16, 34.	№16, 45.
229.	xizmatda	xizmta	№16, 34.	№16, 45.
230.	o'tmoy	o'tmay	№16, 34.	№16, 45.
231.	Toshkand	Toshkant	№16, 34.	№16, 45.
232.	yordom	yordam	№16, 34.	№16, 45.
233.	idorasida	urushida	№16, 34.	№16, 45.
234.	na'shidai ta'bidandur	nashida ta'bidandur	№16, 35.	№16, 46.
235.	tortormen	tortarmen	№16, 35.	№16, 46.
236.	ne	na	№16, 35.	№16, 46.
237.	so'fiyga	sufiyga	№16, 35.	№16, 46.

238.	shayx	shayxi	№16, 35.	№16, 46.
239.	Baddi'uzzamon	Badiiyuzzamon	№16, 36.	№16, 47.
240.	Astrobodga	Astrabodga	№16, 36.	№16, 47.
241.	shahar	shahari	№16, 36.	№16, 47.
242.	biza	bizga	№16, 36.	№16, 47.
243.	mutoyiba	mutoala	№16, 36.	№16, 47.
244.	so'zlashni	so'ylashni	№16, 36.	№16, 47.
245.	qoroshli	qarashli	№16, 36.	№16, 47.
246.	yoshovchilariga	yashavchilariga	№16, 36.	№16, 47.
247.	uchundur	uchundir	№16, 36.	№16, 47.

**Xulosa.** Xulosa o'rnida aytish mumkinki, "Tazkirai Qayyumiy" o'zbek adabiyoti tarixi hamda u bilan doimiy chambarchas aloqada bo'lgan fors-tojik adabiyoti vakillari haqida unikal ma'lumotlar bera olishi bilan adabiyotshunoslik fanida muhim manbalardan biridir. Asarning yagona nusxasi uzoq yillar davomida adabiyotshunos olim A.Qayumovning shaxsiy kutubxonasida saqlangan. Keyinchalik, olim tomonidan O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyiga topshirilgan. Hozirda ushbu muzeyning qo'lyozmalar fondida №734 inventar raqami ostida

saqlanmoqda. Tazkira tabdili 1996-yilda muallifning o'g'li, akademik Aziz Qayumov tomonidan tugallangan. 1998-yilda esa nashr qilingan. Biroq, qo'lyozma va nashr o'rtasida farqli jihatlar talaygina. Ularning matniy-qiyosiy tadqiqini amalga oshirish foydadan holi bo'lmaydi. Qolaversa, tazkirada keltirilgan shoirlarning she'rlari matnini ushbu shoirlarning devon, hamda to'plamlaridan joy olgan variantlari o'rtasida matniy-qiyosiy tadqiqini amalga oshirish ham matnshunoslik va adabiy manbashunoslik sohasi vakillari oldida turgan galdagi vazifalardan biridir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Po'latjon domulla Qayyumiy. Tazkirai Qayyumiy (qo'lyozma), 1960. – T.: O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi qo'lyozmalar fondi, №734.
2. Po'latjon domulla Qayyumiy. Tazkirai Qayyumiy (nashrga tayyorlovchi Qayumov A.). – T.: O'zR FA Qo'lyozmalar instituti tahririy nashriyot bo'limi, 1998. 713 bet.





## O'ZBEK PEDAGOGIKASI TARIXINI DAVRLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH TARIXIY-PEDAGOGIK ZARURAT SIFATIDA

Salaeva Muxabbat Saburovna

Urganch davlat universiteti professori, pedagogika fanlari doktori,

Email: [msalayeve@mail.ru](mailto:msalayeve@mail.ru)

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p><b>Qabul qilindi:</b> 24-dekabr 2022-yil <b>Tasdiqlandi:</b> 26-dekabr 2022-yil <b>Jurnal soni:</b> 5 <b>Maqola raqami:</b> 20 <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/ku.v5i5.225">https://doi.org/10.54613/ku.v5i5.225</a></p>	<p>Maqolada o'zbek pedagogikasi tarixini davrlashtirishning nazariy asoslarini takomillashtirish tarixiy-pedagogik zarurat sifatidaligi haqida so'z yuritiladi.</p>
<p><b>KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS</b></p>	
<p>Madaniy-ma'naviy meros, davrlashtirish, takomillashtirish, tarixiy-pedagogik zarurat, ma'naviy-ma'rifiy takomil, sharqona ta'lim-tarbiya, insonparvarlik, pedagogik qarash, yozma yodgorliklar, tarixiy tajriba, pedagogik fikrlar rivoji, aksiologik, antropologik.</p>	

**Kirish.** Jahonda pedagogika tarixini davrlashtirish asosida o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-ma'rifiy takomilini yanada yuksaltirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish taraqqiyotning global tendentsiyasi hisoblanadi. Ayni vaqtda AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Frantsiya, Xitoy, Yaponiya, Rossiya, Janubiy Koreya kabi rivojlangan mamlakatlarda, shaxs ta'lim-tarbiyasining nazariy-amaliy asoslarini mujassamlashtirgan pedagogikaning rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash orqali muayyan davrda yashagan jamiyat a'zolarining ma'naviyati va intellektual salohiyati insoniyat madaniyatining yuksalish omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Globalshuv jarayonida dunyoda sharqona ta'lim-tarbiyaning insonparvarlik mohiyatini, uning ma'rifiy-madaniy rolini va rivojlanish yo'nalishlarini ilmiy asosda o'rganish va keng jamoatchilikka yetkazishga e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda pedagogika tarixini yangi pedagogik paradigmalar asosida davrlashtirish pedagogika tarixining taraqqiyotini strategik rivojlantirish yo'llarini belgilash, milliy-ma'naviy qadriyatlarining umuminsoniy ahamiyatini yuksaltirish, jahon pedagogikasi tarixining metodologik asoslarini takomillashtirishga doir nazariy tadqiqotlar olib borilmoqda. O'zbek pedagogikasi tarixining jahondagi boshqa xalqlar pedagogikasiga ko'rsatgan ta'sirini o'rganish, milliy-ma'naviy qadriyatlarining umuminsoniy ahamiyatini anglash, pedagogikaga oid bilimlarning jamiyat taraqqiyotiga ko'rsatadigan ta'sirini tasavvur qilishlari uchun imkoniyat yaratishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yosh avlodning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, milliy-ma'naviy qadriyatlarining umuminsoniy ahamiyatini anglab yetishlarida pedagogika tarixini davrlashtirishni yangi nazariy-metodologik tamoyillar asosida o'rganish va taraqqiyot yo'lini aniqlashtirish muhim omil sifatida xizmat qiladi.

Mamlakatimizda o'zbek pedagogikasi tarixini davrlashtirish asosida xalqimizning boy madaniy-ma'naviy merosidan ta'lim-tarbiya tizimini yanada rivojlantirish hamda me'yoriy-uslubiy ta'minotini kengaytirishga zamin yaratadi. Shu bois uzluksiz ta'lim tizimida ta'limning sifatini va tarbiyaviy ishlarining samaradorligini oshirish

pedagogika tarixiga oid manbalardan unumli foydalanish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Eng

qadimgi yozma yodgorliklarda, Avesto, Qurhoni Karim, Xadislari singari milliy-ma'naviy meroslarimizning mazmun va mohiyatini to'g'ri talqin qilish, ularda ifodalangan g'oyalarni kelajak avlod ongida umuminsoniy va milliy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash ustuvor vazifa sifatida belgilanib, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida «jismonan sog'lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash...»<sup>70</sup> ustuvor vazifa etish natijada o'zbek pedagogikasi tarixini davrlashtirishning nazariy metodologik asoslarini takomillashtirishga yanada kengroq sharoitlar yaratiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son Farmoni, 2017-yil 27-martdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2855-son qarori<sup>71</sup>, 2017-yil 24-maydagi «Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2995-son qarori<sup>72</sup> hamda 2017-yil 23-iyundagi «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi Islom tsivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3080-son qarori<sup>73</sup>, «O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish kontsepsiyasi» 2018-yil 28-noyabrda PQ-4038-son qarori<sup>74</sup> ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Pedagogika tarixini davrlashtirishning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish bilan bog'liq ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Heidelberg Universitety of Education (Germaniya), New York University (AQSH), Korea National University of

<sup>70</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. - O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modd. 38 bet.

<sup>71</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2017-yil 27-martdagi PK-2855-son qarori. "Xalq so'zi" gazetasi.2017- yil. № 85 son. 28- mart.1-2 bet.

<sup>72</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 - yil 24-maydagi «Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida»gi 2995-sonli qarori. "Xalq so'zi" gazetasi.2017- yil. № 103 son.25- may.1-2 bet.

<sup>73</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 23 iyundagi O'zbekistonda «Islom madaniyatini markazini tashkil etish haqida»gi Qarori. "Xalq so'zi" gazetasi.2017 yil. № 125 son.24 iyung'. 1-2bet.

<sup>74</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24-maydagi «Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida»gi 2995-sonli qarori. "Xalq so'zi" gazetasi.2017 yil. № 103 son.25 may.1-2bet.

Education (Koreya), Seoul National University, Puchong University, Chonbuk National University (Janubiy Koreya), Miyagi pedagogika universiteti (Yaponiya), Kyoto University of Education (Yaponiya), Belgorod davlat universiteti (Rossiya), Ta'lim akademiyasi (Rossiya)da amalga oshirilmoqda.

Pedagogik qarashlarning shakllanish va rivojlanishining tarixiy tajribasini o'rganishga oid jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy natijalar olingan: Pedagogik fikrlar taraqqiyotini tadqiq etishning qiyosiy-tipologik modellari ishlab chiqilgan (Heidelberg University of Education); ta'limning tarixiy rivojlanish tendentsiyalari va istiqbollarini belgilash indikatorlari aniqlashtirilgan (New York University); milliy ta'lim - tarbiyaning funktsional - tuzilmasi takomillashtirilib, an'ana va qadriyatlarni ta'lim mazmuniga singdirish texnologiyalari yaratilgan (Kyoto University of Education); pedagogik fikrlar rivojining aksiologik va antropologik jihatlari aniqlashtirilgan (Korea National University of Education); pedagogika fanining rivojlanish tarixi va etnopedagogikaning o'ziga xos xususiyatlari, ilmiy-pedagogik g'oyalar tahlil qilingan (Belgorod davlat universiteti).

Jahonda pedagogika tarixini davrlashtirish bo'yicha quyidagi yo'nalishlarda tadqiqot ishlari olib borilmoqda: butunjahon tarixiy pedagogik jarayon kontsepsiyasi, modeli, istoriografiyasini shakllantirish; eng qadimgi yozma yodgorliklarda ifodalangan pedagogik g'oyalardan bugungi kungacha yaratilgan pedagogik nazariyalarning mazmunini aniqlashtirish; turli davrlarda foydalanilgan ta'lim-tarbiya vositalari, usullari va metodlarini yaxlit pedagogik jarayon bilan integratsiyasini ta'minlash; eng qadimgi zamonlardan boshlab hozirgi davrgacha yuz bergan pedagogik fikrlar rivojlanishiga oid har bir davrning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy tasniflash.

Mamlakatimizda O'rta Osiyo xalqlari pedagogik fikrlari taraqqiyotini o'rganishga doir izlanishlar Sh.Abdullaeva, U.Aleuov, X.Aliqulov, A.Zunnunov, X.Ibraimov, Z.Mirtursunov, O.Musurmonova, S.Nishonova, S.Rajabov, F.Rasulova, A.Sohibov, M.Xayrullaev, K.Xashimov, H.Hamidov, O.Hasanboeva, J.Hasanboev, S.Hasanovlar tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, mazkur tadqiqotlarda pedagogika tarixini davrlashtirishning ayrim jihatlari yoritib berilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida I.N.Andreeva, V.V.Bartol'd, T.S.Butorina, Z.I.Vasil'evalar, E.N.Gusinskiy, A.N.Djurinskiy, G.M.Kodjaspirova, A.I.Piskunova, V.G.Trosyanlar pedagogikada mutafakkirlar asarlaridan foydalanish muammolari to'g'risida ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Pedagogika tarixini davrlashtirishning har bir bosqichidagi o'ziga xos xususiyatlari xorijiy olimlar K.A.Dridger, I.G.Pestalotsti, M.A.Jo'shon, K.Yilmaz, Dj.S.Trimengem, Frederik Starr, Eyji Mano, Magida Mahluf, Mark Bonnel, Yul' Yanssens, Vilg'frid de Graaf va Masataka Takeshitalar tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, mazkur ilmiy izlanishlarda pedagogika tarixini davrlashtirish, har bir tarixiy davrda shakllangan ta'lim tizimi hamda alloma va mutafakkirlarning pedagogik qarashlari tadqiq etilgan.

Pedagogika tarixini davrlashtirish yaxlit fundamental pedagogik tadqiqot sifatida o'rganilmaganligi respublikamizda pedagogika tarixini milliy istiqloq g'oyasi va mafkurasi asosida yangicha kontekstda o'rganish va davrlashtirishning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish dolzarb masala ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqot ishimizda mustaqillik yillarida vujudga kelgan pedagogik nazariyalarning tahliliga alohida to'xtalishga harakat qildik. Muayyan davrda vujudga kelgan qarashlar ta'lim-tarbiya sohasidagi ma'rifiy fikrlar yaxlit olingan davrlar doirasida o'rganilishi pedagogika fanida davrlashtirish muammosini hal qilishning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Pedagogika fanida davrlashtirish muammosining hal qilinishi barobarida pedagogika tarixi yo'nalishida amalga oshiriladigan tadqiqotlarni izchil tizimga solish imkoniyati tug'iladi.

Asrlar davomida ota-bobolarimiz yaratgan boy pedagogik merosni bosqichma-bosqich o'rganish, ilmiy tahlil qilish, ommalashtirish va bu sohadagi ilg'or qarashlarni milliy g'oya nuqtai nazaridan yondashgan holda ta'lim tizimiga tadbiiq etish, o'zbek xalqining o'tmishdagi boy pedagogik tajribasidan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish yo'llarini ilmiy jihatdan tadqiq qilish pedagogika fani oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Bu sohada S.Rajabov, Z.Mirtursunov, M.Hayrullaev, E.Qodirov, A.Zunnunov, M.Murodov, I.Hasanxo'jaev, K.Xoshimov, O.Hasanboeva, J.Hasanboev, H.Hamidov, X.Aliqulov, S.Nishonova, S.Hasanov, U.Aleuov, M.Inomova va boshqa olimlar ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan bo'lsalarda, o'zbek

pedagogikasi tarixini davrlashtirishning nazariy asoslari muammosi bugungi kunga qadar pedagogika fanida maxsus tadqiqot obhakti bo'lgan emas. Zeroki, mustaqillik yillaridan boshlab o'zbek xalqining boy ma'naviy tarbiyaga oid ulkan merosi mavjud ekanligi arxeologlar, etnograflar, tarixchilar, faylasuflar, dinshunoslar tomonidan e'tirof etilib, keng tadqiq qilinmoqda. Mana shu ulkan merosning pedagogik qirralarini ochish va davrlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Davrlashtirish muammosi o'zbek pedagogikasi tarixi fanida fundamental tadqiqot sifatida o'z yechimini topishi lozim. O'zbek xalqining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari to'planib, ilmiy tahlil qilinishi bilan uning o'tmishda yaratgan boy pedagogik merosidan bugungi kun amaliyotida samarali foydalanish yo'llari ko'rsatiladi.

O'zbek xalqining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini ilmiy-tarixiy manbalar yordamida chuqur o'rganish, tahlil qilish hamda ta'lim jarayoniga tadbiiq etish shakllari, vositalari va metodlarini aniqlash orqali pedagogika tarixini yangicha yondashuv asosida davrlashtirish muammosiga yechim topiladi. Bu maqsadga quyidagilar yordamida erishiladi:

- *pedagogika tarixi yo'nalishida amalga oshiriladigan tadqiqotlarni izchil tizimga solish;*
- *asrlar davomida ota-bobolarimiz yaratgan boy pedagogik merosni bosqichma-bosqich o'rganish va ommalashtirish;*
- *o'zbek pedagogikasi tarixi sohasidagi ilg'or pedagogik qarashlarni milliy g'oya nuqtai nazaridan yondashgan holda ta'lim tizimiga tadbiiq etish;*
- *pedagogika tarixi yo'nalishida amalga oshirilgan tadqiqotlarda o'zbek xalqining o'tmishda yaratgan ilmiy hamda ma'naviy-ma'rifiy merosi, ta'lim-tarbiya sohasidagi ilg'or pedagogik qarashlarni ilmiy jihatdan o'rganish, ularni ta'lim jarayoniga tadbiiq etish, vosita va usullarini belgilab berish.*

Bunday vazifalarni amalga oshirish barobarida pedagogika oliy o'quv yurti talabalari uchun O'zbekistonda «Pedagogika tarixi» kursi bo'yicha yangi o'quv qo'llanma ishlab chiqiladi va «Didaktika» kursi o'tmishda yuqori samaradorlikka ega bo'lgan ta'lim-tarbiya metodlari, usullari va shakl, vositalari haqidagi ilmiy-uslubiy tavsiyalar bilan boyitiladi.

Shu tariqa, o'zbek pedagogikasi tarixi taraqqiyotini o'rganganda yaxlit davrlar ko'rib chiqilishi, har bir davrda yaratilgan ma'naviy-ma'rifiy va pedagogik qarashlar, ta'limning metodologiyasi va o'ziga xos metodlari, yo'nalishlari chuqur tahlil qilinib, ularning samaradorlik darajasi aniqlanishi lozim.

**Tadqiqot metodologiyasi.** tarixiy, retrospektiv va nazariy-uslubiy manbalarni tahlil qilish, olingan ma'lumotlarni umumlashtirish va sharhlash, kuzatish, suhbat, anketa, kontent tahlil, kvalimetriya va ekspert baholash.

**Natija va muhokama.** Asrlar davomida ota-bobolarimiz yaratgan boy pedagogik merosni bosqichma-bosqich o'rganish, ilmiy tahlil qilish, ommalashtirish va bu sohadagi ilg'or qarashlarni milliy g'oya nuqtai nazaridan yondashgan holda ta'lim tizimiga tadbiiq etish, o'zbek xalqining o'tmishdagi boy pedagogik tajribasidan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish yo'llarini ilmiy jihatdan tadqiq qilish pedagogika fani oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Bu sohada S.Rajabov, Z.Mirtursunov, M.Hayrullaev, E.Qodirov, A.Zunnunov, M.Murodov, I.Hasanxo'jaev, K.Xoshimov, O.Hasanboeva, J.Hasanboev, H.Hamidov, X.Aliqulov, S.Nishonova, S.Hasanov, U.Aleuov, M.Inomova va boshqa olimlar ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan bo'lsalarda, o'zbek pedagogikasi tarixini davrlashtirishning nazariy asoslari muammosi bugungi kunga qadar pedagogika fanida maxsus tadqiqot obhakti bo'lgan emas. Zeroki, mustaqillik yillaridan boshlab o'zbek xalqining boy ma'naviy tarbiyaga oid ulkan merosi mavjud ekanligi arxeologlar, etnograflar, tarixchilar, faylasuflar, dinshunoslar tomonidan e'tirof etilib, keng tadqiq qilinmoqda. Mana shu ulkan merosning pedagogik qirralarini ochish va davrlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Davrlashtirish muammosi o'zbek pedagogikasi tarixi fanida fundamental tadqiqot sifatida o'z yechimini topishi lozim. O'zbek xalqining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari to'planib, ilmiy tahlil qilinishi bilan uning o'tmishda yaratgan boy pedagogik merosidan bugungi kun amaliyotida samarali foydalanish yo'llari ko'rsatiladi.

O'zbek xalqining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini ilmiy-tarixiy manbalar yordamida chuqur o'rganish, tahlil qilish hamda ta'lim jarayoniga tadbiiq etish shakllari, vositalari va metodlarini aniqlash orqali pedagogika tarixini yangicha yondashuv asosida davrlashtirish muammosiga yechim topiladi. Bu maqsadga quyidagilar yordamida erishiladi:

- *pedagogika tarixi yo'nalishida amalga oshiriladigan tadqiqotlarni izchil tizimga solish;*
- *asrlar davomida ota-bobolarimiz yaratgan boy pedagogik merosni bosqichma-bosqich o'rganish va ommalashtirish;*
- *o'zbek pedagogikasi tarixi sohasidagi ilg'or pedagogik qarashlarni milliy g'oya nuqtai nazaridan yondashgan holda ta'lim tizimiga tadbiiq etish;*
- *pedagogika tarixi yo'nalishida amalga oshirilgan tadqiqotlarda o'zbek xalqining o'tmishda yaratgan ilmiy hamda ma'naviy-ma'rifiy merosi, ta'lim-tarbiya sohasidagi ilg'or pedagogik qarashlarni ilmiy jihatdan o'rganish, ularni ta'lim jarayoniga tadbiiq etish, vosita va usullarini belgilab berish.*

Bunday vazifalarni amalga oshirish barobarida pedagogika oliy o'quv yurti talabalari uchun O'zbekistonda «Pedagogika tarixi» kursi bo'yicha yangi o'quv qo'llanma ishlab chiqiladi va «Didaktika» kursi o'tmishda yuqori samaradorlikka ega bo'lgan ta'lim-tarbiya metodlari, usullari va shakl, vositalari haqidagi ilmiy-uslubiy tavsiyalar bilan boyitiladi.

Shu tariqa, o'zbek pedagogikasi tarixi taraqqiyotini o'rganganda yaxlit davrlar ko'rib chiqilishi, har bir davrda yaratilgan ma'naviy-ma'rifiy va pedagogik qarashlar, ta'limning metodologiyasi va o'ziga xos metodlari, yo'nalishlari chuqur tahlil qilinib, ularning samaradorlik darajasi aniqlanishi lozim.

**Natijalar.** Mahlumki, har bir ijtimoiy tuzumda insonning ma'naviy yuksalishini ta'minlovchi ta'lim-tarbiya, ma'naviyat va mahrifat kabi tushunchalar mavjud bo'lib, ular pedagogik taraqqiyot tarixidagi o'zgarishlarni jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda atroflicha o'rganishni taqozo etadi.

Jahondagi boshqa xalqlar qatori O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqi ham ta'lim-tarbiya sohasida eng qadimiy va boy milliy pedagogik merosga ega. Bu dastlab xalq pedagogikasi namunalari yuqori ifodalangan.

Pedagogika ensiklopediyasida «xalq pedagogikasi» atamasiga quyidagicha ta'rif berilgan.

#### **Xalq pedagogikasi.**

1) muayyan xalqning ta'lim-tarbiyasi, mazmuni uning maqsad va vazifalari, shakl, vosita, usul va metodlarini o'zida mujassamlashtirgan pedagogika fanining alohida tarmog'i;

2) tarbiyaning maqsad va vazifalari borasida muayyan xalqning hayotiy tajribasi hamda turmush tarzida shakllangan amaliy qarashlar majmui; muayyan jamiyatda yashash uchun har bir odam amal qilishi shart hisoblangan va urf-odat, udum, xulq-odob, marosim, an'ana, turmush tarzi, badiiy ijod, o'yin singari empirik vositalarda namoyon bo'ladigan amaliy faoliyat hamdir.

Ma'lumki, muayyan bir xalq va unga mansub bo'lgan pedagogikaning mazmuni, xarakteri mazkur xalq yashab turgan sharoitning o'ziga xos xususiyatlarini bilan belgilanadi. O'zaro bir xil sharoitda yashagan turkiy xalqlarning madaniyati va aql-idroki, mazkur xalqqa xos bo'lgan pedagogik qarashlarning vujudga kelishiga asos bo'lgan. Shu nuqtai nazardan qaraganda O'rta Osiyo hududida yashagan turkiy xalqlar pedagogikasida umumiy jihatlari mavjud. Jumladan, taniqli pedagog A.E.Izmaylov bu haqda quyidagicha yozgan edi: «Qisman bo'lsa-da, turkman, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, turkiy xalqlari hamda tojik xalqi og'zaki ijodi namunalari bilan tanishib chiqishimiz ana shu xalqlar pedagogikasida muayyan o'xshashlik va umumiyliklar borligini tasdiqladi»<sup>75</sup>.

Darhaqiqat, o'zbek xalqining mashhur adibi Hamid Olimjonning ta'biri bilan aytganda: «Biz bir qorindan talashib chiqqan xalqlarning vakillarimiz. Bizning beshigimiz bir yerda bo'lgan. Qozoq onasining aytgan allasiga o'zbek bolasi ham uxlagan. O'zbek tojiklar bilan bir hovlida yashab kelgan. Navoiyni turkmanlar ham xuddi o'zbekday yaxshi ko'radilar. Qirg'izning to'yi o'zbeksiz o'tmagan. Bizning xalqimiz bir-biridan qiz olib, qiz berib quda bo'lib kelganlar. Bizning yigitlarimiz bir maydonda uloq chopganlar. Bizning urug'larimiz bir-biriga chatishib ketgan. Bizning xalqimizni bir-biridan ajratib bo'lmaydi».

Shunday ekan, o'zbek xalq pedagogikasi bilan O'rta Osiyo hududida yashagan qozoq, qirg'iz, turkman, qoraqalpoq kabi turkiy xalqlar hamda tojik xalq pedagogikasida umumiylikning mavjudligi ko'plab olimlar tomonidan ilmiy jihatdan asoslangan.

Turkiy xalqlar pedagogikasi keng qamrovli hodisadir. Ajdodlarimizning oilaviy-maishiy hayoti, ta'lim usullari, ibratli tajribalari

dostonlar, ertaklar, asotirlar, mavsumiy marosim qo'shiqlari, naqlar, rivoyatlar, afsonalar, maqollar, matallar, hikmatlar, aforizmlar, topishmoqlar, tez aytishlar, bolalar o'yinlari, allalar, to'y va aza qo'shiqlari, erkalashlar, ovutmachochlar, qiziqmachochlar, yalinchoqlar, hukmlagichlar, chorlamalar, cheklashmoqchalar, guldur-guplar, o'yin-kulgular bilan bog'liq lapar, aytishuv, o'lan, termalar, ramazon, boychechak, yomg'ir, quyosh, yulduz, suv aytilari, chandishlar, tegishmachochlar, masharalamalar, «Navro'z», «Mehrxon», bahor, kuz, kish, yoz aytim qo'shiqlarida yorqin aks etgan.

Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'atit turk» asaridagi ayrim shehriy hikmatlar hamda boshqa manbalar orqali yetib kelgan asotirlar, qo'shiqlar, maqollar va topishmoqlar, shuningdek, «Manas» «Dada Ko'rkut», «Alpomish» singari eposlaridagi ta'lim-tarbiyaga doir fikrlar ajdodlarimiz pedagogik qarashlarining ifodalari hisoblanadi.

Bundan tashqari, «To'nyukuk», «Bilga-xaqon», «Kul tegin» yodnomalari va «Irk bitig» singari yozma yodgorliklarda ham turkiy xalqlarning juda qadim zamonlardagi pedagogik qarashlari o'ziga xos tarzda aks etgan. Bu pedagogik qarashlar mazkur xalqlarda umumiy sifat va xususiyatlarning shakllanishida ham muhim o'rin tutgan. Shuning uchun ham turkiy xalqlarning, shu jumladan, o'zbek xalqining uzoq davrlar davomida shakllangan og'zaki ijodida ifodalangan pedagogik qarashlari IX-XII asrlarda yashagan Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino singari ko'plab mashhur qomusiy olimlarning pedagogik qarashlariga asos bo'lib xizmat qilgan.

Uzoq davrlar davomida shakllangan pedagogik g'oyalar ajdodlarimizning ta'lim-tarbiya sohasidagi qarashlariga asos bo'lgan. Chunonchi, Abu Rayxon Beruniy «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarini yaratishda xalq og'zaki ijodidagi pedagogik g'oyalarga tayangan. Abu Ali ibn Sino esa, o'zining «Donishnoma» asarida ona allasining tarbiyaviy ahamiyati haqida to'xtalib: «Bolani talabini qondirmoq uchun unga ikki narsa qo'llamoq kerak: Biri – bolani sekin-sekin tebratish, ikkinchisi-uni uxlatish uchun odat bo'lib qolgan musiqa-allalashdir. Shu ikkinisi qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan badantariyaga va ruhi bilan musiqaga bo'lgan iste'dodi hosil qilinadi», deb yozadi.

Shubhasiz, biz yuqorida tahlil qilgan bu o'quv qo'llanmalar pedagogika tarixini o'rganishda talabalar uchun foydali bo'lib, Sharq xalqlari, xususan, o'zbek xalqining pedagogik merosi va ta'lim-tarbiyaviy g'oyalarini bilib olishga imkon yaratadi. Lekin mazkur qo'llanmalar ham mazmun-mundariyasi jihatidan an'anaviy usulda yozilgan va pedagogika tarixini ifoda etuvchi tushunchalarning omuxtalidir. Zero, Rossiya va O'zbekiston olimlari yaratgan darslik va o'quv qo'llanmalar orasidagi muhim farq 1976 yilda chop etilgan «Pedagogika tarixi» darsligining mazmuni Rossiya va Yevropa mamlakatlarining pedagogik-tarixiy merosidan iborat bo'lsa, 1996-1997-yillarda nashr etilgan ushbu o'quv qo'llanmalarining mazmuni asosan O'rta Osiyo va Sharq xalqlarining fan, madaniyat, ta'lim-tarbiyaga doir fikrlaridan iborat bo'lib qolgan va O'zbek pedagogikasi tarixi takomilini davrlashtirish tasnifi ham shartli va noto'liqdir.

Haqiqatan ham, pedagogika tarixini yaxlit, yagona madaniy, ma'naviy, pedagogik-tarixiy va nazariy asoslari rivojlanish jarayoni sifatida yoritish uchun ongimizda mustahkam o'rnatilgan qolgan yana bir tamoyildan ta'lim-tarbiyaga doir materiallarni ijtimoiy tuzum va formatsiyalar bilan uzviy bog'lab bayon etishdan voz kechish lozim. Bunday yondashuvning murakkab tomoni shundaki, jahondagi turli mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishi bir xil bo'lmaydi, balki turlicha kechadi. Demak, jahon xalqlari pedagogik-tarixiy rivojlanish jarayonini bir tekis o'rganish va davrlashtirish imkoni bo'lmaydi.

Umuman, ijtimoiy rivojlanishda inson omili, kishilarning ongliligi, ma'naviyati, mafkurasi, g'oyaviy omillar hal qiluvchi ekanligini tahkidlash lozim. Ayniqsa, ta'lim-tarbiyaning mazmuni, shakli, ta'siri masalasida ota-ona, tarbiyachi, ustoz shaxsining ustuvor ekanligiga ehtibor qaratish zarur. Shuning uchun ham bo'lajak o'qituvchi shaxsini barkamol inson, ma'naviyatli ustoz-mutaxassis sifatida shakllantirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Bu borada «Pedagogika tarixi» fanini o'rganish jarayonida o'zbeklar, O'rta Osiyo xalqlari o'tmishida bola

<sup>75</sup>Измайлов А.Э. Народная педагогика: педагогическая воззрения народов Средней Азии и Казахстана. – М.: Просвещение, 1991. – 217 с.

ta'lim-tarbiyasiy sohasida to'plagan tajribalari, folg'lor asarlari, xalq pedagogikasining ilg'or g'oyalari o'rganish katta ahamiyat kasb etadi.

Xullas, O'zbekiston Respublikasining oliy o'quv yurtlari uchun «Pedagogika tarixi» fanining o'quv dasturlarini tuzish va o'quv qo'llanmalarini yaratishda yuqorida bayon etilgan xronologik tamoyil asosida yondashish va davrlashtirishga qat'iy amal qilish maqsadga muvofiqdir.

**Xulosa.** Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlash joizki, ajdodlarimiz pedagogik merosini tahlil qilish va turli manbalarni o'rganish natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, pedagogika tarixini davrlashtirishda turlicha hamda bir yoqlama yondashilgan bo'lib, bugungi kunda yangicha kontekstda pedagogika tarixini davrlashtirish zaruriyati vujudga kelgan. Pedagogika tarixini davrlashtirishda izchillik va haqqoniylik printsiplariga amal qilgan holda asrlar davomida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan pedagogik merosni tahlil qilish va tasniflash maqsadga muvofiqdir. Pedagogika tarixini davrlashtirishda siyosiy hamda tarixiy davrlashtirish haqidagi tasniflarga emas, balki mavjud pedagogik merosning mazmuni, xarakteri, o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqish talab etiladi. Pedagogika tarixini yangicha kontekstda davrlashtirishda tarixiy taraqqiyotning muayyan bosqichida ilgari surilgan pedagogik qarashlar, g'oyalar, yondashuvlarni tahlil qilgan holda davrlashtirish masalasiga ehtibor qaratish kerak.

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.– T.: O'zbekiston, 1992. – 46 b.
2. O'zbekiston Respublikasining 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. <http://lex.uz/docs/-5013007>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y, 6-son, 70-modda. 38 bet.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2017-yil 27-martdagi PK-2855-son qarori. "Xalq so'zi" gazetasi.2017- yil. № 85 son. 28- mart.1-2 bet.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 - yil 23-iyundagi O'zbekistonda «Islom madaniyati markazini tashkil etish haqida»gi Qarori. "Xalq so'zi" gazetasi.2017- yil. № 125 son. 24 - iyun.1-2 bet.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 - yil 24-maydagi «Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida»gi 2995-sonli qarori. "Xalq so'zi" gazetasi.2017- yil. № 103 son.25-may.1-2 bet.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish kontseptsiyasi» 2018 - yil 28- noyabrda PQ-4038-son Qarori
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 23 iyundagi O'zbekistonda «Islom madaniyati markazini tashkil etish haqida»gi Qarori. "Xalq so'zi" gazetasi.2017 yil. № 125 son.24 iyung'.1-2bet.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24-maydagi «Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida»gi 2995-sonli qarori. "Xalq so'zi" gazetasi.2017 yil. № 103 son.25 may.1-2bet.
10. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag' ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. -T. O'zbekiston NMIU, 2016. - 56 b.
11. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 - yilda ijtimoiy-o'rtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017- yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'

Pedagogika tarixiga oid mavjud darsliklar, dasturlar, qo'llanmalar, ilmiy tadqiqotlarning tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, mualliflar pedagogika tarixini davrlashtirishda yagona fikrga ega bo'lmasdan, bu masalaga goh siyosiy formatsiyalar, gohida tirixiy davrlar, ba'zan esa hududiy-geografik nuqtai nazardan yondashganliklari uchun ham turli davrlarda yaratilgan pedagogik g'oyalarning mazmuni, vujudga kelgan vaqti va ular orasidagi izchillik yetarlicha ochib berilmagan. Bu esa, o'z navbatida, talabalar, tadqiqotchilar va o'qituvchilarda turli davrlarda yaratilgan pedagogik g'oyalarning mazmuni, ular orasidagi uyg'unlik, izchillik haqida yetarlicha ilmiy tasavvurning mavjud emasligiga sabab bo'lmoqda. O'zbek pedagogikasi tarixi asrlar davomida xalq pedagogikasidan oziqlangan holda shakllangan va uning negizida muntazam rivojlanib boradi. Turli (IX-XII, XIV-XVI, XVI-XVIII, XVIII-XX asrning birinchi choragi, sobiq sovet hokimiyati va mustaqillik yillari) davrlarda vujudga kelgan pedagogik fikrlar o'zining muayyan mazmuniga ega bo'lib, ularni o'rganish, tahlil ilish, umumlashtirish pedagogika tarixini obhektiv davrlashtirish va ilg'or g'oyalardan bugungi kunda ta'lim tizimida samarali foydalanish imkonini beradi.

Shunday ekan, turli davrlarda vujudga kelgan pedagogik g'oyalar o'z negiziga ega bo'lib, mazkur asoslarni aniqlash pedagogika tarixini davrlashtirish bilan bir qatorda, ajdodlarimiz amal qilgan ta'lim usullari, metodlari, vositalari va tamoyillarini aniqlash, ulardan amaliyotda keng foydalanish imkonini yaratadi.

- ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi mahruza, 2017-yil 14-yanvarg'...-T. O'zbekiston. NMIU, 2017. - 104 b.
12. Измаилов А.Э. Народная педагогика: педагогическая воззрения народов Средней Азии и Казахстана. – М.: Просвещение, 1991. – 217 с.
  13. Салаева М.С. Ўзбек педагогикаси тарихини даврлаштиришнинг назарий-педагогик асослари. Монографию. – Toshkent: Fan va tehnologiualar, 2008. – 180 b.
  14. Салаева М.С., Кислицина И.Л., Салаева М.С. Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университетида сақланаётган ноёб қўлёзмалар коллекциялари. Монография. – Т.: Университет, 2018. – 112 б.
  15. Салаева М.С ва муаллифлар жамоаси. Педагогика. Энциклопедия. 3-жилд. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2018. – 424 б.
  16. Салаева М.С. Просветительско-педагогические воззрения Мухаммада Ризо Огахи. // Вестник КОАНРУ. – Нукус, 2001. №4. – С. 63. (13.00.00 2001)
  17. Салаева М.С. Битиктошларда битилган тарбия нишонлари. // Халқ таълими. – Тошкент, 2003. №6. – Б. 106-109. (13.00.00 2003)
  18. Салаева М.С. Педагогика тарихини даврлаштириш замон талаби. // Халқ таълими. – Тошкент, 2004. №2. – Б.17-19. (13.00.00 2004)
  19. Салаева М.С. Действующие теоретические и практические основы периодизации истории узбекской педагогики. // Педагогические науки. Москва, 2011. №5. – С. 12-13. (13.00.00 01.07.2011 №26)
  20. Salayeva M.S. Directions and content of pedagogical researches held in Uzbekistan during the independence years.// The advanced science. Open access journal. - USA, 2011. – Issue 3, – P. 37-40. (13.00.00 2011 №1)
  21. Salayeva M.S. Pedagogical Conditions of Using the Materials of the Uzbek National Pedagogics in the Pedagogical Course Studying.// Eastern European Scientific Journal. Ausgabe 3-2016. www.Auris-Verlag.de ( ISSN 2199-7977) P. 63-168. (13.00.00 №1)
  22. Salayeva M.S. Pedagogical conditions of use of materials of the uzbek folk pedagogy in the pedagogy course. ISSN 2311-2158. The Way of Science. 2016. №6 (28). P. 57-59.
  23. Salayeva M.S. Periodization problems, stages of formation and development the educational system of Uzbekistan. ISSN // Actual problems of modern sciences education and training in the region. Elektronik scientific edited volume. 1.2017. P189. P. 195-195. (13.00.00 №1)



## YOSH DZYUDochILARDA TEZKOR-KUCH QOBILIYATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Tangriyev Alisher Jumanazarovich

O'zDJTSU, Ko'pkurash sport turlari fakulteti decani,  
pedagogika bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent,  
alishertangriyev2021@gmail.com

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p><b>Qabul qilindi:</b> 24-dekabr 2022-yil <b>Tasdiqlandi:</b> 26-dekabr 2022-yil <b>Jurnal soni:</b> 5 <b>Maqola raqami:</b> 21 <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/ku.v5i5.226">https://doi.org/10.54613/ku.v5i5.226</a></p>	<p>Mazkur tadqiqot ishimizda o'quv-mashg'ulot guruhida shug'ullanib kelayotgan yosh dzyudochilarning tezkor-kuch qobiliyati samaradorligini oshirish va rivojlangalik darajalari mahsus tanlab olingan mashqlar orqali aniqlash jarayonlari amalga oshiriladi.</p>
KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS	
<p>Tezkor-kuch, jismoniy yuklama, jismoniy sifat, mashq, mashg'ulot, jismoniy ko'rsatkich.</p>	

**Kirish.** Sportning dzyudo turi bo'yicha bolalar va o'smirlar sport maktablari murabbiylarining ish faoliyati davomida harakatni o'zlashtirish jarayonini o'rgatish hamda nazorat qilish, balki mashg'ulot muobaynida noan'anaviy vositalaridan samarali foydalanish imkoniyatini beradigan alohida shakldagi ko'rsatmalar uslubini amaliy va nazariy jihatdan qo'llash masalalari, yosh dzyudochilarning tezkor-kuch sifat ko'rsatkichlarining shakllanishiga kengroq hissa qo'shuvchi vositalardan foydalanish jarayonlari ochiq qolmoqda. Ko'rib chiqilayotgan ishlar o'z mohiyati jihatidan turlicha malakaga ega bo'lgan sportchilarning jismoniy va funksional tayyorgarlik darajasini inobatga olgan holda mashg'ulot vositalarini to'g'ri qo'llash hamda alohida yondostiruvchi-rivojlantiruvchi mashqlarni tasniflash va tanlashga yo'naltirilgan.

Respublikamizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish hamda mamlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta'minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilyotganligi dzyudo sport turida ham jahon sport arenalarda raqobatning keskinlashishi jadal suratlarida aks etayotganligi sababli yosh dzyudochilarni musobaqalarga tayyorlash hamda ulardagi jismoniy sifat ko'rsatkichlari samaradorligini oshirishning yangi yo'llarini izlab topishimiz zarur omil hisoblanadi. Yosh dzyudochilar tayyorgarligi davrlarida umumiy jismoniy tayyorgarlik mashqlari hamda maxsus tezkor-kuch sifatini rivojlantiruvchi mashqlarni (vositalarni) qo'llagan holda bajartirish maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagilarni umimlashtirgan holda, hozirgi kunda barqaror harakat ko'nikmalarini shakllantiruvchi va tezkor-kuch qobiliyatini takomillashtiruvchi mashqlarning murakkab turlarini o'zlashtirishga imkoniyat beradigan samarali o'qitish uslublari, noan'anaviy mashg'ulot vositalari va nazorat shakllarini o'zida mujassamlashtirgan o'quv dasturlari ishlab chiqilmagan va ilmiy jihatdan asoslanmaganligi aniqlandi. Yuqoridagilarni inobatda olgan holda malakali sportchilarni tayyorlash ko'p tomonlamali va uzoq vaqt davom etadigan jarayon hisoblanadi. Tayyorgarlikning turli bosqichlarida o'quv-mashg'ulot jarayonlarini samarali boshqarish, optimallashtirish, tashkil etish hamda o'zgartirish katta hajmda turli xildagi axborotdan foydalanishga asoslanadi. Mazkur masalalar o'z navbatida tegishli qarorlarni qabul qilishni taqozo etadi. Bu jarayonlar yosh dzyudochilarning tezkor-kuch sifatini yaxshilanishiga xizmat qiladi. Sifat darajasi dzyudo sport turi bilan mashg'ulotlar olib borayotgan sportchilarda muhim ahamiyat kasb etishi ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi [1,2,3,4].

**Tadqiqotning maqsadi:** Yosh dzyudochilarning tezkor-kuch darajalari ko'rsatkichlarini tadqiq qilish.

**Tadqiqotning vazifalari:** Yosh dzyudochilarning jismoniy tayyorgarlik davomida tezkor-kuch sifat darajalarini aniqlash.

**Tadqiqotning ob'ekti:** Yosh dzyudochilarning mashg'ulot jarayoni.

**Tadqiqotning predmeti:** Yosh dzyudochilarning umum jismoniy tayyorgarligi dinamikasini tadqiq qilish.

**Tadqiqot usullari:** Ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, pedagogik testlash, matematik-statistik tahlil.

**Tadqiqotni tashkillashtirish:** Chirchiq olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi shug'ullanuvchi yosh kurashchilarning o'quv-mashg'ulotlari jarayonlari davomida o'tkazildi. Tajribalarimizda o'quv mashg'ulot guruhi shug'ullanuvchi yosh dzyudochilar ishtirok etishdi (n=88).


**Tadqiqot natijalari.** Ushbu tadqiqot ishimizda yosh dzyudochilarning tezkor-kuch qobiliyati qay darajada shakllanib kelayotganligi va mazkur sifat samaradorligini tadqiq etish uchun maxsus nazorat sinov amaliyotlari joriy etildi. Tadqiqot davomida tajriba guruhlarini sinaluvchilarning tezkor-kuch sifat ko'rsatkichlarini tavsiflovchi mashqlar bo'yicha natijalari nazorat guruhlaridagiga nisbatan ikki martadan ko'proq o'sganligi aniqlandi (mos ravishda, 13,14% ga va 6,22% ga o'sgan).

Dastlabki tadqiqotdan avval olingan natijalarga ko'ra Seoi-nage nazorat sinov mashqi orqali olingan natijalar yosh dzyudochilarning 14,61 ni tashkil etgan bo'lsa tajriba guruhi ishtirokchilarida esa bu natijalar 14,73 ga teng ekanligi aniqlandi. Ko'rib turganimizdek ushbu mashq davomida nazorat va tajriba guruhi dzyudochilarning qayd etgan natijalari orasidagi farq deyarli katta emasligi aniqlandi. Navbatdagi nazorat sinov amaliyot jarayoni Tay-otoshi nomli nazorat sinov mashqi orqali amalga oshirildi. Bu vosita yordamida qayd etilgan natijalar tajriba guruhida 14,83 ni nazorat guruhida 14,67 ni tashkil etdi va bu natijalar tadqiqotdan oldin qayd etildi (1-jadvalga qarang).

Tajriba guruhida tezkor-kuch ko'rsatkichlar bo'yicha pedagogik tajriba davomida o'sishlar uchun hisoblangan Styudent kritik qiymatlari ham nazorat guruhlaridagiga nisbatan yaxshilanganligi kuzatildi. Nazorat guruhi Styudent taqsimoti qiymatlari  $t=1,96$  va  $t=1,98$  oralig'ida (ular uchun o'zgarishlar statistik ishonchsiz, ya'ni  $r>0,05$ ) o'zgargan bo'lsa, tajriba guruhida ushbu ko'rsatkich  $t=4,21$  va  $t=4,66$  oralig'ida o'zgariganligi hamda ularga mos ravishda hamma mashqlar bo'yicha statistik ishonchli ( $r<0,001$ ) o'sish sodir bo'lganligi aniqlandi (1-rasmga qarang).



## Tadqiqotdan oldin



Izoh: NG-nazorat guruhi, TG-Tajriba guruhi.

1-rasm

### Yosh dzyudochilarning tezkor-kuch sifati samaradorligini aniqlash diagrammasi (Tadqiqotdan oldin)

**Muhokama.** Tezkor-kuch qobiliyatining rivojlanganlik darajalarini aniqlovchi keyingi nazorat mashqimiz Ko-uchi-gari deb nomlanib ushbu harakat orqali qayd etilgan natijalar quidagicha bo'ldi: tajriba guruhida 15,75, nazorat guruhida esa 15,63. Olingan ikkala natijalar orasidagi farq 0,12 ni tashkil qildi. Mazkur ko'rsatkichlar tadqiqotdan avval olingan nazorat sinovida kuzatildi. Nazorat va tajriba guruhlari yosh dzyudochi sinaluvchilarining jismoniy va texnik-taktik ko'rsatkichlarining pedagogik tajriba davomida o'zgarishlari va belgilangan erkinlik darajasi uchun nazariy hisoblangan Student kritik qiymatlari hamda ularni jadvaldagi mos qiymatlari bilan solishtirish natijalari keltirilgan. Ular asosida o'sishlarning statistik ishonchligi baholarida ham tajriba guruhi ko'rsatkichlari nazorat guruxidan ustunligi yaqqol kuzatildi.


Yosh dzyudochilarning tezkor-kuch samaradorligini oshirishda tayyorgarlik darajasini xarakterlaydigan: seoi-nage, tay-otoshi, ko-uchi-gari, de-ashi-baray, uchi-mata va koshi-guruma texnik usullarini sinaluvchilar tomonidan bajarilishini tadqiqot davomida sinovdan

o'tkazib va ular asosida sportchilarning tezkor-kuch sifati ko'rsatkichlari baholangan.

Tezkor-kuch sifat darajalari yosh dzyudochilarning tayyorgarlik davomida qay darajada samarali shakillanib kelayotganligini aniqlash uchun o'tkazilgan tadqiqot ishimiz muobaynida amalga oshirgan tadqiqot ishimizdan so'ng ham avvalgi tanlab olgan nazorat sinov vositalaridan foydalangan holda sinov jarayonini tashkillashtirdik. Olingan natijalarga ko'ra De-ashi-baray nazorat sinov mashqimizda nazorat guruhi sinaluvchilari qayd etilgan natijalar 14,57 ni tashkil etgan bo'lsa tajriba guruhi sinaluvchilari 13,65 lik ko'rsatkichlarni tashkil etishdi. O'rtadagi farq 0,92 ga teng bo'ldi (2-rasmga qarang).

Koshi-gruma nazorat sinov amaliyoti orqali aniqlangan natijalar ham bir biridan farq qilib nazorat guruhi sinaluvchilarida 13,77 ni, tajriba guruhi sinaluvchilarida esa 12,84 ni tashkil qildi. Natijalar orasidagi farq 0,93 ni qayd etib De-ashi-baray nazorat sinov mashqida ko'rsatilgan farq bilan deyarli bir hil ekanligi aniqlandi (2-rasmga qarang).

## Tadqiqotdan keyin



Izoh: NG-nazorat guruhi, TG-Tajriba guruhi.

2-rasm

### Yosh dzyudochilarning tezkor-kuch sifati samaradorligini aniqlash diagrammasi (Tadqiqotdan keyin)

Tajriba boshidagi natijalar o'rtacha arifmetik qiymati (X) ayirmasini tajriba boshidagi natijalar qiymatiga nisbatan (%) nisbiy o'zgarish dinamikasi keltirilgan. "Koshi-guruma" texnik usulini tajriba guruhida boshidagi ko'rsatkichga qaraganda 13,3% yaxshilangan, nazorat guruhi esa 6,2% ga yaxshilangan; "Uchi-mata" usuli tajriba guruhida 12,5% ga yaxshilangan, nazorat guruhida 6,1% ga o'zgargan; "De-ashi-baray" texnik usulida tajriba guruhida bo'lsa 12,8% ga, nazorat guruhida esa 6,1% ga o'zgargan; "Ko-uchi-gari" usulini bajarishda tajriba guruhi 12,6% ga o'sgan bo'lsa, nazorat guruhida esa 6,1% ga yaxshilangan; "Tay-otoshi" usulini bajarishda tajriba guruhi 13,8% ga o'sgan bo'lsa, nazorat guruhida esa 6,2% ga yaxshilangan; "Seoi-nagi" texnik usulini bajarishda tajriba guruhida 13,6% ga yaxshilangan bo'lsa, nazorat guruhida esa 6,3% ga yaxshilangan. Ko'rinib turibdiki tajriba guruhida o'sish dinamikasi o'rtacha 13,1% o'sganligini ko'rishimiz mumkin, nazorat guruhida esa bu ko'rsatkich 6,2% ni tashkil etdi [5,6].

Shunday qilib, ushbu tavsiyalarga amal qilib borish, tezkor-kuch tayyorgarligini mashqlantirish ta'sirining tizimli samarasi ta'minlanishi mumkin. Aynan shuning uchun pedagogik tajriba olib borish paytida tezkor-kuch xususiyatidagi aylanma mashg'ulotda yosh dzyudochilarning jismoniy tayyorgarlik darajasining yana yuqori o'sishini ta'minlovchi kuzatishlar taklif qilindi va amalga oshirildi. Ushbu kuzatishlar mohiyati shundan iborat bo'ldiki, 20 soniyali ish rejimiga o'tilganda (faqat so'nggi to'rtta mashg'ulotlarda) mushak qisqarishi tezligini ta'minlaydigan jismoniy sifatlar va funksiyalarni maqsadli rivojlantirish mumkin bo'lishi lozim.

O'tkazilgan tadqiqot jarayonimiz davomida aniqlanishicha har bir yosh dzyudochilarda funksional tayyorgarlik darajasi o'zining chegaralariga ega ekanligi va shularni hisobga olgan holda tayyorgarlikning ancha yuqori darajadan start olib, barcha tekshirilayotgan ko'rsatkichlar kompleks bo'yicha yuqori natijalarga

erishishlari mumkinligi qayd etildi. Texnik harakatlarni bajarishda tezkor-kuch qobiliyati samaradorligini oshirish uchun tavsiya etilgan metodika o'quv-mashg'ulot jarayonlarida va musobaqa sharoitida texnik usullardan foydalanish tezligini oshirishga imkon yaratadi.

**Xulosa.** Yosh dzyudochilarning tezkor-kuch qobiliyati samaradorligini aniqlash yuzasidan o'tkazilgan tadqiqot ishimiz yuzasidan qilingan adabiyotlar tahlili shularni ko'rsatdi: Soha mutaxassislarining fikrlariga ko'ra tezkor-kuch sifat ko'rsatkichlari barqaror rivojlantirish dinamik muvozanat hisoblanadi; yosh dzyudochilarning tezkor-kuch sifat ko'rsatkichlarini rivojlantirishni boshlang'ich tayyorlov bosqichidayoq boshlash kerak; tezkor-kuch qobiliyatini rivojlantiradigan an'anaviy vosita va usullarni tadbiiq etish; yosh dzyudochilarga boshlang'ich tayyorlov bosqichidayoq barcha jismoniy sifat darajalarini uyg'unligiga etibor berish lozim. Shuni ham takidlab o'tish lozimki yosh dzyudochilarning jismoniy holari sifat darajalarini yaxshilashga ham o'z tasirini ko'rsatadi. Tayyorgarlik davrida dzyudochilarning psixologik holatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tezkor-kuch qobiliyati darajalarining rivojlanganligi dzyudochilarning musobaqa faoliyati davrlarida juda muhim ahamiyat kasb etadi. Aniqlangan ma'lumotlarga ko'ra yosh dzyudochilarning tezkor-kuch ko'rsatkichlarini barqarorlashtirish yuzasidan kerakli tavsiya va ko'rsatmalar ishlab chiqildi va mashg'ulot jarayonlariga tadbiiq etildi. Tadqiqot natijalarini yakunlashda shuni ta'kidlash lozimki, yosh dzyudochilarning mashg'ulot yuklamalarini maqbullashtirish, tayyorgarlik davrlarida tezkor-kuch sifat ko'rsatkichlarini rivojlanish darajasini aks ettiruvchi vositalar o'sish sur'atlari ko'rsatkichlarda sezilarli darajada oshirish yosh dzyudochilarning texnik mahorat darajasini oshiradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning "Jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan" yig'ilishdagi nutqi; 2018 yil 21 sentabr, Xalq so'zi gazetasi.
2. Mirziyoev Sh.M. PQ-3031-son "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezident Qarori. 2017 yil 3 iyun. [http // Lex.uz](http://Lex.uz).
3. Mirziyoev Sh.M. PQ-2821-son "O'zbekiston Respublikasi sportchilarini 2020 yil Tokio shahrida (Yaponiya) bo'lib o'tadigan XXXII yozgi Olimpiya va XVI Paralimpiya o'yinlarida ishtirok etishga tayyorlash to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori. 2017 yil 9 mart. [http // Lex.uz](http://Lex.uz).
4. Abdullaev A., Xankeldiev Sh., Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati. - T.: O'zDJTI. 2005-232 s.
5. Абдиев А.Н. Научно-педагогические основы формирования профессиональных умений студентов, специализирующихся в видах спортивных единоборств: Автореф. дис. д-ра. пед. наук. - Т 2004. 51с.
6. Ахметов Р.В., Развитие силовых и скоростно-силовых качеств у борцов греко-римского стиля, Среднетерешанск, 2016, 43 с.
7. Бажаев А.З., Лукьяненко В.Л., Ханев В.В., Развитие силовых возможностей человека как базовая для реализации координационных способностей / Теория и практика ф.к.-2007-№ 6-С.52-54
8. Бакиев З.А., Тастанов Н.А. Индивидуализация технико-тактической подготовки борцов на основе автоматизированного анализа соревновательной деятельности// Педагогик таълим.-Тошкент, 2008. - №3. - С.125-130.
9. Безин Е.Е. Скоростные способности спортсменов и методика их развития/ Здоровье - сберегающ. технологии физическая реабилитация и рекреация в высших учебных заведениях. Междунар. научн. конф. — Белгород; Харьков. 2008.— С.11-13.
10. Каражанов Б.К., Сариев К.С., Шиян В.В., Влияние специальной выносливости дзюдоистов на проявление технико-тактического мастерства в условиях, моделирующих соревновательную деятельность // Теория и практика физической культуры.-Москва, 2001. №-8- 22-23. – С. 125-237.



## BO'LAJAK FIZIKA O'QITUVCHILARIDA MANTIQUIY KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Gulnoza Nafasova Baxtiyrovna,

Guliston Davlat Universiteti Ctajyor tadqiqodchisi, [gulnozanasova544@gmail.ru](mailto:gulnozanasova544@gmail.ru)

TDPU professori, ped.f.d Abdullayeva B.S taqrizi asosida

MAQOLA HAQIDA	АННОТАЦИЯ
<p><b>Qabul qilindi:</b> 24-dekabr 2022-yil <b>Tasdiqlandi:</b> 26-dekabr 2022-yil <b>Jurnal soni:</b> 5 <b>Maqola raqami:</b> 22 <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/ku.v5i5.227">https://doi.org/10.54613/ku.v5i5.227</a></p> <p><b>KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ Keywords</b> ta'lim-tarbiya jarayoni, kompetentlik, kompetensiya, kompetentli yondashuv.</p>	<p>Ushbu maqolada bo'lajak fizika o'qituvchilarining mantiqiy kompetentliligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari haqida so'z boradi. Maqolada turli ilmiy asoslardan mulohazalar keltirilgan o'tilgan.</p>

**Kirish.** Didaktikaning asosiy vazifalaridan biri, nimaning kimga va qay tarza o'qitish masalasiga yechim izlash, zamon talabiga mos ta'lim jarayonini tashkillashtirishdir. O'rgatilayotgan bilim va shakllantirilayotgan ko'nikmalar bu talabning ongu-shuurida mantiqiy tafakkurini rivojlantirish, fikrlash qobiliyatini oshirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni qaror toptirish, unda kelgusida vatan ravnaqi uchun kerakli kadr bo'lib yetishishiga zamin yaratishdir. Shu jumladan, ta'lim-tarbiya jarayonini nafaqat ta'lim oluvchilarga fanlar bo'yicha bilim berish, balki egallagan bilim va malakalarini amalga tatbiq etish, ulardan yangiliklar yaratish, jarayonlarni tahlil eta olishda foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirish ham asosiy vazifalardan biridir. Hozirgi zamonda ta'lim tizimi tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin etilayotgan kompetensiya tushunchasi va uning mazmuni, chegaralari, uning tarkibiy qismlarining tuzilishi kabi muammolarga duch kelib turibdi. Psixologik-pedagogik adabiyotlarda hamda respublikamiz va xorijlik ko'pgina pedagog olimlarning ilmiy ishlarida "kompetensiya" va "kompetentlik" degan tushunchalar keyingi vaqtlarda keng qo'llanilmoqda. Ta'lim tizimiga kompetentli yondashuv xorijiy adabiyotlarda o'tgan asrning 60-yillarida shakllana boshlanib, "Kompetensiya" masalasi ko'p yillardan buyon olimlar tomonidan o'rganilib kelinmoqda. Ular N.A. Muslimov, Sh.Sh.Sharipov, X.F.Rashidov, S.Yu.Maxmudov, B.S.Abdullayeva, O.A.Qo'ysinov, G'.A.Nafasov, M.X.Saidov, R.Uayt, Dj.Raven, N.V.Kuz'mina, A.K.Markova, V.I.Baydenko, A.V.Xutorskiy, S.I.Ojegov, E.F.Zeyer, I.A.Zimnyaya, V.I.Baydenko, A.A.Verbiskiy va boshqalar.

**Tadqiqot metodologiyasi.** «Kompetensiya» tushunchasi ilk bor XX asrning 50-60-yillarida ilmiy adabiyotlarda tilga olingan. Amerikalik olim Chomskiy «Sintaktik strukturalar», «Sintaksis nazariyasining aspektlari» nomli asarlarida kompetensiyani insonning biror faoliyatni amalga oshirish layoqati sifatida talqin etgan. Kompetentli yondashuv masalalarining tarixiy ildizlari Sharq mutafakkirlari Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Abdulla Avloniy asarlarida aks etgan. Tarixiy meroslarimizda kompetensiyaviy bilim olishga yo'naltirilganlik g'oyalarning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati va muhimligi masalalari haqida ko'plab fikr-mulohazalar bayon etilgan.

"Kompetensiya" va "kompetentlilik" tushuncha va atamalarini yaxshi idrok etish niyatida bir qator lug'atlarga e'tiborimizni qaratamiz: Kompetentlik tushunchasining lug'aviy ma'nosi turli tillarda quyidagicha izohlanadi: - Competent (fransuz tilida) – vakolatli; - Competent (lotin tilida) – qobiliyatli; - Competent (ingliz tilida) - qobiliyatli. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" da esa quyidagicha talqin etilgan: kompetensiya – u yoki bu sohada bilimlar, tajriba. S.I. Ojegov bu tushunchalarni rus tili izohli lug'atida quyidagicha izohlaydi. "Kompetensiya – 1. Biror kishi juda yaxshi bilgan yoki xabardor bo'lgan masalalar doirasi. 2. Biror

kishining vazifalari, huquqlari doirasi" "Kompetentlik - biror soha bo'yicha har tomonlama chuqur bilimga ega bo'lgan va shuning uchun ham fikri salmoqli, ishonchli hisoblangan kishining sifati". N.A.Muslimov kompetentlikni quyidagicha ta'riflagan: "kompetentlik bu- talabalarning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatining amalga oshirilishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo'llay olishi bilan ifodalanadi"<sup>1</sup>. A.X.Mahmudov esa, kompetentlikka quyidagicha ta'rif bergan: "kompetentlik bu doimo o'zgarib borayotgan sharoitlarda yoki mutaxassisning kasbiy faoliyatini samarali olib borishga imkon beruvchi shaxsga xos integrallashgan sifatlardir". "Oliy ta'lim" lug'at-ma'lumotnoma to'plamida – "Kompetentlik – tegishli, layoqatli, vakolatlilik. Muayyan ijtimoiy kasbiy mavqega ega shaxslarning ular bajarayotgan vazifa va hal etayotgan muammolari mavjud murakkablik darajasiga bilimlari, layoqatlari va tajribalari mos kelganlik darajasi. "Malaka" terminidan farqli o'laroq u malakani tavsiflovchi sof kasbiy bilim va layoqatni o'z ichiga olishdan tashqari, yana sifat, tashabbus, hamkorlik, guruhda ishlay bilish qobiliyati, kommunikativ o'quv, ta'lim olish, baholash o'quvi, mantiqiy fikrlash, axborotni tanlash va foydalanish layoqatlari kabi sifatlarni ham o'zida mujassamlashtiradi deb ifodalangan. Kompetentlik— tushunchasi shaxsning doimo o'sib boruvchi tasnifi bo'lib, real hayotiy vaziyatlarda yuzaga kelgan muammolarni yechish qobiliyati, o'z bilimi, o'quv va hayotiy tajribalari, qadriyatlari va qiziqishlarini unga safarbar etish imkoniyatlari hisoblanadi. Kompetentlik – bu bilimlarni tashkil etishning o'ziga xos tipi bo'lib, shaxsning umumiy intellektual rivojlanishida, kasbiy masalalarni maksimal darajada samarali hal qila bilish va tevarak atrofdagi borliq talablarini ob'yektiv ravishda baholay bilish imkonini beruvchi mavjud aqliy tajriba tarkibiy qismlarining, axborotni qayta ishlash mexanizmining, individual ravishda intellektual faoliyatni tanlay bilishning shakllanganligida o'z ifodasini topadi. Umuman, "kompetentlik" tushunchasini aniqlash borasida olib borilgan barcha ilmiy ishlar va tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kompetentlik - shaxsning o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni bajara olish qobiliyatidir. Uning aniq ishini bajarishi uchun olgan bilimlari yig'indisi, mahorati va ko'nikmalari asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, uning kognetiv va doimo o'sib boruvchi ko'nikmalari, maqsadlari, ruhiy kechinmalari va boshqa fazilatlar ham "kompetentlik" tushunchasi mohiyatiga kiradi. Shaxsning bir-biri bilan uzviy bog'langan barcha hislatlari kompetentlikni kompleks tushunish imkonini beradi. Bu insoniy sifatlarning ichki va tashqi sharoitlarda va talablar qo'yilganda yuzaga chiqadi. Kompetentlikni aniqlash bo'yicha barcha yondashuvlardagi umumiylik tomoni shundaki, kompetentlik amaliy faoliyat jarayonida shakllanadi va namoyon bo'ladi. Ta'lim jarayonini kompetentlik yondashuviga yo'naltirish ta'limda metodik shart-sharoitlar, yangi

<sup>1</sup> Muslimov N. va boshqalar. Bulaajak kasb ta'limi o'qituvchilarining metodik kompetentligini shakllantirish texnologiyalari: Metodik q'llanma. – T.: TDP, 2014. – 124 b.

pedagogik texnologiyalarning mazmuni va qo'llanishini qaytadan ko'rib chiqish va ishlab chiqishni talab etadi, chunki kompetentliklar hech bir fan bo'yicha na bilimlarga va na ko'nikmalarga taaluqli emas.

**Tadqiqot natijalari.** An'anaviy ta'limda asosiy e'tibor ta'lim oluvchining ma'lum bir bilim, ko'nikma va malakalar to'plamini egallashiga qaratilgan bo'lganligi sababli, bugungi kunda chuqur bilimlarga ega bo'la turib, ularni zarurat yoki imkoniyat paydo bo'lganda, kerakli vaqtda va kerakli joyida o'z o'rnida qo'llay olmaydigan odamlarni uchratish mumkin. Hozirgi kun o'qituvchisining o'quv fanlari bo'yicha faqatgina bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishning o'zi yetarli emasligi barchaga birdek ma'lum. Endi esa, biz ushbu uch omillarga alohida to'xtalib o'tamiz. Bilim – o'rganilgan ma'lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish; ko'nikma – o'rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo'llay olish; malaka – o'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish va yangi bilimlar hosil qilish; kompetensiya – mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati. Agar bo'lajak o'qituvchining bilim, ko'nikma va malakasi bilan birgalikda kompetensiyaviy yondashuvchanligi bo'lmasa: – ta'lim muassasasini muvaffaqiyatli bitirgan yosh mutahasis, hayotda ko'p muvaffaqiyatsizliklarga uchraydi; – oliy ta'lim muassasini bitirib yangi ishga borgan yosh mutaxassis universitet yoki institutda kasbiga oid bilim va ko'nikmalarni yetarli darajada olgan bo'lsada, ish joyiga ko'nikishi uzoq vaqt davom etadi; – noqulay vaziyatlarda ma'lum bo'ladiki, umumiy o'rta ta'lim va oliy ta'limda olingan bilim va ko'nikmalar tezda hal qilinishi kerak bo'lgan hayotiy vaziyatlarga to'g'ri kelmaydi yoki umuman hayotida kerak bo'lmaydi. Shunga ko'ra ta'lim jarayoniga talabalar egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini bevosita kundalik hayotida qo'llashga o'rgatadigan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan DTS larni yaratish va ta'lim jarayoniga qo'llash zaruriyati yuzaga keldi. I.A.Zimnyaya, tayanch kompetensiyalarni guruxlash asoslarini ajratish va nazariy jihatdan asoslab berishga, ularning asosiy, zarur atamaları majmuini aniqlashga va ularning har biriga kiritiladigan kompetensiyalar turlarini belgilashga harakat kildi. Tayanch kompetensiyalarning uch guruxini ajratib olish uchun nazariy asos sifatida psixologiyada shakllantirilgan qoidalar xizmat qiladi, bu qoidalarga inson muloqot, bilim olish va mehnat sub'yekti ekanligi; inson jamiyatga, boshqa odamlarga, o'ziga nisbatan munosabatlar tizimida namoyon bo'lishi; insonning kompetentligi akmeologik rivojlanish vektoriga ega ekanligi; kasbiy mahorat kompetentlikni o'z ichiga olishi kabilar kiradi. Tayanch kompetensiyalar – insonning jamiyatdagi hayotiy faoliyatidagi dolzarb va istiqbolli ahamiyatga ega bo'lgan turli sohalariga tegishli bo'lgan masalalar, bilimlar, amaliy ma'lumotlar va faoliyat usullaridan iborat jarayon bo'lib, ularni o'zlashtirish bir tomondan insonning shaxsiy va ijtimoiy jihatdan muvaffaqiyatli faoliyatini ta'minlash, boshqa tomondan, jamiyatning ma'lum bir sifatdagi inson resurslariga bo'lgan talablarini qondirishga xizmat qiladi. Kompetensiyalardan, ta'lim kompetensiyalarni farqlash lozim. Ta'lim kompetensiyasi bo'lajak o'qituvchini kelajakdagi to'laqonli hayotidagi faoliyatini modellashtiradi. Ma'lumki, ba'zi kompetensiyalar, boshqalariga nisbatan umumiy yoki ahamiyatliroq bo'ladi. Shunga ko'ra ularni uchta darajaga bo'lish mumkin: - tayanch kompetensiyalar – ta'lim mazmunining umumiy(metapredmet) qismiga tegishli; – umumpredmet (kasbiy) kompetensiyalari – ma'lum doiraga kiruvchi o'quv predmetlari va ta'lim sohalariga tegishli; – predmetga oid (maxsus) kompetensiyalar – oldingi ikkitaga nisbatan xususiy hisoblanib o'quv predmeti doirasida shakllantiriladi. Tayanch kompetensiyalarning dunyo bo'yicha yagona ro'yxati yo'q. Chunki har bir mamlakatning o'z an'analari, mentaliteti va o'ziga xos talablari bor. Kompetensiya – bu jamiyatning o'z fuqarolariga qo'yan ijtimoiy buyurtmasi bo'lib, ularning

ro'yxati ma'lum bir mamlakatdagi ijtimoiy muhit bilan belgilanadi va bu ro'yxat tadqiqotchi olimlarimiz tomonidan quydagicha ishlab chiqildi: Kommunikativ kompetensiya – ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi – mediamanbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta'minlashni, media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi – doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o'qib-o'rganish, kognitivlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o'z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko'nikmalarini egallashni nazarda tutadi. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi – jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Milliy va umummadaniy kompetensiya – vatanga sadoqatli, insonlarga mehroqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi – aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o'qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Yu.V.Frolov, bo'lajak fizika o'qituvchisi egallashi kerak bo'lgan uchta integratsiyalashgan kompetensiyalar guruhini tuzadi: – umumiy (tayanch) kompetensiyalar; – uslubiy (kasbiy pedagogik) kompetensiyalar; - mavzuga yo'naltirilgan (maxsus) kompetensiyalar kasbiy kompetensiyani umumiy, tayanch va maxsus kompetensiyalarning birikmasi sifatida tushunishga aniqlik kiritdilar. Mualliflarning fikriga ko'ra, umumiy kompetensiyalar har qanday kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lib, bugungi kunda ular alohida ahamiyatga ega. Ular, birinchi navbatda, axborot, muloqot hamda fuqarolik jamiyatida shaxs xatti-harakatlarining ijtimoiy va huquqiy asoslaridan foydalanish asosida kasbiy muammolarni hal qilish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

**Xulosa.** Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bo'lajak fizika o'qituvchilarida mantiqiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari juda ham kengdir. Tayanch kompetensiyalar ma'lum bir kasbiy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Tayanch kompetensiyalar kasbiy pedagogik faoliyat uchun jamiyat rivojlanishining muayyan bosqichida ta'lim tizimiga qo'yiladigan talablar kontekst (bog'lanish)da kasbiy faoliyatni shakllantirish uchun zarur hisoblanadi. Maxsus kompetensiyalar kasbiy faoliyatning ma'lum bir predmeti yoki sub'yektidan tashqari sohaning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Maxsus kompetensiyalarni o'quv predmeti, kasbiy faoliyatning ma'lum bir yo'nalishi bo'yicha umumiy va tayanch kompetensiyalarni amalga oshirish deb hisoblash mumkin. Albatta, kompetensiyalarning uch turi ham bir-biriga bog'langan va bir vaqtning o'zida rivojlanadi. Bu pedagogik faoliyatning individual uslubini shakllantiradi, mutaxassisning yaxlit qiyofasini yaratadi va pirovardida uning mantiqiy kompetentlikini shakllantirishni ta'minlaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Зеер Э.Ф., Заводчиков Д. Идентификация универсальных компетенций выпускников работодателем // Высшее образование в России / -2007. -№2
2. Зимняя И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования / И.А. Зимняя // Высшее образование сегодня. – 2003.
3. Митяева А.М. Компетентностная модель многоуровневого высшего образования (на материале формирования учебно-исследовательской компетентности бакалавров и магистров). Автореферат дисс. док. пед. наук. -Волго
4. Абдуллаева Б.С. Академик лицей талабаларининг математик тафаккурини ривожлантириш: Дис. ... пед. фан. ном. – Тошкент, 2002
5. Муслимов Н. ва бошқалар. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларининг методик компетентлигини шакллантириш технологиялари: Методик қўлланма. – Т.: ТДПУ, 2014. – 124
6. Ғ.А.Нафасов. Элементар математикани ўқитиш жараёнида олий таълим муассасалари талабаларини когнитив компетенциясини ривожлантириш. Т.2012.-20 б



## TRANSVERSAL IZOTROP JISM UCHUN IKKI O'LCHOVLI TERMOELASTIK BOG'LIQ MASALANI SONLI MODELASHTIRISH VA UNING DASTURIY TA'MINOTI

**Nafasov G'anisher Abdurashidovich,**

Guliston davlat universiteti "Matematika" kafedrasida dosenti,

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: gnafasov87@gmail.com

Tel: +998976348787

**Abduraimov Dostonbek Egamnazar o'g'li,**

Guliston davlat universiteti "Amaliy matematika va axborot, texnologiyalari" kafedraci katta o'qituvchisi

E-mail: abduraimov.dostonbek@mail.ru

Tel: +998946723690

Nizomiy nomidagi TDPU professori, p.f.d. B.S.Abdullaeva taqrizi asosida

MAQOLA HAQIDA	АННОТАЦИЯ
<p><b>Qabul qilindi:</b> 24-dekabr 2022-yil  <b>Tasdiqlandi:</b> 26-dekabr 2022-yil  <b>Jurnal soni:</b> 5  <b>Maqola raqami:</b> 23  <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/ku.v5i5.228">https://doi.org/10.54613/ku.v5i5.228</a></p>	<p>Ushbu maqolada transversal izotrop jism uchun ikki o'lchovli termoelastik bog'liq masalani sonli modelashtirish va uning dasturiy ta'minoti mazmuni bayon etilgan hamda tajribasinoz asosida olingan natijalarning samaradorlik darajasi anqlangan.</p>
<p><b>KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ Keywords</b></p> <p>Kompozision, konstruksiya, termoelastik, issiqlik o'tkazuvchanlik, deformatsiya, matematik model, dinamik, tenzor, kvadrat plastina.</p>	

**Kirish.** Ayni damda ko'pgina ishlab chiqarish sohasida kompozision materiallardan foydalanish zamon talabiga aylanib bormoqda. Konstruksiya va ular elementlarining termoelastik holatlarini matematik modelashtirish va sonli yechimlarini aniqlash dolzarb muammolaridandir. Kompozision materiallarni matematik modelashtirishda material bir jinsli va anizotrop material bilan almashtiriladi. Termoelastik masalalar qo'yilishiga qarab bog'liq va bog'liq bo'lmagan chegaraviy masalalarga ajraladi. Umumiy holda bog'liq masalada qattiq jismning harakat tenglamalari issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamalari bilan birgalikda qaraladi. Bog'liq

masalalarni matematik modellarini va ularni sonli yechish algoritmlarini o'rganish, olingan sonli natijalarga asosan yangidan-yangi kompozision materiallarni taklif etish samolyotsozlik, raketsozlik, mashinasozlik, avtomobilsozlik, qurilish, medisina va ishlab chiqarishning ko'plab boshqa sohasida katta foyda keltiradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Quyida transversal izotrop jismlar uchun termoelastik masalaning dinamik bog'liqligining matematik modeli va bu modelni sonli yechish qaraladi. Transversal izotrop jismlar uchun bog'liq dinamik masalaning ikki o'lchovli holda harakat tenglamalari quyidagicha:

$$C_{1111} \frac{\partial^2 u}{\partial x^2} + (C_{1122} + C_{1212}) \frac{\partial^2 v}{\partial x \partial y} + C_{1212} \frac{\partial^2 u}{\partial y^2} - \beta_{11} \frac{\partial T}{\partial x} + X_1 = \rho \frac{\partial^2 u}{\partial t^2} \quad (1)$$

$$C_{1212} \frac{\partial^2 v}{\partial x^2} + (C_{1212} + C_{2211}) \frac{\partial^2 u}{\partial x \partial y} + C_{2222} \frac{\partial^2 v}{\partial y^2} - \beta_{22} \frac{\partial T}{\partial y} + X_2 = \rho \frac{\partial^2 v}{\partial t^2} \quad (2)$$

Transversal izotrop jismlar uchun issiqlik tarqalishi tenglamasi:

$$\lambda_{11} \frac{\partial^2 T}{\partial x^2} + \lambda_{22} \frac{\partial^2 T}{\partial y^2} - c_e \frac{\partial T}{\partial t} - T \left( \beta_{11} \frac{\partial^2 u}{\partial x \partial t} + \beta_{22} \frac{\partial^2 v}{\partial y \partial t} \right) = 0 \quad (3)$$

(3) bu tenglama uchun boshlang'ich shartlar quyidagicha

$$u(x, y, t) \Big|_{t=0} = \varphi_1, \quad \frac{\partial u}{\partial t} \Big|_{t=0} = \psi_1, \quad v(x, y, t) \Big|_{t=0} = \varphi_2, \quad \frac{\partial v}{\partial t} \Big|_{t=0} = \psi_2, \quad T(x, y, t) \Big|_{t=0} = T_0 \quad (4)$$

va chegaraviy shartlar quyidagicha bo'ladi

$$u(x, y, t) \Big|_{x=0} = u_0; \quad u(x, y, t) \Big|_{x=\ell_1} = \bar{u}_0; \quad u(x, y, t) \Big|_{y=0} = u'_0; \quad u(x, y, t) \Big|_{y=\ell_2} = \bar{u}'_0$$



$$v(x, y, t)|_{x=0} = v_0; \quad v(x, y, t)|_{x=\ell_1} = \bar{v}_0; \quad v(x, y, t)|_{y=0} = v'_0; \quad v(x, y, t)|_{y=\ell_2} = \bar{v}'_0 \quad (5)$$

$$T(x, y, t)|_{x=0} = T_1(t); \quad T(x, y, t)|_{x=\ell_1} = T_2(t); \quad T(x, y, t)|_{y=0} = T'_1(t); \quad T(x, y, t)|_{y=\ell_2} = T'_2(t)$$

Bu yerda:  $\sigma_{ij}$  - kuchlar tenzori,  $X_i$  - xajmiy kuchlar,  $C_{ijkl}$  - jismni xarakterlovchi parametrlari,  $\varepsilon_{ij}$  - deformatsiya tenzori,  $\beta_{ij}$  - xajmiy issiqlik kengayishi koeffitsienti,  $\delta_{ij}$  - kroner simvoli, bunda;

$$\delta_{ij} = \begin{cases} 1, & i = j \\ 0, & i \neq j \end{cases} \quad C_\varepsilon - \text{doimiy temperaturada issiqlik sig'imi} \quad \beta_{ij} - \text{issiqlik kengayish tenzori,}$$

$\lambda_{ij}$  - issiqlik quyumi tenzori va Koshi munosabati,  $\dot{O}$  - temperatura,  $\rho$  - zichligi,  $t \geq 0, \quad 0 \leq x \leq l_1, \quad 0 \leq y \leq l_2$  da 3ta:  $x = ih_1, (i=0, k), y = jh_2 (j=0, k), t = n\tau \quad (n=0, 1, 2, \dots)$  prallel to'g'ri chiziqlar oilasini qurib (1)-(3) tenglamalarni turli munosabatlarda ularning xosilalariga almashtiramiz.

$$C_{1111} \frac{u_{i+1,j}^n - 2u_{i,j}^n + u_{i-1,j}^n}{h_1^2} + (C_{1122} + C_{1212}) \frac{v_{i+1,j+1}^n - v_{i-1,j+1}^n - v_{i+1,j-1}^n + v_{i-1,j-1}^n}{4h_1h_2} +$$

$$+ C_{1212} \frac{u_{i,j+1}^n - 2u_{i,j}^n + u_{i,j-1}^n}{h_2^2} - \beta_{11} \frac{T_{i+1,j}^n - T_{i-1,j}^n}{2h_1} = \rho \frac{u_{i,j}^{n+1} - 2u_{i,j}^n + u_{i,j}^{n-1}}{\tau^2} \quad (6)$$

$$C_{2222} \frac{v_{i,j+1}^n + 2v_{i,j}^n + v_{i,j-1}^n}{h_2^2} + (C_{1212} + C_{2211}) \frac{u_{i+1,j+1}^n - u_{i-1,j+1}^n - u_{i+1,j-1}^n + u_{i-1,j-1}^n}{4h_1h_2} +$$

$$+ C_{1212} \frac{v_{i+1,j}^n - 2v_{i,j}^n + v_{i-1,j}^n}{h_1^2} - \beta_{22} \frac{T_{i,j-1}^n - T_{i,j+1}^n}{2h_2} = \rho \frac{v_{i,j}^{n+1} - 2v_{i,j}^n + v_{i,j}^{n-1}}{\tau^2} \quad (7)$$

$$\lambda_{11} \frac{T_{i+1,j}^n - 2T_{i,j}^n + T_{i-1,j}^n}{h_1^2} + \lambda_{22} \frac{T_{i,j+1}^n - 2T_{i,j}^n + T_{i,j-1}^n}{h_2^2} - c_\varepsilon \frac{T_{i,j}^{n+1} - T_{i,j}^n}{\tau} -$$

$$- T_0 (\beta_{11} \frac{u_{i+1,j}^{n+1} - u_{i-1,j}^{n+1} - u_{i+1,j}^{n-1} + u_{i-1,j}^{n-1}}{4h_1\tau} + \beta_{22} \frac{v_{i,j+1}^{n+1} - v_{i,j-1}^{n+1} - v_{i,j+1}^{n-1} + v_{i,j-1}^{n-1}}{4h_2\tau}) = 0 \quad (8)$$

Yuqoridagi (6)-(7) va (8) - tenglamalardan  $u_{i,j}^{n+1}, v_{i,j}^{n+1}, T_{i,j}^{n+1}$  larni topamiz.

$$u_{i,j}^{n+1} = \frac{\tau^2}{\rho} (C_{1111} \frac{u_{i+1,j}^n - 2u_{i,j}^n + u_{i-1,j}^n}{h_1^2} + (C_{1122} + C_{1212}) \frac{v_{i+1,j+1}^n - v_{i-1,j+1}^n - v_{i+1,j-1}^n + v_{i-1,j-1}^n}{4h_1h_2} +$$

$$+ C_{1212} \frac{u_{i,j+1}^n - 2u_{i,j}^n + u_{i,j-1}^n}{h_2^2} - \beta_{11} \frac{T_{i+1,j}^n - T_{i-1,j}^n}{2h_1}) + 2u_{i,j}^n - u_{i,j}^{n-1} \quad (9)$$

$$v_{i,j}^{n+1} = \frac{\tau^2}{\rho} (C_{2222} \frac{v_{i,j+1}^n + 2v_{i,j}^n + v_{i,j-1}^n}{h_2^2} + (C_{1212} + C_{2211}) \frac{u_{i+1,j+1}^n - u_{i-1,j+1}^n - u_{i+1,j-1}^n + u_{i-1,j-1}^n}{4h_1h_2} +$$

$$+ C_{1212} \frac{v_{i+1,j}^n - 2v_{i,j}^n + v_{i-1,j}^n - \beta_{22} \frac{T_{i,j-1}^n - T_{i,j-1}^n}{2h_2}}{h_1^2}) + 2v_{i,j}^n - v_{i,j}^{n+1} \quad (10)$$

$$T_{i,j}^{n+1} = \frac{\tau}{c_\varepsilon} (\lambda_{11} \frac{T_{i+1,j}^n - 2T_{i,j}^n + T_{i-1,j}^n}{h_1^2} + \lambda_{22} \frac{T_{i,j+1}^n - 2T_{i,j}^n + T_{i,j-1}^n}{h_2^2} -$$

$$- T_0 (\beta_{11} \frac{u_{i+1,j}^{n+1} - u_{i-1,j}^{n+1} - u_{i+1,j}^{n-1} + u_{i-1,j}^{n-1}}{4h_1\tau} + \beta_{22} \frac{v_{i,j+1}^{n+1} - v_{i,j-1}^{n+1} - v_{i,j+1}^{n-1} + v_{i,j-1}^{n-1}}{4h_2\tau})) + T_{i,j}^n \quad (11)$$

(9)-(11) tenglamalar  $t^{n+1}$  qatlamda  $u(x,y,t)$ ,  $v(x,y,t)$ ,  $T(x,y,t)$  funksiyalarning qiymatlarini topishga imkon beradi, agar oldingi 2 ta qatlamning qiymati ma'lum bo'lsa, 2 ta boshlang'ich qatlamlardagi ( $n=0 \dots n=1$ ) boshlang'ich shartlardan  $u(x,y,t)$  va  $v(x,y,t)$  funksiyalarning qiymatini topamiz,  $T(x,y,t)$  funksiyaning qiymatini esa 1-qatlamda (11) munosabatdagi aralash xosilani boshqa munosabatga almashtirish orqali topamiz.

$$u_{i,j}^1 = \frac{\tau^2}{\rho} (C_{1111} \frac{u_{i+1,j}^0 - 2u_{i,j}^0 + u_{i-1,j}^0}{h_1^2} + (C_{1122} + C_{1212}) \frac{v_{i+1,j+1}^0 - v_{i-1,j+1}^0 - v_{i+1,j-1}^0 + v_{i-1,j-1}^0}{4h_1h_2} +$$

$$+ C_{1212} \frac{u_{i,j+1}^0 - 2u_{i,j}^0 + u_{i,j-1}^0 - \beta_{11} \frac{T_{i+1,j}^0 - T_{i-1,j}^0}{2h_1}}{h_2^2}) + 2u_{i,j}^0 - u_{i,j}^{-1} \quad (12)$$

$$v_{i,j}^1 = \frac{\tau^2}{\rho} (C_{2222} \frac{v_{i,j+1}^0 + 2v_{i,j}^0 + v_{i,j-1}^0}{h_2^2} + (C_{1212} + C_{2211}) \frac{u_{i+1,j+1}^0 - u_{i-1,j+1}^0 - u_{i+1,j-1}^0 + u_{i-1,j-1}^0}{4h_1h_2} +$$

$$+ C_{1212} \frac{v_{i+1,j}^0 - 2v_{i,j}^0 + v_{i-1,j}^0 - \beta_{22} \frac{T_{i,j-1}^0 - T_{i,j-1}^0}{2h_2}}{h_1^2}) + 2v_{i,j}^0 - v_{i,j}^{-1} \quad (13)$$

$$T_{i,j}^1 = \frac{\tau}{c_\varepsilon} (\lambda_{11} \frac{T_{i+1,j}^0 - 2T_{i,j}^0 + T_{i-1,j}^0}{h_1^2} + \lambda_{22} \frac{T_{i,j+1}^0 - 2T_{i,j}^0 + T_{i,j-1}^0}{h_2^2} -$$

$$- T_0 (\beta_{11} \frac{u_{i+1,j}^1 - u_{i-1,j}^1 - u_{i+1,j}^{-1} + u_{i-1,j}^{-1}}{4h_1\tau} + \beta_{22} \frac{v_{i,j+1}^1 - v_{i,j-1}^1 - v_{i,j+1}^{-1} + v_{i,j-1}^{-1}}{4h_2\tau})) + T_{i,j}^0 \quad (14)$$

(6) tenglamani quyidagi ko'rinishda yozish mumkin:

$$a_i u_{i+1,j}^{n+1} + b_i u_{i,j}^{n+1} + c_i u_{i-1,j}^{n+1} = f_i \quad (15)$$

$$a_i = \frac{C_{1111}}{h_1^2}, \quad b_i = -2(\frac{C_{1111}}{h_1^2} + \frac{\rho}{\tau^2}), \quad c_i = \frac{C_{1111}}{h_1^2}$$

бунда

$$f_i = \rho \frac{-2u_{i,j}^n + u_{i,j}^{n-1}}{\tau^2} - (C_{1122} + C_{1212}) \frac{v_{i+1,j+1}^n - v_{i-1,j+1}^n - v_{i+1,j-1}^n + v_{i-1,j-1}^n}{4h_1h_2} -$$

$$- C_{1212} \frac{u_{i,j+1}^n - 2u_{i,j}^n + u_{i,j-1}^n}{h_2^2} + \beta_{11} \frac{T_{i+1,j}^n - T_{i-1,j}^n}{2h_1}$$

(7)- tenglamani quyidagi ko'rinishda yozish mumkin:

$$a_i v_{i+1,j}^{n+1} + b_i v_{i,j}^{n+1} + c_i v_{i-1,j}^{n+1} = f_i \quad (16)$$

$$a_i = \frac{C_{1111}}{h_1^2}, \quad b_i = -2(\frac{C_{1111}}{h_1^2} + \frac{\rho}{\tau^2}), \quad c_i = \frac{C_{1111}}{h_1^2}$$

Bunda

ва

$$f_i = \rho \frac{2v_{i,j}^n + v_{i,j}^{n-1}}{\tau^2} - (C_{1122} + C_{1212}) \frac{u_{i+1,j+1}^n - u_{i-1,j+1}^n - u_{i+1,j-1}^n + u_{i-1,j-1}^n}{4h_1h_2} +$$

$$+ C_{1212} \frac{v_{i+1,j}^n - 2v_{i,j}^n + v_{i-1,j}^n}{h_2^2} + \beta_{22} \frac{T_{i,j-1}^n - T_{i,j-1}^n}{2h_1}$$

(8)- tenglamani esa quyidagi ko'rinishda yozish mumkin:

$$a_i T_{i+1,j}^{n+1} + b_i T_{i,j}^{n+1} + c_i T_{i-1,j}^{n+1} = f_i \quad (17)$$

Bunda  $a_i = \frac{\lambda_0}{h_1^2}$ ,  $b_i = -\frac{2\lambda_0}{h_1^2} - \frac{C_\varepsilon}{\tau}$ ,  $c_i = \frac{\lambda_0}{h_1^2}$  va

$$f_i = \lambda_{22} \frac{T_{i,j+1}^n - 2T_{i,j}^n + T_{i,j-1}^n}{h_2^2} - \lambda_{11} \frac{T_{i+1,j}^n - 2T_{i,j}^n + T_{i-1,j}^n}{h_1^2} - T_0 \left( \beta_{11} \frac{u_{i+1,j}^{n+1} - u_{i-1,j}^{n+1} - u_{i+1,j}^{n-1} + u_{i-1,j}^{n-1}}{4h_1\tau} + \right.$$

$$\left. + \beta_{22} \frac{v_{i,j+1}^{n+1} - v_{i,j-1}^{n+1} - v_{i,j+1}^{n-1} + v_{i,j-1}^{n-1}}{4h_2\tau} \right) - C_\varepsilon \frac{T_{i,j}^{n+1} - T_{i,j}^n}{\tau}$$

(15)-tenglamani  $u(x, y, t)|_{x=\ell_1} = u_0$ ,  $u(x, y, t)|_{x=\ell_1} = \bar{u}_0$ , chegaraviy shartlar bilan, (16)-tenglamani  $v(x, y, t)|_{x=0} = v_0$ ,  $v(x, y, t)|_{x=\ell_1} = \bar{v}_0$  chegaraviy shartlar bilan (17)-tenglamani  $T(x, y, t)|_{x=0} = T_1(t)$ ,  $T(x, y, t)|_{x=0} = T_2(t)$  chegaraviy shartlar bilan birga, to'rlar metodi bilan yechilgan.

Tahlil va natijalar. Transversal izotrop jism uchun ikki o'lchovli termoelastik bog'liq masalani sonli yechishning dasturiy ta'minotini yaratishda C++ Builder 6 dasturlash tilidan foydalanilgan.



1-rasm. Dasturning tuzilish strukturasi

Kiritiluvchi konstantalar: Lyambda11, Lyambda22 - Issiqlik quyumi tenzorlari; Betta11, Betta22 - Birinchi va ikkinchi harakat tenglamasidagi hajmiy issiqlik kengayishi koeffitsientlari; C1111, C1122, C1212, C2222 - jismni xarakterlovchi parametrlari; Ro - Jism zichligi; Ce - Doimiy temperaturadagi issiqlik sig'imi; T0 -Jismga qo'yiladigan temperaturasi; h1 - X o'qi bo'yicha tugun nuqtalar orasidagi balandlik.h2 - Y o'qi bo'yicha tugun nuqtalar orasidagi balandlik; tao - Qalamlarning vaqt oralig'i; n - Qadamlar soni.

Lyambda11 - 0.5, Lyambda22 - 0.3, Betta11 - 0.05, Betta22 - 0.09, C1111 - 0.75, C1122 - 0.91, C1212 - 0.9, C2222 - 0.89, Ro - 1.1, Ce - 3.4, T0 - 5, h1 - 0.1, h2 - 0.1, tao - 0.01, n - 10.

U, V, T larning ikki o'lchovli kvadrat plastinadagi o'zgarish xolatini quyidagicha ko'rishimiz mumkin. Bunda kiritilgan o'zgarishlar asosida quyidagi natijalarni olamiz:


ANIQ YECHIM										
0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
0	0,101126366	0,185684113	0,252046359	0,293794033	0,306812010	0,289827282	0,244466566	0,175102028	0,089235882	0
0	0,185716123	0,347549633	0,475361001	0,556720139	0,583638414	0,553483529	0,469170091	0,338856295	0,176014518	0
0	0,252108725	0,475393673	0,652158397	0,765182110	0,803379764	0,763016067	0,648003933	0,469500570	0,245683689	0
0	0,293854492	0,556752805	0,765182107	0,898817978	0,944559730	0,897934346	0,763467060	0,554216581	0,291357754	0
0	0,306870364	0,583671075	0,803379761	0,944559730	0,993372560	0,945044918	0,804268499	0,584719229	0,308571029	0
0	0,289883532	0,553516185	0,763016064	0,897934346	0,945044918	0,899740908	0,766418336	0,558025705	0,295640259	0
0	0,244554278	0,469236937	0,648038125	0,763501255	0,804302694	0,766452530	0,653617883	0,476747171	0,253830760	0
0	0,175317995	0,339074559	0,469689119	0,554406119	0,584908540	0,558213598	0,476897556	0,348830372	0,187227178	0
0	0,088738177	0,175702262	0,245366322	0,291036899	0,308247329	0,295314697	0,253503743	0,186880572	0,102176276	0
0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0

2-rasm. ANIQ YECHIM ning jadvaldagi ko'rinishi


TAQRIBIY YECHIM										
0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
0	0,105549970	0,188964923	0,253809616	0,293853265	0,305197493	0,286732940	0,240245674	0,170251471	0,083279559	0
0	0,188685799	0,349034689	0,475102889	0,554717880	0,580094652	0,548751650	0,463753731	0,333382823	0,170400800	0
0	0,253491026	0,475047234	0,650036831	0,761460485	0,798422663	0,757308887	0,642139591	0,464172251	0,240747894	0
0	0,293544309	0,554667643	0,761468760	0,893806578	0,938740337	0,891876030	0,757796443	0,549611962	0,287572033	0
0	0,304898947	0,580054542	0,798444389	0,938755246	0,987266580	0,939234536	0,799356105	0,581312559	0,306275057	0
0	0,286437936	0,548718727	0,757341270	0,891904370	0,939249425	0,894746628	0,762747868	0,556167422	0,295027770	0
0	0,239960051	0,463717276	0,642171625	0,757828238	0,799377211	0,762755530	0,651544417	0,476628994	0,254928568	0
0	0,169322758	0,332610087	0,463427334	0,548868133	0,580558519	0,555399514	0,475870870	0,349754743	0,189691914	0
0	0,084483256	0,171263843	0,241609536	0,288427854	0,307122398	0,295865076	0,255776242	0,190787565	0,106473675	0
0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0

3-rasm. TAQRIBIY YECHIM ning jadvaldagi ko'rinishi


2, 3-raslarda keltirilgan natijalar asosida quyidagi grafik ko'rinishdagi natijalarni olamiz.



4-rasm. Kvadrat plastinaning dastlabki holati.



5-rasm. Kvadrat plastinaning U,V bo'yicha siljish holati.



6-rasm. Kvadrat plastinani temperatura ta'sir qilgandagi holati bilan solishtirish.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, amaliyotda uchraydigan ko'plab masalalarni matematik modellari termoelastik yoki termoplastik bog'liq va bog'liq bo'lmagan masalalarni o'rganishga keltiriladi. Kelguci tadqiqot ishlarimiz va maqolalarimizda bog'liq masalalarga qo'shimcha

tashqi ta'sirlar orqali uning holatini o'zgarishini, ularni sonli yechish usullarini o'rganish va bu masalalarning dasturiy ta'minotini yaratish bilan davom ettiramiz.

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Наҳди П.М. Соотношение между напряжениями и деформациями в пластичности и термопластичности. Сб. пер. Механика, 1962.-С.87-133.
2. Победря Б.Е. Численные методы в теории упругости и пластичности.-М.: МГУ, 1996. – 343 с.
3. Халджигитов А.А., Каландаров А.А., Абдураимов Д.Э. Численное решение динамической краевой задачи теории упругости для ортотропных тел // Инновацион ва замонавий ахборот технологияларини таълим, фан ва бошқарув соҳаларида қўллаш истиқболлари халқаро конференцияси материаллари 2020 йил 14-15 май, 548-551 бетлар.
4. Abduraimov D. TRANSVERSAL ISOTROPIC BODY FOR TWO-DIMENSIONAL THERMOELASTICS RELATED TO THE EXAMPLE OF THE MATHEMATICAL MODEL AND ITS INSTRUCTIONS //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF EDUCATION AND COMPUTER SCIENCES (CAJECES). – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 6-11.
5. Абдураимов Д. Э. Ў., Адилов А. Н., Турдиев А. П. Ў. АНИЗОТРОП ВА ИЗОТРОП ЖИСМЛАР УЧУН ТЕРМОЭЛАСТИК БОҒЛИҚ МАСАЛАНИНГ ИККИ ЎЛЧОВЛИ ҲОЛАТДАГИ МАТЕМАТИК МОДЕЛИ //Scientific progress. – 2021. – Т. 1. – №. 5. – С. 449-453.
6. Архангельский А.Я. С++ Builder 6. Справочное пособие. Книга 1. Язык С++. –М.: Бином-Пресс, 2002 г.-544 с.
7. Культин Н.Б. С++Builder в задачах и примерах.-СПб.: БХВ-Петербург, 2005.-336 с.





## LINGVISTIKADA ORFOGRAFIK TAMOYILLAR VA TAHLILLAR

Xolova Muyassar Abdulhakimovna

Termiz davlat universiteti O'zbek tilshunosligi kafedrasida katta o'qituvchisi, f.f.f.d. (PhD),

[xolovam@tersu.uz](mailto:xolovam@tersu.uz)

Lolayeva Ozoda

Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs bakalavr,

[lolaevao@gmail.uz](mailto:lolaevao@gmail.uz)

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p><b>Qabul qilindi:</b> 24-dekabr 2022-yil <b>Tasdiqlandi:</b> 26-dekabr 2022-yil <b>Jurnal soni:</b> 5 <b>Maqola raqami:</b> 24 <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/ku.v5i5.229">https://doi.org/10.54613/ku.v5i5.229</a></p>	<p>Ushbu maqolada o'rta ta'lim maktablarida ona tili fani darslarida fanning o'qitilishiga doir qarashlar aks etgan, ya'ni fan doirasida o'quvchilarning imloviy savodxonligini oshirish uchun o'qituvchi oldiga qo'yiladigan talablar haqida fikr yuritilgan hamda ularning yechimlaridagi imloviy lug'atlarning tutgan o'rni haqida xulosalar kiril va lotin grafikasi doirasida ishlab chiqilgan imloviy qoidalar va 8-sinf ona tili darsligi misolida yoritilgan.</p>
<p><b>KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ Keywords</b></p>	
<p>ona tili fani, imloviy savodxonlik, imlo lug'ati, imlo qoidasi, varvarizm, vulgarizm, kanselyarizm, dialektizm, parazit leksemalar.</p>	

**Kirish.** Lingvistikada qo'llayotgan har bir leksema, leksemashakl va grammatik birliklar, ularning nutqimizdagi mavjud me'yoriy orfoepik birliklaridan farqli o'laroq orfoepik me'yorlarga bo'ysungan holda ishlatilishidan har bir shaxs, u oddiy o'rganuvchi yoki tilshunos olim bo'lsin bo'xabar bo'lishi lozim. Shu ma'noda o'zbek tilida mavjud 80 000 so'zlikka ega bo'lgan izohli lug'at tarkibidagi leksemalar va so'zlar doirasida 2011 yil, 2013 yilgi imlo qoidalarining ishlab chiqilishi, tilimiz sofligini ta'minlashda o'ziga xos bosqich vazifasini o'tagan. Shu bilan bir qatorda tilimizdagi mavjud til birliklarining o'rganilishi va o'rgatilishini osonlashtiruvchi til korpuslaridan: o'zbek tili korpusi, ta'limiy korpus, o'zbek milliy shevalar korpuslari va o'zbek tili morfologik analizatori ustida olib borilayotgan tadqiqotlar va tahlillar bu boradagi o'rni va ahamiyatga ega bo'lgan qadamlardan biridir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu sohaga doir tadqiqotlarni o'tkazishda "kuzatish", "hujjatlarini o'rganish va tahlil qilish", "qiyoslash", "elektron lug'atlar ustida tadqiq va tahlil" va "til korpusi statistik materiallaridan foydalanish" metodlaridan foydalangan holda amalga oshirildi.

**Adabiyotlar tahlili.** Lingvistikada orfoepik tamoyillar va tahlillarni ishlab chiqish doirasidagi tadqiqotlar B. Mengliyev, B. Umurqulov, H. Jamolxonov, Sh. Maxmaraimova, R.Sayfullayeva, A. Madvaliyev, A.Hojiyev, Sh.Rahmatullayev kabi olimlar tomonidan olib borilgan e'tirofqa sazovordir. Yozma savodxonlikka erishgan har bir individ quyidagi ko'nikma va malakalarga ega bo'lmog'i ma'lum bosqichlardan iborat va bu bosqichni birini to'la o'zlashtirmasdan ikkinchisiga o'tish shaxsning fan doirasidagi bo'shliqni paydo bo'lishiga olib keladi. Bular:

1) orfoepik savodxonlik. O'rganuvchi tilga doir oddiy elementar grafik belgilarni o'zlashtiradi va ularning qo'llanish chastotasiga doir ko'nikmalar hosil qiladi.

2) punktuansion savodxonlik. Bunda grafik belgilardan xabardor individ orfoepik me'yoriy signallarning punktuatsion simvolik belgilarining akslanishiga doir malakalarini oshiradi.

3) Matn savodxonligi. Yuqoridagi ikki darajani egallagan shaxs mustaqil ravishda matnni kompozitsion, mantiqiy, bo'g'lilikni buzmagani holda fikrlar ketma-ketligi uzilmagan, avvalo elementar, keyinchalik advanced (yuqori daraja, murakkab) (emotsional-ekspressiv bo'yoqlarga ega, ibora va frazeologizmlar, kirish va kiritmalar, ajratilgan bo'laklar, agar matn mazmuni talab etsa: vulgarizm, varvarizm, dialektizm, jargonlar va argolar) matnlar tuza olish ko'nikmasini rivojlantirish.

4) Kanselyar savodxonlik. Bunda shaxsning davlat hujjatlaridan xabardorlik darajasidagi savodxonligini oshirish uchun yuqori sinfdan (ariza, bayonoma, bildirgi, telegramma va hokazo qisman yondashilgan.

Adabiy til yozma shaklining me'yorlashuvi va takomilida, shuningdek, og'zaki hamda yozma nutq orasidagi bog'liqlik va yaqinlikni mustahkamlashda imlo lug'ati muhim rol o'ynaydi [5]. To'g'ri yozish qoidalari tilshunos olimlar guruhi tomonidan ishlab chiqiladi, jamoatchilik muhokamasiga havola etiladi va aprobatyadan o'tkaziladi. Ushbu jarayonlar o'tkazilagandan so'ng, imloviy qoidalar hukumatning ayni shu doiradagi mutasaddi tashkilotlari tomonidan tasdiqlanadi.

Kishilar o'zaro yozishmalarida, rasmiy ish yuritishda, ta'lim jarayonida, madaniy-ma'rifiy faoliyatda tilning imlo qoidalariga amal qilishga majburlar. Leksemalar, so'zlar va affiksning imlosida bir xillikning ta'minlanmasligi yozuvlar jarayonida har xillikni yuzaga keltiradi. Pirovardida til qatlamida bir-birini tushunish imkoniyati asta-sekin yo'qola boradi. Shundan kelib chiqib, 1995- yilning 24- avgustida tasdiqlangan "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" da lotin alifbosiga o'tish tufayli imlo qoidalaridagi tovush-harf munosabatiga bag'ishlangan qism qayta yozilib, kirill alifbosidagi ё, ю, я harflaridan ъ, ь belgilaridan voz kechildi. Shuningdek harflar imlosi, asos va qo'shimchalar imlosi, qo'shib, chiziqcha bilan, ajratib yozish, bosh harflar imlosi hamda ko'chirish qoidalari doir yo'l-yo'riqlar ko'rsatib o'tildi.

Umumiy planda ko'rib o'tadigan bo'lsak, kirill yozuviga asoslangan o'zbek yozuvi va lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosining qo'llanishiga doir farqli holatlar ko'zga tashlanadi. Masalan, fe'l so'z turkumining so'zlashuv uslubiga oid – yapti affiksi kel asosiga qo'shilganda келяпти shaklida yozish me'yoriy holat hisoblangan, lotin grafikasiga asoslangan imloviy qoidalarga asosan transliterativ kel(a)yapti eshitilsa-da, kelyapti shaklida yozilishi me'yoriy holat sifatida belgilangan. Ayni shu kabi orfoepik qoidalaridagi o'zgarishlarni -dan affiksi orqali hosil qilinadigan takroriy so'zlarning ni qo'llash bilan bog'liq holatda ham kuzatish mumkin.

Imlo lug'atlarining yillar oralig'ida chiqqan variantlarida ham turilikni kuzatish mumkin, masalan, prof. A.Hojiyev kirill alifbosidagi ё, ю, я harflaridan ъ, ь belgilaridan voz kechish kerakligini ta'kidlashda, prof. Madvaliyev 1956-yil 7-apreldagi qabul qilingan "O'zbek orfoepikasining asosiy qoidalari" rasman bekor qilinmaganligini va kirill yozuvida undan chetlashmasligini ta'kidlaydi.

Quyida biz olimlar A.Hojiyev va A.Madvaliyevlar tomonidan ishlab chiqilgan imlo lug'atlaridagi farqli leksemalarni ko'rib o'tamiz.

	Imlo lug'ati (A.Hokiyev) 2011	Imlo lug'ati A.Madvaliyev 2013
1.	bir zumda [50-bet]	Birzumda [79-bet]
2.	bir yo'la [50-bet]	Biryola [79-bet]
3.	budjet [53-bet]	Byudjet [93-bet]
4.	rejissor [163-bet]	rejissor (349-bet)
5.	akkumulator [32-bet]	akkumulator [29-bet]
6.	qavariq [151-bet]	qavariq va qabariq [321-bet]
7.	Bir yoqli [51-bet]	Bir yoqli [79-bet]
8.	Bir yoqlama [51-bet]	Biryoqlama [79-bet]
9.	Bir talay [51-bet]	Birtalay [79-bet]

#### Yuqoridagi misollarga qarab ikki xil xulosaga kelish mumkin:

ba'zi leksemalarning yozilishiga doir hali bir qarorga kelingani yo'q, bu imloviy luga'tlarning aniq bir tasdiqlangan variantlaridan foydalanish kerakligi haqida ko'rsatmalarga ehtiyoj bor;

Boshqa tillardan kirib kelgan so'zlarning yozilishiga doir bir to'xtamga kelinishi kerak.

O'zga tillardan kirib kelgan o'zlashmalarga keladigan bo'lsak, prof. Borovkov [2] ning fikriga ko'ra boshqa tillar so'zlarning qabul qilinishiga doir Batuning "Chig'atoy gurungi" tarafdorlarining so'z qabul qilinishi "temir qonun" uniyatga bo'ysunmas ekan, u so'zlarni umuman tilga olib kirmaslik kerakligi haqida fikrlarini keltiradi. Bundan kelib chiqadiki, tilimizda o'zimizning so'zlarimiz darajasida singishgan o'zlashmalar so'zlarning genetik kelib chiqishiga e'tibor beradigan bo'lsak, ularning boshqa tillardan fonetik tabiatga bo'ysundirilgan holda kirib kelganini ko'rib o'tish mumkin, masalan: l:tijāt~ehtiyot [Saqlanish, ehtiyotkorlik, zaxira], esir~yesir [tul, beva ayol], etim~yetim [ota-onasiz yoki biridan ajralgan], Zəipə~zaifa [ayolga nisbat], zəril~zarur [kerak, lozim, shart], āvhāl~ahvol [holat, belgi], Nisf/nifs –[Yarim-hisob so'z]: Agar bersam munga gavhar taxtimni, Oqqiz, bo'lmas, bilgin, nisfi bahosi. (Ravshan), Niš~nish [o'tkir narsaning uchi; nayza]: Ko'k strelkalarining shaharga, tepaliklar va katta yo'llarga qaratilgan nuzalari... xanjar nishiday armiya mudofaasiga sanchilib turardi (I. Rahim, Chin muhabbat). Āšiq~oshiq [birovga muhabbat qo'rgan kishi; xushtor]: Muhabbat dardiga muhtalo oshiq, senga havas bilan boqurman chindan (A. Oripov. Yillar armoni).

Ammo bu leksemalarning imlosiga doir fikrimiz, o'zlashmalarning rus tili orqali boshqa tillardan kirib kelgan birliklardagi o'zgarishlarning qoldirilishi, ularning aynan boshqa tiladan kirib kelganligiga urg'u beradi va alohidalikni saqlab qoladi. Shu bilan birga bu jarayonning amaldagi holati yillar oralig'ida turkiy tillar doirasida tilimizdagi ba'zi bir elementlarning o'zgarishiga doir ta'siri bo'lganligini ham inkor etmaslik kerak.

**Tadqiqot natijalari.** O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganligiga 30 yil to'lgan bo'lsa-da, keksa avlod tilida rus tili va u orqali boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar saqlanib qolib texnika taraqqiyoti orqali yosh avlod tilida ham boshqa tillardan so'zlar o'zlashib mahalliy tilga moslashib bormoqda. Prof. Shoabdurahmonov Sh. va Reshetov V.lar rus tilini 1930-90 yillar oralig'ida o'zbek tili tarkibiga singib ketishini O'rta Osiyoning Rossiyaga ixtiyoriy qo'shilishi bilan bog'lab izohlaydi, S.Rahimov esa rus tiliga oid birliklarning tilmiz va hatto sheva tarkibida qo'llanayotganligini oktabr to'ntarilishidan so'ng davr talabi bilan rus bo'lmagan millatlarning ikkinchi tiliga aylantirilganligi zarurati yuzasidan deb ko'rsatadi. Agar bu tildan o'zlashgan qatlarga e'tibor beradigan bo'lsak, 1960-1990 yillar oralig'ida mahalliy xalqning hayotiga oid bo'lgan siyosiy shevalarning birinchi planga chiqarilganligining guvohi bo'lishimiz mumkin: 1.Ijtimoiy-siyosiy so'zlar. 2. Madaniy oqartuv va maktab, sog'liqni saqlashga oid so'zlar. 3.Sanoat, transport bilan bog'liq so'zlar. 4.Qishloq xo'jaligiga doir so'zlar. 5. Fan va texnikaga oid so'zlar. 6. Savdo va moliya ishlariga oid so'z va terminlar. 7. Harbiy ish va fizkultura, sportga oid so'zlar. 8. Kalendar, vaqt va boshqa o'lchovlar bilan bog'liq so'zlar. 9. Uy-ro'zgor, o'ziq-ovqat, kiyim-kechakka doir so'zlar. Foizlar hisobida rus tiliga oid so'zlarning ko'proq keksa avlod tilida saqlanganligi hamda bu til elementlarini kundalik hayotga doir so'zlar tarkibida kengroq ishlatilishini kuzatish mumkin: Zərköp (BSh)~jarko'p (go'sht, kartoshka, pomidor, non va boshqa mahsulotlar

bilan tayyorlangan qovurdoq), zəətčik (BSh) - zaryadchik (adt.) - telefonni quvvatlantiruvchi moslama [rus. to'ldirmoq] kabilar.

Og'zaki matn bilan yozma matnning orasida juda katta farq mavjud, so'zlashuv uslubi nisbatan qaysidir ma'noda oson va qulay hisoblanib, ma'lum muddat oralig'ida inson miyasida yaxshi shakllanib ulgurmagani usuz-yuluq fikrlar avtomatik tarzda tilga ko'chadi, (native) til vakili uchun gapni gapga ulash uqadar ham qiyin kechmaydi. Yozma nutq esa fikrlarning ketma-ketligini talab qiladi va nutqiy matn yaratish jarayonida tavnologiyaga yo'l qo'ymasligi uchun qisman mahorat talab qilinadi. Bu haqda ona tili fanidan davlat ta'lim standartida o'quvchidan matn yaratish jarayonida o'zbek adabiy tili grammatikasining me'yor va imkoniyatlariga rioya qilish, so'zlashuv nutqi bilan kitobiy nutq me'yorlariga amal qilish, gapda so'zlarni to'g'ri joylashtira olish, o'zgarigan tartib va inversiyalardan to'g'ri foydalana bilish kabi qobiliyatlarni egallash talab qilinadi.

Avvalo, har bir til o'rganuvchi yoki til vakili uchun og'zaki va yozma nutqning ikkisi ham birdek zarur va o'quvchilarning ba'zilarida yozma, ba'zilarida og'zaki nutq ustunlik qiladi. Bu — tabiiy. Shuningdek til vakili ko'pincha biror mavzuni muhokama qilish jarayonida uni yozishdan ko'ra gapirishni afzal ko'rishadi, buning asosiy sababi og'zaki nutq tarkibida ta'sirli jumalarga nisbatan oddiy detallarda aks etgan voqeylikni bayon etish mumkindir. Shu bois, asosan til o'rgatuvchi yoki o'qituvchi biror she'riy, nasriy, aralash (she'riy nasriy) asarning matni, tarkibidagi janri va mavzusiga doir o'quvchiga yozma vazifa berishi orqali o'quvchining matnda o'z dunyoqarashi bayonida so'zlarni tanlab-saralab, semantikasi va grammatikasi tushungan holda qo'llashiga erishadi. O'quvchida og'zaki nutq madaniyatini shakllantirish jarayoni matnni dastavval yozdirish, undan so'ng unga hikoya ayni shu matnni og'zaki bayon qildirish vositasida o'quvchining ham yozma, ham og'zaki til bazasini kengaytirishga imkoni mavjud bo'ladi. O'quvchilarning og'zaki va yozma savodxonligini uyg'un ravishda oshirish maqsadida qiziqarli o'quv materiallari, didaktik o'yinlar, muammoli vaziyat va bahs-munozaralar bilan birga, to'g'ri yozishga o'rgatuvchi turli xil qiziqarli mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiq va shu ma'noda, ta'lim sohasi o'qituvchidan doimiy izlanishni, ijodkorlikni talab etadi. O'quvchi kichik hajmli matnlarni yaxshi o'zlashtirib olishi uchun, unda matnni yaxshilab o'qish, mazmunida nimaga ishora qilinayotganini tushunish ko'nikmasini shakllantirish lozim. O'qituvchi o'quvchi tomonidan tuzilgan matndagi (bu matn hatto badiiylardan yiroq bo'lishi ham mumkin) yozma nutq soffligini buzuvchi vositalar: vulgarizm, varvarizm, kanselyarizm, dialektizm va parazit so'zlarning ishlatilish doirasini yuqorida keltirilgan misollar orqali kamaytirishga va yo'qotishga erishadi. Masalan, 8-sinf o'quvchilari ishlab chiqilgan ona tili darsligida 25-26 darslarida A.Navoiyning "Lison ut-tayr" asarida keltirilgan "Talab vodiysi" mavzusiga doir she'riy natn berilgan va o'quvchiga uning mag'zini chaqish, ya'ni nasriy bayoni berish topshirilgan. O'qituvchi tomonidan o'quvchiga eski o'zbek adabiy tili davriga oid bo'lgan bilim, ko'nikama va malaka to'g'ri berilmas ekan, ushbu mavzu doirasida to'laqonli tasavvurga ega bo'lmagan o'quvchining ayni mavzularning uzviy davomi bo'lgan keyingi mavzularga tushunmasligi kuzatiladi:

*Har nekim g'ayri talabdur tashlamoq,  
O'zni maqsad manziliga boshlamoq.  
Qolmasa olam mato'adin jihat,  
O'zga nav' o'lg'ay sanga ul dam sifat.  
Ganj (davlat, boylik)din yetkay asar vayroninga,  
Zoti nuridin yorug'lug' joninga.  
Ul yorug'lug' shavq o'tin tez aylagay,  
Kim talab raxsh (ot, ulov)in sabukhez (yengil, chaqqon) aylagay.  
Joning'a yetkay talabning rohati,  
Qolmagay ranj-u tab (mashaqqat, mushkullik) ning shiddati.  
Durg'a topqon soyi (sari, sayin) ko'nglung xosliq,  
Bo'lg'oy osonroq sanga g'avvosliq. (Alisher Navoiy, «Lison ut-tayr»)*

Asar ikkiliklari dunyoviy nafsni so'ndirish va ruhiy poklanish nuqtayi nazaridan tahlil qilinmogi dardkor: Inson ruhiy poklikni maqsad qilar ekan, g'ayri (boshqa) talablar, ya'ni bu dunyoga bo'lgan qiziqishlarini so'ndirishi va ruhiy ozodalik sari o'zini boshlashi kerak. Ko'nglingda bu dunyo olam matolaridan iborat borliq qolmas ekan, ul damda bu vodi (ko'ngil xotirjamligi) sening ko'zingga o'zgacha namoyon bo'la boshlaydi. O'z ganjinasi (boyligi) bilan qop-qorong'i bo'lgan ko'ngil vodiyingni yoritadi. Bu yorug'lik ishqingni ko'paytiradi va poklik vodiysida sening otingni tez yeldiradi. Bul ruhiy ozodalikdan qiyinchilik va azoblar barham topadi, joning esa rohatda bo'ladi. Poklik daryosidan

dur topganing sayin, ko'ngil xotirjamligi bu daryoda senga g'avvoslikni oson qiladi.

**Xulosa.** Yuqoridagi fikrlarning xulosasi o'laroq shuni aytish joizki:

- imlo lug'atlarni kuzatish imlo lug'ati doirasida yagona xulosalangan lugatga ehtiyoj borligini ko'rsatmoqda;
- matnlar o'quvchilarning yozma nutq faoliyatini rivojlantirish, tushuncha va tasavvurlarini boyitishga xizmat qiladigan mazmun kasb etmog'i darkor;

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. T.:2016. 27-b.
2. А. К. БОРОВКОВ О некоторых очередных вопросах орфографии узбекского литературного языка ЗАПИСКИ ИНСТИТУТА ВОСТОКОВЕДЕНИЯ АКАДЕМИИ НАУК СССР VII Издательство Академии Наук СССР. Москва: 1937 7-стр.
3. Abdurasulov Y. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. – T.:2009. 17-b
4. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili //Toshkent-2007. – 2005.
5. Madvaliyev A. O'zbek tilining imlo lug'ati. T.; Akademiya. 2013. – B. 526.
6. Makhmaraimova S. T. Uzbek political and social, public discourse metaphoric models //Thematics Journal of Education. – 2021. – T. 6. – №. November.
7. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili //Toshkent: Tafakkur bo'stoni. – 2018.
8. N. Mahmudov, A. Rafiyev, I. Yo'ldoshev. Davlat tilida ish yuritish. –T. Cho'lpon. 2007. www.ziyouz.com kutubxonasi. – B. 128.
9. Kholova M. Pech genres of texts and passport mete-metrics in the dialect corpus (Baysun district on the example of the sound "j" dialects) //Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems. – 2020. – T. 12. – №. 6. – C. 1103-1107.
10. Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. O'zbek dialektologiyasi. – T.:1978. 169-b.
11. S.Rahimov. O'zbek tili Surxondariyo shevalari. T.:1985. 94-bet.
12. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o'zbek adabiy tili //Toshkent: O'qituvchi. – 2003. – T. 220.
13. Umurqulov B. An essential feature of artistik discourse //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – T. 1. – №. 10. – C. 242-246.
14. Sayfullayeva R. R., Khalmuamedova U. R., Botirova A. E. Language picture of the world and functional specialization of words //Journal of Critical Reviews. – 2020. – T. 7. – №. 7. – C. 943-947.
15. Xolmanova Z. O'zbek tili imlo qoidalarini takomillashtirish davr talabi. O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. 2017. – B. 30-33
16. Холова М. А. Шевалар корпусининг жанрий теллашнинг лингвистик асослари // Международный журнал искусство слова. – 2021. – Т. 4. – №. 4.
17. Холова М. А. O'zbek shevalarining standart tilga munosabati va til tizimidagi o'rni (Boysun tumani "j" lovchi shevalar misolida) // Международный журнал искусство слова. – 2020. – Т. 3. – №. 5.
18. Холова М. А. Boysun shevasi onlayn ma'lumotlar bazasi (qidirish va saralash imkoniyatlari asosida) // Международный журнал искусство слова. – 2021. – Т. 4. – №. 1-1.
19. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustdagi "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida" 339-son qarori. <https://lex.uz/docs/-1625271>
20. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori: Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida /01.09.2020/ <https://lex.uz/acts/-316337>
21. O'zbek tilining izohli lug'ati II tom, 2020, 139-b.
22. Rahmatullayev Sh., Hojiyev A. O'zbek tilining imlo lug'ati. T.; O'qituvchi. 2011. – B. 240.
23. <https://uzbekcorpus.uz/>
24. <http://uzschoolcorpara.uz/>
25. <https://dialect.uz/>
26. <http://uznatcorpara.uz/uz/POSTagger>

**QO'QON UNIVERSITETI  
XABARNOMASI**

**KOKAND UNIVERSITY  
HERALD**

**ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО  
УНИВЕРСИТЕТА**

**5 / 2022**

**ISBN: 2181-1695**

Bosishga ruxsat etildi 2022-yil 28-dekabr.  
Qog'oz bichimi 60x84 1/8 «Libre Franklin, Montserrat»  
garniturasida. Shartli bosma tabog'i 8. Adadi 20 nusxa.  
Buyurtma rakami № . Baxosi shartnoma asosida.  
"Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi"

bosmaxonasida  
chop etildi.



